


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIMNING
DAVLAT TA‘LIM STANDARTI VA O‘QUV DASTURI**

**BOSHLANGICH TA‘LIM
ONA TILI
O‘QISH
MATEMATIKA
TABIIYOT
(1-4-SINF)**



Toshkent-2017

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI
UMUMIY O‘RTA VA O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR
TA‘LIMINING DAVLAT TA‘LIM STANDARTLARINI TASDIQLASH
TO‘G‘RISIDA**

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, umumta‘lim fanlarini o‘qitishning uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi davlat ta‘lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti 1-ilovaga muvofiq;

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standarti 2-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining umumta‘lim fanlari bo‘yicha malaka talablari 3-ilovaga muvofiq;

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji diplomlarining davlat namunalari 4-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun umumta‘lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan umumiy talablar 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki:

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlari 2017-2018 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etiladi;

umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflari uchun filologiya fanlari va aniq fanlar bo‘yicha mashq daftarlarini nashr etish hamda yetkazib berish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006-yil 1-iyundagi PQ-363-son qarorida belgilangan darsliklarni nashr etish hamda yetkazib berishni moliyalashtirish tartibiga asosan, multimediali disk ilovasi bilan ta‘minlash esa — o‘qituvchilarni o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta‘minlash tartibi asosida amalga oshiriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi:

ikki oy muddatda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlari talablari asosida o‘quv dasturlarini yangidan ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlasalar hamda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalariga yetkazsinlar;

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi bilan birgalikda uch oy muddatda yaratilayotgan o‘quv-metodik majmualarning o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga

undaydigan, rasmlarga boy, zamonaviy matbaa talablariga javob beradigan shakllarda chop etilishini ta'minlasinlar;

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini amaliyotga samarali joriy etish yuzasidan tegishli mutaxassislar uchun 2017-2018 o'quv yilidan boshlab maqsadli o'quvlar tashkil etsinlar hamda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari dasturlari va o'quv modullarining qayta ko'rib chiqilishini ta'minlasinlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi hamda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda 2017-2018 o'quv yiliga qadar akademik litseylarning ta'lim yo'nalishlari va kasb-hunar kollejlarning tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi taqdim etgan xarajatlar smetalari asosida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari, akademik litseylarning ta'lim yo'nalishlari va kasb-hunar kollejlarning tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha malaka talablarini, o'quv rejalari va dasturlarini, akademik litsey va kasb-hunar kolleji diplomlari blankalarini chop etish uchun sarflanadigan mablag'larni belgilangan tartibda ajratsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 6-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 7-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari 2020-yil 1-sentabrdan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Vazirliklar va idoralar o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va ilm-fan masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2017 yil 6 aprel,
187-son

**Umumiy o'rta ta'limning
DAVLAT TA'LIM STANDARTI**

1-bob. Asosiy qoidalar

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti (keyingi o'rinlarda davlat ta'lim standarti deb ataladi) davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalarini, asosiy prinsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat ta'lim standartlarini joriy etish hamda davlat ta'lim standartlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Davlat ta'lim standartini ishlab chiqish quyidagi hujjatlarga asoslanadi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni;

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to'g'risida» 1998-yil 5-yanvardagi 5-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida» 2013-yil 8-maydagi 124-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori;

O'zDSt 1.0-98. «O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar»;

O'zDSt 1.1-92. «O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. O'zbekiston Respublikasi standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartiblari»;

O'z DSt 1.5-93. «Standartlashtirishga doir normativ hujjatlarni ko'rib chiqish, tekshirish, o'zgartirish kiritish va bekor qilish tartibi»;

O'z DSt 1157:2008. Hujjatlarni unifikatsiyalashtirish tizimi. Tashkiliy-farmoyish hujjatlar tizimi. Hujjatlarni rasmiylashtirishga bo'lgan talablar.

O'z DSt 1.8:2009. Asosiy qoidalar. Tavsiyalar.

3. Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

2-bob. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalari

4. Davlat ta'lim standartining maqsadi — umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

5. Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

3-bob. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining asosiy prinsiplari

6. Davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

4-bob. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining tarkibiy qismlari

7. Davlat ta'lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi;

umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi;

umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;

baholash tizimi.

8. Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi (keyingi o'rinlarda — tayanch o'quv reja deb ataladi) umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

9. Tayanch o'quv reja umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

10. Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv

REJASI

T/r	O'quv fanlari	Sinflar									Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	
	Davlat ixtiyoridagi soatlar	22	24	26	26	30,5	32,5	33,5	34	36	264,5
1.	Ona tili va adabiyot	8	8	10	10	9	7	5	5	5	67
2.	O'zbek tili/rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	16
3.	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	23
4.	Tarix					2	2	3	3	4	14
5.	Davlat va huquq asoslari								1	1	2
6.	Iqtisodiy bilim asoslari								1	1	2
7.	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	45
8.	Informatika va axborot texnologiyalari					0,5	0,5	0,5	1	2	4,5
9.	Fizika						2	2	2	2	8
10.	Kimyo							2	2	2	6
11.	Biologiya					1	2	2	2	2	9
12.	Tabiiyot va geografiya	1	1	1	1	1	2	2	2	2	13
13.	Odobnoma	1	1	1	1						4
	Vatan tuyg'usi					1	1				2
	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari							1	1	1	3
14.	Musiqi madaniyati	1	1	1	1	1	1	1			7
15.	Tasviriy san'at	1	1	1	1	1	1	1			7
16.	Chizmachilik								1	1	2
17.	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1	12
18.	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2	2	2	2	2	2	18
	Maktab ixtiyoridagi soatlar	0,5						0,5	0,5	1	2,5
	Umumiy soatlar	22,5	24	26	26	30,5	32,5	34	34,5	37	267
	Amaliy mehnat mashg'uloti (kun hisobida)					6	6	10	16		

11. Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15 %gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

12. Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi (keyingi o'rinlarda — o'quv dasturi deb ataladi) tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

13. Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko'nikma — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

malaka — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

14. Baholash tizimi — davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

5-bob. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini joriy etish tartibi

15. O'zbekiston Respublikasida davlat ta'lim standartini joriy etish, muvofiqlashtirish, unga metodik rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

16. Davlat ta'lim standartini joriy etish, shu jumladan, umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan minimal talablarni, umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini tasdiqlash pedagogik tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli yakunlanib, ularga ekspert baho berilgach amalga oshiriladi.

17. Davlat ta'lim standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

6-bob. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti talablariga rioya etilishini nazorat qilish

18. Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi — davlat ta'lim standarti talablarini bajarish darajasini

aniqlash, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta'lim sifatini ta'minlashdan iborat.

19. Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilish ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

davlat ta'lim standarti talablari asosida barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan malaka talablariga baho berish;

tayanch o'quv reja va o'quv dasturlarining bajarilishini tahlil qilish;

umumiy o'rta ta'lim muassasasida davlat ta'lim standartlari talablari bajarilishi va ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni, foydalanilgan pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining natijaviyligini tahlil qilish.

20. Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat:

ichki nazorat — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o'rta ta'lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi;

tashqi nazorat — ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi;

davlat-jamoatchilik nazorati — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi;

milliy va xalqaro darajada baholash — Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta'limi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

21. Umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarining bilimi sifatini nazorat qilishning reyting tizimi tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tasdiqlanadi.

22. Davlat ta'lim standarti talablarining bajarilmaganligi uchun javobgarlik qonun hujjatlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbariyatiga yuklanadi.

**Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim
fanlari boʻyicha
MALAKA TALABLARI
I-bob. Umumiy qoidalar
1-§. Qoʻllanish sohasi**

1. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha malaka talablari (keyingi oʻrinlarda — Malaka talablari deb ataladi) umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi davlat taʼlim standartlarining negizi hisoblanadi va standartlashtirishning umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning bosqichlarini, oʻquv fanlari boʻyicha taʼlim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilaydi.

2. Malaka talablari taʼlimni boshqarish boʻyicha vakolatli davlat organlari hamda umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim faoliyati bilan shugʻullanuvchi yuridik shaxslar tomonidan qoʻllanilishi majburiydir.

3. Malaka talablari asosida taʼlim muassasasining turi va xususiyatlarini inobatga olgan holda oʻquv dasturlari, davlat attestatsiyasi uchun umumtaʼlim fanlari boʻyicha nazorat-baholash koʻrsatkichlari ishlab chiqiladi va vakolatli vazirliklar, idoralar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

**2-§. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimida
umumtaʼlim fanlarini oʻrganish bosqichlari**

4. Oʻzbekiston Respublikasi umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimida davlat taʼlim standartlariga asoslangan holda umumtaʼlim fanlarini oʻrganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Standart darajalari	Darajalarning nomlanishi
A1	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning boshlangʻich darajasi
A1+	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning kuchaytirilgan boshlangʻich darajasi
A2	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning tayanch darajasi
A2+	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
B1	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning umumiy darajasi
B1+	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

**3-§. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim
fanlari boʻyicha malaka talablarining tuzilishi**

5. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha malaka talablari:

oʻquv fanini oʻrganishning bosqichlarini;

tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarni;
o'quv fanining maqsad va vazifalarini;
umumta'lim fanlarini o'rganishning mazmunini;
umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha majburiy tayyorgarlik darajalarini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

4-§. Tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalar

6. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

**Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun
umumta'lim fanlaridan o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab
chiqishga qo'yiladigan**

UMUMIY TALABLAR

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Umumiy talablar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Umumta'lim maktablari o'quvchilarini darsliklar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2006-yil 31-maydagi 362-son, Vazirlar Mahkamasining «2005-2009 yillarda umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etish dasturi to'g'risida» 2004-yil 22-noyabrdagi 548-son hamda «2009-2013 yillarda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv qo'llanmalarini nashr etish dasturi to'g'risida» 2009-yil 20-martdagi 80-son qarorlariga muvofiq, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Umumiy talablarda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

O'quv-metodik majmua — darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

Darslik — davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

3. O'quv-metodik majmualar davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlariga muvofiq, didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablar asosida ishlab chiqilgan darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va darslikning multimediali ilovalarini o'z ichiga oladi.

4. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qonun hujjatlari hamda ushbu Umumiy talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning maqsad va vazifalari

5. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning maqsadi umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun zamonaviy fan va texnika rivojini hisobga olgan holda kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida o'quv materiallari mazmuni va sifatini takomillashtirish hamda ushbu sohadagi ilg'or xorijiy tajribani samarali tatbiq etishdan iborat.

6. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish prinsiplari hamda ularning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

- o'quvchilarda milliy g'urur va iftixor, moddiy va ma'naviy merosga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish;

- davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish;

- o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- yangi avlod o'quv-metodik majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish;

- o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

- umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish.

3-bob. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish prinsiplari

7. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

- o'quv-metodik majmualar ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining zarur hajmi berilganligi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

4-bob. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar

8. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo'yiladi:

Didaktik talablar:

o'quvchi tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash; matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

qiziqarli, lo'nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo'lishi;

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

rasmlar ko'rinishidagi illustrasiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi;

yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta'riflar va shu kabilar lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

Ilmiy-metodik talablar:

fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;

o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illustrasiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi;

o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda mavhumlikka yo'l qo'yilmasligi;

kasb-hunarga yo'naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug'at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo'lishi lozim.

Pedagogik-psixologik talablar:

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim.

Estetik talablar:

imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi;

matnlar o'quvchiga ma'lum ijobiy hissiy ta'sirlarni o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi ta'minlanishi;

rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

Gigiyenik talablar:

matn va ilustrasiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo'lishi;

harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) Vazirlar Mahkamasining «Ta'lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash to'g'risida» 2015-yil 3-iyundagi 146-son [qarori](#) talablariga mos bo'lishi lozim.

1-§. Ona tili fani

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida (barcha taʼlim olish tillari boʻyicha) ona tili fanini oʻqitish bosqichlari

Taʼlim bosqichi	Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumiy oʻrta taʼlim	Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich 4-sinf bitiruvchilari	A1	Ona tili fanini oʻrganishning boshlangʻich darajasi
	Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining ona tili fani chuqur oʻrganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinf bitiruvchilari	A1+	Ona tili fanini oʻrganishning kuchaytirilgan boshlangʻich darajasi

Ona tili fanini oʻqitishning maqsad va vazifalari

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida Ona tili fanini oʻqitishning asosiy maqsadi — oʻz fikrini ogʻzaki va yozma tarzda toʻgʻri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, oʻzgalar fikrini anglaydigan — muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida Ona tili fanini oʻqitishning asosiy vazifasi:

oʻquvchi shaxsini fikrlashga, oʻzgalar fikrini anglashga, oʻz fikrini ogʻzaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

oʻquvchilarda grammatikaga oid oʻzlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, soʻzning tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda toʻgʻri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Ona tili fani boʻyicha umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari (barcha taʼlim olish tillari boʻyicha) bitiruvchilariga qoʻyilgan malaka talablari

1. Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish*):

A1

Berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi;

matnni tushunib oʻqiy oladi;

ogʻzaki nutqda soʻz va gaplar talaffuziga rioya qila oladi;

65 — 70 soʻzdan iborat diktantni yoza oladi;

xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yarata oladi, xatboshi va husnixatga amal qiladi; imlo va tinish belgilarini ishlatish qoidalariga amal qila oladi;

do'sti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma yoki xat yoza oladi.

A1+

sodda matnning asosiy mazmunini tushunadi va tushuntira oladi;

matn mazmunini tushunib ifodali o'qiy oladi;

70 — 75 so'zdan iborat diktantni yoza oladi;

7-8 gapdan iborat xabar yoki rasm asosida matn tuza oladi.

1. **Lingvistik kompetensiya** (*fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid*):

A1

ona tilidagi nutq tovushlarini farqlay oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga amal qila oladi;

mavzuga oid yangi so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi;

yoza nutqda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

A1+

so'zlarning tovush tarkibini orfoepik jihatdan to'g'ri shakllantira oladi;

gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlay oladi va yozma nutqda o'rinli qo'llay oladi.

ONA TILI FANIDAN O'QUV
DASTURI
(1-4-SINF)
UQTIRISH XATI

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida (1-9-sinf) ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi – o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi: o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich ta'limning ona tili fani o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi. Ushbu o'quv dasturida 1-4-sinf o'quvchilarida tayanch hamda fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Boshlang'ich ta'limda – o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, ularni og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishga o'rgatishdan iborat. Mazkur ona tili o'quv dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Savod o'rgatish va nutq o'stirish.

2. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.

Savodga o'rgatish davri 2-sentabrdan to dekabr oyining oxirigacha bo'lgan muddatni, ya'ni ikki o'quv choragini qamrab oladi. Savodga o'rgatish jarayoni tayyorgarlik va alifbe davridan tashkil topadi. Tayyorgarlik va alifbe davrida ta'lim savodga o'rgatishning tahlil-tarkib (analitik-sintetik) tovush usulida amalga oshiriladi. Savodga o'rgatishning tahlil-tarkib usuliga ko'ra matndan gap, gapdan so'z, so'zdan bo'g'in va tovush, yoki aksincha, tovush > bo'g'in > so'z > gap > matn uzviy aloqada butundan bo'lakka, bo'lakdan butunga qarab tahlil-tarkib qilinadi. Bu esa o'quvchilar tafakkur faoliyatini onglilik, tushunarlik, mantiqiylik, didaktik mezonlar asosida rivojlantirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Boshlang'ich ta'limning ilk savodga o'rgatish davridanoq, o'quvchilar nutqini yangi so'zlar hisobiga boyitishga alohida e'tibor qaratiladi.

"Alifbe" darsligida berilgan: yangi so'zlar, matn, kichik hikoya va she'rlardan foydalanib, o'quvchilarni so'z ma'nosi bilan atroflicha tanishtirishda, she'riy va nasriy matnlarni yodlatish, qayta hikoyalashga e'tibor beriladi. Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarni bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirib

borishga, ularni mustaqil o'qishga, o'qituvchi va ota-onalar yordamida badiiy o'qishga qiziqtirish, nutqini boyitish va rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang'ich ta'limning ilk savodga o'rgatish davridanoq, o'quvchilar nutqini yangi so'zlar hisobiga boyitishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ona tili erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olish, kishilar bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili (1-4-sinf) mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Nutq va gap.

Ona tilining fonetik tizimi:

nutq tovushlari va harflar, unli tovushlar va harflar, undosh tovushlar va harflar, jarangli va jarangsiz undoshlar, alifbo, bosh va kichik harflar, tutuq belgisi (fonetik tahlil);

bo'g'in va bo'g'in tuzilishi, so'zlarni bo'g'inlab ko'chirish. So'z va so'z ma'nolari (lug'aviy tahlil: bir ma'noli so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar);

So'z tarkibi: asos va qo'shimcha (turlovchi, tuslovchi va yasovchi), asoslarda tovush o'zgarishi, asos va qo'shimchalar imlosi;

So'z ma'nosi: so'zlarning ma'nosiga ko'ra guruhlash: shaxs-narsalar nomini bildiruvchi so'zlar, shaxs-narsalarning harakatini, belgisini, sanog'ini va tartibini bildiruvchi so'zlar, shaxs-narsaga ishorani ifodalovchi so'zlar (shaxsga nisbatan kishilik olmoshi).

Gap, gapning fikr bildirishi, gapning maqsadga ko'ra turlari (darak, so'roq, buyruq va his-hayajonni bildiruvchi gaplar), gapda tinish belgilarining ishlatilishi (nuqta, so'roq, undov va h.k.), yozma nutqda ishlatiladigan muhim (ayrim) belgilar: vergul, qavs, ikki nuqta, ko'p nuqta;

gapning gap bo'laklariga ko'ra tuzilishi: gapning asosiy mazmunini bildiruvchi bo'laklar (ega va kesim), gapning asosiy mazmunini to'ldiruvchi bo'laklar (ikkinchi darajali bo'laklar – ularning turi va nomlaridan mustasno);

gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi, so'z birikmasi, gapning uyushiq bo'laklari, ularning o'zaro bog'lanishi (ohang, bog'lovchi so'zlar yordamida);

Undalma uning shaxsga qarab bilishi, undalmali gaplarda tinish belgisining ifodalanishi. Gap va matn, matnning tuzilishi: mavzu, voqea tafsiloti, asosiy fikr bayoni, xulosa chiqarish, reja tuzish, sarlavha, xat boshi, dialog, monolog nutq, bayon, kichik hikoya;

Husnixatga o'rgatish. Husnixatga o'rgatishning vazifasi harf, so'z, gap va matnni to'g'ri va chiroyli yozishni takomillashtirishdir. Yozuvni o'rganish jarayonida o'quvchi tovushning shakli bo'lgan harfni, so'z va gapni kitobdan va doskadan to'g'ri, husnixat qoidalariga rioya qilib ko'chirib yozish, yozganlarini tekshira olish va yo'l qo'ygan grafik kamchilik hamda xatolarini o'qituvchi rahbarligida o'zi tuzata olishi kerak. Bu davrda eshitib yozish ko'nikmalari ham rivojlantirib boriladi. 1-sinfda o'quv yilining 2-yarmidan boshlab husnixat malakalari takomillashtirib boriladi. Shuningdek, 2-4-sinflarda esa har bir ona tili darsining 5-8 daqiqasi "Husnixat daqiqasi"ga ajratiladi.

1-4-sinflarda “Iqtisod va soliq alifbosi” fanining sodda elementlari ona tili fani mazmuniga, ya’ni mavzular kesimida ham singdirib o’qitilishi ko’zda tutilgan.

Shuningdek, 1-4-sinflarda ona tili fani chuqur o’rganiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini takomillashtirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, o’quvchilardagi qobiliyat va iste’dodni yanada kamol toptirish uchun ixtisoslikka yo’naltirilgan o’quv dasturi kompetensiyalarni shakllantirishga yo’naltirilgan o’quv dasturiga moslashtirildi. Bunda yillik o’quv soatlari A1 bosqichda 608 soat bo’lsa, A1+ bosqichida esa 680 soatni tashkil etadi. Jumladan, nutq o’stirish va husnixat darslari uchun har bir sinflar kesimida 68 soatdan ajratilgan.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tayanch va fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning shakllantirilishi belgilab berilgan. Bunga ko’ra, Ona tili fanini o’qitish jarayonida boshlang’ich sinf o’quvchilarida quyidagi tayanch kompetensiya elementlari shakllantirilib boriladi.

O’quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

radiodan eshitgan, televizordan ko’rgan lavhalarni tushunish va turli manbalardan kerakli ma’lumotlarni izlab topish hamda undan foydalana olish;
televizor, radio, telefon orqali berilgan xabarlarni gapirib bera olish;

darsda kitob bilan ishlay olish, o’rganilayotgan mavzuni, kerakli qoidani, mashqni topish, mashq topshiriqlarini tartibi bilan bajarish.

A1+

media vositalaridan, didaktik materiallaridan foydalanib, topshiriqlarni bajarish.

O’zini o’zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

o’quv fanlarini o’rganish va bir-biridan farqlash;
mustaqil ma’noga ega bo’lgan bir necha so’zdan tuzilgan so’zni topish va namuna asosida so’zlar tuzish;

rasmi kitoblar, jurnal va gazetalarni mustaqil o’qib-o’rganish orqali bilimini muntazam oshirib borish;

kun tartibiga rioya qilish, uni to’g’ri tashkil etish va badantarbiya bilan shug’ullanish;

kattalarni hurmat qilish, ularning nasihatiga amal qilish, jamoat joylarida o’zini tuta bilish.

A1+

og’zaki va yozma matnlar mazmuniga to’g’ri baho berish;
o’zining xato va kamchiliklarini to’g’ri tushunib, o’zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o’rtoqlariga yordam berish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

maktabda, oilada va turar joylarida bo'layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar va h. k.) ishtirok etish;

o'zining o'quvchilik burch va huquqlarini, vazifalarini bilish va ularga rioya qilish;

davlat ramzlarini bilish, davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko'rsata olish;

maktabda va maktabdan tashqari tadbirlarda (ko'rik-tanlovlar va h. k.) ishtirok etish hamda muomala madaniyatiga amal qilish;

sinfda va oilada o'z o'rnini bilish, o'ziga yuklatilgan vazifalarni anglay olish;

o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish;

sinfdagi jihozlar va o'quv qurollarini asrab-avaylash.

A1+

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga munosabat bildirish

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

orasta kiyinish va gigienik talablarga amal qilish;

maktabning ichki qoidalariga va odob-axloq qoidalariga rioya qilish;

yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish;

milliy bayramlarni, milliy qadriyatlarni, o'zi yashab turgan tarixiy obidalarni bilish va ularni bir-biridan farqlash.

A1+

Vatanimizda mustaqillik yillarida bunyod etilgan inshootlarni hamda tarixiy obidalarni bilish va ularni bir-biridan farqlash.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

sinfida va oilada necha nafar kishi borligini, sinf xonasi jihozlari va o'quv qurollari sonini bilish;

Mamlakatimizda nishonlanadigan bayram kunlari sanalarini aniq aytish;

kundalik faoliyatida turli jadvallardan foydalanish;

ehtiyoji uchun kerak bo'lgan narsalardan (o'quv qurollari, kiyim-kechagi va h. k.) tejab foydalana olish;

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuzish, kundalik faoliyatda mavzuga oid jadvallarni o'qish.

A1+

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda mavzuga oid jadvallarni o'qiy olish.

Shuningdek, me'yoriy hujjatlarni yuritishda tayanch va fanga oid kompetensiyalar quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

TK - tayanch kompetensiyalar

1. TK1 - kommunikativ kompetensiya

2. TK2 - axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi

3. TK3 – o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi

4. TK4 - ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5 - milliy va umummadaniy kompetensiya
6. TK6 - matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

FK - fanga oid kompetensiyalar

1. FK1 - nutqiy kompetensiya
2. FK2 - lingvistik kompetensiya

1- SINF **SAVODGA O'RGATISH VA NUTQ O'STIRISH** **(128 soat)**

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari: **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

Televizordan ko'rgan, radiodan eshitgan lavhalaridan ma'lumotlar tushunib aytib bera olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

o'quv fanlarini o'rganish;
kun tartibiga rioya qilish;
kattalarni hurmat qilish;
jamoat joylariga tozalikka rioya qilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

maktabda, oilada bo'layotgan jarayonlarda ishtirok etish;
o'zining o'quvchilik burchi va huquqlarini bilish, unga rioya qilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

orasta kiyinish, maktab ichki tartib qoidalariga va gigiyena talablariga doimo rioya qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

kun tartibiga rioya qilish;
o'quv qurollarini saranjom saqlash;
oilada nechta odam borligini, kim katta-yu, kim kichikligini bilish.

I bo'lim. TAYYORGARLIK DAVRI **(8 soat)**

1. Tayyorgarlik davrida o'qish darslari - 4 soat.

1-2-mavzular. Darslik bilan tanishtirish. Og'zaki va yozma nutq. Gap. So'z va bo'g'in haqida amaliy tushunchalar (2 soat).

Mustaqillik va tinchlik bir-biriga bog'liq ekanligi bilan tanishtirish.
"Bilimlar kuni" haqida suhbat.

3-4-mavzular. So‘z va bo‘g‘in. Bo‘g‘in va tovush haqida tushuncha. Gap, so‘z, bo‘g‘in va tovush uzviyligi (2 soat).

O‘quvchilarni kesma harf va bo‘g‘inlar asosida so‘z hosil qilishga o‘rgatish. Gap, so‘z, bo‘g‘in va tovush uzviyligi haqida tushuncha berish. Rasmlar asosida suhbat o‘tkazish. Sinfdan tashqari o‘qish -15 daq.

2. Tayyorgarlik davrida yozuv darslari - 4 soat.

1-2-mavzular. “Yozuv daftari” bilan tanishtirish. Bir xil masofada nuqtalar qo‘yish, chamalash qobiliyatini oshirish mashqlari (2 soat).

Osti ilmoqli kichik va katta tayoqchalar hamda quyoshchalar chizish. Harf qismlarini yozish, qo‘l mashqi, doirachalar chizish, har bir shaklni to‘g‘ri va aniq chizish.

3-4-mavzular. Usti ilmoqli kichik va uzun tayoqchalar hamda bayroqchalar chizish (2 soat).

Kichik va yarim harf qismlarini yozish, qo‘l mashqlari va paxta rasmini chizish.

II bo‘lim. ALIFBE DAVRI (120 soat)

1. O‘qishga o‘rgatish - 60 soat

5-6-7-mavzular. O tovush va Oo harfi. N tovushi va Nn harfi. A tovushi va Aa harfi (3 soat).

Oo, Nn, Aa harflari bilan tanishtirish. Harf va tovushga ilova qilib berilgan so‘z andozalari asosida o‘tilgan harf-tovushning so‘zdagi o‘rni haqida tushuncha berish. Kesma harflar yordamida so‘zlar tuzish va ularni o‘qitish. Sinfdan tashqari o‘qish -15 daq.

8-9-mavzular. I tovushi va Ii harfi. I tovushi va Ii harfini mustahkamlash (2 soat).

Ii harfi va tovushining aytilishi, so‘zlardagi o‘rni bilan tanishtirish. So‘z andozalaridan Ii tovush-harfining o‘rnini topish. Kesma harflar yordamida so‘zlar tuzish va ularni o‘qitish.

10-11-mavzular. M tovushi va Mm harfi. M tovushi va Mm harfini mustahkamlash (2 soat).

Mm harf-tovushi artikulyatsiyasi haqida tushuncha berish. Harf-tovushlarga ilova qilib berilgan so‘zlarning ma’nolari haqida suhbatlashish va o‘qitish. So‘z andozalaridan Mm tovush-harfining o‘rnini toptirish. Kesma harflar yordamida so‘zlar tuzdirish va ularni o‘qitish. Sinfdan tashqari o‘qish -15 daq.

12-13-mavzular. T tovushi Tt harfi. T tovushi va Tt harfini mustahkamlash (2 soat).

Tt harf-tovushi artikulyatsiyasi haqida tushuncha berish. So‘z andozalaridan Tt tovush-harfining o‘rnini toptirish. Harf-tovushga ilova qilib berilgan so‘zlarning ma’nolari haqida suhbatlashish. Sinfdan tashqari o‘qish -15 daq.

14-15-mavzular. L tovushi va Ll harfi. L tovushi va Ll harfini mustahkamlash (2 soat).

Ll harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Ll harfi va tovushlari qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish.

16-17-mavzular. B tovushi va Bb harfi. B tovushi va Bb harfini mustahkamlash (2 soat).

Bb harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Bb harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish. Sinfdan tashqari oʻqish - 15 daq.

18-19-mavzular. K tovushi va Kk harfi. K tovushi va Kk harfini mustahkamlash (2 soat).

Kk harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Kk harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish.

20-21-mavzular. R tovushi va Rr harfi. R tovushi va Rr harfini mustahkamlash (2 soat).

Rr harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Rr harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish. Sinfdan tashqari oʻqish – 15 daq.

22-23-mavzular. Oʻ tovushi va Oʻoʻ harfi. Oʻ tovushi va Oʻoʻ harfini mustahkamlash (2 soat).

Oʻoʻ harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Oʻoʻ harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish.

24-25-mavzular. D tovushi va Dd harfi. D tovushi va Dd harfini mustahkamlash (2 soat).

Dd harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Dd harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish. Sinfdan tashqari oʻqish – 15 daq.

26-27-mavzular. U tovushi va Uu harfi. U tovushi va Uu harfini mustahkamlash (2 soat).

Uu harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Uu harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish.

28-29-mavzular. Y tovushi va Yy harfi. Y tovushi va Yy harfini mustahkamlash (2 soat).

Yy harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Yy harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish. Sinfdan tashqari oʻqish – 15 daq.

30-31-mavzular. E tovushi va Ee harfi. E tovushi va Ee harfini mustahkamlash (2 soat).

Ee harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Ee harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish.

32-33-mavzular. G tovushi va Gg harfi; Gg tovushi va Gg harfini mustahkamlash (2 soat).

Gullarni parvarishlash: Gg harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Gg harfi va tovushlari qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish. Sinfdan tashqari oʻqish - 15 daq.

34-35-mavzular. Ng tovushi va ng harfi. Ng tovushi va ng harfini mustahkamlash (2 soat).

Ng harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish, ng harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish.

36-37-mavzular. S tovushi va Ss harfi. S tovushi va Ss harfini mustahkamlash (2 soat).

Sirkda: Ss harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. ng harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish. Sinfdan tashqari oʻqish – 20 daq.

38-39-mavzular. H tovushi va Hh harfi. H tovushi va Hh harfini mustahkamlash (2 soat).

Hh harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Hh harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish.

40-41-mavzular. Sh tovushi va Sh sh harfi. Sh tovushi va Sh sh harfini mustahkamlash (2 soat).

Sh sh harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Sh sh harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish. Sinfdan tashqari oʻqish - 20 daq.

42-43-mavzular. P tovushi va Pp harfi. P tovushi va Pp harfini mustahkamlash (2 soat).

Pp harfi hamda tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Pp harfi va tovushlari qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish.

44-45-mavzular. Q tovushi va Qq harfi. Q tovushi va Qq harfini mustahkamlash (2 soat).

Qq harfi hamda tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Qq harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish. Sinfdan tashqari oʻqish – 20 daq.

46-47-mavzular. Ch tovushi va Ch ch harfi. Ch tovushi va Ch ch harfini mustahkamlash (2 soat).

Ch ch harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Ch ch harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish.

48-49-mavzular. J tovushi va Jj harfi. J tovushi va Jj harfini mustahkamlash (2 soat).

Jj harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Jj harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish. Sinfdan tashqari oʻqish - 20 daq.

50-51-mavzular. Gʻ tovushi va Gʻgʻ harfi. Gʻ tovushi va Gʻgʻ harfini mustahkamlash (2 soat).

Gʻgʻ harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Gʻgʻ harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish.

52-53-mavzular. Z tovushi va Zz harfi. Z tovushi va Zz harfini mustahkamlash (2 soat).

Zz harfi va tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Zz harfi va tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish. Sinfdan tashqari oʻqish – 20 daq.

54-55-mavzular. V tovushi va Vv harfi. V tovushi va Vv harfini mustahkamlash (2 soat).

Vv harfi hamda tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Vv harfi hamda tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish.

56-57-mavzular. X tovushi va Xx harfi. X tovushi va Xx harfini mustahkamlash (2 soat).

Xx harfi hamda tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Xx harfi hamda tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish. Sinfdan tashqari oʻqish – 20 daq.

58-59-mavzular. F tovushi va Ff harfi. F tovushi va Ff harfini mustahkamlash (2 soat).

Ff harfi hamda tovushining aytilishi, soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Ff harfi hamda tovushi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish.

60-61-mavzular. Tutuq belgisi ('). Sinfdoshlar matni (2 soat). Tutuq belgisi va ularning soʻzlardagi oʻrni bilan tanishtirish. Tutuq belgisi qatnashgan soʻz va matnlarni ravon oʻqishga oʻrgatish. Sinfdan tashqari oʻqish -20 daq.

62-63-mavzular. Alifbo. Alifbo tartibini oʻrganish (2 soat).

64-mavzu. “Archa” she’ri (Z.Diyor). “Yangi yil” bayramiga tayyorgarlik haqida suhbat (1 soat).

SINFDAN TASHQARI O‘QISH

Haftada bir marta oʻqishga oʻrgatish (Alifbe) darslarining ikkinchi qismidan 15-20 daqiqasi sinfdan tashqari oʻqish uchun ajratiladi. Bu vaqtda oʻqituvchi tomonidan bolalarga badiiy adabiyot oʻqib beriladi. Bu davrda bolalar bir necha badiiy adabiyot bilan tanishtiriladi. Ularni varaqlab koʻrish, tomosha qilish, rasmlarda tasvirlanganlarni soʻzlab berishga, maʼnosini ifodalovchi rasmlar chizishga, kitob bilan muomala qilish qoidalari bilan tanishtirishga eʼtibor beriladi. Sinf kutubxonasini tashkil etish haqida suhbatlashiladi.

2. Yozuvga oʻrgatish - 60 soat

5-6-7-mavzular. Kichik “o”, bosh “O” harfi. Kichik “n”, bosh “N” harfi (3 soat).

Kichik “a”, bosh “A” harfi. Ushbu harflar ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

8-9-mavzular. Kichik “i” harfi. Bosh “I” harfi (2 soat).

“i”, “I” harfini va ushbu harflar ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

10-11-mavzular. Kichik “m” harfi. Bosh “M” harfi (2 soat).

“m” , “M” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

12-13-mavzular. Kichik “t” harfi. Bosh “T” harfi (2 soat).

“t” , “T” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

14-15-mavzular. Kichik “l” harfi. Bosh “L” harfi (2 soat).

“l” , “L” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

16-17-mavzular. Kichik “b” harfi. Bosh “B” harfi (2 soat).

“b” , “B” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

18-19-mavzular. Kichik “k” harfi. Bosh “K” harfi (2 soat).

“k” , “K” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

20-21-mavzular. Kichik “r ” harfi. Bosh “R” harfi (2 soat).

“r” , “R” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

22-23-mavzular. Kichik “o” harfi. Bosh “O” harfi (2 soat).

“o” , “O” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

24-25-mavzular. Kichik “d” harfi. Bosh “D” harfi (2 soat).

“d” , “D” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

26-27-mavzular. Kichik “u” harfi. Bosh “U” harfi (2 soat).

“u” , “U” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

28-29-mavzular. Kichik “y” harfi. Bosh “Y” harfi (2 soat).

“y” , “Y” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

30-31-mavzular. Kichik “e” harfi. Bosh “E” harfi (2 soat).

“e” , “E” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

32-33-mavzular. Kichik “g” harfi. Bosh “G” harfi (2 soat).

“g” , “G” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

34-35-mavzular. Kichik “ng” harfi. “ng” harfini mustahkamlash (2 soat).

“ng” harfi va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

36-37-mavzular. Kichik “s” harfi. Bosh “S” harfi (2 soat).

“s” , “S” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

38-39-mavzular. Kichik “h” harfi. Bosh “H” harfi (2 soat).

“h” , “H” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

40-41-mavzular. Kichik “sh” harfi. Bosh “Sh” harfi (2 soat). “sh”, “Sh” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

42-43-mavzular. Kichik “p” harfi. Bosh “P” harfi (2 soat). “p”, “P” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

44-45-mavzular. Kichik “q” harfi. Bosh “Q” harfi (2 soat). “q”, “Q” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

46-47-mavzular. Kichik “ch” harfi. Bosh “Ch” harfi (2 soat). “ch”, “Ch” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

48-49-mavzular. Kichik “j” harfi. Bosh “J” harfi (2 soat). “j”, “J” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

50-51-mavzular. Kichik “g” harfi. Bosh “G” harfi (2 soat). “g”, “G” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

52-53-mavzular. Kichik “z” harfi. Bosh “Z” harfi (2 soat). “z”, “Z” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

54-55-mavzular. Kichik “v” harfi. Bosh “V” harfi (2 soat). “v”, “V” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

56-57-mavzular. Kichik “x” harfi. Bosh “X” harfi (2 soat). “x”, “X” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

58-59-mavzular. Kichik “f” harfi. Bosh “F” harfi (2 soat). “f”, “F” harfini va ular ishtirok etgan soʻzlarni toʻgʻri yoza olishga oʻrgatish.

60-mavzular. Tutuq belgisi (1 soat).

Tutuq belgisi soʻzlarni toʻgʻri va aniq yoza olishga oʻrgatish.

61-mavzu. Mustahkamlash (1 soat). Harflarni bir-biriga bogʻlab yozish mashqlari.

62-mavzu. Alifbo (1 soat). Alifboni yozma shaklda yozish.

63-64-mavzular. Mustahkamlash (2 soat). Namunaga qarab yozish, koʻchirib yozish mashqlari.

HUSNIXAT

Yozuvga oid koʻnikmalarni shakllantirish: yozuv chiziqlarini farqlash, harf unsurlari va harflarni yozuv chiziqlari orasida toʻgʻri joylashtirish; harflarning qiyaligi, ulanishi hamda soʻzlar orasini bir xil masofada chamalab yozish, kichik va bosh harflarni toʻgʻri va aniq yozish hamda husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yozish.

Ayrim yozuv qoidalari. Gigiyena qoidalariga rioya qilishga oʻrgatish: yozuv vaqtida partada toʻgʻri oʻtirish, daftarni belgilangan qiyalikda qoʻyish, yozuv qurollaridan toʻgʻri foydalanish, daftarni toza tutish.

Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish*)
elementlari:

mavzu doirasida o‘qituvchi nutqini, sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi; *O, N, A, I, M, T, L, B, K, R, O‘, D, U, Y, E, G, Ng, S, H, Sh, ‘, Q, Ch, J, G‘, Z, V, X, F* harfini qo‘shib o‘qiy oladi, tuzilishi murakkab so‘zlarni bo‘g‘inlab, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o‘qiy oladi hamda (‘) tutuq belgisi qatnashgan so‘z va matnlarni ravon o‘qiy oladi;

kichik o, bosh O, kichik n, bosh N, kichik a, bosh A , kichik i, bosh I, kichik m, bosh M, kichik t, bosh T, kichik l, bosh L, kichik b, bosh B, kichik k, bosh K, kichik r, bosh R, kichik o‘, bosh O‘, kichik d, bosh D, kichik u, bosh U, kichik y, bosh Y, kichik e, bosh E, kichik g, bosh G, kichik ng, kichik s, bosh S, kichik h, bosh H, kichik sh, bosh Sh, kichik p, bosh P, kichik q, bosh Q, kichik ch, bosh Ch, kichik j, bosh J, kichik g‘, bosh G‘, kichik z, bosh Z, kichik v, bosh V, kichik x, bosh X, kichik f, bosh F harfini va ular ishtirok etgan so‘zlarni, (‘) tutuq belgisi qatnashgan so‘zlarni to‘g‘ri va aniq yoza oladi.

Alifboni yozma shaklda yoza oladi. Harflarni bir-biriga bog‘lab, ko‘chirib, namunaga qarab yoza oladi.

Bosma va yozma harflarni, ular ifodalaydigan tovushlarni to‘g‘ri talaffuz eta oladi.

Matnni gap ohangiga rioya qilgan holda aniq, ravon o‘qiy oladi.

Shuningdek, 3-4 ta so‘zni eshitib va 2-3 so‘zdan tuzilgan gapni namuna asosida yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya elementi: o‘zbek tilida nutq tovushlarini to‘g‘ri qo‘llay oladi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi.

Tayyorgarlik davrida o‘qish darslari uchun – 4 soat.

Tayyorgarlik davrida yozuv darslari uchun – 4 soat.

O‘qishga o‘rgatish uchun – 60 soat

Yozuvga o‘rgatish uchun – 60 soat

Jami – 128 soat

ONA TILI

1-SINF

FONETIKA, GRAMMATIKA, IMLO VA NUTQ O‘STIRISH

(68 soat)

I bo‘lim. TOVUSHLAR VA HARFLAR

(28 soat)

1-2-3-mavzular. “Ona tilim” she’ri (Muhammad Yusuf). Tovush va harflar (3 soat).

Soʻzlarning tovushlardan tuzilishi. Tovushlarning soʻz maʼnosini farqlashi. Tovushlarning oʻrin almashishi bilan yangi soʻzlar hosil boʻlishi.

4-mavzu. Unli tovushlar va harflar (1 soat).

Tovushlarning talaffuzi va maʼno farqlashi, harflar bilan ifodalanishi. Unli tovushlar, ularning talaffuzi, harflar bilan ifodalanishi va imlosi.

5-6-7-mavzular. A va o unlilarining talaffuzi va imlosi (3 soat).

A unlisining o tarzida talaffuz qilinishi va imlosi. i va u unlilari, ularning talaffuzi va imlosi, u unlisining i tarzida aytilishi va yozilishi.

Nazorat ishi (1 soat).

8-mavzu. U nli tovush va harfini mustahkamlash (1 soat).

Nazorat ishi: a va o, i va u unlilari, ularning talaffuzi va imlosi yuzasidan oʻquvchilar bilimi, koʻnikma va malakasini aniqlash.

9-10-mavzular. Undosh tovushlar va harflar (2 soat).

Undosh tovushlarning harfiy ifodasi. Ayrim undosh tovushlarning talaffuzi va imlosi (*d-t*, *b-p*, *z-s*, *j-ch*, *g-k*, *v-f* undoshlarining talaffuzi va imlosi), soʻz oxirida ketma-ket kelgan (*d,t*) undoshlarning talaffuzda tushib qolishi, lekin yozuvda saqlanishi.

11-mavzu. X va h tovush va harfi (1 soat).

X va h undosh tovushining talaffuzi va imlosi.

12-mavzu. J harfining ikki xil tovushni ifodalashi va ularning talaffuzi, imlosi (1 soat).

J harfining *j* (portlovchi) va *j* (sirgʻaluvchi) tovushni ifodalashi.

13-14-mavzular. Harf birikmalari. Q va gʻ tovushlari (2 soat).

Sh, *ch*, *ng* harf birikmalari, ularning bitta tovush ifodalashi va talaffuzi hamda imlosi. Q va gʻ tovushlari, ularning harfiy ifodasi, soʻz oxirida kelganda q tovushining gʻ tarzida, soʻz oʻrtasida kelganda x tarzida (*maqsad-maxsad*) talaffuz qilinishi va imlosi.

15-mavzu. Aytilishi va yozilishida farqlanuvchi undoshlar (1 soat).
Soʻzdagi tovush va harflarni aniqlash. Aytilishi va yozilishida farqlanadigan undoshlarni ajrata bilish.

16-mavzu. Aytilishi va yozilishida farqlanuvchi undoshlar (1 soat).

Aytilishi va yozilishida farqlanuvchi undoshlarga jufti bor *b-p*, *d-t*, *z-s*, *j-sh*, *j-ch*, *v-f*, *g-x* kabi undoshlar kirishi, ularning talaffuzi va imlosi.

Nazorat ishi (1 soat).

18-19-mavzular. Tutuq belgisi (2 soat).

Tutuq belgili soʻzlarning talaffuzi va imlosi: Tutuq belgisini (ʻ) soʻz tarkibida toʻgʻri shakllantirish. Tutuq belgisining soʻzdagi vazifasi: oʻzidan oldingi unlining choʻziq aytilishiga, oldingi boʻgʻinning keyingi boʻgʻindan ajratib talaffuz qilinishiga xizmat qilishi, soʻz maʼnolarini farqlashi. Oʻquvchilarning undosh tovush va harflar yuzasidan bilim, koʻnikma va malakalarini nazorat qilish.

20-21-mavzular. Alifbe va alifbo (2 soat).

Alifbo harflarning maʼlum bir tartibda joylashuvi ekani, harflarning bosh va kichik shakllari. Soʻzlarni alifbo tartibida yozish. Alifboning amaliy ahamiyati. Tovush va harflarga doir tahlil.

22-23-mavzular. Bo‘g‘in. Unli tovushlarning bo‘g‘in hosil qilishi (2 soat).

So‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish va chiziqcha bilan yozish. Unlining bo‘g‘in hosil qilishi. So‘zda nechta unli bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘lishi.

24-25-26-mavzular. So‘zlarni bo‘g‘inlab ko‘chirish (3 soat).

So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lish va bo‘g‘inlab ko‘chirish tushunchalarini farqlash, so‘zlarni bo‘g‘inlab ko‘chirishga ko‘ra bo‘g‘inlarga bo‘lish, bir unlidan iborat bo‘g‘inlarni oldingi satrda qoldirmaslik va keyingi satrga ko‘chirib bo‘lmasligi, ko‘p bo‘g‘inli, tutuq belgili so‘zlarni, yonma-yon kelgan bir xil undoshli so‘zlarning bir satrdan keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chirilishi. Harf birikmali (*sh, ch, ng*) so‘zlarning bir satrdan ikkinchi satrga bo‘g‘inlab ko‘chirilishi.

Nazorat ishi (1 soat).

II bo‘lim. SO‘Z

(23 soat)

27-28-29-mavzular. So‘z ma‘nosi (3 soat).

So‘z, so‘zlarning ma‘nolariga ko‘ra farqlanishi, so‘roqlari asosida so‘z ma‘nolarini farqlash, guruhlash. So‘zlarning *kim?, nima?, nima qildi?, qanday?, necha?, nechanchi?* so‘roqlariga javob bo‘lishi.

30-mavzu. Shaxs va narsaning nomini bildirgan so‘zlar (1 soat).

Shaxs va narsaning nomini bildirgan so‘zlar. Ularning so‘roqlariga ko‘ra farqlanishi. *Kim?, nima?* so‘roqlariga javob bo‘lishi.

31-mavzu. Shaxs va narsaning nomini bildirgan so‘zlar (1 soat).

Shaxs va narsaning nomini bildirgan so‘zlarni *kim?, kimlar?, nima?, nimalar?* so‘roqlariga javob bo‘lishiga ko‘ra guruhlash.

32-33-mavzular. Kishilar ismi va familiyasining bosh harf bilan yozilishi (2 soat).

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish*):

mavzu doirasida o‘qituvchi nutqini va sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;

ko‘rgan rasmlari asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi;

unli tovushlar, ularning talaffuzi, harflar bilan ifodalanishini, **J** harfining **j** (portlovchi) va **j** (sirg‘aluvchi) tovushni ifodalashini, **sh, ch, ng** harf birikmalari, ularning bitta tovush ifodalashini, aytilishi va yozilishida farqlanuvchi undoshlarni, ya‘ni **b-p, d-t, z-s, j-sh, j-ch, v-f, g-x** kabi undoshlarni, so‘zda nechta unli bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘lishini tinglab tushuna oladi;

mashq matnidagi so‘zlarni to‘g‘ri o‘qiy oladi, tuzilishi murakkab so‘zlarni bo‘g‘inlab yoza oladi, tutuq belgili so‘zlarni yoza oladi, tutuq belgisining o‘rniga

ko'ra, ya'ni tutuq belgisidan oldingi unlini cho'ziqroq aytib va tutuq belgisi undoshdan so'ng kelganda bo'g'inlarni ajratib o'qiy oladi;

so'z oxirida ketma-ket kelgan (*d-t, (nd, st, rg, lt) g-k*) undoshlarini yozuvda yoza oladi. Tutuq belgisi qatnashgan so'zlarni, ya'ni o'zidan oldingi unli va undosh bilan qoldirib yozishni biladi. Alifbodagi bosh va kichik harflarni alifbo tartibida yoza oladi, *sh, ch, ng* harf birikmali so'zlarni bir satrdan ikkinchi satrga ko'chirib yoza oladi. Gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi;

joy nomlarining bosh harf bilan, ya'ni Respublika, shahar, ko'cha, qishloq, daryo nomlarini bosh harf bilan yoza oladi, shaxs va narsaning nomini, harakatini, belgisini, miqdorini bildirgan so'zlarni yoza oladi, harflarni yozuvda imlo va husnixat qoidalariga amal qilgan holda harflarni bir-biriga bog'lab, ko'chirib, namunaga qarab yoza oladi. Bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya:

o'zbek tilidagi nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay oladi;

bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi;

mavzuga oid so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi.

Nazorat ishi (1 soat).

34-35-mavzular. Joylarga atab qo'yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi (2 soat).

Respublika, shahar, ko'cha, qishloq, daryolarga atab qo'yilgan nomlar joy nomlari ekani, ularning bosh harf bilan yozilishi.

36-37-mavzular. Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi (2 soat).

Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar, ularning bosh harf bilan yozilishi. Darslikda berilgan lug'atdan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

38-39-mavzular. Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar (2 soat).

Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar, ularning *nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi?* so'roqlariga javob bo'lishi va imlosi. Darslikda berilgan lug'atdan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

40-mavzu. Mustahkamlash (1 soat).

41-mavzu. Shaxs va narsaning belgisini bildirgan so'zlar (1 soat).

Shaxs-narsaning belgisini bildirgan so'zlarning *qanday?, qanaqa?* so'roqlariga javob bo'lishi.

42-43-mavzular. Shaxs va narsaning belgisini bildirgan so'zlar (2 soat).

Shaxs-narsaning belgisini bildirgan so'zlarning *qanday?, qanaqa?* so'roqlariga javob bo'lishi, ma'nosi, gapdagi vazifasi. Shaxs va narsaning belgisini bildirgan so'zlarning imlosi.

44-45-mavzular. Shaxs va narsaning miqdorini va tartibini bildirgan so'zlar (2 soat).

Shaxs va narsaning miqdorini, tartibini bildirgan so'zlarning *necha?, nechanchi?* so'roqlariga javob bo'lishi. Miqdorni va tartibni bildirgan so'zlarni

soʻroqlari va maʼnosiga koʻra farqlash. Darslikda berilgan lugʻatdan foydalanish koʻnikmasini shakllantirish.

46-47-mavzular. Soʻz maʼnolarini takrorlash (2 soat).

Shaxs va narsaning nomini, belgisini, miqdori va tartibini, harakatini bildirgan soʻzlarni gap tarkibida aniqlash va ularning maʼnosini farqlash. Soʻroqlari asosida ajratish. Darslikda berilgan lugʻatdan foydalanish koʻnikmasini shakllantirish.

Nazorat ishi (1 soat).

**III boʻlim. NUTQ VA GAP
(12 soat)**

48-mavzu. Ogʻzaki nutq va yozma nutq (1 soat).

Nutq, nutqning ogʻzaki va yozma shakllari.

49-mavzu. Ogʻzaki nutq va yozma nutq (1 soat).

Ogʻzaki nutqning tovushlarga asoslangan boʻlishi. Yozma nutqning harfiy ifodalar bilan shakllantirilishi. Nutq va matnning gaplardan tuzilishi, gaplarning mazmun jihatdan aloqador boʻlishi.

50-51-mavzular. Gap (2 soat).

Gap. Gapning soʻzlardan tuzilishi, uning bosh harf bilan yozilishi va oxiriga tinish belgilarining qoʻyilishi.

52-mavzu. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari (1 soat).

Gapning oxiriga nuqta, soʻroq, undov belgilarining qoʻyilishi; gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan soʻzni aniqlash.

53-mavzu. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari (1 soat).

Rasmlarga qarab gap tuzish va yozish; savol-javob gaplar; savol-javob tuzilishidagi matnlarning yozilishi; nutq odobi.

Nazorat ishi (1 soat).

54-55-mavzular. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari (2 soat).

Xabar mazmunini, soʻroq mazmunini bildirgan gaplar, ularni mazmuniga koʻra farqlash, gapning oxiriga mazmuniga mos tinish belgilarni, yaʼni nuqta va soʻroq belgilarni qoʻyish.

56-57-mavzular. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari (2 soat).

Xabar mazmunini, soʻroq mazmunini bildirgan gaplar, kishilarning his-hayajonini bildirgan gaplar, ularni mazmuniga koʻra farqlash, gapning oxiriga mazmuniga mos tinish belgilarni, yaʼni nuqta, soʻroq va undov belgilarni qoʻyish. Gapdan kim?, nima? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarni aniqlash.

Nazorat ishi (1 soat).

**IV boʻlim. OʻQUV YILI OXIRIDA OʻTILGANLARNI
TAKRORLASH (4 soat)**

58-59-60-mavzular. Oʻquv yili oxirida oʻtilganlarni takrorlash (3 soat).

Soʻz maʼnosi. Gap, unli va undosh tovushlar, shaxs, narsa, harakat, belgi, miqdor va tartibni bildirgan soʻzlar, mustahkamlovchi mashqlar.

Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish*):

mavzu doirasida oʻqituvchi nutqini va sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;

koʻrgan rasmlari va oʻqib eshittirilgan matn yuzasidan oʻqituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida oʻzlashtirgan yangi soʻzlarni ogʻzaki nutqda qoʻllay oladi. Nutq va matnning gaplardan tuzilishi, matnni mazmunan bogʻlangan gaplar bera oladi;

kishilarning his-hayajonini bildirgan gaplarni, gaplarni mazmuniga koʻra farqlaydi, oxiridagi nuqta, soʻroq va undov belgilariga qarab oʻqiy oladi, ajrata oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali oʻqiy oladi;

gapni bosh harf bilan boshlab yoza oladi, rasmlarga qarab gap tuzadi va yoza oladi, harflarni yozuvda imlo va husnixat qoidalariga amal qilgan holda harflarni bir-biriga ulab, koʻchirib, namunaga qarab yoza oladi. Bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, 15-20 soʻzli diktant yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya: oʻzbek tilida nutq tovushlarini toʻgʻri talaffuz qila oladi, soʻzlarni talaffuz meʼyorlariga rioya qilgan holda boʻgʻinlab koʻchirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid soʻzlarni ogʻzaki va yozma nutqda qoʻllay oladi, tinish belgilarini toʻgʻri qoʻllay oladi.

Nazorat ishi (1 soat).

HUSNIXAT

Yozuvga oid malakalarni shakllantirish: harflarni yozuv chiziqlari orasida toʻgʻri joylashtirish; harflarning qiyaligi, ulanishini hamda soʻzlar orasini bir xil tenglikda chamalash. Kichik va bosh harflarni alifbo tartibida husnixat bilan yozishni mashq qilish.

Ayrim yozuv qoidalar. Partada toʻgʻri oʻtirish, daftarni belgilangan qiyalikda qoʻyish; ruchkani uch barmoq orasida erkin ushlab; daftarni chap qoʻl bilan ushlab turib yozish; har bir harfni toʻgʻri tutashtirish, harf va harf birikmalarini toʻgʻri va aniq yozish.

Oʻquv yili davomida oʻrganiladigan imlosi qiyin soʻzlar: *ajdar, argʻimchoq, achchiq, bodring, boyqush, bogʻbon, bogʻcha, burgut, daraxt, eshik, garaj, harf, havo, holva, jahl, jahon, jajji, kombayn, kuch, magʻrur, mehmon, oyoq, ogʻa-ini, pishloq, pochta, qaldirgʻoch, qarindosh, qarz, qasr, qirgʻovul, qishloq, quruvchi, quzgʻun, qoʻshiq, qoʻgʻirchoq, qoʻzichoq, sanchqi, sanʼat, savatcha, sirk, siyoh, sochiq, Toshkent, uloqcha, urishqoq, uchrashmoq, xirmon, xontaxta, yongʻoq, zinapoya, yashnamoq, oʻrik, oʻyinchoq, oʻquvchi, oʻq, shaftoli, shahar, shamol, sholgʻom, shudring, shoʻrva, chaqaloq, chinni, chiroyli, chumchuq, chuchuk, chuchvara, chorraha, choynak.*

Mavzularni oʻrganish uchun – 60 soat

Nazorat ishlari uchun – 8 soat
Jami – 68 soat

2- SINF
FONETIKA, GRAMMATIKA IMLO VA NUTQ O‘STIRISH
(136 soat, A1+: 204 soat)

O‘quchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:
Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

ko‘rgan lavhalaridan ma’lumotlar yig‘ish;
televizor, telefondan to‘g‘ri foydalanish.

A1+

darslik materiallaridan va televizor, radiodan zarur ma’lumotlarni topa olish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

o‘quv fanlarini o‘rganish va bir-biridan farqlash;
kun tartibiga amal qilish va badantarbiya bilan shug‘ullanish.

A1+

mustaqil o‘qib o‘rganish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

davlat ramzlarini bilish;
sinfda va oilasida o‘z o‘rniga ega bo‘lish;
o‘zidan kattalarga, o‘rtoqlariga va o‘zidan kichiklarga yordam berish.

A1+

Sinf va sinfdan tashqari ishlarda faol ishtirok etish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

orasta kiyinish;
ozodalikka rioya qilish;
milliy bayramlarni bilish;

A1+

odob-axloq qoidalariga doimiy ravishda amal qilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish
hamda foydalanish kompetensiyasi:**

A1

maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish;
kundalik faoliyatida turli chizmalarni chiza olish;
tejamkorlikka rioya qilish.

A1+

kun tartibiga oid rejalar tuzish.

**I bo‘lim. BIRINCHI SINFDAN O‘TILGANLAR YUZASIDAN
TAKRORLASH
(6 soat, A1+: 2 soat)**

1-2-mavzular. Nutq. Og‘zaki va yozma nutq (2 soat).

Og‘zaki va yozma nutq haqida tushuncha. Nutqning gaplardan tuzilishi.

3-4-mavzular. Gap va so‘z (2 soat).

Gap va so‘z haqida tushuncha. Gaplarning chegarasini aniqlash.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

5-6-mavzu. Bosh harf bilan yoziladigan so‘zlar (2 soat).

Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanishi, gap oxiriga nuqta, so‘roq yoki undov belgisi qo‘yilishi, kishilarning ism-familiyasi, hayvonlarga qo‘yiladigan nomlarning bosh harf bilan yozilishi.

**II bo‘lim. TOVUSHLAR VA HARFLAR
(50 soat, A1+: 26 soat)**

7-8-mavzu. Tovushlar va harflar (2 soat).

Tovushlarning yozuvda harflar bilan ifodalanishi. Unli va undosh tovushlar. Tovush (harf)larning so‘z ma’nosini o‘zgartirishi va farqlashga xizmat qilishi.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

9-10-11-mavzular. Unli tovushlar va harflar (3 soat).

Unli tovushlarning yozuvda harflar bilan ifodalanishi. Unli tovushlarning talaffuzi havo oqimining og‘izda to‘siqqa uchramay erkin o‘tishi. Faqat un (ovoz) eshitilishi. O‘zbek tilida 6 ta unli tovushning mavjudligi va ularning harflar bilan ifodalanishi. 6 ta (*a, e, u, o, i, o‘*) ekanligi. *A, o* unlilarining talaffuzi va imlosi. Bir unli tovush bo‘g‘in hosil qilishi: *o-na, u-ka, a-ka*.

12-mavzu. U va i unlilari (1 soat).

U va *I* unlilarining talaffuzi va imlosi.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

13-mavzu. U va i unlilari (1 soat).

Bulbul, chumchuq, uzum kabi so‘zlarning ikkinchi bo‘g‘inida ham *u* unlisining yozilishi.

14-mavzu. U va o‘ unlilari (1 soat).

U va *o‘* unlilarining talaffuzi va imlosi.

15- 16-mavzu. Unli tovushlar va harflarni mustahkamlash (2soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

Nazorat va tahlili (2 soat).

17-18-mavzular. Undosh tovushlar va harflar (2 soat).

Undosh tovushlarning talaffuzda to‘siqqa uchrashi, o‘zbek tilida 24 ta undosh tovushning 23 ta harf bilan ifodalanishi.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

19-mavzu. Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularning harf bilan ifodalanishi (1 soat).

Undosh tovushlarning jarangli va jarangsiz undosh tovushlarga ajratilishi; *b, d, g, v, z, g‘, j, j, l, m, n, r, y, ng* – jarangli; *p, t, k, f, s, x, ch, sh, q, h* – jarangsiz undosh tovushlar ekanligi; jarangli undosh tovushlarning shovqin va ovozdan tarkib topishi, jarangsiz undosh tovushlarda faqat shovqin eshitilishi.

20-mavzu. Jufti bor jarangli va jarangsiz undosh tovushlar (1 soat).

Ayrim jarangli undoshlarning jarangsiz jufti borligi: *b-p, d-t, g-k, v-f, z-s, g‘-x, j-ch, j-sh*.

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

21-22-mavzular. Jarangli jufti bor jarangli undoshlar (2 soat).

So‘z oxirida kelgan jufti bor jarangli undosh tovushning yozilishini tekshirish (*umidi-umid, sababi-sabab kabi*).

23-24-mavzular. Aytilishida tushib qoladigan undoshlar (2 soat).

Samarqand, farzand, do‘st, daraxt kabi so‘zlar oxirida kelgan *d, t* tovushlarining talaffuzda tushib qolishi va imlosi.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

25-26-mavzular. J harfining ikki tovushni ifodalanishi (2 soat).

Ajdar, gijda, bolajon, jaket, jiyda, jirafa so‘zlarida ishlatiladigan *j* tovushlarining talaffuzdagi farqi.

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

27-28-mavzular. X va h tovushlarining talaffuzi va imlosi (2 soat).

Yozma nutqda *x* va *h* harfli so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va yozish.

29-mavzu. O‘tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash (1soat)

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*):

o'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi;

rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi;

mashq matnidagi so'zlarni qo'shib o'qiy oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi, harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni o'qiy oladi;

so'zda nechta tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishini bir unli tovush bo'g'in hosil qilishini, ya'ni *o-na, u-ka, a-ka* kabi bo'g'inga bo'la oladi, harflar birikmalari ishtirok etgan so'zlarni bo'g'inga bo'la oladi, *x* va *h* tovushli so'zlarni to'g'ri yoza oladi, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, *mash'al, ma'qul, ta'lim, Jur'-at, ta'-zim* kabi tutuq belgili so'zlarni bo'g'inga bo'lib yoza oladi, lug'at, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasm diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida ko'chira oladi.

Lingvistik kompetensiya: o'zbek tilidagi nutq tovushlarining talaffuzida talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*):

o'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni tinglab tushuna oladi va topshiriqlarini bajaradi;

Lingvistik kompetensiya: mavzuga oid so'zlar va iboralarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi.

Nazorat va tahlil (2 soat).

30-mavzu. Harflar birikmasi bilan ifodalanadigan undosh tovushlar (1 soat).

Harf birikmali so'zlarning talaffuzi va imlosi. *Sh, ch, ng* harflar birikmalari *sh, ch, ng* undosh tovushlarni ifodalashi, harf birikmalari ishtirok etgan so'zlarning o'qilishi va imlosi.

31-mavzu. Harf birikmali so'zlarni bo'g'inlab ko'chirish (1 soat).

Bir tovushni ifodalovchi harflar birikmasi (*sh, ch, ng*) qatnashgan so'zlarni bo'g'inlab ko'chirilishi.

32-33-mavzular. Tutuq belgisi. Tutuq belgili so'zlarning talaffuz va imlosi (2 soat).

Unli tovushlardan keyin kelgan tutuq belgisining o'zidan oldingi qo'yilganda, unlini cho'zib talaffuz qilishga, undosh tovushdan keyin kelganda undoshni unlidan ajratib talaffuz qilishga xizmat qilishi. Tutuq belgili so'zlarni bo'g'inga bo'lish.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

34-35-mavzular. Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish (2 soat).

So'zda nechta unli tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishi; so'zlarni bir va bir nechta bo'g'inlarga bo'linishi.

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

36-37-mavzular. Bo'g'in ko'chirish (2 soat).

Bir unlidan iborat bo'g'inni oldingi satrda qoldirib bo'lmasligini, so'z oxirida bo'g'in hosil qilgan bir unlini keyingi yo'lga ko'chirib bo'lmasligini; bir bo'g'inli so'zlar ko'chirish uchun bo'g'inlarga bo'linmasligini (*ona, uzum* kabi).

38-mavzu. Tutuq belgisi so'zlarni bo'g'inlab ko'chirish (1 soat).

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

39-40-41-42-mavzular. So'z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlarning talaffuzi va imlosi. So'z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlarni bo'g'inlab ko'chirish (4 soat).

Ba'zi so'zlar ichida ikkita bir xil undoshning yonma-yon kelishi: *tabassum*, *Abbos*; bo'g'in ko'chirishda yonma-yon kelgan bir xil undoshlarning bittasi oldingi bo'g'inda qoldirilib, ikkinchisi keyingi bo'g'inga ko'chirilishi; matnni og'zaki va yozma qayta hikoyalash.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

43-44-mavzular. O'tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash (2 soat).

Tovush-harf tahlili.

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

III bo'lim. SO'Z **(63 soat, A1+:30 soat)**

45-46-47-48-mavzular. So'z ma'nosi. Shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlar (4 soat).

So'z ma'nosi: so'zlar shaxs va narsa nomini, uning harakatini, belgisini, sanog'ini bildirishi, shaxs (kishi)lar nomini bildirgan so'zlar kim?, kimlar? narsa nomini bildirgan so'zlar *nima?*, *nimalar?* so'rog'iga javob bo'lishi.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

49-50-mavzu. Shaxs va narsaning nomini bildirgan so‘zlar (2 soat).

Kim?, kimlar?, nima?, nimalar? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish*)
elementlari: o‘qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;

rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi;

mashq matnidagi so‘zlarni qo‘shib o‘qiy oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ifodali o‘qiy oladi, harf birikmalari ishtirok etgan so‘zlarni o‘qiy oladi;

so‘zda nechta unli tovush bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘linishini, unli tovush bo‘g‘in hosil qilishini, Samarqand, farzand, do‘st, daraxt kabi so‘zlar oxirida kelgan *d, t* tovushlari uning talaffuzda tushib qolishi lekin yozuvda ifodalanishi, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, lug‘at, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasm diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida ko‘chira oladi.

Lingvistik kompetensiya elementi: o‘zbek tilida nutq tovushlarini to‘g‘ri qo‘llay oladi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish*):

Talaffuzda farqlanadigan va aytilishda tushib qoladigan undoshli so‘zlar imlosini biladi;

Lingvistik kompetensiya: mavzuga oid so‘zlar va iboralarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi.

Nazorat va tahlil. (2 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

51-52-mavzular. Shaxs va narsa nomini bildirgan so‘zlar (2 soat).

So‘roq berish orqali shaxs va narsa nomini bildirgan so‘zlarni guruhlash, shaxs va narsa nomlarining ma‘nodoshlik haqida tushuncha (barg, yaproq; ish, mehnat; el, xalq; yer, zamin)

53-54-mavzular. Kishilarning ismi va familiyasining bosh harf bilan yozilishi (2 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

55-mavzu. Kishilar ismi va familiyasi imlosi (1 soat).

Nazorat va tahlil (2 soat).

56-mavzu. Kishilar ismi va familiyasining bosh harf bilan yozilishi (1 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

57-58-mavzular. Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi(2soat).

59-60-mavzular. Shahar, qishloq, ko‘cha va daryolarga atab qo‘yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi (2 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

61-mavzu. Bosh harf bilan yoziladigan shaxs , narsa, joy nomlarining imlosini mustahkamlash (1 soat).

Nazorat va tahlil (2 soat).

62-mavzular. Shaxs va narsa harakatini bildirgan so‘zlar (1 soat).

Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? so‘roqlariga javob bo‘lishi.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

63-64-65-mavzular. Shaxs va narsa harakatini bildirgan so‘zlar (3 soat).

Shaxs va narsa harakatini bildirgan so‘zlar nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? so‘roqlariga javob bo‘lishi. Bir Shaxs bajargan harakatni bildirgan so‘z nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? so‘roqlariga, birdan ortiq shaxslar bajargan harakatni bildirgan so‘zlar nima qildilar?, nima qiladilar?, nima qilyaptilar? so‘roqlariga javob bo‘lishi.

66-mavzu. Diktant (1 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

67-68-69-70-mavzular. Shaxs va narsa harakatini bildirgan so‘zlar (4 soat).

Harakatni bildirgan so‘zlarni nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? so‘roqlari yordamida aniqlash.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

71-mavzular. Takrorlash (2 soat).

Harakatni bildirgan so‘zlar yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlash, matn asosida nutq o‘stirish mashqi, tez aytishlar.

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

72-73-74-75-mavzular. Shaxs va narsa belgisini bildirgan so‘zlar (4 soat).

Qanday?, qanaqa? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarning belgi maʼnosini bildirishi. Mavzu yuzasidan mashqlar. Qarama-qarshi maʼnoli belgi bildirgan soʻzlar (issiq-sovuq, oq-qora).

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

76-77-78-79-mavzular. Belgini bildirgan soʻzlarni takrorlash (4 soat).

Rasmlar va berilgan reja yordamida hikoya tuzish.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

Nazorat va tahlil (2 soat).

80-81-mavzular. Oʻtilganlarni takrorlash va mustahkamlash (2 soat).

Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish*):

video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni, topshiriqlarni tinglab tushuna oladi;

rasmlar asosida va oʻqib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida oʻzlashtirgan yangi soʻzlarni ogʻzaki nutqda qoʻllay oladi;

mashq matnidagi soʻzlarni gaplarni ohangiga rioya qilgan holda ifodali oʻqiy oladi; kim?, nima?, kimlar?, nimalar? kabi soʻroqlarga javob boʻladigan soʻzlarni toʻgʻri yoza oladi, kishilarning ism-familiyasi, hayvonlarga, shahar, qishloq, koʻcha va daryolarga atab qoʻyilgan nomlarni bosh harf bilan yoza oladi;

soʻzda nechta unli tovush boʻlsa, uni shuncha boʻgʻinga boʻlib yoza oladi; shaxs va narsa harakatini bildirgan soʻzlar nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? soʻroqlariga javob boʻlishini va ularni toʻgʻri yoza oladi, qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarni, shaxs va narsa belgisini bildirgan soʻzlar qanday?, qanaqa? soʻroqlariga javob boʻlishini va ularni toʻgʻri yoza oladi (sariq-qanaqa?, uzun-qanday?); qarama-qarshi maʼnoli shaxs, narsa, harakat, belgi bildirgan soʻzlarni aniqlay oladi, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, rasmlar va berilgan reja asosida 5-6 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata oladi.

Lingvistik kompetensiya: oʻzbek tilida nutq tovushlarini toʻgʻri talaffuz qila oladi, boʻgʻin koʻchirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid soʻzlarni ogʻzaki va yozma nutqda qoʻllay oladi, tinish belgilarini toʻgʻri qoʻllay oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish*):

mashq va topshiriqlardagi axborotni tushuna oladi;

mashq va topshiriqlarda berilgan matnni gap ohangiga rioya qilgan holda oʻqiydi; nutqida qarama-qarshi maʼnoli soʻzlardan oʻrinli foydalangan holda fikrini toʻgʻri va ravon bayon qila oladi;

Lingvistik kompetensiya: gap tarkibidagi soʻzlarga toʻgʻri soʻroq bera oladi.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

82-83-mavzular. Sanoq va tartibni bildirgan so‘zlar (2 soat).

Necha?, qancha?, nechanchi? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar. Shaxs va narsaning sanog‘ini bildirgan so‘zlar nechta?, qancha? so‘roqlariga, shaxs va narsaning tartibini bildirgan so‘zlar nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘lishi.

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

84-85-86-87-mavzular. Gap (4 soat).

Gap tugallangan fikr bildirishi, so‘zlardan tuzilishi, gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanishi. Gap oxirida tinish belgisining ishlatilishi. Gap biror narsa haqida xabar mazmunini bildirsa, oxiriga nuqta, so‘rash mazmunini bildirsa, oxiriga so‘roq, kuchli his-hayajon bilan aytilsa, oxiriga undov belgisining qo‘yilishi.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

88-mavzu. Gapda tinish belgilarining ishlatilishi (1 soat).

Nazorat va tahlil (2 soat).

89-mavzu. Gapning asosi (1 soat).

Gapning kim, (kimlar?) va nima? (nimalar?) haqida aytilganini bildirgan so‘zlar.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

90-91-92-mavzular. Gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi (3 soat).

IV bo‘lim. NUTQ VA MATN

(7 soat, A1+:4 soat)

93-mavzu. Nutq va matn (1 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

94-95-mavzular. Og‘zaki va yozma nutq (2 soat).

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat).

Husnixat (1 soat).

96-97-mavzular. Matn. Matnning tuzilishi (2soat).

O'quvchilarda yozma nutqning shakli ekanligi, og'zaki va yozma turlari haqida ma'lumot berish, matnda bir voqeaning ifodalanishi, matnning mazmunan bog'langan gaplardan tuzilishi.

V bo'lim. O'QUV YILI DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH (11 soat, A1+: 6 soat)

98-99-mavzu. Narsa va shaxs nomini, harakatini bildirgan so'zlar (2 soat).

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

100-101-102-103-mavzular. Shaxs va narsa belgisini, sanog'ini va tartibini bildirgan so'zlar (4 soat).

Darslikdagi mashq, matnlar asosida shaxs, narsa, belgi, miqdor va tartib bildirgan so'zlarning ma'nosi va imlosi.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

104-105-106-mavzular. Gap. Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi. Mustahkamlash (3 soat).

Nazorat va tahlil (2 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*):

o'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;

rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi;

nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi;

mashq matnidagi so'zlarni qo'shib, gap ohangiga rioya qilib ravon va ifodali o'qiy oladi;

shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar nechta?, qancha? so'roqlariga, shaxs va narsaning tartibini bildirgan so'zlar nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi;

3-4 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata oladi;

rasmlar asosida qisqa matn tuza oladi, xatboshiga, imlo va husnixat qoidalariga amal qila oladi.

Lingvistik kompetensiya:

o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay oladi;

talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi;

bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi;

mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi;

tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi;

30-40 so'zli diktant yoza oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish*):
mashq va topshiriqlardagi axborotni tushuna oladi;
mashq va topshiriqlarda berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib
ravon oʻqiydi;

4-5 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata oladi.

Lingvistik kompetensiya:

nutqda soʻzlarning grammatik shakllaridan toʻgʻri foydalana oladi;

35-45 soʻzli diktant yoza oladi.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

NUTQ OʻSTIRISH

Matn. Matnning oʻzaro mazmunan bogʻlangan ikki va undan ortiq gaplardan tuzilishi. Soʻroqlar yordamida matnni qismlarga boʻla olish. Kichkina matnga va matn qismlariga sarlavha qoʻyish.

Bayon haqida tushuncha. Matnni savollar yordamida qayta hikoya qilish. Uncha katta boʻlmagan matn yuzasidan uch-toʻrt soʻroq gaplardan tuzilgan reja asosida bayon yozish.

Rasmlarga qarab savollar yordamida gaplar tuzish va uni imloviy tayyorlikdan soʻng yozish. Oʻqituvchi rahbarligida bir mavzuga oid bir necha gap tuza olish. Bolalarning oʻyinlari, oʻqishlari, qiziqishlari haqida kichik hikoya tuzish.

HUSNIXAT

Bir chiziqli daftarda oʻxshash unsurli harflarni yozish va harfni bir-biriga toʻgʻri tutashtirish; oʻxshash unsurli kichik harflar va shu harflardan tuzilgan boʻgʻinlar va soʻzlarni yozish, oʻxshash unsurli bosh harflar va ularni oʻzidan keyin kelgan kichik harfga tutashtirish.

Ayrim yozuv qoidalari: daftarlarning past tomonidagi burchagini koʻkrak oʻrtasining qarshisiga toʻgʻri qoʻyish; daftarni chap qoʻl bilan ushlab turib yozish; ruchkani uch barmoq orasida erkin ushlab; har bir harfni toʻgʻri tutashtirishga rioya qilgan holda boʻgʻin va soʻzlarni aniq yozish; harf va harf birikmalarini toʻgʻri va aniq shakllantirish; shoshmasdan yozish; har bir mashqni uch-toʻrt marta takrorlash.

Oʻquv yili davomida imlosi qiyin boʻlgan quyidagi soʻzlarning talaffuzi va yozilishini bilib olish: *avgust, baland, baho, bahor, behi, Buxoro, dars, daftar, doʻst, farzand, hasl, havo, hikoya, jahon, juft, karam, kaft, konʻki, lavlagi, loviya, lugʻat, mashina, minnatdor, moslama, navbatchi, noʻxat, oktabr, payvand, pʻalʻto, paxta, qoʻngʻiroq, quyosh, sabzi, Samarqand, sentabr, sinf, singil, soat, Toshkent, traktor, vazifa, vatan, xalq, xursand, yomgʻir, yostiq, oʻqituvchi, oʻquvchi, shahar kabi.*

Oʻxshash unsurli kichik va bosh harflarni yozish; harflarni bir-biriga tutashtirish;

Oʻxshash unsurli kichik harflar:

1-guruh – *i, u, n, m, t, l, y*

2-guruh – *h, j, k, f*
 3-guruh – *o, o', q, a, g, g', p*
 4-guruh – *e, b, x*
 5-guruh – *r, v, s, sh, ch*
 O'xshash unsurli bosh harflar:
 1-guruh – *U, L, Z, I*
 2-guruh – *M, H, K, N, A*
 3-guruh – *O, O', Q, X, CH*
 4-guruh – *E, S, I, Z*
 5-guruh – *V, G, G', Y*

Mavzularni o'rganish uchun – 106 soat

Nazorat ishlari uchun – 15 soat

Tahlil uchun – 15 soat

Nutq o'stirish – A1 +: 34 soat

Husnixat uchun – A1+: 34 soat

Jami – 136 soat (A1 +:204 soat)

3-SINF

FONETIKA, GRAMMATIKA, IMLO VA NUTQ O'STIRISH (170 soat, A1+: 238 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

manbalardan ma'lumotlarni izlab topa olish;
 televizor, radio, telefon orqali berilgan xabarlarini gapirib bera olish;
 media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish.

A1+

media manbalardan ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

rasmli kitoblar, jurnallarni mustaqil o'qib-o'rganish orqali bilimini oshirib borish;

o'zini nazorat qila olish;

kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish.

A1+

mustaqil o'qib-o'rganish orqali bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

sinfidagi jihozlar, o'quv qurollarini asrab-avaylash;

maktabda, oilada va turar joylarida bo'layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar, shanbalik va h. k.) ishtrok etish.

A1+

sinf va sinfdan tashqari ishlarda faol ishtirok etish, turli vaziyatlarda o'zini munosib tuta olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

o'zi yashab turgan joyning tarixiy obidalarini bilish;
san'at turlarini bilish va ularni bir-biridan farqlay olish;
mustaqillik yillarida bunyod etilgan inshootlarni hamda muqaddas qadamjolarini bilish va ularni hurmat qilish.

A1+

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli bo'lish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

mamlakatimizdagi bayram kunlarini bilish;
ehtiyoji uchun kerak bo'lgan narsalardan (o'quv qurollari, kiyim-kechagi) tejab foydalanish.

A1+

turli chizmalı ma'lumotlarni o'qiy olish.

I bo'lim. TAKRORLASH **(26 soat, A1+:10 soat)**

1-2-3-4-mavzular. Nutq. Matn. Gap. So'z (4 soat).

Nutq. Nutqning tuzilishi. Nutq va uning shakllari. Og'zaki nutq, Yozma nutqni o'stirish. Matn. Matn nutqning yozma shakli ekanligi. Matnning tuzilishi. Matnning gaplardan tuzilishi, matnga sarlavha qo'yilishi.

5-mavzu. Gap. Gapda so'zlarning bog'lanishi (1 soat).

A1+

Nutq o'stirish (1 soat).

Husnixat (1 soat)

6-mavzu. Gaplarning tuzilishi (1 soat).

Matndagi gaplarning mazmun jihatdan bog'lanishi, so'zlarning ma'no turlari, ularning bog'lanishi.

7-8-mavzular. Tovushlar va harflar. Bo'g'in (2 soat).

Tovush va uning xususiyatlari, tovushning yozuvda harflar bilan ifodalanishi. Unli va undosh tovushlar: unli tovushlarning ovozdan hosil bo'lishi, ularning bo'g'in hosil bo'lishi, undosh tovushlarning talaffuzi, ularning unli tovushlardan farqi. Unli tovushlarning bo'g'in hosil qilishi. Bo'g'in. So'zlarning bo'g'inlarga bo'linishi.

9-mavzular. O'zbek alifbosi (1 soat).

Alifbo, harflar va ularning nomi. Alifbo – harflarning muayyan tartibda joylashuvi.

10-mavzu. Mustahkamlash (1 soat).

Soʻzlardagi tovushlar va harflarning munosabati, tovush oʻzgarishi bilan soʻz maʼnolarining oʻzgarishi, soʻzlarni alifbo tartibida yozish.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat).

Husnixat (1 soat).

11-mavzu. Mustahkamlash (1 soat).

Soʻzlardagi tovushlar va harflar munosabati, tovush oʻzgarishi bilan soʻz maʼnolarining oʻzgarishi, savollarga javob yozish.

Nazorat va tahlil (2 soat).

12-13-mavzular. Tutuq belgisi (2 soat).

Tutuq belgisi soʻzlar imlosi: tutuq belgisining tovush bildirmasligi, unidan keyin kelganda va undoshdan keyin kelganda tutuq belgisining vazifasi.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat).

Husnixat (1 soat.)

14-mavzu. Tutuq belgisi soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlib koʻchirish, oʻ va gʻ harflari va tutuq belgisining yozilishi **(1 soat).**

15-16-mavzular. sh, ch, ng harflar birikmalari (2 soat).

Sh, ch, ng harf birikmalarining talaffuzi va yozilishi, sh, ch, ng harf birikmali soʻzlarni boʻgʻinlab koʻchirish.

17-18-mavzular. Jarangli va jarangsiz undoshlar (2 soat).

Undosh tovushlarning ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra jarangli va jarangsiz tovushlarga boʻlinishi, soʻzning oxirida kelgan jarangli undoshning talaffuzi va imlosi, ularni tekshirish usuli, soʻzlarning tovush tomonidan tahlili.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat.)

Husnixat (1 soat)

19-mavzu. Talaffuzda tushib qoladigan undoshlar (1 soat).

Ayrim soʻzlar oxirida kelgan d va t tovushlarining talaffuzda tushib qolishi, ammo yozuvda ifodalanishi.

Nazorat va tahlil (2 soat).

20-21-mavzular. Yonma-yon kelgan bir xil undoshlar (2 soat).

Yonma-yon kelgan bir xil undoshli soʻzlarning aytilishi va imlosi.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat).

Husnixat (1 soat).

22-mavzu. Yonma-yon kelgan bir xil undoshlar (1 soat).

Yonma-yon kelgan bir xil undoshli soʻzlarni boʻgʻinlab koʻchirilishi, matnning qismlardan tuzilishi

II boʻlim. GAP

23-24-mavzular. Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari (2 soat).

Gap turlari: gapning tugallangan fikrni bildirishi, yozuvda har bir gapning bosh harf bilan yozilishi, gap oxirida tinish belgilarining qo'yilishi, gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarga bo'linishi: darak gap, so'roq gap, buyruq gap; his-hayajon gap, his-hayajonsiz gap. Nuqta (.) so'roq (?) belgilari, his-hayajon bilan aytilgan gapning oxiriga undov belgisining qo'yilishi.

Nazorat ishi (1 soat).

25-mavzu. Darak gap haqida ma'lumot. (1 soat).

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

26-mavzu. Darak gap (1 soat).

Darak gaplarning mazmuni, ohangi va darak gapning oxirida nuqtaning qo'yilishi.

27-28-29-30-mavzular. So'roq gap. So'roq gaplarda qo'yiladigan tinish belgisi (4 soat).

So'roq gaplarning mazmuni, ularning ohangi, so'roq gaplarning oxiriga so'roq belgisining qo'yilishi, so'roq gaplarning qo'llanishi, darak gaplarni so'roq gaplarga aylantirish.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

31-mavzu. Buyruq gap (1 soat).

Buyruq gaplarning mazmuni, iltimos, buyruq ohangi bilan o'qilishi, buyruq gap oxirida nuqtaning qo'yilishi.

32-33-mavzular. His-hayajon gap. His-hayajonli gaplarda tinish belgilarining qo'llanilishi (2 soat).

His-hayajonli va his-hayajonsiz gaplar, ularning ohangi, his-hayajonli gaplarning oxirida undov belgisining qo'yilishi, o'z taassurotlarini gapning maqsadga ko'ra turlaridan foydalanib so'zlash.

Nazorat ishi (1 soat).

34-mavzu. Gap bo'laklari (1 soat).

Gapda so'zlarning ma'lum bir vazifani bajarishi, bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

35-mavzu. Mustahkamlash. Ijodiy diktant (1 soat).

Gapda so'zlarning ma'lum bir vazifani bajarishi, bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar.

36-37-mavzular. Bosh bo'laklar (2 soat).

Kesim va ega gapning bosh bo‘laklari, ularning so‘roqlari, gapning bosh bo‘laklarini aniqlash va tegishlicha belgilash.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish*):

o‘qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;

rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi;

nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi;

matn nuqning yozma shakli, matnning gaplardan tuzilishini biladi, matnga sarlavha qo‘ya oladi;

mashq matnidagi so‘zlarni qo‘shib, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o‘qiy oladi;

unli va undosh tovushlarning farqini biladi va yoza oladi, tutuq belgisi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiladi va bir satrdan ikkinchi satrga bo‘g‘inlab ko‘chirib yoza oladi, *sh, ch, ng* harf birikmali so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lib yoza oladi, mashq matnidagi so‘zlarni qo‘shib o‘qiy oladi, gapning tugallangan fikrni bildirishini, yozuvda har bir gapning birinchi harfi bosh harf bilan yozilishi hamda gap oxirida tinish belgilarini: gap ohangiga qarab nuqta, so‘roq, undov belgilarini qo‘yib yoza oladi, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, rasmlar yordamida ijodiy matn yarata oladi, matndagi gaplarni mazmunan o‘zaro bog‘lay oladi, xatboshiga, imlo qoidalariga amal qiladi, tabriknoma, qisqa xatlar yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya:

o‘zbek tilidagi nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qila oladi;

talaffuz me‘yorlariga rioya qila oladi;

bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila oladi;

mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi;

tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish*):

matn mazmuniga mos gaplar tuzib, matnni davom ettira oladi.

Lingvistik kompetensiya:

mavzuga oid so‘z va iboralarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi;

o‘zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo‘llay oladi.

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

38-39-mavzular. Bosh bo‘laklar (2 soat).

Gapning asosini aniqlash, matnga sarlavha topish va matn mazmunini yozma qayta hikoyalash.

40-41-mavzular. Mustahkamlash (2 soat).

So‘zlardan gap tuzish, gapning bosh bo‘laklarini o‘z o‘rnida qo‘llay olish.

42-mavzu. Ikkinchi darajali bo‘laklar (1 soat).

Ikkinchi darajali bo‘laklarning so‘roqlari.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

43-mavzu. Ikkinchi darajali bo‘laklarning bosh bo‘laklarga bog‘lanishi (1 soat). Ikkinchi darajali bo‘laklarning kesim yoki egaga bog‘lanib kelishi, gap bo‘laklarini tahlil qilish.

44-45-46-mavzular. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi (3 soat).

Gapda so‘zlarning mazmunan bog‘lanishi, so‘zlarnig bog‘lanishini so‘roqlar yordamida aniqlash, berilgan so‘zlardan birikmalar va gaplar tuzish, ega va kesimdan iborat gaplarga ikkinchi darajali gaplarga qo‘shib yozish, chizmaga mos gaplar tuzish.

47-mavzu. O‘tilganlarni mustahkamlash (1 soat).

Gap, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, gap bo‘laklari yuzasidan tahlil.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

Nazorat ishi (1 soat).

III bo‘lim. SO‘Z TARKIBI

(22 soat, A1+:10 soat)

48-49-50-51-mavzular. Asos va asosdosh so‘zlar (4 soat).

So‘zning tarkibi haqida umumiy tushuncha, asos va asosdosh so‘zlar, asos va asosdosh so‘zlarning umumiy qismi, asosdosh so‘zlarning ma’no munosabati. Asos va asosdosh so‘zlarning asos qismini aniqlash, asosdosh so‘zlar ma’nosini izohlash, asosdosh so‘zlarni hosil qilish.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

52-53-mavzular. Asos va asosdosh so‘zlar (2 soat).

Asosdosh so‘zlar ma’nosini izohlash, asosdosh so‘zlarni hosil qilish. Reja asosida matnni yozma bayon qilish.

54-mavzu. So‘z yasovchi qo‘shimchalar (1 soat).

So‘z yasovchi qo‘shimchalar, ularning so‘z ma’nosini o‘zgartirishi, yangi ma’nodagi so‘zlarni hosil qilishi.

55-mavzu. So‘z yasovchi qo‘shimchalar (1 soat).

Yasovchi qo‘shimchalarning asosdosh (bir hil asosli) so‘zlar hosil qilishi

Nazorat ishi (1 soat).

56-mavzu: So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar (1 soat).

-ni, -ning, -ga, -ka, -da, -dan bog‘lovchi qo‘shimchalar, ularning qo‘llanilishi. So‘z tarkibiga jko‘ra tahlil.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

57-58-59-mavzular. Mustahkamlash. Takrorlash. Yasama soʻzlarning talaffuzi. (3 soat).

Yasovchi qoʻshimchalar yordamida yangi soʻzlar yasash, bir asosga bir necha yasovchi qoʻshimchalarning qoʻshilishi, yasama soʻzlarning talaffuzi, lugʻatning boyishida soʻz yasovchi qoʻshimchalarning oʻrni, soʻzlarni bogʻlovchi qoʻshimchalardan farqi.

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

60-61-mavzular. Soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalar (2 soat).

-ning, -ni, -ga, -da, -dan soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalar, ularning vazifasi, soʻzlarni oʻzaro toʻgʻri bogʻlashda bu qoʻshimchalardan toʻgʻri foydalanish.

62-63-64-mavzular. Soʻz yasovchi va soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalar (3 soat).

Soʻz yasovchi va soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalarning farqi, ayni bir asosga soʻz yasovchi va soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalarni qoʻshish va soʻzlarning maʼnosidagi farqlarni aniqlash, soʻzlardan foydalanib gaplar tuzish

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

65-66-mavzular. Soʻz tarkibi. Mustahkamlash (2 soat). Soʻzlarning tarkibi yuzasidan tahlil qilish, soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalardan toʻgʻri foydalana olish.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish*):

oʻqituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;

rasmlar asosida va oʻqib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi;

nutq jarayonida oʻzlashtirgan yangi soʻzlarni ogʻzaki nutqda qoʻllay oladi;

soʻzlardan gap tuza oladi, gapning bosh boʻlaklarini oʻz oʻrnida qoʻllay oladi, gapning asosini aniqlab, ikkinchi darajali boʻlaklarning soʻroqlari, ularning kesim yoki egaga bogʻlanib kelishini hamda gap boʻlaklarini tahlil qila oladi, gapda soʻzlarning mazmunan bogʻlanishini biladi;

soʻzlarning bogʻlanishini soʻroqlar yordamida aniqlaydi, berilgan soʻzlardan birikmalar va gaplar tuza oladi, ega va kesimdan iborat gaplarga ikkinchi darajali boʻlaklarni qoʻshib gaplarni kengaytira oladi, chizmaga mos gaplar tuza oladi;

gapning ifoda maqsadiga koʻra turlarini ajrata oladi;

asos va asosdosh soʻzlarni farqlay oladi, soʻz yasovchi qoʻshimchalarning qoʻllanishi va imlosini biladi;

bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi;

rasmlar asosida 5-6 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata oladi, matndagi gaplarni mazmunan oʻzaro bogʻlay oladi, matnga sarlavha topish va matn mazmunini yozma qayta hikoya qila oladi;

reja asosida matnni yozma bayon qila oladi, xatboshiga, imlo va husnixat qoidalariga amal qilgan holda tabriknoma, qisqa xatlar yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya:

oʻzbek tilidagi nutq tovushlarini toʻgʻri qoʻllay oladi;

talaffuz meʼyorlariga va boʻgʻin koʻchirish qoidasiga rioya qila oladi;

mavzuga oid soʻzlarni ogʻzaki va yozma nutqda qoʻllay oladi;

tinish belgilarini toʻgʻri qoʻllay oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish*):

soʻz tarkibini tahlil qila oladi;

rasmlar asosida 6-7 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata oladi.

Lingvistik kompetensiya:

mavzuga oid soʻz va iboralarini ogʻzaki va yozma nutqda qoʻllay oladi;

oʻzlashtirilgan leksik birliklarni matnda qoʻllay oladi.

Nazorat ishi (1 soat).

IV boʻlim. SOʻZ TURKUMLARI

(63 soat, A1+: 24 soat)

67-68-69-mavzular. Soʻz turkumlari (3 soat).

Ot, sifat, son, feʼl soʻz turkumlari, soʻzlarni maʼnolari va soʻroqlari asosida ajratish.

70-mavzu. Ot haqida maʼlumot (1 soat).

Ot. Otlarning shaxs va narsalarning nomini bildirishi va *kim? nima?* soʻroqlariga javob boʻlishi.

71-72-mavzular. Otlarning maʼnolari (2 soat).

Kim? soʻrogʻiga javob boʻladigan otlarning shaxsni bildirishi, *nima?* soʻrogʻiga javob boʻlgan otlarning narsani bildirishi.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

73-mavzu. *Kim? va nima?* soʻroqlariga javob boʻladigan otlar (1 soat).

Otlarning narsa, oʻsimlik, tabiat hodisalarini, oʻquv qurollari nomlarini bildirishi

74-75-mavzular. *Kim?, nima?* soʻroqlariga javob boʻladigan otlar (2 soat).

Takrorlash: *kim?* soʻroqlariga javob boʻladigan otlar: shaxsni, ismi va familiyasi, kishilarning kasbini bildirishi, *nima?* soʻroqlariga javob boʻladigan otlar: narsalarni, oʻsimlik, gul, kiyim-kechak, meva nomlarini bildirishi.

76-mavzu. *Kim?, nima?* soʻroqlariga javob boʻladigan otlar (1 soat).

Matn mazmunini qayta hikoyalash, rasm asosida gaplar tuzish. *Nima?* soʻroqlariga javob boʻladigan otlarning oziq-ovqat nomlarini bildirishi, *kim?* soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlar kasbni bildirishi.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

Nazorat va tahlil (2 soat).

77-78-mavzular. *Kim?, nima?* soʻroqlariga javob boʻladigan otlar (2 soat).

Hayvon va parranda turlari va ularga qoʻyilgan nomlar, *nima?* soʻrogʻiga javob boʻlishi va ularning imlosi, telefonda soʻzlashishi odobiga oid matn yaratish.

79-mavzular. Otlarda birlik va koʻplik (1 soat).

Birlikdagi otlarning maʼnolari va *kim?*, *nima?* soʻroqlariga javob boʻlishi, koʻplikdagi otlarning maʼnosi va kimlar?, nimalar? soʻroqlariga javob boʻlishi.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

80-81-mavzular. Birlik va koʻplikdagi otlar (2 soat).

Koʻplik qoʻshimchasining talaffuzi va imlosi. Koʻplikdagi otlarning imlosi. Rasm asosida matn yaratish.

82-mavzu. Birlik va koʻplikdagi otlar (1 soat).

Birlikdagi otlardan koʻplikdagi otlarni hosil qilish, matnni eshitish asosida qayta yozish.

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

83-84-mavzular. Ot yasovchi qoʻshimchalar (2 soat).

Ot yasovchi qoʻshimchalar: *-chi*, *-kor*, *-dosh*, *-zor*, *-loq*. Ot yasovchi qoʻshimchalarning maʼnolari, ot yasovchi qoʻshimchalardan toʻgʻri foydalanish, ot yasovchi qoʻshimchalar asosida otlar yasash.

85-86-mavzular. Yasama otlarning imlosi. Mustahkamlash (2 soat).

Shaxs va narsa otlarini yasovchi qoʻshimchalarning talaffuzi va imlosi, matnni qismlarga ajratish va unga reja tuzish, rasm va reja asosida bayon yozish.

Nazorat ishi (1 soat)

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

87-88-89-mavzular. Sifat (3 soat).

Sifatning shaxs va narsalarning belgisini bildirishi. Sifatning qanday?, qanaqa? soʻroqlariga javob boʻlishi. Sifatning otga bogʻlanishi.

90-91-mavzular. Sifatning maʼno turlari (2 soat).

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

92-93-94-mavzular. Sifat yasovchi qoʻshimchalar (3 soat).

Sifat yasovchi qoʻshimchalar: - *li*, -*siz*, -*dor* ularning maʼnosi va imlosi, bogʻning bahorgi koʻrinishi haqida sifatlardan foydalanib matn tuzish.

95-96-mavzular. Qarama-qarshi maʼnoli va yaqin maʼnoli sifatlar. Mustahkamlash (2 soat).

Qarama-qarshi va yaqin maʼnoli sifatlar topish, darslikdagi savol va topshiriqlar ustida ishlash.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

97-98-mavzular. Son. Sonning maʼno turlari (2 soat).

Sonning shaxs va narsalarning sanogʻini, tartibini bildirishi va *nechta?*, *qancha?*, *nechanchi?* soʻroqlariga javob boʻlishi. *Nechta?*, *qancha?* soʻroqlariga javob boʻlishi shaxs va narsalar miqdorini, shaxs va narsalarning joylashish tartibini bildirishi *nechanchi?* soʻrogʻiga javob boʻlishi. Sonlarning otlarga bogʻlanib kelishi, sanoqni bildirgan sonlarga -*ta* qoʻshimchasining qoʻshilishi, -*nchi* (-*inchi*) qoʻshimchalarining qoʻshilib tartib sonlarni hosil qilishi.

99-100-101-mavzular. Sonlarning imlosi. Mustahkamlash (3 soat). Sonlarning soʻz va raqam bilan ifodalanishi va ularning imlosi, darslikdagi savol va topshiriqlar ustida ishlash.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

Nazorat va tahlil (2 soat).

102-103-mavzular. Feʼl (2 soat).

Feʼl. Feʼlning shaxs va narsalar harakatini bildirishi, *nima qildi?*, *nima qilyaʼti?*, *nima qiladi?* soʻroqlariga javob boʻlishi.

104-mavzu. Feʼl. (1 soat).

Soʻroqlari yordamida feʼllarni aniqlash, feʼllarning maʼnosiga mos soʻroqlarni toʻgʻri qoʻllash. Yaqin maʼnoli soʻzlarning maʼnosini izohlash.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

105-106-107-108-mavzular. Feʼl (4 soat).

Matnlar asosida oʻquvchilar nutqini feʼllar bilan boyitish, feʼllardan gap mazmuniga mos holda foydalanish. Yaqin maʼnoli, qarama-qarshi maʼnoli feʼllarni soʻroqlar asosida maʼnoni aniqlash.

109-mavzu. Feʼl maʼnolari ustida ishlash (1 soat).

Darslikdagi savollar asosida matn yaratish

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish*):

o‘qituvchi nutqini, sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;

rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi;

nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi;

mashq matnidagi so‘zlarni qo‘shib o‘qiy oladi, so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarning qo‘llanishi va imlosini biladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o‘qiy oladi; kim?, nima?, kimlar?, nimalar?, qanday?, qanaqa?, nechta?, qancha?, nechinchi?, nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? kabi so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarni yoza oladi;

yaqin ma’noli, qarama-qarshi ma’noli sifatlarni aniqlay oladi, sifatning otga bog‘lanishini biladi, sifatning ma’no turlarini ajratadi;

- *li*, -*siz*, -*dor* qo‘shimchalarini qo‘shib sifat yasay oladi;

sonning shaxs va narsalarning sanog‘ini, tartibini bildirishi va nechta?, qancha?, nechanchi? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarni yoza oladi, -*nchi* (-*inchi*) qo‘shimchalarini qo‘shib tartib sonlarni hosil qila oladi;

gapning mazmuniga mos fe’lni topib qo‘ya oladi va yozadi;

rasmlar asosida kichik matn yoza oladi;

matndagi gaplarni mazmunan o‘zaro bog‘lay oladi;

xatboshiga, imlo va husnixat qoidalariga amal qilib, tabriknoma, qisqa xatlar yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya:

o‘zbek tilidagi nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qila oladi;

talaffuz me‘yorlariga va bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila oladi;

mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli qo‘llay oladi;

nutqda so‘zlarning grammatik shakllaridan to‘g‘ri foydalana oladi;

tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish*):

nutqida ot, sifat, son, fe’l so‘z turkumlaridan o‘rinli foydalanib, matn yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya:

o‘rganilgan ifoda vositalaridan nutqda o‘rinli foydalana oladi.

Nazorat ishi (1 soat).

110-111-mavzular. Fe’llarning talaffuzi va imlosi (2 soat).

Nutqda fe’llardan to‘g‘ri foydalana olish, bir necha rasm asosida matn yaratish.

112-113-114-mavzular. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar (3 soat).

Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, -ma qo'shimchasi yordamida bo'lishsiz fe'llarning hosil qilinishi. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar imlosi.

Nutq o'stirish (A1+: 1 soat)

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

115-116-117-mavzular. Fe'l yasovchi qo'shimchalar (3 soat).

-la,-illa (-ulla) fe'l yasovchi qo'shimchalari, ularning ma'nolari hamda imlosi, yasama fe'llarning talaffuzi va imlosi.

118-119-mavzular. Rasm asosida insho yozish va uning tahlili (2 soat).

Rasm asosida kichik hikoya yozish.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat).

Husnixat (1 soat).

Nazorat va tahlil (2 soat).

**V bo'lim. YIL DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH.
BOG'LANISHLI NUTQNI O'STIRISH
(29 soat, A1+:12 soat)**

120-121-122-mavzular. So'z va gap (3 soat).

Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari. Shaxs va narsaning belgisini, harakatini, sanoq va tartibini bildirishi, so'roqlari, so'zlarning tartibi, so'zlarning bo'g'inlarga bo'linishi, tovushlarning ma'lum tartibda joylashishidan tuzilishi. Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat).

Husnixat (1 soat).

123-124-mavzular. Matn va uning tuzilishi (2 soat).

Nutq va uning turlari, matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo'lish; matn qismlariga sarlavha tanlash; matnning tuzilishi: *kirish* qismi, *asosiy fikr*, *oxirgi xulosa* qismi va ularni belgilash, reja tuzish. So'z, so'z va uning tarkibi, asos, so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilash, so'zlarning ma'nosi, bosh harf bilan yozilishi.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

125-126-mavzular. Matn va gap. So'z yasovchi qo'shimchalar (2 soat).

Matnning mazmunan bog'liq gaplarda tuzilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi, gapda ifoda maqsadiga ko'ra turlarini hosil qilish. So'z yasovchi qo'shimchalarning so'z ma'nosini o'zgartirishi, ot, sifat, fe'l so'z turkumlarida so'z yasalishi.

127-128-mavzular. Ot so'z turkumi (2 soat).

Otlarda birlik va ko'plik: otlarning shaxs va narsaning bildirishi, ularning birlik va ko'plikda qo'llanishi, yasama otlar.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

129-130-131-mavzular. Sifat so'z turkumi. Son so'z turkumi (3 soat).

Sifat so'z turkumi, sifatlarning narsa va shaxslarning belgisini bildirishi, matnda sifatlarning ahamiyati; son so'z turkumining shaxs va narsalarning miqdori va tartibini bildirishi va imlosi, nutqda sifat va son so'z turkumlaridan o'rinli foydalanish.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Nutq o'stirish (1 soat).

Husnixat (1 soat).

132-133-134-mavzular. Fe'l so'z turkumi (3 soat).

Rasm asosida hikoya tuzish. Matn ustida ishlash: fe'l so'z turkumi, shaxs va narsaning harakatini bildirishi, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, nutqda fe'llardan o'rinli foydalanish, rasm asosida fikrlarni izchil bayon qila olish, matnga sarlavha topish va uni qismlarga ajratish.

135-136-mavzular. Gap va so'z (2 soat).

Matndagi gaplarning chegarasini aniqlash, xat boshini aniqlash va to'g'ri yozish, matn mazmuniga mos so'zlar tanlash, reja tuzish. Gapda so'zlarning bog'lanishi.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

137-138-139-mavzular. Matn ustida ishlash (3 soat).

Matnda gaplarning bog'lanishi, matn mazmunini qayta hikoyalash, matn qismlarini va har bir qismdagi gaplarning o'zaro bog'liqligi, ot, sifat, son va fe'l so'z turkumlarini tahlil qilish.

140-mavzu. Gap bo'laklari (1soat).

Gap bo'laklari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar va ularning o'zaro bog'lanishi, gapning asosi.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

141-142-mavzular. Gap bo'laklari (2 soat).

Gap bo'laklari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar va ularning o'zaro bog'lanishi, gapning asosi.

143-144-mavzular. Matn. Gap. Gap bo'laklari (2 soat).

Bir necha rasm asosida hikoya tuzish. Matnning gaplardan ruzilishi. Gaplarni gap bo'laklariga ko'ra tahlil.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):

o'qituvchi nutqini videova audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;

rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi;

nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi;

mashq matnidagi so'zlarni qo'shib, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi;

gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari va gaplarning ifoda maqsadga ko'ra turlarini biladi, gapda so'zlarni o'zaro bog'lab kichik matn yoza oladi, matn qismlariga sarlavha qo'ya oladi, matnning *kirish* qismi, *asosiy fikr*, *oxirgi xulosa* qismlarini topa oladi;

shaxs va narsani bildirgan otlarga, yasama otlarga, shaxs va narsalarning belgisini bildirgan so'zlarga, shaxs va narsalarning miqdori, tartibini va harakatini bildirgan so'zlarga, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga mos so'zlarni topib yoza oladi;

-la, -illa (-ulla) fe'l yasovchi qo'shimchalari bilan fe'l yasay oladi;

savollarga yozma javob yoza oladi, matndagi gaplarni mazmunan o'zaro bog'lay oladi, xatboshiga, imlo va husnixat qoidalariga amal qila oladi, tabriknoma, qisqa xatlar va 50-60 so'zli diktant yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya:

o'zbek tilidagi nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qiladi;

talaffuz me'yorlariga va bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi;

o'zlashtirgan leksik birliklarni matnda qo'llay oladi;

mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda o'rinli qo'llay oladi;

nutqda so'zlarning grammatik shakllaridan to'g'ri foydalana oladi;

tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*):

nutqida ot, sifat, son, fe'l so'z turkumlaridan o'rinli foydalanib, matn yoza oladi; 55-65 so'zli diktant yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya:

o'rganilgan ifoda vositalaridan nutqda o'rinli foydalana oladi.

Nazorat ishi (1 soat).

NUTQ O'STIRISH

Matn. Matnni mazmunan tugallangan kichik qismlarga bo'lish: matn qismlariga sarlavha tanlash. Voqeaband matnga o'qituvchi rahbarligida reja tuzishni uddalash. Matnning qismlarini va har bir qismdagi gaplarni o'zaro bog'lay olish. Matn mazmunidagi asosiy fikrni aniqlash. Matnning tuzilishi: kirish (muqaddima) qism, asosiy qism, yakuniy qism; matndan ana shu qismlarni aniqlay bilish.

Xabar (hikoya). Biror voqea-hodisa haqida tayyor reja yoki ko'pchilik ishtirokida tuzilgan reja asosida bayon - axborot yozish.

Voqeaband bir rasm yoki turkum rasmlar, shuningdek, o'quvchilarning hayoti bilan bog'liq bir mavzuda (o'yinlari, sayr-sayohatlari, tabiatni kuzatish

kabilar haqida) sinf jamoasining oldindan ko'rgan hozirligi bilan og'zaki yoki yozma kichik hikoyalar yozish.

HUSNIXAT

Yozuvga oid malakalarni mustahkamlash. Bir chiziqli daftarda harflarning balandlik va kenglik o'lchamiga rioya qilib yozish. Yozilishi qiyin ayrim bosh va kichik harflarni (*I, S, H, N, G', Q, P, S*) yozishga, shuningdek, harflarni to'g'ri tutashtirishga rioya qilish, so'zlar, gaplarni ko'chirib yozish, eshitib yozish.

Bog'lanishli nutqqa oid mashqlar dastur materiallarini o'rganish jarayonida unga bog'liq holda o'tkaziladi.

Mavzularni o'rganish uchun – 144 soat

Nazorat ishlari uchun – 18 soat

Tahlil uchun – 8 soat

Nutq o'stirish – A1 +: 34 soat

Husnixat uchun –A1+: 34 soat

Jami – 170 soat (A1 + 238 soat)

4-SINF

FONETIKA, GRAMMATIKA, IMLO VA NUTQ O'STIRISH

(170 soat, A1+: 238 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

axborot manbalaridan va darslik materiallaridan tashqari (kitob, lug'at) manbalardan ma'lumotlarni izlab topa olish va foydalanish;

media vositalaridan, didaktik materiallaridan foydalanish, fayllarni ochishda media madaniyatiga rioya qilish.

A1+

axborot manbalaridan va darslik materiallaridan tashqari (kitob, lug'at) manbalardan ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, ulardan samarali foydalana olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

mustaqil o'qib-o'rganish va bilimni muntazam oshirib borish;

kun tartibini to'g'ri tashkil etish;

o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish.

A1+

doimiy ravishda o'zini o'zi mustaqil va ijodiy rivojlantirish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

o'quvchilik burch va huquqlarini, vazifalarini bilish va ularga rioya qilish;

maktabda va maktabdan tashqari tadbirlarda (ko‘rik-tanlovlar, hashar va h. k. ishtirok etish va muomala madaniyatiga (kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘lish kabi sifatlariga) amal qilish;

oilada o‘z o‘rnini hamda vazifalarini anglash.

A1+

o‘zining burchini bilish, unga rioya qilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

maktabning ichki va tashqi qoidalariga rioya qilish;

yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish;

milliy qadriyatlarni (milliy-madaniy an‘analari, bayramlar, sayllar) bilish.

A1+

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish, nutqiy me‘yorlarga rioya qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi :

A1

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda mavzuga oid jadvallarni o‘qiy olish.

A1+

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy va iqtisodiy rejalarni tuza olish.

I bo‘lim. GAP **(6 soat,A1+: 2 soat)**

1-2-mavzular. 3-sinfda o‘tilganlarni takrorlash. Gap (2 soat).

Gaplarning chegarasini aniqlash. Gap mazmunini tushunish. Gapda tinish belgilarining qo‘llanishiga e‘tibor berish.

3-4-mavzular. Gapning maqsadga ko‘ra turlari (2 soat).

Gapning fikr ifodalashi. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, Gapni tugallangan ohang bilan, tinch istak, maslahat, buyruq, so‘roq va his-hayajon ohangida aytilishi; gapning ohangiga ko‘ra tinish belgilarining ishlatilishi (nuqta, so‘roq, undov belgilari).

5-6-mavzular. Gapning maqsadga ko‘ra turlari (2 soat).

Darak, so‘roq, buyruq, istak, his-hayajon gaplari. Gapda so‘zlarni o‘rinli qo‘llash.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

II bo‘lim. GAP BO‘LAKLARI **(7 soat, A1+: 2 soat)**

7-8-mavzular. Gap bo‘laklari (2 soat).

Kesim - gapning markazi. Ega, uning kesim bilan munosabati va soʻroqlari. Gapning bosh va ikkinchi darajali boʻlaklari, ikkinchi darajali boʻlaklarning soʻroqlari, ularning boshqa soʻzlarga bogʻlanishi, gapni ikkinchi darajali boʻlaklar qoʻshib kengaytirish, ikkinchi darajali boʻlaklarni oʻrniga qoʻyib gapni qayta tuzish.

9-10-11-mavzular. Gapda soʻzlarning bogʻlanishi (3 soat).

Gap boʻlaklarini bogʻlovchi grammatik vositalar: qoʻshimchalar va ohang yordamida bogʻlanishi.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

Nazorat va tahlil (2 soat).

III boʻlim. UYUSHIQ BOʻLAKLI GAPLAR
(10 soat, A1+:4 soat)

12-mavzu. Uyushiq boʻlakli gaplar (1 soat).

Gapda bir xil soʻroqqa javob boʻlgan soʻzlarning birdan ortiq qoʻllanishi va bitta boʻlakka bogʻlanishi – uyushiq boʻlaklar. Gapdagi uyushiq boʻlaklarning sanash ohangi bilan oʻqilishi.

13-14-mavzular. Gapda ega va kesimning uyushib kelishi (2 soat).

Gapda ega va kesimlarning uyushib kelishi. Bir xil soʻroqqa javob boʻlgan soʻzlarni topish. Uyushiq egalarni aniqlash. Uyushiq kesimlarni aniqlash. Chizmaga mos gap tuzish.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

15-16-mavzular. Gapda ikkinchi darajali boʻlaklarning uyushib kelishi (2 soat).

Gapda ikkinchi darajali boʻlaklarning uyushib kelishi.

17-18-19-mavzular. Uyushiq boʻlaklarning bogʻlanishi (3 soat).

Uyushiq boʻlaklarni sanash ohangi bilan oʻqish; uyushiq boʻlaklarning sanash ohangi yordamida bogʻlanishi; *va, hamda, ammo, lekin, biroq* soʻzlari yordamida bogʻlanishi; uyushiq boʻlaklar orasida vergulning ishlatilishi

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

Nazorat va tahlil (2 soat).

IV boʻlim. UNDALMA
(6 soat, A1+: 2 soat)

20-mavzu. Undalma (1 soat).

Undalma soʻzlovchining nutqi qaratilgan shaxs ekanligi, bosh kelishikdagi soʻzlar bilan ifodalanishi, gapda boshqa boʻlaklar bilan bogʻlanmasligi, undash, chaqirish ohangi bilan aytilishi; gapning boshida, oxirida, oʻrtasida qoʻllanishi. Yozuvda undalma vergul yoki undov belgisi bilan ajratilishi.

21-22-mavzular. Undalmali gaplarda tinish belgi (2 soat).

Undalmali gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi. Undalma gapning qaysi oʻrnida kelishi. Undalmali gapda fikr yana nimalarga qaratilishi mumkinligi.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

23-24-mavzular. Undalmali gaplar (2 soat).

Undalmaning gapdagi oʻrni va tinish belgisining qoʻyilishi. Undalmalar kimlarga qaratilganligi. Undalmali gaplarning maqsadga koʻra turlari.

25-mavzu. Taʼlimiy insho (1 soat).

**V boʻlim. NUTQ. MATN
(5 soat, A1+: 2 soat)**

26-27-mavzular. Nutq. Matn (2 soat).

Nutqning mazmunan bogʻlangan gaplardan tuzilishi. Nutqning ogʻzaki va yozma shaklda boʻlishi. Matn – nutqning yozma shakli.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

28-mavzu. Matnni qismlarga boʻlish (1 soat).

Matnni ifodali oʻqish, qismlarga boʻlish asosiy fikrni aniqlash, matnga sarlavha qoʻyish, reja tuzish.

Nazorat va tahlil (2 soat).

**VI boʻlim. TOVUSHLAR VA HARFLAR
(10 soat, A1+: 4 soat)**

29-30-mavzular. Tovushlar va harflar (2 soat).

Tovushlarning harflar bilan ifodalanishi. Unli va undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi; talaffuzi va yozilishi farq qiladigan unli tovushli soʻzlarning talaffuzi va imlosi.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat).

Husnixat (1 soat)

31-32-mavzular. Undosh tovushlarning talaffuzi va imlosi (2 soat).

Undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi; talaffuzi va imlosi farq qiladigan undosh tovushli soʻzlar, yonma-yon kelgan undosh tovushli soʻzlarning talaffuzi va imlosi; jarangli va jarangsiz undoshlarning talaffuzi va imlosi; yonma-yon kelgan bir xil undoshli soʻzlar va ularning imlosi; soʻz oxirida qator kelgan

undoshli soʻzlar va ularning imlosi, *x-h* tovushli soʻzlar va ularning imlosi, tovush-harf tahlili.

33-34-mavzular. Boʻgʻin (2 soat).

Soʻzlarni boʻgʻinga boʻlish. Unli tovushlarning boʻgʻin hosil qilishi; soʻzlarni bir satrdan ikkinchi satrga boʻgʻinlab koʻchirish; soʻzlarning boʻgʻin-tovush va tovush-harf jihatdan tahlili.

35-mavzu. Tutuq belgisi (1 soat).

Tutuq belgisiga koʻra farqlanayotgan soʻzlar. Tutuq belgisining vazifasi. Tutuq belgili soʻzlarning boʻgʻinlab koʻchirilishi.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

36-mavzu. Jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi va imlosi. (1 soat).

Tutuq belgili soʻzlarning boʻgʻinlab koʻchirilishi.

37-mavzu. Alifbo (1 soat).

Soʻzlarni Alifbo tartibida qayta yozish. Alifboning amaliy ahamiyati.

Nazorat ishi (1 soat).

VII boʻlim. SOʻZ VA SOʻZ TARKIBI

(5 soat, A1+: 2 soat)

38-mavzu. Soʻz va soʻz tarkibi (1 soat).

Soʻz, uning tarkibiy qismi, asos va qoʻshimchalar, qoʻshimchalarning vazifasiga koʻra turlari.

39-mavzu. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar (1 soat).

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar, asos va soʻz yasovchi qoʻshimchalarni aniqlash va belgilash. Soʻz yasovchi qoʻshimchalarni qoʻshib, asosdosh soʻzlarni hosil qilish; tilning rivojlanib, boyib borishi haqida tushunchani shakllantirish.

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat).

Husnixat (1 soat).

Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish*):

oʻqituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, oʻzaro savol-javob, topshiriqlarni, kichik matnlarni, mavzu doirasidagi video va audio (multimedia ilovalari) matnlarini tinglab tushuna oladi;

oʻqilgan matn mazmunini va oʻzgalar fikrini anglab, ifodalay oladi, ogʻzaki nutqda soʻz va gaplar ohangiga rioya qila oladi, nutq jarayonida oʻzlashtirgan yangi soʻzlarni ogʻzaki nutqda qoʻllay oladi;

gapning maqsadga koʻra turlarini farqlaydi, gapning ohangiga koʻra tinish belgilarini (nuqta, soʻroq, undov belgilari) ishlata oladi, gapning bosh va ikkinchi darajali boʻlaklari, kesim gapning markazi ekanini, eganing kesim bilan munosabati va soʻroqlarini, ikkinchi darajali boʻlaklarning soʻroqlarini, ularning

boshqa soʻzlarga bogʻlanishini biladi, gapni ikkinchi darajali boʻlaklar qoʻshib kengaytira oladi, gap boʻlaklarini bogʻlovchi grammatik vositalar, qoʻshimchalar va ohang yordamida bogʻlay oladi, uyushiq boʻlakli gaplar, gapda ega, kesim va ikkinchi darajali boʻlaklarning uyushib kelishini, uyushiq boʻlaklarning sanash ohangi, *va, hamda, ammo, lekin, biroq* soʻzlari yordamida bogʻlanishini, uyushiq boʻlaklar orasida vergulning ishlatilishini;

undalma va undalmadan soʻng vergul yoki undov belgisining qoʻyilishini biladi, matnni ifodali oʻqiydi, qismlarga boʻladi, asosiy fikrni aniqlay oladi, matnga sarlavha qoʻyib, rejasini tuza oladi, mashq matnidagi soʻzlarni, turli matn va topshiriqlarni gap ohangiga rioya qilgan holda toʻliq, toʻgʻri, ravon va tushunarli qilib oʻqiy oladi;

tanlangan matnga sarlavha qoʻyib, reja tuza oladi, tuzilgan ijodiy matnning mantiqiy izchilligiga rioya qilgan holda va xatboshi, imlo hamda husnixat qoidalariga amal qilib yoza oladi, rasm asosida ijodiy matn yarata oladi.

Lingvistik kompetensiya: talaffuz meʼyorlariga rioya qila oladi, boʻgʻin koʻchirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid soʻzlarni ogʻzaki va yozma nutqda oʻrinli qoʻllay oladi, nutqda soʻzlarning grammatik shakllaridan toʻgʻri foydalana oladi, tinish belgilarini toʻgʻri qoʻllay oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish*):

nutq jarayonida oʻzlashtirgan yangi soʻzlarni ogʻzaki nutqda qoʻllay oladi; gap boʻlaklarini bogʻlovchi grammatik vositalar, qoʻshimchalar va ohang yordamida bogʻlay oladi;

berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib oʻqiydi;

tanlangan matnga sarlavha qoʻyib, reja tuza oladi, tuzilgan ijodiy matnning mantiqiy izchilligiga rioya qilgan holda va xatboshi, imlo hamda husnixat qoidalariga amal qilib yoza oladi, rasm asosida ijodiy matn yarata oladi.

Lingvistik kompetensiya:

oʻrganilgan ifoda vositalaridan nutqda oʻrinli foydalana oladi.

40-41-mavzular. Soʻz tarkibi. Soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalar (2 soat).

Mustahkamlash: soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalar: egalik, kelishik, shaxs-son qoʻshimchalari. Matndan asosdosh soʻzlarni ajrata olish, bir xil asosli soʻzlar hosil qilish va ularning imlosi.

42-mavzu. Bayon (1 soat).

VIII boʻlim. SOʻZ TURKUMLARI

(3soat, A1+: 2 soat)

43-44-mavzular. Soʻz turkumlari (2 soat).

Ot. Otning maʼno turlari, Shaxs otlari, narsa otlari, joy otlari. Otlarning *kim?, nima?, qayer?* soʻroqlaridan biriga javob boʻlishi; otlarning bosh va kichik

harflar bilan yozilishi; otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi; otlarning bosh va ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi.

Sifat. Sifatning ma'no turlari va *qanday?*, *qanaqa?* So'roqlariga javob bo'lishi. Sifatlarning otga bog'lanishi, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi.

Son. Sonning *necha?*, *qancha?*, *nechanchi?* so'roqlariga javob bo'lishi. sonning otga bog'lanishi, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi.

Fe'l. Fe'lning harakat bildirishi va *nima qildi?*, *nima qilya'ti?*, *nima qilmoqchi?* so'roqlariga javob bo'lishi; bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar; fe'lning kesim vazifasida kelishi; ot, sifat va fe'lga doir asosdosh so'zlar tizimini tuzish.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

45-mavzu. Ma'nodosh, qarama-qarshi ma'noli, bir xil shaklli, ko'p ma'noli so'zlar (1soat).

So'z turkumlari ichida va orasida uchraydigan ma'nodosh, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, bir xil shaklli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash. So'z yasovchi qo'shimsalar yordamida bir turkumdan ikkinchi turkumga oid so'zlar yasash.

IX bo'lim. OT – SO'Z TURKUMI

(39 soat, A1+: 14 soat)

46-47-48-49-mavzular. Ot (4 soat).

Ot yuzasidan 1-3-sinflarda o'tilganlarni takrorlash: otlarning shaxs, narsa-buyum, joy, hayvon nomlarini bildirishi. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi. Kishilarning ismi-sharifi, shahar, ko'cha, hayvonlarga qo'yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

Nazorat ishi (1 soat).

50-51-52-mavzular. Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi (3 soat).

Egalik qo'shimchalarining I, II, III shaxs ma'nosini hamda birlik va ko'plik ma'nosini ifodalashi: otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, otlarning nutqda egalik qo'shimchalarini olgan va olmagan holda qo'llanishi.

53-mavzu. Egalik qo'shimchalarining shakllari (1 soat).

Egalik qo'shimchalarining unli va undoshdan keyin qo'shiladigan shakllari; egalik qo'shimchasi qo'shilgan otlarning talaffuzi va imlosi.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

54-mavzu. Egalik qo'shimchalarining shakllari (1 soat).

Egalik qo'shimchalarining unli va undoshdan keyin qo'shiladigan shakllari; egalik qo'shimchasi qo'shilgan otlarning talaffuzi va imlosi.

55-56-mavzular. Egalik qo'shimchalari qo'shilgan otlarda tovush o'zgarishlari (2 soat).

Otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda ba'zi so'zlarning asos qismida tovush o'zgarishi bo'lishi: *i, u, a* tovushining tushib qolishi, *k, q* tovushining *g, g'* tovushlariga almashishi.

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

57-58-mavzular. Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi (2 soat).

Otning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi; matnda va nutqda otlarning biron bir kelishikda bo'lishi.

59-60-mavzular. Bosh kelishik (2 soat).

Bosh kelishikdagi so'zlar, so'roqlari, ularning boshqa so'zlarga bog'lanishi. Bosh kelishikdagi otlarning gapdagi vazifasi.

61-mavzu. Qaratqich kelishigi (1 soat).

Qaratqich kelishigining qo'shimchasi, so'roqlari, ma'nosi. Qaratqich kelishigi qo'shimchasining otni otga bog'lashi, talaffuzi va imlosi, gapdagi vazifasi.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat).

Husnixat (1 soat).

62-mavzu. Qaratqich kelishigidagi so'zlarning talaffuzi va imlosi (1 soat).

63-64-mavzular. Tushum kelishigi (2 soat).

Tushum kelishigining qo'shimchasi, so'roqlari, ma'nosi. Tushum kelishigi qo'shimchasining otni fe'lga bog'lashi. Tushum kelishigidagi otlarning talaffuzi va imlosi, gapdagi vazifasi.

65-mavzu. Qaratqich va tushum kelishigi (1 soat).

Qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalarining so'zlarni o'zaro bog'lashi. Qaratqich kelishigidagi so'zlarning otlarga, tushum kelishigidagi so'zlarning fe'llarga bog'lanishi, bu qo'shimchalarning qo'llanish o'rinlarini farqlash.

66-mavzu. Jo'nalish kelishigi (1 soat)

Jo'nalish kelishigining qo'shimchalari, so'roqlari, ma'nosi. Jo'nalish kelishigining otni fe'lga va boshqa so'zlarga bog'lashi.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

67-68-mavzular. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasining otlarni fe'llarga bog'lashi (2 soat).

Joʻnalish kelishigi qoʻshimchalarining *-ga, -ka, -qa* shakllarida qoʻllanishi. Joʻnalish kelishigidagi otlarning talaffuzi va imlosi.

69-70-mavzular. Oʻrin-payt kelishigi (2 soat).

Oʻrin-payt kelishigining maʼnosi, qoʻshimchasi. Oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchasining otni feʼlga bogʻlashi. Oʻrin-payt kelishigidagi soʻzlarning talaffuzi va imlosi.

Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish*):

oʻqituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, oʻzaro savol-javob, topshiriqlarni, kichik matnlarni, mavzu doirasidagi video va audio (multimedia ilovalari) matnlarini tinglab tushuna oladi;

oʻqilgan matn mazmunini va oʻzgalar fikrini anglab, ifodalay oladi, ogʻzaki nutqda soʻz va gaplar ohangiga rioya qila oladi, nutq jarayonida oʻzlashtirgan yangi soʻzlarni ogʻzaki nutqda qoʻllay oladi;

unli va undosh tovushlar talaffuzi va imlosi, soʻzlarni boʻgʻinga boʻlish va koʻchirishni, soʻzlarni boʻgʻin-tovush va tovush-harf jihatdan tahlil qilishni biladi, soʻz, uning tarkibiy qismi, asos va qoʻshimchalar, qoʻshimchalarning vazifasiga koʻra turlarini farqlaydi, ot soʻz turkumini, ot va otning egalik va kelishik qoʻshimchalari bilan turlanishini biladi, ijodiy matnning mantiqiy izchilligiga rioya qilgan holda va xatboshi, imlo hamda husnixat qoidalariga amal qilib yoza oladi, rasm asosida ijodiy matn yarata oladi, xabar, tasvir, muhokama shakllarini qoʻllab matn yarata oladi, tabriknoma, xat yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya: oʻzbek tilida nutq tovushlarini toʻgʻri qoʻllay oladi, talaffuz meʼyorlariga rioya qila oladi, boʻgʻin koʻchirish qoidasiga rioya qila oladi, oʻzlashtirgan leksik birliklarni matnda qoʻllay oladi, mavzuga oid soʻzlarni ogʻzaki va yozma nutqda oʻrinli qoʻllay oladi, nutqda soʻzlarning grammatik shakllaridan toʻgʻri foydalana oladi, tinish belgilarini toʻgʻri qoʻllay oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish*):

berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib oʻqiydi; ijodiy matnning mantiqiy izchilligiga rioya qilgan holda va xatboshi, imlo hamda husnixat qoidalariga amal qilib yoza oladi, rasm asosida ijodiy matn yarata oladi, xabar, tasvir, muhokama shakllarini qoʻllab matn yarata oladi, tabriknoma, xat, taklifnoma, eʼlon yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya:

imlo va talaffuz meʼyorlari, boʻgʻin koʻchirish qoidasiga rioya qila oladi, oʻzlashtirgan leksik birliklarni matnda qoʻllaydi, oʻrganilgan ifoda vositalaridan nutqda oʻrinli foydalana oladi.

Nazorat ishi (2 soat).

A1+

Nutq oʻstirish (1 soat).

Husnixat (1 soat).

71-72-mavzular. Chiqish kelishigi (2 soat).

Chiqish kelishigining qo'shimchasi, so'roqlari, ma'nosi. Chiqish kelishigi qo'shimchasining otni fe'lga bog'lashi. Chiqish kelishigidagi otlarning talaffuzi va imlosi.

73-74-mavzular. Otlarning kelishiklar bilan qo'llanishi (2 soat).

Matndan kelishik qo'shimchalari bilan qo'llangan otlarni aniqlash, kelishik qo'shimchalarini va ularning turini belgilash. Nutqda otlarni kelishik shakllarida to'g'ri qo'llash.

75-mavzu. Ot yasovchi qo'shimchalar (1 soat).

Otga va boshqa so'zga qo'shib, uning ma'nosini o'zgartirayotgan qo'shimchalar. –*chi*, –*zor*, –*dosh*, –*kor*, –*k*, –*q*– ot yasovchi qo'shimchalardir.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

76-mavzu. Ot yasovchi qo'shimchalar (1 soat).

Leksik mashqlar va ular yordamida o'quvchilar nutqini otlar bilan boyitish. Tarkibida yasovchi qo'shimchasi bo'lgan otlarni aniqlash, ma'nosini izohlash.

77-mavzu. Ot - so'z turkumi yuzasidan takrorlash (1 soat).

Otlarni nutqda to'g'ri qo'llay olish. Otlarni tahlil qilish.

Nazorat va tahlil (2 soat).

X bo'lim. SIFAT – SO'Z TURKUMI

(16 soat, A1+: 8 soat)

78-mavzu. Sifat - so'z turkumi (1 soat).

Sifat - so'z turkumi haqida ma'lumot

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

79-mavzu. Sifat so'z turkumi (1 soat).

Sifat shaxs va narsaning rangini, shaklini, hajmini, mazasini, hidini, xususiyatini bildirishi, *qanday?*, *qanaqa?* so'roqlariga javob bo'lishi

80-81-82-mavzular. Sifatlarning otga bog'lanishi (3 soat). Sifatlarning otga bog'lanishi, sifatlarning otga ohang yordamida bog'lanishi, gapdagi vazifasi; sifatlarning gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi.

83-mavzu. Sifatlarning ma'no turlari (1 soat).

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

84-85-86-87-mavzular. Sifatlarning ma'no turlari (4 soat).

Shaxs va narsaning rangini, mazasini, shaklini, hajmini bildirishi, nutqda sifatning ma'no turlaridan to'g'ri foydalana olish.

88-mavzu. Sifat yasovchi qo'shimchalar (1 soat).

–*ser*, –*be*–, –*siz*, –*li*, –*cha*, –*dor*, –*q* – sifat yasovchi qo'shimchalar ekanligi.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat).

Husnixat (1 soat).

89-mavzu. Sifat yasovchi qo‘shimchalarning imlosi (1 soat).

Sifatlar yuzasidan leksik mashqlar va ular yordamida o‘quvchilar nutqini sifatlar bilan boyitish.

90-91-92-mavzular. Sifatlarning yozilishi (3 soat).

Belgi ma’nosini kuchaytirib ifodalash. *-ko‘m-ko‘k, oppoq, sap-sariq, och sariq, to‘q qizil* kabi sifatlarning talaffuzi va imlosi. So‘roqlar yordamida sifatlarni aniqlash va gapdagi vazifasini belgilash.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

XI bo‘lim. SON – SO‘Z TURKUMI

(10 soat, A1+: 4 soat)

93-94-mavzular. Son so‘z - turkumi. (2 soat).

Sonlarning yozuvda ifodalanishi: sonning shaxs va narsaning sanog‘i (miqdori) va tartibini bildirishi; Sonlarning *necha?, nechta, qancha?, nechanchi?* so‘roqlariga javob bo‘lishi. Sonlarning yozuvda harfiy ifoda, arab, rim raqamlari bilan ifodalanishi. Sonlarning imlosi (*sakkiz, sakkizinchi, 8-mart, 2003-yil*), *ikkov, o‘ntacha, beshtadan* kabi sonlarning imlosi (amaliy).

95-mavzu. Sanoq va tartib sonlar (1 soat).

Sonlarning Shaxs va narsalarning miqdorini, tartibini bildirishi.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat).

Husnixat (1 soat).

96-mavzu. Tartib sonlarni hosil qiluvchi qo‘shimchalar, ularning imlosi (1 soat).

Tartib sonlarning asos va qo‘shimchalari, so‘roqlari.

97-98-mavzular. Sonlarning otga bog‘lanishi (2 soat).

Sonlarning otga bog‘lanib kelishi; sonlarning otga ohang yordamida bog‘lanishi. Sonlarning *metr, gramm* kabi so‘zlar bilan kelganda bitta so‘roqqa javob bo‘lishi. Sonlarning gapda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelishi; sonlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birikma tarzida yozish.

99-100-mavzular. Son yuzasidan takrorlash (2 soat).

Sonlarning nutqdagi amaliy ahamiyati. Og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishda sonlardan to‘g‘ri foydalana olish.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

Nazorat va tahlil (2 soat).

XII bo'lim. KISHILIK OLMOSHLARI

(13 soat, A1+: 6 soat)

101-mavzu. Kishilik olmoshlari (1 soat).

Kishilik olmoshlari haqida ma'lumot: kishilik olmoshlari, ularning uch Shaxsni ifodalashi; Kishilik olmoshlarining *kim?*, *kimlar?* so'rog'iga javob bo'lishi

102-103-mavzular. Kishilik olmoshining Shaxs otlari o'rnida qo'llanishi (2 soat).

Men, sen, biz, siz olmoshlarining 1-, 2-shaxs ko'plikni ifodalashi, shaxsga ishora qilishi, lekin ot o'rnida qo'llana olmasligi, *u, ular* olmoshlarining ot o'rnida qo'llanishi

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

Nazorat ishi (1 soat).

104-105-106-mavzular. Kishilik olmoshining kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi (3 soat).

Men, sen kishilik olmoshlarining qaratqich va tushum kelishigida qo'llanishi, tovush tushishi hodisasining yuz berishi, *u* olmoshi jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklarida qo'llanganda tovush orttirilishi hodisasining yuz berishi.

107-mavzu. Kishilik olmoshining gap bo'laklari vazifasida kelishi (1 soat).

Kishilik olmoshlarining gapda vazifasi.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

108-mavzu. Kishilik olmoshining gap bo'laklari vazifasida kelishi (1 soat).

Kishilik olmoshlarining gapda vazifasi.

109-110-mavzular. Olmosh yuzasidan takrorlash (2 soat).

Olmoshlardan nutqda to'g'ri foydalana olish.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*):

o'qituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, o'zaro savol-javob, topshiriqlarni, kichik matnlarni, mavzu doirasidagi video va audio (multimedia ilovalari) matnlarini tinglab tushuna oladi;

o'qilgan matn mazmunini va o'zgarlar fikrini anglab, ifodalay oladi, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi;

mashq matnidagi so'zlarni, turli matn va topshiriqlarni gap ohangiga rioya qilgan holda to'liq, to'g'ri, ravon va tushunarli qilib o'qiy oladi;

ot va otning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan turlanishini biladi, ot yasovchi qo'shimchalarni qo'shib so'zlar tuza oladi va ushbu so'zlar yordamida mazmunli gap (matn) lar yarata oladi, sifat va ularning otga bog'lanishini, gapdagi vazifasini, ma'no turlarini, *-ser, be-, -siz, -li, -cha, -dor, -q* sifat yasovchi qo'shimchalar ekanini, yozilishini biladi, son va ularning yozuvda ifodalanishini, sanoq va tartib sonlarni, ularning otga bog'lanishini biladi, *men, sen, biz, siz, u, ular* olmoshlarini qo'llab mazmunli gaplar tuza oladi, ijodiy matnning mantiqiy izchilligiga rioya qilgan holda va xatboshi, imlo hamda husnixat qoidalariga amal qilib yoza oladi, rasm asosida ijodiy matn yarata oladi, grammatik taxlil qila oladi, tabriknoma, xat yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya: o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay oladi, talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi, o'zlashtirgan leksik birliklarni matnda qo'llay oladi, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda o'rinli qo'llay oladi, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*):

berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib o'qiydi; nutqida ot, sifat, son, fe'l va kishilik olmoshlarini o'rinli qo'llab ijodiy matn yarata oladi, xabar, tasvir, muhokama shakllaridan foydalanib matn yarata oladi, tabriknoma, xat yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya:

imlo va talaffuz me'yorlari, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi, o'zlashtirgan leksik birliklarni matnda qo'llaydi, o'rganilgan ifoda vositalaridan nutqda o'rinli foydalana oladi.

Nazorat va tahlil(2 soat).

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

XIII bo'lim. FE'L – SO'Z TURKUMI **(29 soat, A1+:10 soat)**

111-mavzu. Fe'l – so'z turkumi (1 soat).

Fe'l – so'z turkumi haqida ma'lumot:

112-mavzu. Fe'lning so'roqlari (1 soat).

Fe'lning so'roqlari, harakat ma'nosini bildirishi, gapdagi vazifasi, bo'lishli va bo'lishsiz shakllarda qo'llanishi.

113-114-mavzular. Fe'l zamonlari (2 soat). Fe'l zamonlari haqida ma'lumot, harakatning uch zamonda bajarilishi, fe'lning zamoniga ko'ra beriladigan so'roqlar.

115-mavzu. O'tgan zamon fe'li (1 soat).

O'tgan zamon fe'lining nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan (yoki bajarilmagan) harakatni bildirishi. *–di, –gan* – o'tgan zamon qo'shimchalari.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat).

Husnixat (1 soat).

116-117-mavzular. O‘tgan zamon fe’li (2 soat).

O‘tgan zamon fe’lini shakllantiruvchi qo‘shimchalar, ularning imlosi, so‘roqlari.

Nazorat va tahlil (2 soat).

118-mavzu. Hozirgi zamon fe’li (1 soat).

Hozirgi zamon fe’li nutq so‘zlab turgan paytda bajarilayotgan (yoki bajarilmayotgan) harakatni bildirishi. *–ya’, –moqda* hozirgi zamon qo‘shimchalaridir.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

119-mavzu. Hozirgi zamon fe’li (1 soat).

Hozirgi zamon fe’lini shakllantiruvchi qo‘shimchalar, ularning imlosi, so‘roqlari.

120-mavzu. Mustahkamlash (1 soat).

Fe’l zamonlari yuzasidan o‘quvchilar bilimini mustahkamlash, imloviy savodxonlik ustida ishlash, lug‘atini fe’llar bilan boyitish.

121-122-mavzular. Kelasi zamon fe’li (2 soat).

Kelasi zamon fe’lini shakllantiruvchi qo‘shimchalar, ularning imlosi, so‘roqlari.

123-mavzu. Fe’llarning Shaxs-son qo‘shimchalari (1 soat).

Fe’llardagi *–m, –man, –ng, –san, –di (–ti), –k, –miz, –ngiz, –siz, –di(lar)* shaxs – son qo‘shimchalari ekanligi. Shaxs-son qo‘shimchalari harakatning uch shaxsdan biri tomonidan birlik va ko‘plikda bajarilgan yoki bajarilmaganini bildirishi. Harakatni qaysi shaxs tomonidan bajarilayotganini aniqlash.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

124-mavzu. Shaxs-son qo‘shimchali fe’llarning talaffuzi va imlosi (1 soat).

Shaxs-son qo‘shimchalari tuslovchi qo‘shimchalar ekanligi. Fe’llarning tuslovchi qo‘shimchalar bilan qo‘llanishi tuslanish deyilishi.

Nazorat va tahlil (2 soat).

125-126-mavzular. Shaxs-son qo‘shimchalari (2 soat).

Shaxs-son qo‘shimchalarining tuslovchi qo‘shimcha ekanligi, tuslovchi qo‘shimchalar bilan fe’llarning qo‘llanishi.

A1+

Nutq o‘stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

127-mavzu. Shaxs-son qo‘shimchalari bilan qo‘llangan fe’llarning talaffuzi va imlosi (1 soat).

Shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llangan fe'llarning talaffuzi va imlosi
Shaxs-son qo'shimchalarining vazifasi.

128-129-130-mavzular. Fe'l yasovchi qo'shimchalar (3 soat).

-lan, -illa, -sira, -la, -lash – fe'l yasovchi qo'shimchalar, fe'llarning qaysi turkumlardan yasalishi, fe'l yasovchi qo'shimchalar bilan qo'llangan fe'llarning talaffuzi va imlosi.

131-mavzu. Fe'llarni takrorlash (1 soat).

Fe'llarga doir leksik mashqlar.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

132-133-mavzular. Fe'llarni takrorlash (2 soat).

Fe'llarga doir leksik mashqlar.

Nazorat va tahlil (2 soat).

**XIV bo'lim. O'QUV YILI OXIRIDAGI TAKRORLASH
(11 soat, A1+ 6 soat)**

134-mavzu. Gap. (1 soat).

Gapning so'zlardan tuzilishi. Gapda so'zlarning bog'lanishi, gapning bosh harf bilan yozilishi, ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

135-mavzu. Gap (1 soat).

Gapning tugallangan ohang bilan aytilishi.

Gaplarning kesimi orqali ega va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlash.

136-137-138-139-140-mavzular. So'z turkumlari (5 soat).

Gapning so'z turkumlariga ko'ra tahlili. Leksik mashqlar.

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

141-142-mavzular. Ayrim unli va undosh tovushlarning talaffuzi va imlosi (2 soat).

Unli tovushlar, ularning talaffuzi va imlosi, undosh tovushlar, jarangsiz va jarangli undoshlar, yonma-yon kelgan bir xil undoshlarning imlosi, ketma-ket kelgan har xil undoshli so'zlarning talaffuzi va imlosi, bo'g'inlab ko'chirilishi.

Nazorat va tahlil (2 soat).

A1+

Nutq o'stirish (1 soat)

Husnixat (1 soat)

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:
Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):

o'qituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, o'zaro savol-javob, topshiriqlarni, kichik matnlarni, mavzu doirasidagi video va audio (multimedia ilovalari) matnlarini tinglab tushuna oladi;

kishilik olmoshining kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishini, fe'l, uning so'roqlari, gapdagi vazifasi, bo'lishli va bo'lishsiz shakllarini, fe'l zamonlari, fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanishi tuslanishini, *lan,-illa,-sira,-la,-lash* fe'l yasovchi qo'shimchalar ekanini, fe'llarning talaffuzi va imlosini biladi, o'qilgan matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglab, ifodalay oladi, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila oladi, ruxsat, iltimos, uzr so'rash, minnatdorchilik, taklif kabi muloqot odobi qoidalariga amal qila oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi;

mashq matnidagi so'zlarni, turli matn va topshiriqlarni gap ohangiga rioya qilgan holda to'liq, to'g'ri, ravon va tushunarli qilib o'qiy oladi;

65-70 ta so'zgacha bo'lgan diktantni yoza oladi; grammatik tahlil qila oladi; 5-6 gapdan iborat xabar, tasvir, muhokama shakllarini qo'llab matn yarata oladi, ijodiy matnning mantiqiy izchilligiga rioya qilgan holda va xatboshi, imlo hamda husnixat qoidalariga amal qilib yoza oladi, diktant turlarini farqlay oladi, rasm asosida ijodiy matn yarata oladi, grammatik tahlil qila oladi, do'sti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma, xat yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya: Ona tilidagi nutq tovushlarini farqlay oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga amal qila oladi; mavzuga oid yangi so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi; yozma nutqda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*):

sodda matnning asosiy mazmunini tushunadi va tushuntira oladi; matn mazmunini tushunib ifodali o'qiy oladi; 70-75 so'zdan iborat diktantni yoza oladi; 7-8 gapdan iborat xabar yoki rasm asosida ijodiy matn tuza oladi.

Lingvistik kompetensiya:

so'zlarning tovush tarkibini orfoepik jihatdan to'g'ri shakllantira oladi; gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlay oladi va yozma nutqda o'rinli qo'llay oladi.

NUTQ O'STIRISH

Nutq, matn va gapni farqlash; og'zaki va yozma nutqni o'stirishni to'g'ri shakllantirish; matn mazmunini qayta hikoyalatish; matndagi asosiy fikrni aniqlay olish; matnning tuzilishini aniqlash, uni qismlarga ajratish; ular orasidagi bog'lanishni izohlay olish; matnga sarlavha topish.

Bayon. Berilgan matn asosida hikoya yozish; muhokama va tasvir janri elementlari qatnashgan bayon yozish; matnni qisqartirib, ijodiy qayta hikoyalash asosida bayon yozish; tanlab qayta hikoyalash asosida bayon yozish.

Bayon va kichik hikoyalarga tasvir va muhokama tufayli hosil bo'lgan fikrlardan asta-sekin ikki-uch jumladan qo'shib borish.

Ijodiy matn. Qismli (qismlarga ajratib berilgan) rasmlar va mavzular bitta rasmda ifoda etilgan ko'rinish asosida, shuningdek, o'qilgan, kuzatilgan,

eshitilgan, ko‘rilgan voqea va hodisalar asosida material to‘plash, reja va shu asosida kichik hikoya yozish; bayon rejasini tuzishda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘llash.

O‘z ishlari va hayotlari haqida do‘stlariga xat yozish. Ota-onasi, ustozlari hamda o‘rtoqlariga og‘zaki va yozma tabriknoma tayyorlash.

HUSNIXAT

Ona tili darslarida “Husnixat daqiqa”lari uchun 5-8 daqiqa vaqt ajratiladi. Chiroyli yozish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Bo‘g‘in, so‘z, gap matnni husnixat qoidalariga rioya qilgan holda ko‘chirib yozish; eshitib yozish va mustaqil yozish; matnni yozishda sarlavhaning yozilishiga, xat boshidan boshlash; so‘zlar orasidagi masofaning bir xilligiga, harflarning to‘g‘ri va aniq yozilishiga, tutashtirilishiga diqqat qaratiladi, hoshiyaga rioya qilish, o‘zining va o‘zgalarning yozuvini grafik tahlil qila olish kabi malakalari takomillashtiriladi.

O‘quv yili oxiridagi takrorlash o‘rganilgan bilimlarni eslatish orqali sistemaga solish va umumlashtirish maqsadida o‘tkaziladi. O‘quvchilar bir darsda bir necha turdagi mujassam topshiriqlarni bajaradilar. Takrorlash darslari matn, gap, gap bo‘laklari, tovush va harflar, tovushlarning turlari, bo‘g‘in, alifbo, asos, so‘z yasovchi, gapda so‘zlarni bog‘lovchi qo‘shimcha, so‘z turkumlari bo‘yicha o‘tkaziladi. O‘quvchilar nutqi va yozuvidagi kamchiliklar hisobga olinadi. Bu o‘qituvchining boshqa sinflarda ta‘lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishini ta‘minlaydi. O‘quvchilar bilan o‘quv yili davomida imlosi ustida ishlanadigan, o‘quvchilarning lug‘at boyligiga qo‘shilgan ayrim so‘zlar darslik oxiridagi lug‘atda berilgan. Darslikda notanish so‘zlar ma‘nosi berilgan bo‘lib, o‘quvchilardan ularni o‘zlashtirish talab qilinadi.

O‘quv yili davomida o‘rganiladigan imlosi qiyin va yangi o‘zlashtirilgan so‘zlar: *agronom, akvarium, antenna, artist, astoydil, atele, avtomobil, avtonazoratchi, bashariyat, binafsha, boychechak, brigada, daromad, dastyor, dastlab, dehqon, depo, dirijyor, dollar, domino, do‘kon, ehtiyoj, ehtiyot, ekskavator, eskalator, e‘zozlamoq, fabrika, faoliyat, faxrlanmoq, ferma, festival, firma, fonarcha, futbol gavjum, giyoh, gramm, go‘sht, hadya etmoq, handalak, haqiqat, harbiy, hayvonot, hasharot, hikoya, hofiz, hudud (chegara), hunarmand, hunarmandchilik, hurriyat, ikkita, ilm-ma‘rifat, iste‘dodli, ishonch jarroh jahon, jayron, jonivor, kaseta, kilogramm, kilovatt, kofe, kolleksiya, kosmonavt, kungaboqar, ko‘hna (qadimgi), la‘l (qimmatbaho tosh), leytenant, madhiya, majmua, masjid, mavsum, mayor, mehnatsevar, mehribon, mehr-oqibat, metall, metro, me‘mor, militsioner, muhandis, murojaat qilmoq, muvaffaqiyat, mo‘jiza, na‘matak, ne‘mat, nomzod, nota, ohangrabo, oromgoh, parashut, patent, payvandlamoq, piyola, pomidor, portfel, proyektor, pulemyot, qahramon, qandil (lyustra), qimmatbaho, qumursqa, rassom (musavvir), rostgo‘y, ruhlanmoq, sabzavot, samolyot, samovar, sellofan, sentner, seyalka, sport, suxandon (diktir), tabiat, tanaffus, tashakkur, taassurot, telefon, tennis, termos, tramvay, transport, trolleybus, ufq, urf-odat, vagon, velosiped, vokzal, voleybol, xursand, xayrlashmoq, xiyobon, xizmatchi, xohlamoq, xokkey, yelpig‘ich, yiroq (uzoq), yop-yorug‘, zehnli,*

ziyrak, zog'orabaliq, zag'cha, o'qariq, o'chirg'ich, g'ijjak, g'ilof, g'o'za'oya, shaxmatchi, shifer, charm, choyshab. (Bu xildagi so'zlar darslikning oxirida lug'at sifatida berilgan).

Mavzularni o'rganish uchun – 143 soat

Nazorat ishlari uchun – 16 soat

Nutq o'stirish – 11 soat (A1+: 34 soat)

Husnixat uchun – (A1+: 34 soat)

Jami –170 soat (A1+: 238 soat)

O'quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

radiodan eshitgan, televizordan ko'rgan lavhalarni tushunadi va turli manbalardan kerakli ma'lumotlarni izlab topadi hamda foydalana oladi;
televizor, radio, telefon orqali berilgan xabarlarni gapirib bera oladi;
darsda kitob bilan ishlay oladi, o'rganilayotgan mavzuni, kerakli qoidani, mashqni topadi, mashq topshiriqlarini tartibi bilan bajara oladi.

A1+

media vositalaridan, didaktik materiallaridan foydalanib, topshiriqlarni bajara oladi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

o'quv fanlarini o'rganadi va bir-biridan farqlay oladi;
mustaqil ma'noga ega bo'lgan bir necha so'zdan tuzilgan so'zni topadi va namuna asosida so'zlar tuza oladi;
so'z yoki gapni shakl, harf, belgilar bilan ifodalaydigan topishmoqni topadi, har xil ko'rgazmali qurollardan foydalana oladi;
rasmi kitoblar, jurnal va gazetalarni mustaqil o'qib-o'rganish orqali bilimini muntazam oshirib bora oladi;
kun tartibiga rioya qiladi, uni to'g'ri tashkil eta oladi va badantarbiya bilan shug'ullanadi;
kattalarni hurmat qiladi, ularning nasihatiga amal qiladi, jamoat joylarida o'zini tuta oladi.

A1+

og'zaki va yozma matnlar mazmuniga to'g'ri baho bera oladi;
o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila oladi va xatolarini tuzatishga harakat qiladi, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

maktabda, oilada va turar joylarida bo'layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar va h. k.) ishtirok etadi;

o‘zining o‘quvchilik burch va huquqlarini, vazifalarini biladi va ularga rioya qila oladi;

davlat ramzlarini biladi, davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsata oladi; maktabda va maktabdan tashqari tadbirlarda (ko‘rik-tanlovlar va h. k.) ishtirok etadi hamda muomala madaniyatiga amal qila oladi;

sinfda va oilada o‘z o‘rnini biladi, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni anglay oladi;

o‘zidan kattalarga, o‘rtoqlariga va o‘zidan kichiklarga yordam bera oladi; sinfdagi jihozlar va o‘quv qurollarini asrab-avaylaydi.

A1+

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga munosabat bildiradi.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

orasta kiyinadi va gigienik talablarga amal qila oladi;

maktabning ichki qoidalariga va odob-axloq qoidalariga rioya qila oladi;

yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay oladi;

milliy bayramlarni, milliy qadriyatlarni, o‘zi yashab turgan tarixiy obidalarni biladi va ularni bir-biridan farqlay oladi.

A1+

Vatanimizda mustaqillik yillarida bunyod etilgan inshootlarni hamda tarixiy obidalarni biladi va ularni bir-biridan farqlay oladi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

sinfida va oilada necha nafar kishi borligini, sinf xonasi jihozlari va o‘quv qurollari sonini biladi;

Mamlakatimizda nishonlanadigan bayram kunlari sanalarini aniq biladi;

kundalik faoliyatida turli jadvallardan foydalana oladi;

ehtiyoji uchun kerak bo‘lgan narsalardan (o‘quv qurollari, kiyim-kechagi va h. k.) tejab foydalana oladi;

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza oladi, kundalik faoliyatda mavzuga oid jadvallarni o‘qiy oladi.

A1+

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza oladi, kundalik faoliyatda mavzuga oid jadvallarni o‘qiy oladi.

O‘quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, yozish*):

A1

berilgan topshiriq, soda matnlarni tinglab tushuna oladi;

matnni tushunib o‘qiy oladi;

og‘zaki nutqda so‘z va gaplar talaffuziga rioya qila oladi;

65-70 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi;

xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yarata oladi, xatboshi va husnixatga amal qiladi, imlo va tinish belgilarini ishlatish qoidalariga amal qila oladi;

do'sti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma yoki xat yoza oladi.

A1+

sodda matnning asosiy mazmunini tushunadi va tushuntira oladi;

matn mazmunini tushunib ifodali o'qiy oladi;

70-75 so'zdan iborat diktantni yoza oladi;

7-8 gapdan iborat xabar yoki rasm asosida matn tuza oladi.

Lingvistik kompetensiya (*fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid*):

A1

ona tilidagi nutq tovushlarini farqlay oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga amal qila oladi;

mavzuga oid yangi so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi;

yoza nutqda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

A1+

so'zlarni tovush tarkibini orfoepik jihatdan to'g'ri shakllantira oladi;

gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlay oladi va yozma nutqda o'rinli qo'llay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 390-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida" gi PF-3431.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirli va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010- yil 1- iyuldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to'g'risida" gi 6/2/4/1-sonli qo'shma hay'at majlisi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012- yil 10- dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1875-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013- yil 8- maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 124-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 140-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-son qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2015 yil 28 iyundagi "Umumta'lim fanlarning o'qitilishidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan Boshlang'ich ta'lim yo'nflishi bo'yicha konsepsitasi" №4-sonli hay'at qarori.
11. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Sharq" nashriyot-matbaa konserni. 1999 yil, 7-maxsus son.
12. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi Ona tili, O'qish, Matematika, Atrofimizdagi olam, Tabiatshunoslik (1-4 sinflar). "Yangiyo'l Poligraph service". T.2010.

**Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan o'quvchilarda
kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini
ishlab chiqish bo'yicha ijodiy guruhi**

T-r	Ismi va familiyasi	Ish joyi va lavozimi
1	Mahmudov Nizomiddin Mamadaliyevich	O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor
2	Safarova Rohatoy G'aybullaevna	Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari doktori, professor
3	Mengliyev Baxtiyor Rajabovich	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrası professori, fil.f. d.
4	Abduraimova Muhabbat Mamajonovna	Pedagogika fanlari nomzodi
5	Ziyodullayeva Gulsara Shamsiyevna	Respublika ta'lim markazi bosh metodisti
6	Qahhorova Sabohat Abdug'afurovna	O'zMU qoshidagi S.X.Sirojiddinov nomli akademik litseyi o'qituvchisi
7	Sobirov Abdulhay Shukurovich	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, fil.fan. doktori
8	Zokirova Hafiza Razzoqovna	Andijon Davlat pedagogika universiteti, o'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti
9	Nabiyeva Dilara Abdulhamidovna	Andijon Davlat pedagogika universiteti, professori, fil.fan. doktori
10	Sultonova Qumrixon Allamboevna	Respublika ta'lim markazi bosh metodisti, fil.fan. nomzodi
11	Xoljo'rayev To'lqin Xoljigitovich	Jizzax viloyati Sayiljoy akademik litsey o'qituvchisi
12	Majidova Saida Mirbasitovna	Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi
13	Masharipova Umida Abduvohidovna	Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi
14	Umarova Muhabbat Mahamadovna	Toshkent shahar M. Ulug'bek tumani 112-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
15	Hoshimova Dilafr'o'z Tolibjonovna	Toshkent viloyati Piskent tumanidagi 7-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi
Ekspert guruhi		
1	Axmedova Nazira Tursunovna	Respublika ta'lim markazi bo'lim boshlig'i

2	Hoshimova Dilafro'z Tolibjonovna	Toshkent viloyati Piskent tumanidagi 7-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi
3	Xoljo'rayev To'lqin Xoljigitovich	Jizzax viloyati Sayiljoy akademik litsey o'qituvchisi
4	Mirazizov Alisher Mirxosilovich	Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi

2-§. O'QISH FANI

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida (barcha ta'lim olish tillari bo'yicha) adabiyot fanini o'rganish bosqichlari

Ta'lim bosqichi	Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumiy o'rta ta'lim	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari	A1	Adabiyot fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi
	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining Adabiyot fani chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinf bitiruvchilari	A1+	Adabiyot fanini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi

O'qish fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida adabiyot fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish;

o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida adabiyot fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

o'quvchilarning og'zaki nutqi adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish;

yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda adabiyot fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

O'qish fani bo'yicha umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari

1. **Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*).

A1

ixcham matn asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna oladi;

ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat, masal, xalq qo'shiqlari, hikoya, she'rlarni o'qib tushunadi va mazmunini qayta so'zlab bera oladi;

yozma va bosma harflarni, ular ifodalaydigan tovushlarni to'g'ri talaffuz eta oladi;

matnni gap ohangiga rioya qilgan holda aniq, ravon o'qiy oladi;

bir daqiqada 50 — 55 so'zni o'qiy oladi;

monologik va dialogik nutqda o'z fikrini aniq ifodalay oladi;

o'rganilgan mavzular doirasida 5-6 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi;

maktab kutubxonasidan foydalana oladi;

kichik hajmdagi 8 — 10 ta she'rni yoddan aytib bera oladi.

A1+

bir daqiqada 55 — 60 so'zni o'qiy oladi;

asar qahramonlari, tabiat tasviri haqida 7-8 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi;

kichik hajmdagi 10 — 12 ta she'rni yoddan aytib bera oladi.

2. Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

A1

matndagi so'z va gaplarning ma'nolarini tushuna oladi;

asar mazmunidan ta'sirlana oladi;

xalq og'zaki ijodi namunalarini (ertak, topishmoq, maqol, masal, tez aytishni) farqlay oladi;

o'rganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi;

asar qahramonlariga munosabat bildiradi;

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi, asar qahramonlariga munosabat bildiradi.

O‘QISH FANIDAN O‘QUV DASTURI (1-4-sinf)

UQTIRISH XATI

Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflarda o‘qish fani o‘quvchilarni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarida o‘qish fanini o‘qitishning asosiy maqsadi:

milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish;

o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ma’naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

O‘qish (1-4-sinf) fanini o‘qitishning asosiy vazifasi:

o‘quvchilarning og‘zaki nutqi adabiy til me’yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash, nutqiy kompetensiyani o‘stirish;

yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me’yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish hamda dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o‘qitilib, o‘quvchidagi ko‘nikma, malaka aniqlanadi. Shuningdek, miqdoriy ko‘rsatkich – o‘qish tezligi, ongli va ravon o‘qish, bir daqiqada nechta so‘z o‘qiy olishi ham belgilanadi.

Bolaning matn mazmunini to‘liq o‘qib olishi, qayta hikoyalashi, shuningdek, o‘zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

Mazkur dasturdan o‘rin olgan vatan mavzusidagi asarlar o‘quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayoti va xalqimizning bunyodkorlik yo‘lidagi olib borayotgan ishlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

1-sinfning o‘quv yili oxirida bolalar Vatan va uning tabiati, insoniy qadriyatlari haqida kichik-kichik asarlarni o‘qiydilar.

2-sinfda shakl va mazmun jihatdan uncha murakkab bo‘lmagan Vatan, ona tabiat, istiqloq, kishilarning hayoti va mehnati, axloqiy munosabatlar haqidagi asarlar bilan tanishadilar.

3- va 4-sinflar o‘qish dasturida mavzular ko‘lami ancha kengayadi.

Bu sinflarda o‘qish darslarining kattagina qismi asarni o‘qish va matn ustida ishlashga qaratiladi.

Darsda o‘quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo‘lib o‘qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi

hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda ogʻzaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Sinfdan tashqari oʻqish oʻqish darslari bilan bogʻlab olib boriladi. Sinfdan tashqari oʻqish mazmuniga koʻra taʼlimning har bir bosqichida ikki asosiy boʻlimga ajratiladi:

Birinchi bosqichda oʻqish doirasi, yaʼni oʻqitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda oʻqish bilan tanishtirish yuzasidan oʻquvchilarga koʻrsatma beriladi.

Ikkinchi bosqichda shu oʻquv materiallar asosida bilim, koʻnikma va malakalar shakllantiriladi. Oʻquvchilar kitob va ularning mualliflari haqidagi bilimlarni bevosita amaliy faoliyatlari, yaʼni kitob ustida ishlash jarayonida egallaydilar. Oʻquvchilar oʻqituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishsa, keyinroq bolalar yozuvchilarning asarlari bilan tanishadilar, soʻngra bolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab olishga oʻtadilar.

Oʻquvchilar milliy va jahon adabiyotlarini oʻqib, tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, goʻzallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi. Ularga ongli munosabat bildirish hamda oʻzlaridagi axloqiy-maʼnaviy fazilatlarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Mutolaa oʻquvchilarning ogʻzaki hamda yozma nutqlari rivojlanadi. Bolaning matn mazmunini toʻliq uqib olishi qayta hikoyalashi, shuningdek, oʻzgalar nutqini eshitib, tushunib olishi malakalari hosil qilinadi.

1-4-sinflarda “Konstitutsiya alifbosi”, “Dinlar tarixidan umumiy tushunchalar”, “Iqtisod va soliq alifbosi”, “Salomatlik darslari”, “Tejamkorlik saboqlari” kabi fanlarning sodda elementlari oʻqish fani mazmuniga, yaʼni mavzular kesimida singdirib oʻqitilishi koʻzda tutilgan. Shuning uchun amaliy-tajriba va sinov mashqlarida kundalik faoliyatda shaxsiy, oilaviy va iqtisodiy vaziyatlarga, jumladan, tejamkorlikka, mehnatni yengillashtirish va samaradorligini oshirishga, savdo-sotiq bilan bogʻliq hamda sodda algoritmlarni kundalik vaziyatlarda qoʻllay olishga bogʻliq boʻlgan masalalar yechilishi lozim. Dasturda fanni chuqurlashtirilib oʻqitiladigan 2-3-4-sinflar (A1+) uchun mavzularga ajratilgan soatlar va kompetensiya elementlari alohida koʻrsatilgan.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tayanch va fanga oid adabiy-nutqiy va badiiy asarlarni tahlil qilish kompetensiyalarning shakllantirilishi ham belgilab berilgan. Oʻzbekiston Respublikasida taʼlimning uzluksizligi, uzviyligi, oʻquvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda oʻqish fanidan quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

mavjud axborot manbalaridan eshittirishlarni tinglab tushunib va gapirib bera olish;

oʻz yoshiga mos kitoblarni, gazeta va jurnallarni tanlay olish va kutubxonadan foydalana olish;

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar (oddiy tabriknomalarni yoza olish) bilan ishlay olish.

A1+

axborot manbalardan (turli badiiy adabiyotlardan) oqilona foydalana olish va ulardan xulosa chiqarish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

o‘quv fanlarini o‘rganish va bir-biridan farqlay olish;
o‘z xatosini tushunib, tuzatishga harakat qilish;
turli janrdagi (ertak, masal, hikoya va she’rga doir) kitoblarni muntazam o‘qib-o‘rganib borish va bilimini oshirish;
yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarni o‘zida aks ettirish.

A1+

o‘zini nazorat qilish;
og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho berish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

davlat ramzlarini bilish;
o‘zining o‘quvchilik burchi va vazifalarini bilishi va unga rioya qilish;
o‘zidan kattalarga, o‘rtoqlari va o‘zidan kichiklarga yordam berish.

A1+

sinfda va oilada o‘z o‘rniga ega bo‘lish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

orasta kiyinish, yurish turishda kattalardan o‘rnak olish;
milliy bayramlarni bilish;
odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

A1+

o‘z uyi, maktabi, turar mahallasini qadrlash.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish;
tejamkorlikka rioya qilish;
kundalik rejalarini tuza olish.

A1+

ehtiyoji uchun kerak bo‘ladigan narsalardan (o‘quv qurollari, kiyim-kechagi va h.k.) tejab foydalanish.

Shuningdek, me’yoriy hujjatlarni yuritishda tayanch va fanga oid kompetensiyalar quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

TK - tayanch kompetensiyalar

7. TK1 - kommunikativ kompetensiya

8. TK2 - axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi

9. TK3 – o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi
10. TK4 - ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
11. TK5 - milliy va umummadaniy kompetensiya
12. TK6 - matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi

FK - fanga oid kompetensiyalar

3. FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya
4. FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

1-SINF O‘QISH VA NUTQ O‘STIRISH (68 soat)

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

turli axborot manbalaridan o‘ziga kerakli ma’lumotlarni topa olish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

kun tartibiga rioya qilish;

o‘zlashtirgan bilimlarini boyita olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

o‘zining o‘quvchilik burch va vazifalarini bilish, unga rioya qilish;

maktabda, oilada bo‘layotgan jarayonlarda ishtirok etish;

odobli bo‘lish, kattalarni hurmat qilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

milliy bayramlar va urf-odatlarini tushuna olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

turli sodda jadval ko‘rinishdagi ma’lumotlarni o‘qiy olish.

I bo‘lim. O‘ZBEKISTON - MENING VATANIM (12 soat)

1-mavzu. Vatan – bu ... *Po‘lat Mo‘min* (1 soat).

Shoir she’rida Vatanning ifodalanishi. Shoir Vatanni yurakka tenglashtirib, nimani ko‘zda tutgani. Aslida Vatan tug‘ilgan va yashaydigan joy ekanligi. She’rni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qish. Maqol va topishmoqlar ustida ishlash.

2-mavzu. Buyuklar vatani. *Qutlibeka Rahimboyeva* (1 soat).

O‘zbekiston ulug‘ odamlar yurti ekanligi. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiylarning yurt uchun qilgan ishlari. Ilm-fan rivojiga bo‘lgan qiziqishi. O‘quvchilarning ongli, to‘g‘ri, tez o‘qish. Mavzuga doir maqollarni o‘rganish.

3-mavzu. Yurt qalqonlari. *Dilshod Rajab* (1 soat).

“Vatan himoyachilari” kuni haqida ma’lumot. O‘zbekiston armiyasi, Vatan oldidagi xizmatlari. Harbiy xizmatning ahamiyati.

4-mavzu. Ota rozi – Vatan rozi. Eson Rahimov (1 soat).

Yaxshi farzand el-yurtiga sodiq bo‘lishi. Farzandlarning Vatan, oila oldidagi burchlari. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish. Sinfдан tashqari o‘qish (20 daq.).

5-mavzu. Suv shifo. Erkin Malik (1 soat).

Shaharlardagi suv havzalari. Ularning sog‘liq uchun foydali tomonlari. Ongli, to‘g‘ri, ifodali va tez o‘qish.

6-mavzu. Qish. Tursunboy Adashboyev (1 soat).

She‘rda qish faslining tasvirlanishi. Uning jozibadorligi. She‘rni ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish. Maqol, topishmoq va tez aytishlar.

7-mavzu. Oy allasi. Odil Abdurahmon (1 soat).

Oyning yulduzlarga nasihati, Oy, Quyosh va yulduzlarning kimlarga o‘xshatilishi. She‘rni to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qish.

8-mavzu. Shamol va quyosh. Ezop (1 soat).

Hikoyadagi qahramonlarning fazilatlarlari – zo‘ravonlik va oliyjanoblik, maqtanchoqlik va kamtarinlik kabi xislatlar. Ongli, to‘g‘ri, tez o‘qish. Sinfдан tashqari o‘qish (20 daq.).

9-mavzu. Vatan. Miraziz A‘zam (1 soat).

She‘rda vatan madhi. Vatan haqida o‘quvchilar tasavvuri. She‘rni ongli, to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qish.

10-mavzu. Yagonadir Vataning sening. Xurshid Davron (1 soat).

Vatanning mo‘tabarligi. Vatanga muhabbat. Vatan oldidagi burch kabi insoniy fazilatlar. Ongli, to‘g‘ri o‘qish. Mavzuga doir maqol va topishmoqlar.

11-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

O‘zbekiston - mening Vatanim bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimini takrorlash va umumlashtirish. Boshqotirma va rebuslar yechish orqali o‘quvchilar bilimini mustahkamlash. Sinfдан tashqari o‘qish (20 daq.).

Nazorat ishi (1 soat).

II bo‘lim. BIZ – BUYUKLAR AVLODI (11 soat)

12-mavzu. Amir Temur. Amir Temur o‘g‘itlari. Muhammad Ali (1 soat).

Amir Temur amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari. Amir Temur tayangan “Kuch – adolatda” so‘zining ma‘nosi. Do‘stlik, aql va adolat haqidagi o‘g‘itlar va ularning ma‘nolari. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

13-mavzu. G‘azal mulkining sultoni (1 soat).

Alisher Navoiy shoir, olim va davlat arbobi bo‘lganligi. Uning hikmatli so‘zlari va ularning ma‘nolari. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

14-mavzu. Alisherning yoshligi. Oybek (1 soat).

Alisherning yoshligi. Uning va do‘stining jonivorlarga munosabati. Alisherning maktabga bergan bahosi. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish. Mavzuga doir maqol va topishmoqlar.

15-mavzu. Non isi. Rivoyat (1 soat).

Rivoyatlar haqida qisqacha ma'lumot. Alisher Navoiyning topqirligi va bilimdonligi. Do'stlik, ilm o'rganish va donishmandlikning ahamiyati. Non – eng aziz ne'mat ekanligi. Ongli va ifodali o'qish. Donishmandlik va ilm haqida maqollar.

16-mavzu. Abu Ali ibn Sino (1 soat).

Ajdodlarimizning dunyo ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi. Ibn Sino tibbiyot ilmining asoschisi sifatida tanilganligi va Abu Ali ibn Sino o'g'itlari. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Mavzuga doir maqol va topishmoqlar.

17-mavzu. Kitobga mehr. *Mirkarim Osim* (1 soat).

Husaynning kitobga mehri. Insonning ilmga intilishi va kitobning ahamiyati. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Kitob haqidagi topishmoq va maqollar.

18-mavzu. Buyuk munajjim (1 soat).

Mirzo Ulug'bek olim va podshoh. Podshohlik davridagi qilgan savob ishlari. Rasadxona. Mirzo Ulug'bek – buyuk munajjim. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Sinfdan tashqari o'qish (20 daq.).

Nazorat ishi (1 soat).

19-mavzu. Shoh va shoir (1 soat).

Boburning hayoti va faoliyati haqida o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga qarab ma'lumot berish. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

20-mavzu. Ona sabog'i. *G'iyos Komilov* (1 soat).

Bobur Mirzoning bolaligi. Ona-bolaning o'zaro suhbat. Boburning yoshligidanoq hamma narsani bilishga qiziquvchanligi. Bulut, qor va yomg'ir haqida onaning izohlari. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Topishmoqlar, maqollar va tez aytishlar.

21-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

Boshqotirmalar, savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarning bo'limda o'rganganlarini tekshirish, umumlashtirish va mustahkamlash.

III bo'lim. KO'KLAM – YASHNAYDI OLAM (9 soat)

22-mavzu. Bahor kelgach. *Tursunboy Adashboyev* (1 soat).

She'r mazmuni. She'rda bahor tavsifi. She'rni ongli, to'g'ri va ifodali o'qish. Sinfdan tashqari o'qish (20 daq.).

23-mavzu. Lola. *Hamid Olimjon* (1 soat).

O'quvchilarni tabiat go'zalliklaridan zavqlanishga, tabiat ne'matlarini asrab avaylashga o'rgatish. She'rni ongli, to'g'ri va ifodali o'qish.

24-mavzu. Ona allasi. *Rivoyat* (1 soat).

Milliy qadriyatlarimizdan alla haqida. Allaning inson ruhiyatiga ta'siri. Allada xalq orzu-umidlari bayoni. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

25-mavzu. Mehribon oyijonim. *Po'lat Mo'min* (1 soat).

Onani e'zozlash. Ona haqidagi maqol va topishmoqlar bahsi. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Sinfdan tashqari o'qish (20 daq.).

Nazorat ishi (1 soat).

26-mavzu. Bahor keldi. Vafo Fayzulloh (1 soat).

Bahorda tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar. Qushlarning uchib kelishi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

27-mavzu. Bekinmachoq. Anvar Obidjon (1 soat).

Bahor gullari va tabiat go'zalligi. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

28-mavzu. Navro'z bayrami (1 soat).

Qadimiy bayram va an'analar tavsifi. Navro'z bayrami, bahorda ochiladigan gullar, tayyorlanadigan taomlar, Navro'z an'analari. Navro'z haqidagi maqol, topishmoq, tez aytish, xalq qo'shiqlari. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Sinfдан tashqari o'qish (20 daq.).

29-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

Boshqotirmalar, savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarning bo'limda o'rganganlarini tekshirish, umumlashtirish va mustahkamlash.

IV bo'lim. ILM – AQL CHIROG'I (9 soat)

30-mavzu. Maktab – oftob qo'shig'i. Quddus Muhammadiy (1 soat).

Maktab – ilm maskani. O'qituvchi – ilmga yetaklovchi aziz inson. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

31-mavzu. Kitobni asrang (1 soat).

Kitob – muqaddas boylik ekanligini. Kitobni e'zozlash – oliy qadriyatligini tushuntirish. Kitob haqidagi hikmatli gap maqol va topishmoqlar.

32-mavzu. Kitobim, jon kitobim. Dilshod Rajab (1 soat).

Kitob haqidagi hikmatli so'z, maqol va topishmoqlar bahsi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Sinfдан tashqari o'qish (20 daq.).

Nazorat ishi (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*):

hikmatli gap, hikoya, she'r va ixcham audio matnlarni tinglab tushuna oladi; ularni ongli, ifodali, to'g'ri o'qiy oladi;

o'qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi;

ularning mazmunini qisqartirib, fikrini og'zaki bayon qilib bera oladi;

ikki va uch bo'g'indan iborat sodda, kichik matnlarni yoza oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

o'rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi;

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi;

matndagi so'z va gaplarning ma'nolarini tushuna oladi.

33-mavzu. O'quv va bilim haqida. Yusuf Xos Hojib (1 soat).

Allomaning o'quv, idrok, bilimga bergan tavsifi. Bilim haqidagi hikmatli

gap. Bilim olishga doir maqol, tez aytish, topishmoqlar bahsi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

34-mavzu. Kompyuter (1 soat).

Kompyuter insonning do'sti. Kompyuter bilan bajarish mumkin bo'lgan ishlar. Maqol va hikmatli gaplar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

35-mavzu. Yaxshi niyat. Anvar Obidjon (1 soat).

She'rda yaxshi orzu va havas talqini. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish mashqlari. Sinfdan tashqari o'qish (20 daq.).

36-mavzu. Aqlli qarg'a. Abdulla Avloniy (1 soat).

Hikoya qahramoni aqlli qarg'a timsolida tadbirkorlik va aqllilik sifatlarining talqini. Hikmatli gap, topishmoq va tez aytishlar bahsi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

37-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

Boshqotirmalar, rebus, savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarning bo'limda o'rganganlarini tekshirish, umumlashtirish va mustahkamlash.

**V bo'lim. XALQ O'GITI – BAXT KALITI
(9 soat)**

38-mavzu. Sher va sichqon. Ertak (1 soat).

Ertaklar va ulardagi qahramonlar. Yaxshilik qilishning ahamiyati. Yaxshilik yerda qolmasligini ertakning mazmuni orqali talqin qilinishi. Yaxshilik haqidagi hikmatli gap, maqollar. Ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

39-mavzu. Maymun va duradgor. Ertak (1 soat).

O'ziga aloqador bo'lmagan ishga aralashishning yomon oqibati. Aql bilan ish qilish, zukkolik haqida. Maqol va topishmoqlar bahsi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Sinfdan tashqari o'qish (20 daq.).

40-mavzu. Rostgo'y bola. Ertak (1 soat).

Inson hayotida rostgo'ylikning ahamiyati. Podshohning farzand tanlash uchun tutgan yo'li. Bolaning rostgo'yligi. Rostgo'ylikning bola hayotidagi ahamiyati. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

41-mavzu. Maqollar (1 soat).

Maqollar xalqimizning uzoq yillar davomida yashab, ko'rgan kechirganlari asosida aytgan pand-nasihatlar. Ular og'izdan og'izga ko'chib, bizgacha yetib kelgani. Maqollarni o'rganish, va unga amal qilish sog'lom turmush kechirishimizga yordam berishi. Maqollar sog'lik, ozodlik, vatanparvarlik, birlik, bilimlilik, yaxshi so'z, aql, odob va boshqa ko'plab sohalarda bizga ibrat maktabi bo'lishi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

42-mavzu. Topishmoqlar (1 soat).

Topishmoq haqida ma'lumot. Topishmoqlarda topilishi kerak bo'lgan narsa va hodisalarning o'xshatmalar orqali berilishi. Topishmoqlar o'yin tarzida o'tkazilishi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

43-mavzu. Laylak keldi, yoz bo'ldi (1 soat).

Xalq qo'shiqlari haqida. Laylak keldi – yoz bo'ldi qo'shig'ining mazmuni. Qo'shiqning tabiatda ro'y beradigan o'zgarishlar bilan bog'liqligi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Sinfdan tashqari o'qish (20 daq.).

44-mavzu. Latifalar (1 soat).

Latifalar xalq tomonidan yaratilgan kulgili voqea (kichik hikoya) ekanligi. Berilgan latifalarning mazmuni. Aql, idrok. Gapga chechanlik. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

45-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

Boshqotirmalar, rebus, savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarning bo'limda o'rganganlarini tekshirish, umumlashtirish va mustahkamlash.

**VI bo'lim. GO'ZAL FAZILAT – INSONGA ZIYNAT
(9 soat)**

46-mavzu. Oftob va odob. *Po'lat Mo'min* (1 soat).

O'quvchilar bilan odob haqida suhbatlashish. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Sinfdan tashqari o'qish (20 daq.).

47-mavzu. Odob. *Rivoyat* (1 soat).

Rivoyat haqida. Rivoyat avloddan avlodga o'tib kelayotgan hikoya ekanligi. Rivoyatning mazmuni. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

48-mavzu. Kapalak. *Mirmuhsin* (1 soat).

Tabiatdagi barcha jonli va jonsiz mavjudotlarni asrash haqida matn mazmuni bilan bog'lab suhbatlashish. Topishmoqlar topish bahsi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

49-mavzu. Maslahat. *Iskandar Rahmon* (1 soat).

Kundalik hayotda uchraydigan voqea va hodisalarga munosabat. Muammolar va ularning yechimi. Maqol, topishmoq va tez aytishlar bahsi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

50-mavzu. Taqsim. *Abdulla Avloniy* (1 soat).

Inson hayotida qanoatning ahamiyati. Ziqnalik, ochko'zlikning oqibati. Mavzuga oid hikmatli so'zlar, maqollar bahsi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Sinfdan tashqari o'qish (20 daq.).

51-mavzu. Xotira va qadr. *Dilshod Rajab* (1 soat).

Xotirasiz kelajak yo'q. O'tganlar yodi va uning ahamiyati. Maqol va tez aytishlar musobaqasi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

52-mavzu. Chiroyli salom. *Safar Barnoyev* (1 soat).

Insonlararo muomalaning boshlanishi odamlarning bir-biri bilan salomlashishi. Salomlashish odobi. Uning shartlarini hikoya mazmuni bilan bog'lash. Hikmatli gap, maqollar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

53-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

Boshqotirma, rebus, savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarning bo'limda o'rganganlarini tekshirish, umumlashtirish va mustahkamlash. Sinfdan tashqari o'qish (20 daq.).

VII bo'lim. MEHNATNING TAGI – ROHAT

(9 soat)

54-mavzu. Aqlli bog'bon. Ertak (1 soat).

Bog'bonning o'g'illariga vasiyati. Mehnatdan keladigan boylikning ahamiyati. Mehnatning inson hayotidagi o'rni. Hikmatli gap, maqol, tez aytishlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

55-mavzu. Soqi bilan onasi. Abdulla Avloniy (1 soat).

Mehnat qilishning sog'lik uchun ahamiyati. Maqol, topishmoqlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

56-mavzu. Yer nima der. Po'lat Mo'min (1 soat).

Yerning inson hayoti uchun ahamiyati. Insonning yerga munosabati. Hikmatli gap, maqol va tez aytishlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

57-mavzu. Tugma. Shuhrat (1 soat).

O'z-o'ziga xizmat qilishning ahamiyati. Ishni qunt bilan bajarishi va undan rohatlanishi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Sinfidan tashqari o'qish (20 daq.).

58-mavzu. Maqtanchoq g'oz. Abdulla Avloniy (1 soat).

Maqtanchoqlikning yomon illat ekanligi. Hikoyada g'oz obrazi orqali insonlardagi maqtanchoqlikning salbiyligi ko'rsatilishi.

59-mavzu. Ona yer. Ibrohim Rahim (1 soat).

Anvarjon va onasining suhbat. Ona yerning inson uchun ahamiyati. Ona yer deyilishining sababi. Maqol va topishmoqlar bahsi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

60-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

Boshqotirma, rebus, savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarning bo'limda o'rganganlarini tekshirish, umumlashtirish va mustahkamlash.

Nazorat ishi (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

ertak, rivoyat, hikoya, topishmoq, latifa va maqollar hamda she'riy matnlarni tinglab tushuna oladi;

ularni ongli, ifodali, to'g'ri, tez va o'qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi;

ularning mazmunini qisqartirib va darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og'zaki bayon qila oladi;

bir daqiqada 20-25 ta so'zni o'qiy oladi;

o'qish uchun kitoblar (badiiy asar namunalari)ni mustaqil tanlay oladi;

kichik hajmdagi 4-5 ta she'rni yoddan aytib bera oladi;

ikki va uch bo'g'indan iborat sodda, kichik matnlarni yoza oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

o'rganilgan asarlarning nomi, ertak, topishmoq, maqol va tez aytishlarni ajrata oladi;

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

SINFDAN TASHQARI O'QISH

(haftada bir marta oxirgi o'qish darsining 20 daqiqasi ajratiladi)

Sinfdan tashqari o'qish uchun 8-16 betli kichik hajmdagi asarlardan tuzilgan bolalarbop kitoblar tanlanadi. Sinfdan tashqari o'qish darsida 1-1,5 betli asardan foydalaniladi. Ular bilan o'quvchilar o'qituvchining o'qib berishi orqali tanishtiriladi. Sinfdan tashqari o'qish dasturining asosiy vazifasi o'qish malakalarini takomillashtirish, bilimlarini boyitish, kitob bilan mustaqil ishlashga o'rgatishdir. Kitob muqovasi tituli, betlarini farqlay olish, asar muallifi, nomlarini, rassomlarni tanib, bilib olish. Rasm asosida asarlarning nima haqida ekanini, mazmunini aniqlashga erishish.

O'quvchilarning o'qigan kitoblari ro'yxatini yozib borishga o'rgatish. O'quvchilarga muayyan mavzularda tavsiya etilgan asarlar ichidan kitob tanlash va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, o'qigan asari mazmunini qisqacha so'zlab berishga o'rgatish.

Bolaning kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish, maktab kutubxonasi bilan tanishtirish, o'qituvchi tomonidan vatan va uning tabiati, insoniy qadriyatlar haqidagi kichik hajmdagi 8-16 betli asarlar tanlab olinadi va o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi. Elektron ta'lim resurslaridan ham foydalaniladi. Shuningdek, o'quvchilar bilan kitob muqovasi, asar muallifi, asar qahramonlari haqida suhbat o'tkaziladi.

Mavzularni o'rganish uchun – 60 soat

Nazorat ishlari uchun – 8 soat

Jami – 68 soat

2-SINF

O'QISH VA NUTQ O'STIRISH

136 soat (A1+: 204 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetentsiyasi:

A1

turli manbalardan (kitob, telefon va televizorlardan) foydalana olish.

A1+

televizor va radio orqali berilgan eshittirishlarni ko'rish, tinglash va mazmunini gapirib bera olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

o'quv fanlarini o'rganish va bir-biridan farqlash;

mehnatsevarlik, to'g'rilik, hurmat qilish kabi sifatlarga ega bo'lish;

o'z xatosini tushunish va tuzatish.

A1+

o'zini nazorat qila bilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

davlat ramzlarini bilish;

o'zining o'quvchilik burchi va vazifalarini bilishi va unga rioya qilish;

o'zidan kattalarga, o'rtoqlari va o'zidan kichiklarga yordam berish;

A1+

sinfda va oilada o'z o'rniga ega bo'lish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

orasta kiyinish, yurish turishda kattalardan o'rnak olish;

milliy bayramlarni bilish;

odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

A1+

o'z uyi, maktabi, turar mahallasini qadrlash.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish;

tejamkorlikka rioya qilish;

kundalik rejalarini tuza olish.

A1+

ehtiyoji uchun kerak bo'ladigan narsalardan (o'quv qurollari, kiyim-kechagi va h.k.) tejab foydalanish.

I bo'lim. ONA YURTIM – OLTIN BESHIGIM

(21 soat, A1+: 10 soat)

1-mavzu. Vatanjonim – vatanim. Po'lat Mo'min (1 soat).

Ona yurtimiz O'zbekiston ekanligi. Vatanning ona kabi ulug'ligi. Shoirning bu haqda yozgan she'rlari. She'rda Vatan tavsifi. Vatanni onaga o'xshash jihatlari. Vatan haqidagi maqollar. She'rni tushunilib, ongli, to'g'ri va ifodali o'qish.

2-mavzu. Vatan (1 soat).

Vatan hamma xalqlar uchun birdek azizligi. Vatan atamasi. Vatanning muqaddasligi. Vatanimizda yashab o'tgan buyuk shoirlar, olimlar, mutafakkirlar. O'tmishda vatan uchun kurashgan, jon fido qilgan qahramonlar. Har bir kishining vatan oldidagi burchi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

3-mavzu. Toshkent – O'zbekistonning poytaxti (1 soat).

O'zbekiston poytaxti Toshkent shahri haqida ma'lumot. Toshkent shahrining o'tmishi. Toshkent - Sharq darvozasi. Poytaxtimiz ta'rifi. Toshkent bog'lari, muzeylari. Toshkent metrosi. Mavzuga doir maqol, topishmoqlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

4-mavzu. Biz – Vatanning ertasi. Muqim Qodir (1 soat).

Buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish hamda ularga munosib bo'lish. Nega shoir "Biz vatanning ertasi" deganligi. Vatanning ertasini obod qilish uchun o'quvchilar oldida turgan vazifalari. Vatanning kelajagi yosh avlod qo'lidaligi. She'r mazmuniga mos maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Vatanim. O'tkir Rashid (1 soat).

She'rda chaman gullarga, sayroqi bulbullarga, sho'x kuylarga to'lgan go'zal va boy yurtimiz haqida kuylanishi. Ongli va ifodali o'qish.

5-6-mavzu. Tandir. Rivoyat (2 soat).

Muhammad otaning vasiyati. Alisher Navoiyning bergan maslahati va uning natijasi. Yaxshi kun kechirish uchun o'ylab ish qilish kerakligi. Rivoyatdan ko'zda tutilgan maqsad. Rivoyat qahramoni timsolida vatanga muhabbat. "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag" hikmatli so'zining mazmuni. Milliy qadriyatlarimizning tarbiyaviy ahamiyati. Mavzuga doir tez aytish, topishmoqlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

7-mavzu. Ozod Vatan – obod Vatan. Normurod Narzullayev (1 soat).

She'rda Vatan tavsifi. Farzandlarning Vatan oldidagi burchlari va Vatanning mo'tabarligi. Maqol va topishmoqlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

8-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. O'lka. Erkin Vohidov (1 soat).

She'rda Vatan madhi. Bog'lar, har bitta daraxt oy, yulduzlar vatan ruhidan madad olishi kabi badiiy ifodalar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

Mavzu. Yurtim uchun. Otabek Quvvatov (1 soat).

She'rda vatan go'zalligi madh etiladi va bolalarga vatan ravnaqiga hissa qo'shish topshirig'i beriladi. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

9-mavzu. Ma'naviyatli xalqni yengib bo'lmaydi. Rivoyat (1 soat).

Ma'naviyat tushunchasi. Ma'naviy boylik, madaniyat, yurt tinchligi va farovonligi. Ma'naviy boyligini e'zozlagan, madaniyati yuksak taraqqiy etgan xalqni yengib bo'lmasligi. Ma'naviyat – qudratli askarlarni yenga olishga qodir kuchligi. Rivoyat mazmuniga doir maqollar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

10-mavzu. Bolajon hayajoni. Miraziz A'zam (1 soat).

Yurtimizdagi obodonchiliklar, o'zgarishlar va taraqqiyot. O'quvchilarda Vatan ravnaqidan faxrlanish hissi. She'r mazmuniga doir topishmoq va maqollar. She'rni ongli, ifodali va to'g'ri o'qish.

11-mavzu. "Afrosiyob" – tezyurar poezd. Erkin Malik (1 soat).

Sherzodning dadasi bilan sayohati. "Afrosiyob" tezyurar poezd. Poezdning tuzilishi. Poezddagi qulayliklar. Sayohat taassurotlari. O'quvchilarda vatanimiz taraqqiyotidan faxrlanish hissi. Matn mazmuniga taalluqli maqol va topishmoqlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Vatan haqida ijodiy matn tuzish (1 soat).

12-mavzu. O'zbekistonim. Anvar Obidjon (1 soat).

She'rdan Vatan madhi. O'zbekistonimizdagi bog'lar, tog'lar, qishloq va shaharlar tavsifi. She'r mazmuniga mos maqol va topishmoqlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

13-mavzu. Suv oqsin orolga. G'ani Abdullayev (1 soat).

Orol dengizi. Orol dengizi haqida ona va bola suhbat. Nodirning tabiatga munosabati. Tabiatni asrashdagi o'quvchilarning vazifalari. Suvni toza saqlashning tabiatga va insonlarga ta'siri. Tabiatni asrashga doir maqol va topishmoqlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

14-mavzu. She'rim senga, Vatanim. Quddus Muhammadiy (1 soat).

She'rdan ona Vatan madhi. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

15-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Vatan. Abdulla Avloniy (1 soat).

Vatanning muqaddasligi, uning qadrini bilmaslik aqli pastlik ekanligi, insonning voyaga yetishida shakllanishida vatanning o'rni. Vatanning onaga o'xshashi, uni sotmaslik, vatan oldidagi burchni anglash. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

Mavzu. Sog'inch manzili. Dilshod Rajab (1 soat).

Inson uchun o'zining tug'ilgan joyi har qanday go'zal joydan ustunligi bir bolaning yozgi ta'tilda shaharga kelgani va tug'ilgan yurtini sog'ingani misolida ko'rsatilgan. Matnni to'g'ri, ifodali va tez o'qish. Matn mazmuniga mos maqol, topishmoq va tez aytishlar.

16-17-mavzular. Ajoyib bahs. Hidoyat Olimova (2 soat).

Ertak qahramonlari tavsifi. Ertak qahramonlari. daraxt, olov, daryo, quyosh, tun, yer, tog', gul-chechaklarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi. Tabiat hodisalarining o'zaro ta'siri. Mavzuga doir tez aytish, maqol va topishmoqlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

18-mavzu. Vaqtning hajmi qancha (1 soat).

Vaqt haqida. Vaqtdan to'g'ri foydalanishga doir ko'rsatmalar. She'r mazmuniga mos maqollar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

19-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"Ona yurtim – oltin beshigim" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Boshqotirma va krossvordlar yechish orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash.

A1+

Mavzu. Dala xunuk bo'lib qoladi. Mahmud Murodov (1 soat).

Dam olish kuni bolalar sayohatga borishdi. Yaxshi dam olishdi. Sayohat oxirida dalani tozalashdi. Bolalarda tabiatga mehr, uni asrab-avaylash hissi uyg'ondi. Hikoyani ongli, to'g'ri o'qish. Hikoya mazmuniga doir maqol,

topishmoqlar va tez aytish.

Mavzu. Sinf dan tashqari o'qish (1 soat)

Nazorat ishi (1 soat).

**II bo'lim. MAKTABIM – QUTLUG' MAKONIM,
KITOBIM –OFTOBIM
(15 soat, A1+: 8 soat)**

20-mavzu. Maktab. Umida Abduazimova (1 soat).

Maktab, ilm o'rganish va kitobning bola hayotidagi o'rni. Kitob katta boylik ekanligi. Maktab – muqaddas dargohligi. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

21-mavzu. Ilm. Abdulla Avloniy (1 soat).

Ilm – dunyoning ziynati. Madaniyat va ma'rifat. Ilmsiz inson. Hayotimizning ilmga bog'liqligi. Ilm haqidagi hikmatlar, maqollar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

22-mavzu. Sinf dan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Ko'chamda bor bir bola. Do'stjon Matjon (1 soat).

O'quvchi mas'uliyati, hech kimning gapiga kirmaslik, past o'qishning oqibati. Matnni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. Matn mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

Mavzu. Sehrli qalam. Turg'unboy G'oyipov (1 soat).

Har qanday ishni bilib, o'rganib bajarish natija berishi. Sehrli qalam ham faqat chizishni bilganlar uchun ekanligi, bilish uchun o'qish-o'rganish kerakligi haqida tushuncha. Matnni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. Matn mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

23-mavzu. Uyg'on. Mirtemir (1 soat).

Tongda tabiatning uyg'onishi. Erta turishning afzalligi. She'r mazmuniga mos maqol, topishmoq va tez aytish. Topishmoq – xalq og'zaki ijodi turi. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

24-mavzu. Mukofot. Ne'mat Toshpo'lat (1 soat).

O'rmondagi maktab. O'rmon hayvonlari misolida bilim olishga va kitobga munosabat. Kitobni asrash. Kitobni asragan va yaxshi o'qiganlarga mukofot. Ertak mazmuniga taalluqli maqol va tez aytishlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

25-mavzu. Ona tilim. Vafo Fayzulloh (1 soat).

Ona tili jozibasi. Ona tilining ajdodlar tomonidan e'zozlanishi. She'r mazmuniga taalluqli maqol va topishmoq. She'rni ifodali, to'g'ri o'qish.

26-mavzu. Sayoq bola. Rauf Tolib (1 soat).

Tuflijon va Tojivoy. Tojivoyning qilmishi va jazo. Odobli va tartibsiz o'quvchilar xulqining qiyosiy tahlili. Odoblilik va buyumlarni qadrlashning ahamiyati. Matn mazmuniga mos maqol va topishmoqlar. Ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Ustozim. Yo'ldosh Sulaymon (1 soat).

Ustozning ota va onaga qiyoslanishi. Uning mehri. O'quvchining hayolida hamisha bo'lishi. Ongli va ifodali o'qish.

27-mavzu. Yodlasam bo'lmasmidi. Kavsar Turdiyeva (1 soat).

Ilm o'rganish. Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish mas'uliyati. Mas'uliyatsizlikning oqibati. Maqol va topishmoqlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri tez o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

28-mavzu. Ilk saboq. Raim Farhodiy (1 soat).

Maktab – bilim maskani. Birinchi dars. Ustoz – eng aziz inson. Dars – muqaddas. She'r mazmuniga mos maqol va topishmoqlar. She'rni ifodali, to'g'ri o'qish.

29-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Gapning joni. Tolib Yo'ldosh (1 soat).

Gapni to'g'ri, va o'ylab gapirish, muloqot odobi. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

Mavzu. Yomg'ir. Farhod Musajon (1 soat).

Maktabga bormaslik uchun yalqovlik, mug'ombirlik, yolg'on aytishning oqibatlari. Ifodali, to'g'ri, tez o'qish. Matn mazmuniga mos maqollar, tez aytish va topishmoqlar.

30-mavzu. Eng yaqin do'stimiz. Hakim Nazir (1 soat).

Kitob – oftob. Kitobning sabog'i, yaxshilik va yomonlik, qiyinchiliklarni yengish, zehnlarni peshlash, bilimlar koni. Abdurahmon Jomiyning kitobni ulug'lashi. Bilim – boylik. Matn mazmuniga mos maqollar, hikmatlar, tez aytish va topishmoqlar. Ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

31-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Maktabim – qutlug' makonim, kitobim - oftobim” bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Boshqotirma, krossvord va rebuslar hal etish orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash.

Nazorat ishi (2 soat).

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Maktabim. Ilyos Muslim (1 soat).

Maktabning ona kabi mehribonligi, ilm fanning makoni ekanligi, o'quvchining xalq oldidagi burchi kabi masalalar bayoni. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

A1

ertak va she'riy matnlarni tinglab, tushuna oladi;

ularni ongli, ifodali, to'g'ri, tez va bir daqiqada 30-35 ta so'zni o'qiy oladi;
o'qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so'zlarni topa oladi;

matn mazmunini qisqartirib va darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og'zaki bayon qila oladi;

maktab kutubxonasidan foydalana oladi;

kichik hajmdagi 5 ta she'rni yoddan aytib bera oladi.

A1+

matnlarning mazmunini to'liq bayon qilib bera oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o'rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va o'qituvchi yordamida ularga baho bera oladi;

asar mazmunidan ta'sirlana oladi;

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi.

III bo'lim. OLTIN KUZ - HOSILING UZ **(8 soat, A1+: 4 soat)**

32-mavzu. Oltin kuz. Tursunboy Adashboyev (1 soat).

She'rda kuz fasli tavsifi. Kuz faslida tabiatdagi o'zgarishlar. Kuz faslining tarovati. Kuz haqidagi maqollar, tez aytish va topishmoqlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

33-mavzu. Kuz. Qutlibeka Rahimboyeva (1 soat).

Kuz faslidagi tabiatdagi o'zgarishlar. Kuz faslida nishonlanadigan bayramlar. Kuzda dala, bog' va polizlardagi kishilar mehnati. Kuzda pishadigan mevalar va poliz mahsulotlari. Kuzda qushlar hayoti. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

34-mavzu. Kuz fasli. Eson Rahimov (1 soat).

Turnalar bazmi. Oltin kuz. Kuz ne'matlari. Mevalar. Kuz haqidagi maqol, tez aytish va topishmoqlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

35-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Kuz. Yo'ldosh Sulaymon (1 soat).

Kuz faslida tabiatdagi o'zgarishlar, mevalarning pishishi, hayotdan qoniqish hissi ifodalanadi. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

Mavzu. Sizga. Abdulla Oripov (1 soat).

Mustaqillik, ozodlik, insonning erkinligi. Shunday hayotni ta'minlashda Birinchi Prezidentimizning xizmatlari. Bolalar O'zbekistonning kelajagi ekanligi. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. She'r mazmuniga doir maqol, topishmoqlar va

tez aytish.

35-36-mavzular. Barglar nega sargʻayadi? Muhabbat Oʻrinboy qizi (2 soat).

Kuz faslida tabiatdagi oʻzgarishlar. Barglarning sargʻayish siri. Jumboqqa Olmaxon, Tulkivoy, Ukkinning javobi. Tipratikanning xulosasi. Ongli, ifodali, toʻgʻri, tez oʻqish.

38-mavzu. Boʻlim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Oltin kuz – hosiling uz” boʻlimi yuzasidan oʻquvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Boshqotirma, krossvord va rebuslar hal etish orqali oʻquvchilar bilimini mustahkamlash.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Maratning sayohati. Yoqub Xoʻjayev (1 soat).

Tabiat hodisalari Maratning oʻylari misolida. Tabiatdan, hayotdan zavq olish hissi. Sheʼrni ongli, ifodali, toʻgʻri oʻqish. Sheʼr mazmuniga doir maqol, topishmoqlar va tez aytish.

Mavzu. Sinfдан tashqari oʻqish (1 soat).

IV boʻlim. MEHNAT – BAXT KELITIRAR (10 soat, A1+: 4 soat)

39-mavzu. Odam boʻlaman. Anvar Obidjon (1 soat).

Kasb-hunarga doir tushuncha. Mehnatkashlik va mehnatni qadrlash. Oʻquvchilarni kasb tanlashga yoʻllash. Mehnatsevarlikka doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Sheʼrni ifodali, toʻgʻri oʻqish.

40-mavzu. Keksa kulol va shogird. Quadrat Hikmat Ertak (1 soat).

Kulol va kulolchilik. Ustoz va shogirdlik munosabatlari. Sabr-toqat bilan hunar egallash sirlari. Shogirdning xatosi. Tadbirkorlik va mehnatsevarlik. Kasb-hunarga doir maqol va topishmoqlar. Ongli, ifodali, toʻgʻri, tez oʻqish.

41-mavzu. Hunar – bebaho boylik. Ollobergan Poʻlat (1 soat).

Dehqonchilik sirlari. Mehnatkashlik va oʻz mehnatidan zavqlanish hissi. Dehqonchilik va mehnatsevarlikka doir hikmatli soʻzlar. Sheʼrni ifodali, toʻgʻri oʻqish.

42-mavzu. Mening doʻstim – kompyusha. Alisa Lavruxina (1 soat).

Aqliy mehnat. Bolakayning kompyuter bilan “suhbati”. Kompyuter va uning inson mehnatini yengillatishdagi, ilm olishdagi oʻrni. Kompyuterning imkoniyatlari. Aqliy mehnat haqidagi hikmatli soʻz. Ongli, ifodali, toʻgʻri, tez oʻqish.

A1+

Mavzu. Sinfдан tashqari oʻqish (1 soat).

Mavzu. Aʼzam tut. Sobit Gʻafurov (1 soat).

Tutning Aʼzam tut deb atalishi. Odamlarga yaxshilik qilishi. Yaxshilik qilganning nomi oʻchmasligi. Matn mazmuniga mos maqol, topishmoqlar va tez aytish. Matnni ongli, ifodali, toʻgʻri oʻqish.

43-mavzu. Non aziz. Obid Rasul (1 soat).

Nonning ushog'i ham nonligi. Non va nonni e'zozlash. Mehnatni qadrlash. Non va nonni e'zozlashga doir maqol va tez aytishlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

44-mavzu. Sinf dan tashqari o'qish (1 soat).

45-46-mavzu. Uch o'g'il. Ertak (2 soat).

O'zbek xalq ijodida uch o'g'il haqidagi ertaklar. Mehnatsevarlikka doir ertaklar. Otaning o'g'illari uchun sinovi. Topshiriqning bajarilishi. Kenja o'g'ilning tadbirkorligi. Mehnat va mehnat orqali keladigan daromad. Tadbirkorlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik va ota-onani hurmat qilish sifatleri. Mehnatsevarlikka doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

A1+

Mavzu. Qobusnoma. (Hikoyat) (1 soat).

Bir hunarni to'liq o'rganmasdan, bilaman deb o'zboshimchalik qilishning oqibatleri. Yaxshilik qilish. Minnatsiz qilingan yaxshilikning mukofoti. Ongli, tez va ifodali o'qish. Matn mazmuniga mos topishmoq, hikmatli so'z, va tez aytishlar.

Mavzu. Usta. Ertak (1 soat).

Tabiat ne'matlerini qadriga yetish, ularni asrab-avaylash zarurligi. Ustaning mahorati ham ana shunda ekanligi. Mehnatni sevis, hunar egallash va o'z hunarining mohir ustasi bo'lish.

47-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"Mehnat – baxt keltirar" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Boshqotirma va topshiriqlarni hal etish orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash.

Nazorat ishi (1 soat).

**V bo'lim. KUMUSH QISH – MISOLI OQQUSH
(14 soat, A1+: 8 soat)**

48-mavzu. Qish. Ilyos Muslim (1 soat).

Qish faslida tabiatdagi o'zgarishlar. Bolalarning qishki o'yinlari. Qishki dam olishlar. Qish fasli haqidagi maqol, topishmoq va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

49-mavzu. Qishning o'rtog'i. Zahro Hasanova (1 soat).

Qishki o'yinlar. Sport – sog'lik garovi. Hikoya qahramoni otasi bilan badantarbiya qilishi. Badantarbiyaning inson salomatligidagi o'rni. Qish – eng yaqin o'rtog'im. Qish fasli haqidagi tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Teshik kulcha. Sobit G'afurov (1 soat).

Milliy qadriyatlardan biri bolalarning keksalarga yordam berishi. Matnda muammoli vaziyat – nega hammaga yordam beradigan Qobiljon ko'zi ojiz kishiga yordam bermochi bo'lishi va fikridan qaytishi. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoqlar va tez aytish. Matnni ongli, to'g'ri o'qish.

Mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

50-mavzu. Qorqiz. Anvar Obidjon (1 soat).

Qish faslida nishonlanadigan bayramlar. Yangi yil bayramining sevimli qahramoni – Qorqiz haqida. Qish fasli haqidagi maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

51-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

52-mavzu. Ayrilganni ... Latif Mahmudov (1 soat).

Qish faslida daraxtlardagi o‘zgarishlar. O‘jar bargning qismati. Barg ramzida o‘jarlikning va ko‘pchilikdan ajralishning oqibati. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Hikoyani ongli, tez va ifodali o‘qish.

53-mavzu. Qor. Zafar Diyor (1 soat).

Tabiat hodisalari va qor. Qor yog‘ishining tabiatga va inson salomatligiga ta’siri. Qish faslidagi bolalar o‘yinlari. Qish fasli haqidagi maqol va tez aytishlar. She’rni ongli va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

Mavzu. Qish ham chiroyli. Q. Muhammadiy (1 soat).

Qishdagi go‘zal manzaralar, dala va daraxtlardagi o‘ziga xos go‘zallik. O‘quvchilarning qishda qunok o‘yinlari, uyda dars tayyorlashga berilishi. She’rni ongli va ifodali o‘qish.

54-mavzu. Tog‘ malikasi. Zahro Hasanova (1 soat).

Qish faslida nishonlanadigan bayram – Yangi yil. Yangi yil bayramining asosiy bezagi. Archa daraxti. “Tog‘ malikasi”. Archa bezatish va go‘zallikdan zavqlanish. Archa haqidagi topishmoq va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

55-mavzu. Qorning ko‘p xosiyati bor. Ilyos Muslim (1 soat).

Tabiat hodisalari. Qor va uning dehqonchilikka hamda inson salomatligiga ta’siri. Qor va bolalar quvonchi. Qish fasli haqidagi maqol va topishmoqlar. She’rni ongli va ifodali o‘qish.

56-mavzu. Laylakqor. Qutbi Nosirova (1 soat).

Qor yog‘ganda bolalar o‘yinlari. Qorbobo. Tabiat go‘zalligidan zavqlanish. Qish fasli haqidagi maqol va tez aytishlar. She’rni ongli, tez va ifodali o‘qish.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Qor odamning sovg‘asi. Odiljon Husanov (1 soat).

Qishda odamlar mehnati. Bolalarning o‘ziga xos ishlari: Qor odam yasash. Har qanday mehnatning ham mukofoti bo‘lishi. Matnni ongli, tez va ifodali o‘qish. Matn mazmuniga mos topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Salom yangi yil. Olqor Damin.

She’rda yangi yilning kelishi. Yangi yilda yangi vazifalar berilishi. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish):

A1

hikoya, ertak va she'riy matnlarni tinglab tushuna oladi;
ularni ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qiy oladi;
o'qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so'zlarni topa oladi;
ularning mazmunini qisqartirib va darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini o'zaki bayon qila oladi.

A1+

o'rganilgan mavzular doirasida kichik hajmli matn asosida bayon yoza oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o'rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va o'qituvchi yordamida ularga baho bera oladi;
o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi;
matndagi so'z va gaplarni tushuna oladi.

A1+

mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi.

57-mavzu. Chilla chiqib. Tursunboy Adashboyev (1 soat).

Qish chillasi. O'rmon hayvonlari va o'simliklarining qish chillasi davridagi hayoti. Qish fasli haqidagi topishmoq va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

58-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

59-mavzu. Vatan – mehr qo'rg'oni. Iskandar Rahmon (1 soat).

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni. Vatan, vatanparvarlik va Vatanni qo'riqlash tushunchalari mazmuni. Vatan posboni – mard yigitlar ekanligi. Vatanni asrash haqidagi maqol va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

60-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Kumush qish – misoli oqqush” bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish va boshqotirmani hal etish orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash.

A1+

Mavzu. Qor bosgan dala. Dilshod Rajab (1 soat).

Tabiat hodisalari hayotiy voqealar bilan qiyoslanadi, qishda qor hamma joyda bir tekis yog'ib yerdagi baland-past joylarni yopgani kabi hayotda yarqirab ko'ringan ba'zi holatlar aldatchi bo'lishi, ularga ergashish esa inson hayotini yo'ldan chiqarishi haqida ota-ona suhbat. Matnni to'g'ri, ifodali va tez o'qish.

Mavzu. Eng qiziq o'yin. Habib Po'latov (1 soat).

Inson hayotida yaxshilik qilishning ahamiyati, hatto zerikkanda o'ynaladigan o'yinlar orqali ham kimlargadir yordam qilish, o'yinning yaxshilikka xizmat qilishi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

VI bo'lim. OTALAR SO'ZI – AQLNING KO'ZI

(14 soat, A1+: 6 soat)

61-mavzu. Tilingni avayla – omondir boshing. Yusuf Xos Hojib (1 soat).

Tilning inson boshiga keltiradigan yaxshiliklari va yomonliklari. Tilni avaylash haqida donolarning nasihatlar. Mavzuga doir tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

Nazorat ishi (1 soat).

62-mavzu. Ibn Sinoning bolaligi. Maqsud Qoriyev (1 soat).

Ibn Sinoning bolaligi kechgan davr va oilasidagi muhit. Ilm olishga bo‘lgan intilishi. Kichkina Husaynning afshonalik shoir Umarxondan olgan olqishi va duosi. Mavzuga doir tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

63-mavzu. Amir Temur haqida hikoya. Bo‘riboy Ahmedov (1 soat).

Amir Temurning bolaligi. Temurbekning otasi. Ziyrak Temurbekning maktabga borishi. Amir Temurning ustoz. Ibrodulla domla. Ustozning Temurbekka qilgan nasihatlar. Temurbek madrasa talabasi. Mamlakatni boshqarish ilmini o‘rganishi. Amir Temur – buyuk sohibqiron. Mavzuga doir maqol, tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

Mavzu. Palto. Hadislar kitobi (1 soat).

Palto sabab ota va bolaning bir-biriga bo‘lgan munosabati. Iymon-e’tiqodning ustunligi. Ongli, tez va ifodali o‘qish. Matn mazmuniga mos topishmoq va tez aytishlar.

64-mavzu. Non – ulug‘ ne‘mat. Rivoyat (1 soat).

Mirzo Ulug‘bek – shoh va munajjim. Nonni e‘zozlash. Podsho Ulug‘bekning mulozimlariga ko‘rsatgan namunasi. Mavzuga doir maqol va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

65-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

66-mavzu. Nima eksang, shuni o‘rasan. Shorasul Zunnun (1 soat).

Keksa chol va unga o‘g‘li hamda kelinining munosabati. Chol va nabira munosabatlari. Yosh bolaning otasiga ko‘rsatgan ibrati. Keksalarni e‘zozlash – oliy himmat. Mavzuga doir tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

67-mavzu. Ta‘zir. Xudoyberdi To‘xtaboyev (1 soat).

Bahromjon va buvisi. Buvisining Bahromjonga iltimosi. Bahromjonning e‘tiborsizligi. Bahromjonni tarbiyalash uchun buvisining tadbiri. Keksalarni hurmat qilish odobi. Mavzuga doir tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Bosh va til. Ertak (1 soat).

Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy munosabatlari. Saroy a‘yonlarining noroziligiga ularning nihoyatda sirli va to‘g‘ri javoblari. Matnni ongli, to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qish. Matn mazmuniga mos topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Hunarning hidi qanaqa. Janni Rodari (1 soat).

Hunarlarning turli-tumanligi va ularning har birining o‘ziga xos hidi borligi haqida. Mavzuga doir maqol va topishmoqlar. Ongli va ifodali o‘qish.

Nazorat ishi (1 soat).

68-mavzu. Mehmon keldi. Aziz Abdurazzoq (1 soat).

Mehnatkashlik, ozodalik, mehmondo'stlik, mehr-oqibat kabi sifatlarni shakllantirishda milliy qadriyatlarimizning o'ri. Ra'noning mehnatkashligi va ozodaligi. Mehmon kutish odobi. Mehmondo'stlikka doir maqollar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

69-mavzu. Kichkina Alisher. Zamira Ibrohimova (1 soat).

Alisher Navoiyning bolaligi va uning sifatlari. Alisherning sayohati va boshidan o'tkazganlari. Topqirlik va ziyraklik. Mavzuga doir maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

70-mavzu. Alisher Navoiy. Xurshid Davron (1 soat).

Alisher Navoiyga ehtirom. Mavzuga doir maqol, tez aytish va topishmoqlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Ochko'zlik. Hikoya (1 soat).

Hikoyada bola bir so'mini yo'qotib qo'yishi va bir odam kelib o'sha pulni berishi. Shu pulga qanoat qilmagan bolaga qanoatli bo'lish to'g'risida fikr bildirishi. Mavzuga doir tez aytish va maqollar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

71-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"Otalar so'zi – aqlning ko'zi" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Qiziqarli topshiriqlar, rebus va boshqotirmanini hal etish orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash

72-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

VII bo'lim. ZUMRAD BAHOR – BAHRI DILING OCHAR (18 soat, A1+:10 soat)

73-mavzu. Bahor keldi. Aziz Abdurazzoq (1 soat).

Bahor fasli. Bahor faslida tabiatdagi o'zgarishlar. Bahor faslidagi obodonchilik ishlari. Tabiat go'zalligidan zavq olishga o'rgatish. Bahor fasli haqidagi maqol, topishmoq va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish mashqi.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Bahor. Qutlibeka Rahimboyeva (1 soat).

Bahor fasli. Undagi go'zallik va o'ziga xoslik. Matnni ongli, to'g'ri, tez va ifodali o'qish. Matn mazmuniga mos maqollar, hikmatli so'zlar va topishmoqlar.

Mavzu. Shum tulki. Ertak (1 soat).

Ertakda yomonlikning albatta yakun topishi va jazolanishi tulkining shumligi va jazosini olishi misolida ko'rsatiladi. Ongli, to'g'ri, tez va ifodali o'qish. Maqol, topishmoq va tez aytishlar.

74-mavzu. Boburning fazilatlari. G.H.Pant (1 soat).

Bobur Mirzo haqida ma'lumot. Boburning jismoniy sifatlari va insoniy fazilatlari. "Boburnoma". Boburning tabiatga, farzandlariga va insonlarga

munosabati. Mirzo Boburning vorislari. Insoniy fazilatlar haqidagi maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

75-mavzu. Ko'klam sep yoydi. *Do'stjon Matjon (1 soat).*

Bahor faslida bog'lardagi o'zgarishlar. Mevali daraxtlar. Bahor faslida o'lkamizga uchib keladigan qushlar. She'r mazmuniga mos topishmoq va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

76-mavzu. Bir tup sada. *Mahmud Murodov (1 soat).*

Sada va uning insonlar uchun yaratgan qulayligi. G'allakorlarning hordiq chiqarishi. Norbobo – mehnatkash otaxon. Daraxt o'tqazishning insonlarga foydasi. "Birni kessang, o'nni ek" hikmati. Insonlarga foyda keltirish va daraxt o'tqazish haqidagi maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

77-mavzu. Gunafsha. *Qudrat Hikmat (1 soat).*

Bahor faslida ochiladigan gullar. Gunafsha – bahor elchisi. Gullarning go'zalligi va hdan zavq olish. Bahor gullari haqidagi maqollar, tez aytish va topishmoqlar. She'rni ifodali va ongli o'qish.

A1+

Mavzu. Sinf dan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Lagerga borgan kuchukcha. Anvar Obidjon (1 soat).

Kuchuklar insonga do'st ekanligi lagerga borgan kuchukcha misolida o'z aksini topgan. Bahodirning kuchukchasi hammaga yoqib tushadi. Bolalar bilan birga o'ynaydi. Kuchukchaning bolalarga do'stligini hamma bolalar tan oladi. Ongli, to'g'ri va ifodali o'qish. Maqol, topishmoq va tez aytishlar.

78-mavzu. Tanbeh. *Latifjon Mansurov (1 soat).*

Salomlashish odobi. "Somaleykum" va "Assalomu alaykum" so'zlarining ma'nosi. Salomlashishning insonlararo munosabatlarga ta'siri. Hikoya qahramonining xatosi va onasining bergan tanbehi. Yoshi kattalarni hurmat qilish va mehr-oqibatli bo'lish. Salomlashish odobiga doir maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

79-mavzu. Sinf dan tashqari o'qish (1 soat).

80-mavzu. Momaqaymoq. *Quddus Muhammadiy (1 soat).*

Bahor gullari va ularning go'zalligi. Momaqaymoq. Tabiatdagi o'zgarishlar va gullar go'zalligidan zavqlanish. Mavzuga doir topshiriq va topishmoqlar. She'rni ifodali o'qish.

81-mavzu. Karim chumolilarning tilini bilarkan. *Hamid Jalolov (1 soat).*

Bolalarning tabiat qo'yniga sayohati. Tabiat manzarasi. Karim va Nodiraning suhbat. Tabiat hodisalarining bog'liqligi. "Karim chumolilarning tilini bilar ekan" gapining tahlili. Tabiat hodisalariga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. O'rik gullaganda. Hamid Olimjon (1 soat).

She'rda bahor fasli o'ziga xos tarzda o'rikning gullashi misolida tasvirlanadi. She'rni ongli, to'g'ri va ifodali o'qish. Maqol, hikmatli so'z va topishmoqlar.

Mavzu. Dik-Dikjo. Ertak (1 soat).

Ertakda qo‘rqoqlik va jasurlik haqida so‘z boradi. O‘zining hayoti xavfsizligini ta‘minlash uchun jasurlik kerakligi ta‘kidlanadi. Ongli, to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qish. Maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Nazorat ishi (1 soat).

82-mavzu. Alisherning onasi. Abdulla Oripov (1 soat).

Onalar haqida yozilgan she‘rlar. Alisher Navoiyni tarbiyalash, shoir darajasiga yetkazgan onasining madhi. Onalar haqidagi maqollar. She‘rni ifodali va ongli o‘qish.

83-mavzu. Onam. Umarali Qurbonov (1 soat).

8-mart – Onajonlar bayrami. Ona – buyuk zot, onalarni e‘zozlash – farzandlik burchi. Onalarga ta‘zim. Onalar haqidagi maqollar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

84-mavzu. Navro‘z – tabiat tantanasi (1 soat).

21-mart – bahoriy tengkunlik. Navro‘zda tabiatning uyg‘onishi, iliq mavsumning boshlanishi. Hashar va obodonlashtirish ishlari. Navro‘z ayyomidagi an‘analar. Qadimgi yozma manbalarda Navro‘z ayyomining nishonlanishi haqida. Navro‘z ayyomi haqidagi maqollar, hikmatli so‘zlar va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

Mavzu. Bizning bahor. Dilshod Rajab (1 soat).

Bahor manzarasi. Turfa xil gullarning ochilishi, qaldirg‘ochlarning kelishi. Bahor borliqni sayratib yuborishi. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

85-mavzu. Polvonman. Qambar Ota (1 soat).

Sport va jismoniy mashqlarning inson salomatligiga ta‘siri. O‘zbek milliy kurashi. Kurash – mardlar sporti. Salomatlik va jismoniy mashqlar haqidagi hikmatli so‘zlar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

86-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

87-mavzu. Qaldirg‘och. To‘lan Nizom (1 soat).

Bahor faslida o‘lkamizga uchib keladigan qushlar. Qaldirg‘och. Qushlar bilan bog‘liq qadriyatlar. Qaldirg‘ochning in qurishi va bola ochishi. Qushlar haqidagi tez aytish, maqollar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

88-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Zumrad bahor – bahri diling ochar” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish va boshqotirmani hal etish orqali o‘quvchilar bilimini mustahkamlash.

A1+

Mavzu. Omadini izlagan yigit. Hidoyat Olimova (1 soat).

Omadni izlab, kutgandan ko‘ra o‘z mehnati bilan omadga erishish yo‘llari. Mehnat qilgan odam albatta omadga erishishi. Matnni to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qish.

Mavzu. Varraklar quvonchi. Dilshod Rajab (1 soat).

Qishning o‘tib ketgani va bahor manzarasi varraklarning vaqti kelgani chiroyli bo‘yoqlarda tavsiflanadi. She‘rni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qish. She‘r

mazmuniga mos maqollar, topishmoqlar va tez aytishlar.

VIII bo‘lim. QUSHLAR, HAYVONLAR – BIZNING DO‘STIMIZ **(5 soat, A1+: 2 soat)**

89-mavzu. Bulbuljonim kuylasin. *Quddus Muhammadiy* (1 soat).

Qushlar – bizning do‘stimiz. Bulbulning xush ovozi. Qushlar haqidagi maqol va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

90-mavzu. Chumchuq bola. *O‘ktam Usmonov* (1 soat).

Qushlarning inson hayotidagi o‘rni va ularga munosabat. Boboxonning chumchuq bolasini qiynashi. Tal’at qushchani ayirboshlashi. Qushcha erkinlikda. Boboxonning hayrati. O‘quvchilarni qushlarni asrashga o‘rgatish. Qushlar haqidagi maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

91- mavzu. Tuya, fil va olmaxon. *Ertak* (1 soat).

Uy hayvonlari haqida ma’lumot. O‘rtoqlar va chin do‘st. Qo‘y va xo‘rozning do‘stlashishi. Qo‘y bo‘riga duch kelishi. Itning qo‘yni qutqarishi. Haqiqiy o‘rtoq. Nodon do‘st va ziyrak dushman. Do‘stlik haqidagi maqollar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

92-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Qushlar va hayvonlar bizning do‘stimiz” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish va boshqotirmaning hal etish orqali o‘quvchilar bilimini mustahkamlash.

Nazorat ishi (1 soat)

A1+

***Mavzu. Kirpitikan. Hamza Imonberdiyev* (1 soat).**

Kuzda barglarning to‘kilishi, hayvonlarning qish g‘amini yeyishi, ayrim sayyohlar barglarni yoqishi, kirpitikan ularni o‘chirishi misolida tabiatni va toza havoni asrashning ko‘rsatilishi. Ongli, to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qish. Maqol, topishmoq va tez aytishlar.

***Mavzu. Sinf dan tashqari o‘qish* (1 soat).**

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish*):

A1

hikoya, ertak va she’riy matnlarni tinglab tushuna oladi;

matnlarni ifodali, to‘g‘ri va tez o‘qiy oladi;

o‘qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so‘zlarni topa oladi;

matnlarning mazmunini qisqartirib va darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og‘zaki bayon qila oladi;

o‘rganilgan mavzular doirasida kichik hajmli matn asosida bayon yoza oladi.

A1+

matnlarning mazmunini to‘liq bayon qilib bera oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o'rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va o'qituvchi yordamida ularga baho bera oladi;

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi; matndagi so'z va gaplarni tushuna oladi.

A1+

mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi.

IX bo'lim. ERTAKLAR – YAXSHILIKKA YETAKLAR (15 soat, A1+: 6 soat)

95-mavzu. Tansihatlik – tuman boylik. O'zbek xalq ertagi (1 soat).

Ertak haqidagi dastlabki nazariy ma'lumotlar. Donishmandga qashshoq yigitning murojaati. Donishmand chol va kambag'al yigit bahsi. Inson salomatligi – eng katta boylik. Donishmandning kambag'al yigitga nasihati. Mehnat qilish va salomatlik haqidagi maqollar ustida ishlash. Ongli, tez va ifodali o'qish.

96-mavzu. Kenja o'g'il. O'zbek xalq ertagi (1 soat).

Donishmand chol va uning uch o'g'li. Cholning o'g'illariga topshirig'i. Topshiriqning bajarilishi – o'g'illar qurgan qo'rg'onlar. Kenja o'g'ilga xotining maslahati. Do'st – haqiqiy qo'rg'on. Do'stlik haqidagi maqol va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

97-mavzu. Eng yaxshi sovg'a. O'zbek xalq ertagi (1 soat).

Savdogar va uning uch qizi. Savdogarning Xitoy mamlakatiga sayohati va qizlarining iltimosi. Qizlar uchun sovg'a. Kenja qizning sovg'asi. Sog'lik – eng katta boylik. Aqlli qiz. Ongli, tez va ifodali o'qish.

98-mavzu. Tulki va xo'roz. Eron xalq ertagi (1 soat).

Tulkining ayyorligi va xo'rozga taklifi. Ayyor tulki yolg'onining fosh bo'lishi. Xo'roz, tulki kabi ramziy obrazlar orqali aqllilik, tadbirlilik talqini. Do'stlik va hayvonlar haqidagi ertaklar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Uch Tulki. Ertak (1 soat)

Qaysarlik va o'zbilarmonlikning yomon oqibati quyoncha va xo'tikcha misolida ko'rsatilishi. Ongli, tez va ifodali o'qish. Ertak mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

99-mavzu. Aqlli bola. O'zbek xalq ertagi (1 soat).

Maqtanchiq podsho. Podsho va aqlli bola suhbat. Aqlli bolaning jumboqli gapi. Mehmondorchilik. Jumboqning yechimi va bolaning aqliga podshoning tan berishi. Bolaning saroyga kelishi. Aqlning inson hayotining rivojlanishidagi ahamiyati. Aql va bilimdonlik haqidagi maqol, tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

100-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

101-102-mavzu. Somon, cho‘g‘ va loviya. Aka-uka Grimmilar (2 soat).

Keksa kampirning ovqat tayyorlash voqeasi. Somon, cho‘g‘ va loviyaning uchrashib qolishi. Do‘stlashishi va sayohati. Do‘stlarning ariqchadan o‘tish voqeasi. Do‘stlarining ustidan kulgan loviyaning ahvoli. Loviyalarning qornidagi qora choki. Ertakdagi ramziy obrazlar orqali do‘st tanlash va do‘stlarga sodiq bo‘lish g‘oyasining talqini. Ertak mazmuniga doir maqol, tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Uch o‘rtoq. Ertak (2 soat).

Haqiqiy do‘stlik. Qo‘y, xo‘roz va itning do‘stligi. “Nodon do‘stdan ziyrak dushman yaxshi” maqolining ma‘nosi. Ongli, tez va ifodali o‘qish. Ertak mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

103-mavzu. Qarg‘a bilan tulki. Ivan Krilov (1 soat).

Masal haqida qisqa nazariy ma‘lumot. Qarg‘a pishloq topishi. Ayyor tulkinining qarg‘ani maqtashi. Qarg‘aning maqtovlarga aldanishi. Pishloqdan ayrilgan qarg‘a. Ramziy obrazlar orqali zukkolik, aqllilik, ayyorlik kabi sifatlar talqini. Masal mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

104-mavzu. Hakka bilan tulki. O‘zbek xalq ertagi (1 soat).

Ramziy obrazlar orqali zukkolik, aqllilik, ayyorlik kabi sifatlar talqini. Ertakni xulosalash.

Nazorat ishi (1 soat).

105-mavzu. Mushuk va sichqon. Habib Po‘latov (1 soat).

Mushuk va sichqonning suhbat va kelishuvi. Mushukni aldagan sichqon. Aldangan mushukning sichqonni poylashi. Ertak mazmuniga doir maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Saboq. Hidoyat Olimova (1 soat).

Valijonning tushi. Undagi barcha kamchiliklarining bayoni. Valijonning o‘z xatolarini tushunishi. Erinchoqlik yomon odat ekanligi. Ongli, tez va ifodali o‘qish. Ertak mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Maqtanchoq quyon. Ertak (1 soat)

Quyoning maqtanchoqligi, yolg‘onchiligi va qo‘rqoqligi. Bunday salbiy sifatlar yomon oqibatlarga olib kelishi maqtanchoq quyon misolida ko‘rsatiladi. Ongli, ifodali o‘qish. Ertak mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

106-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish

107-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

**X bo‘lim. TABIATNI ASRANG, AVAYLANG
(7 soat, A1+: 4 soat)**

108-mavzu. Yomg‘ir. O‘roq Saidov (1 soat).

Tabiat hodisasi – yomg‘ir va uning xosiyati. Yomg‘irning rizq-ro‘z

ulashuvchiligi. She'r mazmuniga doir tez aytish va topishmoqlar. She'rni ifodali va ongli o'qish.

109-mavzu. Zilol suv. G'ani Abdullayev (1 soat).

Asar qahramoni Tohirning otasi topshirig'ini bajarishi. Anhorga tushgan axlatlar. Toza suvning ifloslanishi. Ta'til davrida toqqa sayohat.

A1+

Mavzu. Kapalak. Mahmud Murodov (1 soat).

Qushlarga mehribonlik, zarur bo'lganda ularni himoya qilish, qushlar insonlarning do'sti ekanligi. Ongli, tez va ifodali o'qish. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Tovus va hakka. Ertak (1 soat).

G'arazgo'ylik, aldoqchilik, birovning muvaffaqiyatini ko'rolmaslik va ochko'zlikning yomon oqibati. Tovus va Hakka misolida ko'rsatilganligi. Ongli, tez va ifodali o'qish. Ertak mazmuniga doir maqol va tez aytishlar.

110-mavzu. Zilol suv. G'ani Abdullayev (1 soat).

Tog'ning toza havosi va zilol suv. Anhorning boshlanishi. Asad bilan Tohirning chopishuvi. Tohirning qilgan ishidan afsuslanishi. Tabiatni asrashga doir fikrlar. She'rni ifodali va ongli o'qish.

111-mavzu. Yershunos bo'laman. Qambar Ota (1 soat).

Yerni asrab-avaylash va tuprog'ining har bir zarrasini qadrlash. Tabiatni asrashga doir tushunchalar. Bolaning kelajakdagi orzulari va niyatlari. She'r mazmuniga doir maqol, tez aytish va topishmoqlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

112-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"Tabiatni asrang, avaylang" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish, rebus va boshqotirmalarni hal etish orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Akula kelmadi. O'tkir Xoshimov (1 soat).

Suvda suzish, uning inson sog'ligi uchun ahamiyati, bolalarni yoshligidan suzishga o'rgatishning ahamiyati. Ongli, tez va ifodali o'qish. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Suv. Quadrat Hikmat (1 soat).

Suvning hayotdagi o'rni. Suvning tabiatga ta'siri. Suvsiz hayotning yo'qligi. Cho'lni, sahroni bo'stonga aylantirishdagi o'rni. She'rni ongli va ifodali o'qish. She'r mazmuniga doir maqol, tez aytish va topishmoqlar.

113-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

**XI bo'lim. YOZ - O'TADI SOZ
(8 soat, A1+: 6 soat)**

114-mavzu. Yoz keldi. Qambar Ota (1 soat).

Yoz faslida tabiatdagi o'zgarishlar. Yoz ne'matlari va yozda kishilar mehnati. Yoz fasli haqidagi maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

115-mavzu. Tabiatning ne'mati ko'p (1 soat).

Ertak qahramoni Eshakning tabiatga sayohati. Bog' va poliz ne'matlari. Eshakning chumchuq bilan tabiat ne'matlari haqidagi suhbat. Eshakning e'tirozi, qilmishi va jazosi. Hikmat. Tabiatning ne'mati. Ertak mazmuniga mos maqol va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

116-mavzu. Yozning ziynati. Aziz Abdurazzoq (1 soat).

Yoz faslida qushlar hayoti. Qaldirg'och uyasi va polaponlari. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Kitob. Obid Rasul (1 soat).

Kitobni asrash, uni toza saqlashning ahamiyati, kitobning bilim manbai ekanligi, kitob o'qigan kishining umri yaxshi o'tishi. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. She'r mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Uchar poezd. Erkin Malik (1 soat).

O'zbekistondagi rivojlanish, taraqqiyot, yangiliklar, yangi temir yo'llarning ochilishi, Boysun - Qumqo'rg'on" yo'nalishidagi poezdda bobo va nabiraning sayohati, undagi taassurotlar. Topishmoq va tez aytishlar. Matnni ongli, tushunib, tez va ifodali o'qish.

117-118-mavzular. Qaldirg'och bilan beshiktervatar. O'tmish O'sarov (2 soat).

Ertak qahramonlari – qaldirg'och va beshiktervatarning tanishuvi. Do'stlar. Qaldirg'ochning bolalariga hujumi. Qaldirg'ochga yordam. Beshiktervatarning jasorati. Ilonning jazosi. Haqiqiy do'stlik. Ertak mazmuniga mos maqollar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

119-mavzu. A'lo o'qidingiz, a'lo dam oling! Ilyos Muslim (1 soat).

Yoz va yozgi ta'tilning boshlanishi. Yozgi ta'tilda bolalar dam olishi. She'r mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

120-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"Yoz – o'tadi soz" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish va boshqotirmalarni hal etish orqali o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash hamda amaliyotda qo'llay olishlarini tushuntirish.

A1+

Mavzu. Bug'doyning taqdiri. Dilshod Rajab (1 soat).

Bug'doyning maysa bo'lib o'sishidan tortib, pishib yetilishi, un va non bo'lishiga qadar jarayon. Nonning inson hayotidagi o'rni. Nonni e'zozlash. She'rni ongli va ifodali o'qish. She'r mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Sovg'a. Farhod Musajon (1 soat).

Oqiljonga dadasi gul ko'chatini olib kelishi. Otasini Oqiljonga gul ko'chatini ekishga o'rgatishi orqali tabiatga muhabbat uyg'otishi. Oqiljonning gul ko'chatini parvarishlashi va mehnati mahsulini (ya'ni, gulni) sinfdoshiga sovg'a qilishi. Matnni ongli va ifodali o'qish. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

121-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

Mavzu. Ezgulik qilay deb. Qambar Ota (1 soat)

O'quvchilarni ezgu ishlar qilishga yo'llash. Ezgu ishlarning jamiyat uchun ahamiyati. She'rni ongli va ifodali o'qish. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

A1+

Mavzu. Tonggi so'z. Raim Farhodiy (1 soat).

Insonlararo munosabatda salomlashishning o'rni. Ertalabki bu so'zning ma'nosi. Ahmadning tongdagi sarguzashtlari.

Mavzu. Yerning tili. Tolib Yo'ldosh (1 soat).

Yerni parvarishlash. Mehnat qilsa, yerning gullab yashnashi, insonlarni boqishi. Yerga e'tiborli bo'lish. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya elementlari (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*):

A1

ertak va she'riy matnlarni tinglab tushuna oladi;
ularni ongli, ifodali, to'g'ri, tez va bir daqiqada 30-35 ta so'zni o'qiy oladi;
o'qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so'zlarni topa oladi;
ularning mazmunini to'liq yoki qisqartirib, darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og'zaki bayon qila oladi;
maktab kutubxonasidan foydalana oladi;
kichik hajmdagi 5 ta she'rni yoddan aytib bera oladi.

A1+

asar qahramonlari, tabiat tasviri haqida 4-5 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o'rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va o'qituvchi yordamida ularga baho bera oladi;
asar mazmunidan ta'sirlana oladi;
o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi.

SINFDAN TASHQARI O'QISH

(17 soat, A1+: 17 soat)

O'qish materiallari 16-32 bet hajmdagi bolalarbop badiiy, ilmiy-adabiy kitoblar. O'quvchi ovozsiz mustaqil o'qish va tanlab ovoz chiqarib o'qish uchun 1-5 bet hajmli she'r, ertak va hikoyalar o'qiladi. O'qish mavzulari. Ona Vatan va ota-

bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlar.

Sinfdan tashqari o'qishning asosiy vazifasi bolalarni mustaqil amaliy faoliyatga o'rgatish, bilimni boyitish va o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishdir. O'qituvchilarga sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qishlari zarur bo'lgan kitoblar, ular bilan tanishish tartibi yuzasidan ko'rsatmalar beriladi. Maktab kutubxonasi bilan birgalikda kitob ko'rgazmalari tashkil etiladi.

Kitobning muqovasi (tituli), betlarini farqlay olish. Kitobning nomini, muallifi va rasmlari asosida mazmunini aniqlay olish. Kim yoki nima haqida o'qidingiz? Savoliga javob berish, mazmunini aniqlash. Qahramonlarning xatti-harakatini, xulqini va ular boshidan kechirgan voqea-hodisalarni mustaqil baholay olish.

Mavzularni o'rganish uchun – 121 soat (A1+: 68 soat)

Nazorat ishlari uchun – 15 soat

Umumiy – 136 soat (A1+: 204 soat)

3-SINF

O'QISH VA NUTQ O'STIRISH

(170 soat, A1+: 238 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, televizor, radio va boshq.) foydalana olish va xulosa chiqarish;

o'z yoshiga mos kitoblarni o'qish, tushunish va ulardan ibrat olish, televizor va radiolar orqali berilib borilayotgan xabarlarni gapirib bera olish;

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to'ldirish) bilan ishlay olish.

A1+

media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash;

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish;

o'z xatti-harakatini nazorat qila bilish, og'zaki va yozma matnlar mazmuniga to'g'ri baho bera olish.

A1+

hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

badiiy asarlarda aks etgan ma'naviy va madaniy hodisalar mohiyatini to'g'ri tushunish va talqin qila olish, ulardagi estetik jihatlarni ilg'ash hamda tushuntirib bera olish;

badiiy adabiyotda go'zallik va ezgulikdan o'rnak olish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana bilish.

A1+

madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan qahramonlarning insoniylik va boshqa fazilatlariga qarab turib xolis mulohaza yurita olish;

maktabda va maktabdan tashqari tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish;

o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish.

A1+

badiiy asarlarda aks etgan yuksak ma'naviy fazilatlar anglash, his etish va boshqalarga yetkaza intilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

mamlakatimizdagi bayram kunlarini bilish, kundalik faoliyatida uchraydigan turli chizmalardan foydalana olish.

A1+

isrof va tejamkorlikning ma'nosini tushunish hamda kundalik faoliyatida unumli foydalanish.

I bo'lim. ONA VATAN, VATAN YAGONA **(19 soat, A1+: 6 soat)**

1-mavzu. Bayramingiz qutlug' bo'lsin. Dilduza Komiljonova (1 soat).

O'zbekiston Respublikasining mustaqil mamlakat ekanligini bilish, yurtimizda so'nggi yillarda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari.

2-mavzu. O'zbekiston. Orif To'xtash (1 soat).

O'zbekiston ozod vatan ekanligini, uning bag'ri kengligini, o'ziga bek bo'lgan o'zbeklarning diyori ekanligini bilish. She'r mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

3-mavzu. Vatan. Miraziz A'zam (1 soat).

Ona Vatanini sevishi. Vatan uchun jonini fido aylashi. She'r mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

4-mavzu. Vatan mo'tabardir. Xurshid Davron (1 soat).

Har bir kishi o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona Vatanini sevishi. Uni ona kabi yagonaligini bilishi. Matn mazmuniga oid maqol, tez aytishlar. Ongli va ifodali o‘qish.

5-mavzu. Mustaqillik ahillikdan. *Po‘lat Mo‘min (1 soat).*

Mustaqillikni saqlash, Vatan tinchligi. Tinchlik bo‘lishida nimalarga e‘tibor berish kerakligi. She‘r mazmuniga doir maqol, tez aytishlar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. *Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat)*

Mavzu. *Bizning O‘zbekistonimiz. Abdurahmon Akbar (1 soat).*

O‘zbekiston ozod vatan ekanligini, uning bag‘ri kengligini, o‘ziga bek bo‘lgan o‘zbeklarning diyori ekanligi. She‘r mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

6-mavzu. Til qudrati. *Rivoyat (1 soat).*

O‘z ona tilini sevishi. Uni qadrlashi. Avloddan-avlodga meros qoladigan asosiy boylik – til. Rivoyat mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Matnni ongli va ifodali o‘qish.

7-mavzu. Ona tilim. *Tursunboy Adashboyev (1 soat).*

Ona tilimiz buyuk Amir Temur, Mir Alisher Navoiy bobolarimizdan meros bo‘lib qolganligi. Bobur Mirzo, Mashrab, Mirtemirni shoir qilgan ham o‘z ona tili ekanligi. She‘r mazmuniga doir maqol va tez aytishlar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

8-mavzu. Tuhfa. *Oygul Suyundiqova (1 soat).*

Turli millatlar orasida o‘zbek gimnast qizining g‘olib bo‘lishi. Unga hamma havas bilan qarashi hamda yurt sha‘nini ko‘tarishi. She‘r mazmuniga doir maqollar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

Nazorat ishi (1 soat).

9-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

A1+

Mavzu. *Vatan iftixori. Asror Mo‘minov (2 soat).*

Matnda Rustam Qosimjonovning yoshlikdan shaxmatga bo‘lgan qiziqishi. Shaxmat to‘garagida shaxmat sirlarini o‘rganishi. 11 yoshida O‘zbekiston chempioni bo‘lishi. Shaxmat to‘g‘risidagi kitoblarni o‘qish. Ongli va ifodali o‘qish.

10-mavzu. Ona Vatan. *Muhabbat Hamidova (1 soat).*

Poytaxtimiz yo‘llari. Unda joylashgan binolar. Ishlab chiqarilayotgan mashina rusumlari. “Ona Vatan” so‘zining ma‘nosi. Matn mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o‘qish.

11-mavzu. Obod mahalla bo‘ylab. *Kavsar Turdiyeva (1 soat).*

Mahalla ham vatanning bir bo‘lagi ekanligi. She‘r mazmuniga doir maqol va tez aytishlar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

12-mavzu. Toshkentim onam. *Maqsud Shayxzoda (1 soat).*

Poytaxtimiz Toshkentda kimlar yashashi. Quyoshli fasllar. She‘r mazmuniga doir maqol, tez aytishlar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

13-mavzu. Vatan haqida qo'shiq. Aziz Abdurazzoq (1 soat).

Qahramon yigitning odatlari. Vatan haqidagi fikrlar. Mavzuga oid maqol va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

14-mavzu. O'qituvchining o'g'itlari. Anvar Obidjon (1 soat).

Ona tilimizning naqadar boyligi. Dunyoga dong'i ketgan ajdodlarimiz. She'r mazmuniga doir maqol va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat)

Mavzu. Eng katta sovg'a. Sobit G'ofurov (1 soat).

Hikoyada Hikmat ismli o'quvchining tug'ilgan kunida o'qituvchisi o'quvchilari bilan tayyorlagan tabrigi. Shu kunda vazifalarni to'g'ri bajarani uchun a'lo baho qo'yishi. Maqtabda sinfdoshlari sovg'a berishi. Bu kun unga katta sovg'a bo'lganligi.

15-mavzu. Vatan (sahna). Erkin Malikov (1 soat).

Vatanimizning tinch va obodligi. Kimning avlodi ekanliklari. Ongli va ifodali o'qish.

16-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"Ona vatan – vatan yagona" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish va boshqotirmalarni hal etish orqali o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlash hamda amaliyotda qo'llay olishlarini urgatish.

Nazorat ishi (1 soat).

17-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat)

II bo'lim. XALQ OG'ZAKI IJODI

(17 soat, A1+: 8 soat)

18-mavzu. Qo'shiqlar. Alla (1 soat).

Qo'shiqlar haqida ma'lumot. Alla qo'shig'i ma'no va mazmuni. She'rni ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Foydali maslahat. Rivoyat (1 soat).

Qadim zamonda bir podsho bo'lishi. U shahar o'rtasida yotgan toshni olib tashlash yo'llarini o'ylashi. Toshni olishda dehqonning aqli va zakovati tufayli tosh yo'ldan olinishi haqida. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Aytishma o'yinlar (1 soat).

Aytishmalarda bolalar "Oq terakmi, ko'k terak" o'yinini o'ynash orqali farovon hayotimizdan xursandchiligi. Unga minnatdorchilik bildirilishi. Ongli va ifodali o'qish.

19-mavzu. Botir mergan va chaqimchi. O'zbek xalq ertagi (1 soat).

Botir merganning fazilatlarini. Chaqimchilikning oqibati. Mavzu mazmuniga oid maqol va tez aytishlar. Ertakni ongli va ifodali o'qish.

20-mavzu. Halollik. O'zbek xalq ertagi (1 soat).

Boy dehqon va kambag'al dehqon o'rtasidagi munosabat. Mavzu

mazmuniga doir maqol va tez aytishlar. Ertakni ongli va ifodali o'qish.

21-mavzu. Donishmand yigit. *O'zbek xalq ertagi (1 soat).*

Ota va o'g'il munosabati. Ertakni xulosalash. Mavzu mazmuniga doir maqol va tez aytishlar. Ertakni ongli va ifodali o'qish.

22-mavzu. Ahillik – ulug' baxt. *Qirg'iz xalq ertagi (1 soat).*

O'g'il otaga itoatkor bo'lishi. Kattalar so'ziga quloq tutish kerakligi. Ertakdan xulosalash.

23-mavzu. Chumchuqcha. *Ertak (1 soat).*

Ertak qahramonlari Ahmad va Rahimjonlarning fazilatlarini. Ular o'rtasidagi farqlari. Qismlarga sarlavha topish. Ertak mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ertakni ongli va ifodali o'qish mashqlari.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat)

Mavzu. Xo'roz bilan bo'ri. A.Avloniy (1 soat).

Bo'ri va Xo'rozning sulh tuzilganligi haqidagi suhbat. Sulhda qushlar va hayvonlar ahillikda yashashi, zulm qilmaslik haqida gapirishi. Birgalikda o'ynashi to'g'risida. Ikki it kelib qolishi bilan bo'rining qochishi. Ongli va ifodali o'qish.

24-mavzu. Danakvoy. *Yayra Sa'dullayeva (1 soat).*

To'ravoyning shaftolilarga munosabati. O'zaro mehr-oqibatli bo'lishligi. To'ravoyga baho. O'zgalarni ranjitmaslik. Mavzu mazmuniga doir maqollar. Matnni ongli va ifodali o'qish.

25-mavzu. Arazlagan koptok, kitob va qalam. *M.Ibrohimova (1 soat).*

Dangasalik yomon illat ekanligi. O'quv qurollaridan o'z vaqtida unumli foydalanish kerakligi. O'zaro o'quv qurollariga va o'yinchoqlariga mehribon bo'lishligi. Matn mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

26-mavzu. Masallar. Qaysar buzoqcha. *Olim Qo'chqorbekov (1 soat).*

Masallar haqida ma'lumot. Qaysarlikning oqibati. Do'stlikning qadriga yetish va masaldan xulosa chiqarish. Matn mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

27-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Yomonlikdan saqlanish. Rivoyat (1 soat).

Rivoyatda yomon odatlardan saqlanish. Yomon odatlar orqali yaxshi xislatlarini o'stirish. Matn mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Men dadamga yordamchi. Q.Muhammadiy (1 soat).

Bolaning dadasi fermada boshchi ekanligi. Dadasiga tovuqlarni boqishda yordam berishi. Jo'jalarini yaxshi ko'rishining tasvirlanishi. Ongli va ifodali o'qish.

28-mavzu. O'jar toshbaqa. *Hamidulla Yoqubov (1 soat).*

O'jarlik, injiqlik, janjalkashlik yomon illat ekanligi. Onani hurmat qilishlik. Onaning so'ziga quloq solish yaxshi fazilat ekanligi. Sabrli va qanoatli bo'lishlik.

Mavzu mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

29-30-mavzular. Maqollar. Topishmoqlar (2 soat).

Maqol va topishmoqlar haqida ma'lumotlar. Maqol va topishmoqlardan namunalar. Ularning mazmuni. Ongli va ifodali o'qish.

31-32-mavzular. Latifalar. Tez aytishlar (2 soat).

Latifa va tez aytishlar haqida ma'lumotlar. Latifa va tez aytishlardan namunalar. Ularning mazmuni. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat)

Mavzu. Chin va yolg'on. Po'lat Mo'min (1 soat).

Chin va yolg'on so'z bir og'izdan chiqishi. Yolg'onchilarga yolg'on so'z hamrohi ekanligi. Chin so'z yaxshilarga do'st bo'lishi. Ongli va ifodali o'qish. Mavzu mazmuniga doir maqollar.

33-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"Xalq og'zaki ijodi" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish va boshqotirmalarni hal etish orqali o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlash hamda amaliyotda qo'llay olishlarini o'rgatish.

III bo'lim. KUZ MANZARASI VA MEHNAT

(16 soat, A1+: 6 soat)

34-mavzu. Oltin kuz. ("Yilnoma"dan). Kuz kelganda. Tolib Yo'ldosh (1 soat).

Kuz tabiati. Undagi o'zgarishlar. Kuzda pishadigan meva va sabzavotlar. Mavzu mazmuniga doir maqol va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

35-mavzu. Olma. Mahmud Murodov (1 soat).

O'quvchilarning bog'bonga olma terishdagi yordami. Qismlarga mos sarlavhalar. Rasm asosida insho. Mavzu mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

36-mavzular. Kuz. Abdurahmon Akbar (1 soat).

Kuz ne'matlari. Tabiat o'zgarishi. Mavzu mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Kuz shamoli. Yayra Sa'dullayeva (2 soat).

Kuz shamolining tabiatga ta'siri. Tabiatining go'zalligi va o'zgaruvchanligi. Mevalarning pishishi. Ongli va ifodali o'qish.

37-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

38-mavzu. Mehrjon sayli. Malik Murodov (1 soat).

Urf-odatlar, an'analar. Navro'z va Mehrjon sayli va ularning farqlari. Mavzu mazmuniga doir maqol, tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

39-mavzu. Qo'riqchining sabog'i. Feruza Jalilova (1 soat).

Dehqonning yetishtirayotgan kuz ne'matlari. Ularning kasallikka chalinishi. Tush ko'rishi. Tushidan so'ng o'rmon hayvonlariga mehribonchilik qilishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

40-mavzu. Bebaho boylik. *Hakim Nazir* (1 soat).

Boboning Barno haqidagi hikoyasi. Vaqtning qadri. "Vaqtning ketdi - naqding ketdi" maqolining mazmuni. Mavzu mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

41-mavzu. Bobur va kabutar. *Rivoyat* (1 soat).

Qahramonlarning jasurligi, ziyrakligi. Ularning aql bilan ish tutishi. Hikoyadan xulosalash. Mavzu mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

***Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish* (1 soat).**

***Mavzu. Buvimning deganlari. Qudrat Hikmat* (1 soat).**

She'rda nevara ipak qurti boqishda buvisiga yordam berishi. Buvisi ipak qurti boqish sirlarini o'rgatishi. Nevarani yoshlikdan mehnatga o'rgatishi. Mavzu mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

42-mavzu. So'nggi axborot. *Anvar Obidjon* (1 soat).

Shamol qaysi fasllarda bo'lishi. Shamolning meva va sabzavotlarga zarar keltirishi. She'r mazmuniga doir maqol, topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

43-mavzu. Ilmli ming yashar. *Nurmat Maqsudov* (1 soat).

Yolqinjonning tog'asinikiga borishi. Uzumzorni ko'rishi. O'zgalar tajribasini o'rganishi. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

44-mavzu. Xazonchinak. *O'tkir Hoshimov* (1 soat).

Erkin va Abdullaning uzumzorga borishi. Xazonchinak haqida gapirib berishi. Toklarni parvarishlash yo'llari. Mavzu mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

45-mavzu. Qo'shterak. *Abdusodiq Irisov* (1 soat).

Qo'shterak haqida ma'lumot. Uning qanday yuzaga kelishi. Qo'shterakning katta qishloqqa aylanishi. Mavzu mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

46-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

***Mavzu. Kuz. Yu. Shomansur* (1 soat).**

Kuz faslida tabiatdagi o'zgarishlar, mevalarning pishishi, hayotdan qoniqish hissi ifodalanadi. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

***Mavzu. Mehnatdan zavq olaman. Qambar Ota* (1 soat).**

Mehnat orqali inson rohat ko'rishi. Kuz ne'matini terishda dehqonlarga yordamining tasvirlanishi. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

47-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Kuz manzarasi va mehnat” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish va boshqotirmalarni hal etish orqali o‘quvchilar bilim, ko‘nikma, malakalarini mustahkamlash hamda amaliyotda qo‘llay olishlarini tushuntirish.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish*):

A1

rivoyat, hikoya, ertak, latifalar, maqol, topishmoq, tez aytish va she‘riy matnlarni, ixcham audio va video materiallarini tinglab tushuna oladi;

ularni tushunib ongli, to‘g‘ri (bo‘g‘inlamay sidirg‘a) o‘qiy oladi;

matnlarni qisqartirib, qayta aytib bera oladi;

o‘rganilgan mavzular doirasida bayon va bolalar yozuvchilari, ularning asarlari nomini yoza oladi;

o‘qish uchun kitoblar (badiiy asar namunalari)ni mustaqil tanlay oladi.

darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og‘zaki bayon qila oladi.

A1+

matnlarning mazmunini to‘liq bayon qilib bera oladi;

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va o‘qituvchi yordamida ularga baho bera oladi;

o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi;

matndagi so‘z va so‘z birikmalarining ma‘nolarini hamda gaplarni tushuna oladi.

A1+

asar qahramonlariga munosabat bildiradi.

IV bo‘lim. O‘TMISHNI O‘RGANISH – BURCHIMIZ

(12 soat, A1+: 4 soat)

48-mavzu. Toshkent. Erkin Malikov (1 soat).

Toshkent so‘zining kelib chiqish tarixi. Shahar darvozalari. Toshkentning savdo markazi. Undagi madrasalar. Ongli va ifodali o‘qish.

49-mavzu. Jaloliddin Manguberdi. Mirkarim Osim (1 soat).

Chingizxonning hiyla ishlatilishi. Jaloliddin lashkar to‘plashi. Dushman ustidan g‘alaba qozonishi. Chingizxon lashkarboshilariga Jaloliddindan o‘rnak olishga davat etishi. Vatani uchun o‘z jonini fido qilganligi. Mavzu mazmuniga oid maqollar. Ongli va ifodali o‘qish.

50-mavzu. Mehnatkash qiz. Oybek (1 soat).

Hikoya qahramonining uy yumushlarini bajarishi. Rasm mazmunidan hikoya o‘qishi. Mavzu mazmuniga oid maqol, tez aytishlar. Ongli va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Polvon. Ertak . (1 soat).

Ertakda qadim zamonda bir polvon bo'lib, uning dimog'i shishib ketishi. Hech kimni pisand qilmay qo'yishi. Odamlarga nisbatan zo'ravon, muttaham bo'lib ketishi. Bir mo'ysafidning qutisini ko'tarish to'g'risida bergan topshirig'ini bajara olmasdan izza bo'lishi. Ongli va ifodali o'qish.

51-mavzu. O'g'lon. Rivoyat (1 soat).

Keksa odamning asrga tushishi. Qaroqchilar bilan suhbat. Qaroqchilar chol va uning o'g'lini qo'yib yuborishi. Rivoyat mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

52-mavzu. Kitob. Tohir Malik (1 soat).

Akadan ibrat olishi. Kitobning qudrati. Mavzu mazmuniga doir maqol, topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

53-mavzu. Bola Alisher. Oybek (1 soat).

Alisherni otasi domlaga olib borishi. Ustozi va otasiga bo'lgan hurmati. Mavzu mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

54-mavzu. Yosh hakim. Mirkarim Osim (1 soat).

Ibn Sinoning tabiblik qilishi. Kasalmand podshoni davolashi. Kitobni sevishi. Mavzu mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

55-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Saxiylik. Abdulla Avloniy (1 soat).

Said ismli bolaga otasi har kuni maktabda taom olishi uchun pul berishi. Yo'lda unga faqir odam uchrashi. Otasi bergan pulini berib, yaxshilik qilishi va duo olishi. Maktabdan kelgandan so'ng otasi "saxiy Saidim" deyishi va duolar orqali boyib ketishi haqida. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Tushimga kiradi Qodiriy bobom. Muhammad Yusuf (1 soat).

She'rda shoir Abdulla Qodiriy boboga bo'lgan hurmati va sog'inchi tasvirlangan. Abdulla Qodiriyning asarlari unga ilhom bag'ishlashi haqida. Ongli va ifodali o'qish.

56-mavzu. Alpomishning bolaligi. Ertak (1 soat).

Alpomishning bolaligi. Alp nomini olishi. Ertak mazmuniga doir maqol, tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

57-mavzu. Cho'pon yigit Shiroq. Rivoyat (1 soat).

Oddiy cho'pon Shiroq Eron shohi Doroni hiyla yo'l bilan yengishi va vatan himoyasi uchun jonidan kechishi. Doroni mag'lubga uchratishi. Rivoyat mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

58-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"O'tmishni o'rganish burchimiz" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish.

V bo'lim. KUMUSH QISH (15 soat, A1+: 8 soat)

59-mavzu. Qish. "Yilnoma" dan (1 soat).

Qish oyining boshlanishi. Manzarasi. Qishda hayvonlarning uyquga ketishi. Kun va tundagi o'zgarishlar. Mavzu mazmuniga oid maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat)

Mavzu. Rost so'z. A. Avloniy (1 soat).

Sulton Sanjar Marv shahrida ayvon qurdirmoqchi bo'lishi. Shu ayvon uchun bir ustun yetmay qolishi. Bu shaharda bir ayolning uyida shu ustun uchun mos bo'lgan daraxt o'sganligi. Podshoh ayolni rozi qilib, daraxtni kestirib olib kelinishi. Ayvonga ko'rk va go'zallik bag'ishlaganligi haqida. Ongli va ifodali o'qish.

60-mavzu. Qor. Shuhrat (1 soat).

Olamni oq libosga o'ranishi. Qorning yer yuzidagi ahamiyati. She'r mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

61-mavzu. Chana. O'tkir Hoshimov (1 soat).

Bolalarning qishki o'yinlari. Dadasi Farhodga chana olib berishi. Chanani o'rtoqlaridan qizg'anishi va yakkalanib qolishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

62-mavzu. Bosh kitob. Safar Barnoyev (1 soat).

Qomusimiz bo'lgan Konstitutsiya haqida ma'lumot. Bu kitobdagi haquqlarimiz. Xalqimizning erkinligi. She'r mazmuniga oid maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

63-mavzu. Qish bo'lmasa-chi? Yayra Sa'dullayeva (1 soat).

Sanobar va onasi o'rtasidagi suhbat. Qishning insoniyatga, tabiatga foydasi. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

64-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Qorbobo. Hamza Imonberdiyev (1 soat).

She'rda Yangi yil bayramiga Qorboboning kelishi. U bolalar bilan o'yin-kulgi qilishi. She'r mazmuniga doir topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Bobom ekan archa. Zahro Hasanova (1 soat).

Bobosi archani Rossiya o'rmonlaridan keltirishi. Qiz va onasining suhbat. Yangi yilda har yili archani bezatishligi to'g'risida. Hikoya mazmuniga doir topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

65-mavzu. Qish zavqi. Otash Xolmirzaev (1 soat).

Qish fasli tabiatni oppoq libosga burkashi. Bolalarning qishki o'yinlari. She'r mazmuniga doir maqol va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

66-67-mavzular. Qish ertagi. Aziza Ahmedova (2 soat).

O'rmon hayvonlarining boshpana qidirishi. Tog'dan g'or topishganligi. Ayyor tulkilarning hiylalari. Ertak mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

68-mavzu. Yangi yil archasi. Dilduza Komiljonova (1 soat).

Yangi yil archasi turli o'yinchoqlar bilan bezatilishi. Qorbobo bilan bolalar o'yin-kulgu qilishi. She'r mazmuniga oid maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Tarbiya. Xabibulla Qodiriy (1 soat).

Yozuvchi otasi Qodiriy farzandining kitob o'qishiga va pulni to'g'ri sarflashga e'tibori haqida. Ongli va ifodali o'qish.

69-mavzu. Ayamajiz. Qudrat Hikmat (1 soat).

Ayamajiz qishning oxirgi haftasi ekanligi. Anhorlarda muz, tarnovlarda sumalaklar chirsillashi. Sovuqlikni huddi yalmog'iz kampirga qiyoslanishi. She'r mazmuniga doir topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

70-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

71-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"Kumush qish" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Yangi yil archasi. Erkin Vohidov (1 soat).

Yangi yil kelishi bilan archa bezatilishi. O'rmondan ko'm-ko'k archaning maktabga keltirilishi. Archaga turli o'yinchoqlar osilishi. Kelingdek bezangani ko'rsatilganligi. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. To'g'rining ko'ngli to'q. Hikoya (1 soat).

Hikoyada egrilikning yomon odatlari va to'g'rilikni yaxshi xislatlari haqida gapirilganligi ikki sichqon timsolida tasvirlanishi. Ongli va ifodali o'qish mashqlari. Mavzu mazmuniga doir maqollar.

VI bo'lim. VATAN HIMOIYACHILARI (6 soat, A1+: 2 soat)

72-mavzu. O'zbekiston posbonlari. Mirazim A'zam (1 soat).

Uch bola harbiy bo'lishi. Qurolli kuchlar. Vatanni himoya qilishi va tinchlikni saqlashligi. Mavzu mazmuniga doir maqol va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

73-mavzu. Bugun bolasiz, ertaga askar bo'lasiz. (1 soat).

Iste'fodagi tibbiy xizmat podpolkovniki Iskandar Rahmonov va muxbir suhbat. Qurolli kuchlarning faxriysi bo'lganligi. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi va tahlili (2 soat).

74-mavzu. Dunyoni saqlar bolalar. Kavsar Turdiyeva (1 soat).

She'rda bolalar dunyoni, tinchlikni, ishonchni saqlashi. Quvonch, mehr va

sogʻinch bilan birlashishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

A1+

Mavzu. Vatan posboni boʻlay. Muqim Qodir. (1 soat).

14 yanvar “Vatan himoyachilari” kuni sifatida nishonlanishi. Bola akasidan xat olishi, xat ichida akasining surati borligi. Akasi chegarachi ekanligi va Vatan uchun sharaf bilan xizmat qilishi. Bolakay katta boʻlganda u ham jasur posbon boʻlishi haqida.

Mavzu. Sinf dan tashqari oʻqish (1 soat).

75-mavzu. Bobonur. Safar Barnoyev (1 soat).

Samarqandda xizmat qilayotgan oʻgʻli Bobonurdan xat olishi. Harbiyga joʻnatish marosimida non yopishi va uni tishlatishi. Ongli va ifodali oʻqish.

76-mavzu. Botir askarcha. Habib Rahmat (1 soat).

Sheʼr qahramoni akasiga oʻxshab askar boʻlishni xohlashi. Xalqini, vatanini koʻz qorachigʻidek asrash. El olqishiga sazovor boʻlishi. Ongli va ifodali oʻqish.

Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, fikrni ogʻzaki bayon qilish, oʻqish, fikrni yozma bayon qilish):

A1

rivoyat, hikoya, ertak, latifalar, maqol, topishmoq, tez aytish va sheʼriy matnlarni, ixcham audio va video materiallarini tinglab tushuna oladi;

ularni tushunib ongli, toʻgʻri, ifodali (boʻgʻinlamay sidirgʻa) oʻqiy oladi; matnlarning mazmunini toʻliq yoki qisqartirib, qayta aytib bera oladi;

oʻrganilgan mavzular doirasida bayon va bolalar yozuvchilari, ularning asarlari nomini yoza oladi;

oʻqish uchun kitoblar (badiiy asar namunalari)ni mustaqil tanlay oladi.

A1+

darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini ogʻzaki bayon qila oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

oʻrganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va oʻqituvchi yordamida ularga baho bera oladi;

oʻqilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi; matndagi soʻzlarining maʼnolarini hamda gaplarni tushuna oladi;

A1+

asar qahramonlariga munosabat bildiradi.

VII boʻlim. ORZULAR QANOTIDA **(13 soat, A1+: 4 soat)**

77-mavzu. Biz istiqlol farzandlarimiz. Rauf Tolib (1 soat).

Istiqlol farzandlari oʻzligini tanitgan dunyoda yashayotganligi. Shu yurt uchun Amir Temur kabi shijoatli, muhabbatli, ishbilarmon va bilimdon boʻlib, el-

yurtga xizmat qilish kerakligi. Mavzu mazmuniga doir maqollar. Ifodali o'qish.

78-mavzu. Omonning orzusi. Abdurahmon Akbar (1 soat).

Yangi yil bayrami. O'rmonda archaning bezatilishi. O'rmon hayvonlari bilan bayramning o'tkazilishi. Mavzu mazmuniga doir topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

79-mavzu. Koinotga sayohat. Abdusalom Umarov (1 soat).

To'rt o'rtoq raketa yasashi. Unga "Istiqlol" deb nom berishi. "Istiqlolga o'tirib, koinotga safarga chiqishi. Koinot haqidagi ma'lumotlarni tengdoshlariga yuborishi. Ongli va ifodali o'qish.

80-mavzu. Istiqlol kemasi. Abdusalom Umarov (1 soat).

Jahongir, Javlon, Jasur, Javdatlar koinotdagi o'zgarishlarni bir-biriga yetkazishi. Ongli va ifodali o'qish.

81-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Ulug'bek. Miraziz A'zam (1 soat).

Bola o'rtoq'iga osmonga qarab yulduzlarni sanay olmagan, lekin bobomiz Ulug'bek shu yulduzlar haqida ko'p ma'lumot berganligi. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Tok. Tolib Yo'ldosh (1 soat).

Bola tok ekishi. Uni yaxshilab parvarishlash orqali yaxshi meva berib, dasturxonga ko'rk qo'shishi haqida. Ongli va ifodali o'qish.

82-mavzu. Zamonaviy oila. Muazzam Ibrohimova (1 soat).

Behruzning oilasi. Oila a'zolari kitobni sevishi. Aka-opasi chet tillarini yaxshi bilishi. Mahallada bu oilani zamonaviy oila deyilishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

83-84-mavzular. Bahs. Sunnatilla Anorboyev (2 soat).

Halim, Salim va Karim bahslashishi. Karim yaylovda cho'ponlik qilishi. Halim hisobchi va Salim omborchi bo'lishi. Har bir kasbning mashaqqati va foydasi. Karimning o'z xatosini tushunishi. Mavzu mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

85-mavzu. Sovg'a. Farhod Musajon (1 soat).

Abdulaziz dadasi bilan gul ekishi. Uni parvarishlashi. O'stirgan gulidan Fayozaga taqdim etishi. Mavzu mazmuniga oid maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Shoir bo'lmoqchiman. Mirza Axad (1 soat).

She'rda bola yoshligidan ko'p kitob o'qishi. O'zi ham kichik she'rlar yozib turishi. Katta bo'lganda shoir bo'lishi haqida. Ongli va ifodali o'qish.

86-mavzu. Jigarlarga tilaklarim. Maqsud Shayxzoda (1 soat).

Yurt farzandlarining tilaklari. Bilim olishi. Hunar va dunyoning sir-sinoatlarini barchasini o'rganishi. Tarbiyali va vijdonli inson bo'lishlik. Ongli va ifodali o'qish.

87-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

88-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Orzular qanotida” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish.

VIII bo‘lim. ULUG‘LARDAN O‘RGANMOQ – OQILLIK **(16 soat, A1+: 6 soat)**

89-90-mavzular. Zehni o‘tkir bola. *Mirkarim Osim* (2 soat).

Zehni o‘tkir Muhammad ismli bolani xorazmlik donishmand Abu Nasr ibn Iroq o‘ziga shogirdlikka olishi. Muhammadning oilasi qashshoqlikdan qutulishi va uni bilim olishga yo‘llashi. Mavzu mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o‘qish.

A1+

***Mavzu. Bizning buyuk bobolarimiz* (1 soat).**

Har bir bola takrorlanmas bir dunyo. Ular olamida mo‘jizalar yaratishi. Buyuk ajdodlarga o‘xshagisi kelishi. Kashfiyotlar qilgisi kelishi haqida. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so‘zlar. Ongli va ifodali o‘qish.

***Mavzu. Kitob o‘qish qanday yaxshi. Olqor Damin* (1 soat).**

Kitob o‘qigan odam aqlli, bilimdon bo‘lishi. Ko‘p o‘qigan zehni ortib, kuchga to‘lishi haqida. Ongli va ifodali o‘qish.

91-mavzu. Ibn Sinoning shogirdlari. *Rivoyat* (1 soat).

Ibn Sino og‘ir xastalanishi. Shogirdlariga vasiyati. Beshta tabibga amal qilishi. Bular: tozalik, parhez, badantarbiya, kayfiyat va mijoz kayfiyati. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so‘zlar. Ongli va ifodali o‘qish.

***Nazorat ishi* (1 soat).**

92-93-mavzular. Elim deb, yurtim deb yashagan inson. *Bo‘riboy Ahmedov* (2 soat).

Amir Temurning bolaligi. Temurbek 7 yoshga to‘lganda bilim olishi. 9 yoshga yetganda madrasadagi bolalardan o‘zib ketishi. 12 yoshida bolalar bilan o‘ynashni kamaytirishi. 15 yoshga kirganda ot minib, ov qilishni o‘rganishi. Bu kasbga bog‘lanib qolishi. Atrofidagi xalqni yig‘ib, mo‘g‘ul bosqinchilari ustidan g‘alaba qozonishi. Ongli va ifodali o‘qish.

94-mavzu. Sohibqiron Temur bobo. *Rivoyat* (1 soat).

Rivoyatda Temurga otasi ming oltinga bitik yozilgan qog‘ozni olib berishi. Bu bitikka rioya qilishi. Alloma va shoir Kamol Xo‘jandiyning suhbat. Ongli va ifodali o‘qish.

A1+

***Mavzu. Sinf dan tashqari o‘qish* (1 soat).**

***Mavzu. Haqparvar. To‘lqin Xayit* (1 soat).**

Hikoya A. Temurning adolat va haqiqat yo‘lida olib borgan ishlari haqida ongli va ifodali o‘qish. Mavzu mazmuniga doir qo‘shimcha topshiriqlar.

95-mavzu. Donolarning donosi. *Abduqodir Hayitmetov* (1 soat).

Alisher Navoiyning asarlari. Uning vazir bo‘lganida xalq uchun ko‘p ishlar qilishi, el mehrini qozonishi, o‘qituvchini bergan bilimi uchun xazinadagi barcha oltinlar ham kam ekanligi haqida.

96-mavzu. Navoiyning do'sti. Rivoyat (1 soat).

Navoiy do'sti pahlavon Muhammadni Husayn Boyqaro chiqargan buyruqdan qutqarib qolishi. Do'stiga sodiq bo'lishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

97-mavzu. Zahiriddin Muhammad Bobur. Xayriddin Sulton (1 soat).

Umarshayx Mirzo saroyida go'dak tug'ilishi. Bu go'dakka "Zahiriddin Muhammad" deb nom qo'yilishi. Beshikda yotgan go'dakka olim, shoir, shoh bo'lishini niyat qilinishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

98-mavzu. Saylda. Mirzo Karim (1 soat).

Bobur ismining olishi. Tarbiyachisi Shayx Maziddin sayl uyushtirishi. Saylda harbiylik yo'nalishida o'rgangan bilimlarini sinashi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

99-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Inson qadri bilimda. Yusuf Xos Xojib (1 soat).

Shoir insonga ilmni ahamiyati va inson qadrini oshirishdagi o'rni. Ko'proq ilm olish uchun ko'p kitob o'qish kerakligi haqida. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. A. Temur bobomiz. Miraziz A'zam. (1 soat).

Amir Temurning tashqi ko'rinishiga tavsif berilishi. Uni qurdirgan obida va ilm maskanlari to'g'risida. Adolatparvar shoh bo'lganligi. She'r mazmuniga doir hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

100-mavzu. Minora. Safar Barnoyev (1 soat).

Buxorodagi minoraning o'ymakorli naqshlari. Unga qaramoqchi bo'lsang boshdan do'ppi tushib ketishi va nihoyatda balandligi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

101-mavzu. Hotam to'g'risida hikoyat. Sa'diy Sheroziy (1 soat).

Hotamning uchqur otiga Rim podshohining ishq ketganligi. Shu otni olib kelishi, sahiy podshoh elchilari mehmonga kelganda shu uchqur otini so'yib berishi va saxiyliigi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

102-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"Ulug'lardan o'rganmoq oqillik" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish.

**IX bo'lim. KELDI BAHOR – GULBAHOR
(15 soat, A1+: 8 soat)**

103-mavzu. Erta bahor. Dilfuza Komiljonova (1 soat).

Erta bahor tabiati. Bahor gullarinig ochilishi. Tabiatdagi o'zgarishlar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Aziz ustoz bobomiz. Quddus Muhammadiy (1 soat).

She'rdagi g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy haqida. Uning asarlari yillar osha o'z qadrini yo'qotmaganligi to'g'risida. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

104-mavzu. Bahor yaqin. Zafar Diyor (1 soat).

Qishning qorong'i va sovuq kunlari o'tib ketishi. Quyosh o'z nurini dalalarga, bog'larga, tog'larga sochishi. Qir-adirlar, dalalar gul-chechaklar bilan bezanishi. Ongli va ifodali o'qish.

105-mavzu. Tabiat bilan suhbat. Rivoyat (1 soat).

Tabiat hodisalari. Shamol, bo'ron, jala suhbat. Ongli va ifodali o'qish.

106-mavzu. Boychechak. Qo'shiq (1 soat).

Bahordan darak beruvchi boychechakni quyosh nuridan bahramand bo'lishi. Bog', qir-adirlarga chiroy ochishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

107-mavzu. Bayramingiz muborak. Yusuf Shomansur (1 soat).

Onajonlar bayrami. Onalar har bir ishni mohirona, mardona bajarishi. Dunyoda yagona ekanligi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

108-mavzu. Quyuncha. Nosir Fozilov (1 soat).

Bektosh va Xoshimjon bobosiga ovqat olib borishi. Shudgor chekkasidagi butazorga kesak otishi. Butazordan quyuncha hurkib sakrab chiqishi. Bolalar uni bobosiga ko'rsatishi va iniga qaytarib olib borib qo'yishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Kim sindirdi niholni. Po'lat Mo'min (1 soat).

She'rdagi ekilgan yangi niholni kim sindirganligi. Singan nihol o'sib, mevaga kirishi haqida. Ongli va ifodali o'qish.

109-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

110-mavzu. Varrak. Yo'ldosh Shamsharov (1 soat).

Qir-adirlarda bolalar varrak uchirishi. Rashid akasiga iltimos qilib chiroyli varrak yasattirishi. Bu varragi bilan respublika ko'rik-tanlovida faxrli 1-o'rinni egallashi. Ongli va ifodali o'qish.

111-mavzu. Qaldirg'och. Sulton Jabbor (1 soat).

Bahor kelishi bilan qaldirg'ochlar uchib kelishi. Yaxshi odamlar mehri uchun rizq izlab kelishi. Uyda uni asrab-avaylashlari. Mavzu mazmuniga doir topishmov va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

112-mavzu. Navro'z – bahor bayrami. Muzayyana Alaviya. Yurtim kamoli. Rauf Tolib (1 soat).

Navro'zning qadimiy bayram ekanligi. Bog', dalalarda ish qizg'in boshlanishi. Bayramda milliy urf-odatlarimizni o'tkazilishi. Istiqlof tufayli udum-an'analimiz, Navro'zimiz qaytishi. Tilimizga hurmat ortishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Bog‘. Aziz Abdurazzoq (1 soat).

Bahor kelishi bilan qir va adirlarda boychechaklar ochilishi. Bolalarning boychechaklarni terishi to‘g‘risida. Ongli va ifodali o‘qish.

Mavzu. Olxo‘ri. Mirmuhsin (1 soat).

Hikoyada Zumrad ismli qizcha olxo‘ri daraxtini oldiga borib, mevasidan berishini so‘rashi. Olxo‘ri daraxti mevasi pishganida kelishi haqida. Olxo‘ri pishganda kelganda savatchasini to‘ldirib berishi. Mavzu mazmuniga doir topshiriqlar. Ongli va ifodali o‘qish.

113-mavzu. Daraxtlarni oqlaganda. Yusuf Shomansur (1 soat).

Dam olish kuni o‘quvchilar katta yo‘ldagi daraxtlarni oqlab chiqishi. Daraxtlarga endi hech qanday qurt-qumursqalar zarar yetkaza olmasligi. Ongli va ifodali o‘qish.

114-mavzu. Lola. Ilyos Muslim (1 soat).

Bahorda tabiatdagi rohat, hamma yoq yashil rangga kirishi. Tog‘ va dalalarda lola terishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, topishmoqlar. Ongli va ifodali o‘qish.

115-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

116-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Keldi bahor – gulbahor” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish.

A1+

Mavzu. Boychechak. Aziz Abdurazzoq (1 soat).

Ra’noga buvisi boychechak haqida ashula aytib berishi. Ashula qizga yoqib qolib, uni yodlab olishi. Navro‘z kuni boychechak ochilishi haqida suhbat qurishi. Navro‘z kelishi bilan o‘rtoqlari bilan boychechak terishga chiqishi va o‘rgangan ashulani hirgoyi qilishi. Ongli va ifodali o‘qish. Mavzu mazmuniga doir topshiriqlar.

Mavzu. Kim kuchli. Mirza Axad (1 soat).

Asalari bilan qovoqarining suhbat. Qovoqari yomon odati bilan bo‘lsa, asalarini insonlarga foydali xislatlarining ochib berilishi haqida. Ongli va ifodali o‘qish.

X bo‘lim. TABIATNI ASRANG VA SEVING

(7 soat, A1+: 2 soat)

117-mavzu. Ona tabiat. T.Xolmatov. Yer sevarni – el sevar. Mahmud Murodov (1 soat).

Tabiatdagi yil fasllarining suhbat. Har bir fasl o‘zining ne‘mati bilan maqtanishi. Tabiatni sevish, uni asrash, yon atrofni ko‘kalamzorlashtirish, bog‘-rog‘larga aylantirish, yerni sevish kerakligi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so‘zlar. Ongli va ifodali o‘qish.

118-mavzu. Suhbat. Yayra Sa’dullayeva (1 soat).

Tol bilan majnuntol suhbat. Suhbatda majnuntolning parishonxotirligi. Boshini egik turishi. Yaxshilarga ta’zim qilishi. Tol tunlari yog‘du sochgan

yulduzlarga, Oymomoga salom berishi. Insonlar uchun xizmat qilishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, topishmoqlar. Ongli va ifodali o‘qish.

Nazorat ishi (1 soat).

119-mavzu. Non haqida. Tolib Yo‘ldoshev (1 soat).

Nonni oqmi, qorami, ushoq qilmasdan yeyish kerakligi. Non uchun otabobolarning mehnatini va uni e‘zozlash kerakligi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so‘zlar. Ongli va ifodali o‘qish.

120-mavzu. Soy suvi haqida ertak. Zohir A‘lam (1 soat).

Bir dehqon tog‘dan yer olib u yerga ekin ekishi. Daraxtlardan uy qurishi. Daraxtlarni kesib tashlash natijasida soy suvsiz qolishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so‘zlar, tez aytishlar. Ongli va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Izza. Muhabbat Xamidova (1 soat).

Suvni asrab-avaylash, unga turli chiqindilarni tashlamaslik Laylo va Kamola misolida ko‘rsatilishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so‘zlar. Ongli va ifodali o‘qish.

Mavzu. Sinf dan tashqari o‘qish (1 soat).

121-mavzu. Bog‘im. Habib Rahmat (1 soat).

Dunyoni bog‘ etish uchun dadasidan daraxt ekish sirlarini o‘rganishi. Gaz chuqurcha kavlashi. Niholni ekib uni parvarishlashi. Daraxtlarining bo‘yi ko‘kka yetganidan yana mehr berish kerakligi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so‘zlar. Ongli va ifodali o‘qish.

122-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Tabiatni asrang va seving” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish.

XI bo‘lim. GO‘ZAL FAZILAT – INSON HUSNI

(26 soat, A1+: 8 soat)

123-mavzu. Onani rozi qilish haqida. (“Hadis” dan). Ota-onani hurmatlash haqida (“Qobusnoma” dan.) (1 soat).

Rasullulloh uch marta onaga so‘ngra ota va qarindoshlarga yaxshilik qilish zarurligini aytishi. Aqlli va dono farzand ota-onaning xizmatini ado etishi. Izzat va hurmat qilishiligi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so‘zlar. Ongli va ifodali o‘qish.

124-mavzu. Bobur va Humoyun. Pirimqul Qodirov. Ota-ona duosi. Safo Ochil (1 soat).

Bobur farzandlari va yurti uchun jonini fido qilishga tayyor insonligi. Farzandi Humoyunning betob bo‘lib qolishi. Boburning iztirob chekishi. Humoyunning to‘shagi yoniga kelib, Ollohdan Humoyunning jonini olmay, uning o‘rniga mening jonimni ol deyishi. Humoyunning sog‘ligi tiklanishi. Ota-onaning duosi uni yo‘lini yorug‘ qilishi. Ularning mehr-muhabbatlari ishlarning yurishishiga yordam berishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so‘zlar. Ongli va ifodali o‘qish.

125-126-mavzular. Ona mehri. O'ktam Usmonov (1 soat).

Uydan yoshgina ona bolasini ko'tarib, olmazorga kirishi. Yalmog'iz kampir bolasini o'g'irlab ketishi. Ona har qanday qiyinchilikka bardosh berishi. Bolasini sog'-omon uyga olib kelishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

127-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

128-mavzu. Yordam berdi. Yayra Sa'dullayeva (1 soat).

Farida onasi betob bo'lishiga qaramay teatrga ketishi. Uning do'sti Shohida Faridaning onasiga mehribonchilik qilishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

129-mavzu. Qalamning o'kinchi. Shuhrat (1 soat).

Qalamni devor va toshlarga yozmaslik. Uni sindirmasdan daftar va oq qog'ozga rasm chizish kerakligi. Mavzu mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Naql. Mirza Axad (1 soat).

She'rda bolaning rivojlanishi kerak bo'lgan ibratli xislatlar ochib berilgan. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Rasm darsida. To'lqin Xayit (1 soat).

Rasm darsida o'qituvchi o'quvchilarga vatanimiz ramzlariga bo'lgan hurmatni singdirilishining aks ettirilishi. Ongli va ifodali o'qish. Mavzu mazmuniga doir topshiriqlar.

130-mavzu. Hassa. Kamtarlik haqida. Xudoyberdi To'xtaboyev (1 soat).

Shavkat va Shuhrat odobli bola ekanligi. Bahs-munozara qilishi. Bobosi qaysi bola odobli ekanligini ularning xatti-harakatidan ajratib olishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

131-mavzu. Do'stlar. Ertak, "Kalila va Dimna"dan (1 soat).

Qarg'a, Toshbaqa, Sichqon va Ohu yig'ilishib, suhbat qurishi. Keyingi gal Ohu kelmaganligi va to'rga tushib qolishi. Do'stlari kelib to'rdan Ohuni qutqarishi. Mavzu mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

132-mavzu. Sohiba kimdan xafa? Mahmud Murodov (1 soat).

Sohiba dugonasining tug'ilgan kuniga g'ijim kiyimida borishi. Onaning so'zini e'tiborga olmasligi. Saramjon-sarishta emasligi. Sochlariga e'tibor bermasligi oqibatida do'stlarining oldida uyalishi. Ongli va ifodali o'qish.

133-mavzu. Mohir qo'llar qo'shig'i. Tolib Yo'ldosh (1 soat).

Maktab ustaxonasi. Qo'lda randa, tesha bilan singan stol va stullarni mehnat darsida ta'mirlashi. Mehnatsevar va chaqqonligi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

134-mavzu. Yaxshi fazilat. Nurmat Maqsudiy (1 soat).

Bir ayol pulini tushirib qo'yishi. Zarifjonning onasi pulni yerdan olib, egasiga berishi. Bir kekxa cholning unga bergan yordamini aytishi va halollik yaxshi fazilat ekanligini ta'kidlab o'tishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Vijdoni pok bola. Rivoyat (1 soat).

Hikoyada rahmdil odam yetim bolaga tilla tanga berishi. Bola bu tangani adashib berilgan deb o'ylashi. Rahmdil odamni qidirib topishi, unga tilla tangalarni qaytarishi va bu odam uning pok xulqi uchun sovg'a qilinishi to'g'risida. Ongli va ifodali o'qish.

135-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

136-mavzu. Hunarni sev. Tolib Yo'ldosh (1 soat).

Yigit kishiga qirq hunar ozligi. Qaysi kasb egasi bo'lsa ham uni yaxshi o'rganishi va puxta egallash kerakligi. Mavzu mazmuniga doir topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

137-mavzu. Noahillik oqibati. Hind ertagi (1 soat).

Bir ovchining to'riga turli qushlar tushishi. Qushlar kelishib baravariga uchib ketishi. Turli qushlar janjallashib qolishi. Mavzu mazmuniga doir topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

138-mavzu. Oybek olim bo'ladi. Tursunboy Adashboyev (1 soat).

Oybekni hamma tengdoshlari tanishi. Kitobni sevishi. Sport turlaridan shashka va shaxmatga qiziqishi va hammani mot qilishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Maktab. Kavsar Turdiyeva (1 soat).

O'quvchi qadrdon maktabida a'lo baholarga o'qishi. Maktabda darslarning xilma-xilligi, qo'llarda kitob, daftar va qalam bo'lishi. Ularni sevib o'zlashtirishi, to'g'riso'zlikka, do'stlikka o'rgatishi haqida. Ongli va ifodali o'qish

Mavzu. Sirli g'or. Dilshod Rajab (1 soat).

Bola kompyuterning sirlarini o'rganish orqali kompyuter olamiga kirishi. Kompyuterni darslarni tayyorlashda yordamchi vosita ekanligi. Ongli va ifodali o'qish. Mavzu mazmuniga doir qo'shimcha topshiriqlar.

139-mavzu. Bu mening o'rtog'im. Nodir Nazarov (1 soat).

O'quvchi maktabga o'tlanishi. Asqarni yo'lda ko'rib qolgani. Militsionerdan uni ozod qilishni so'rashi. Do'stiga yo'l harakati qoidasiga rioya etish kerakligini o'rgatishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

140-mavzu. Bobongiz xafa bo'lsalar mayli-mi?. Mirzakalom Ismoilov (1 soat).

Ravshan bobosini mehnat qurollarini olib joyiga qo'ymay, har yerda palapartish tashlab ketishi. Bobosining koyishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

141-mavzu. Suyunchi. Nazir Hakim (1 soat).

Toyir va Zoyir yo'lda hamyon topib olishi. O'qituvchi maslahati bilan choyxonadagi samovarchiga tashlab kelishligi. Hamyon G'ofur otaniki ekanligi. Minnatdorchilik bilidirishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

142-mavzu. Eng muqaddas kun. Yoqutxon Rahimova (1 soat).

9-may - Xotira va qadrlash kuni. Vatanimizni himoya qilish maqsadida jon fido qilgan ota-bobolarimiz ruhini yod etish. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli soʻzlar. Ongli va ifodali oʻqish.

143-mavzu. Eʼzoz. Ulbibi (1 soat).

Ikkinchi jahon urushida vafot etganlarni xotirlab, “Motamsaro ona” yodgorligining qoʻyilishi. Bobo va nevara suhbat. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli soʻzlar. Ongli va ifodali oʻqish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari oʻqish (1 soat).

Mavzu. Xotira va qadrlash kuni. Xurshid Davron (1 soat).

Sheʼrda xotiraning borligi, millatning iftixori va gʻururi tirikligi, u elni, xalqni eltuvchi qudrat va yorituvchi nur ekanligi haqida. Ongli va ifodali oʻqish.

144-mavzu. Sinfdan tashqari oʻqish (1 soat).

145-mavzu. Magʻzi shirin. Sobit Gʻafurov (1 soat).

Hamrobay ota oʻgʻli Rustamjon urushda halok boʻlgani. Oʻgʻli uchun oʻrik ekishi. Yosh nihollar oʻrik berishi. Oʻrikdan magʻzi shirin chiqishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli soʻzlar. Ongli va ifodali oʻqish.

146-mavzu. Boʻlim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Goʻzal fazilat – inson husni” boʻlimi yuzasidan oʻquvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish.

XIII boʻlim. YOZ FASLI – SOZ FASLI

(9 soat, A1+: 6 soat)

147-mavzu. Yoz. Obid Rasul (1 soat).

Yoz fasli moʻl-koʻlchilik fasli ekanligi. Yozning ilk oylaridan mevalar gʻarq pishib yetilishi. Ongli va ifodali oʻqish.

148-mavzu. Yoʻlda. Shukur Xolmirzayev (1 soat).

Ota va bolaning suhbat. Otaning oʻgʻliga maslahati. Insonga xos fazilatlarni oʻquvchilarda tarkib toptirishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar, hikmatli soʻzlar. Ongli va ifodali oʻqish.

A1+

Mavzu. Quyosh kulgusi. Nurilla Ostonov (1 soat).

Shoir yoz kelishida bolalar soʻlim joylarga borishi. Toʻyib yoz neʼmatlardan isteʼmol qilishi haqida. Ongli va ifodali oʻqish.

Mavzu. Valivoyning hikoyasi. Sobit Gʻofurov (1 soat).

Valivoy buvisinikiga borishi. U yerda mazza qilib dam olishi. Doʻstlar orttirishi haqida. Ongli va ifodali oʻqish.

149-mavzu. Inson insonga oʻrtoq. Hamidulla Yoquboyev (1 soat).

Mehnat qilish kishilarning yeng ezgu fazilatlaridan biri ekanligi. Doʻstlar orasida oʻzaro hurmat uygʻotishi. Sheʼr mazmuniga mos maqollar.

150-mavzu. Gulzorda. Abdulla Qodiriy (1 soat).

Tabiatni asrash, gullar va o'simlik dunyosi. Qahramon Anvar Mahmud ishlaridan ibrat olishi. Mavzu mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish mashqlari.

151-mavzu. Oromgoh marshi. Zahro Xasanova (1 soat).

Ta'tilda bo'sh vaqtlardan unumli foydalanishi. Sport turlari bilan muntazam shug'ullanishga da'vat etishi. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

152-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Oromgoh madhiyasi. D. Rajab (1 soat).

She'rdan oromgohning suvlari, ob-havosi tozaligi. Oromgohda kuch yig'ib, chiniqishi. Sog'lom bo'lib o'sishi haqida. Ongli va ifodali o'qish mashqlari.

Mavzu. Laylak va yoz haqida ertak. Zulfiya Mo'minova (1 soat).

Laylak Yozni odamlar orasiga olib borishi. Odamlarga foydasi tegishini. Laylakdan minnatdor bo'lishi haqida. Ongli va ifodali o'qish.

153-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"Yoz fasli – soz fasli" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish.

154-mavzu. Yil davomida o'tilganlarni takrorlash (1 soat).

O'tilganlar bo'limlar yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish va boshqotirmalarni hal etish orqali o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlash hamda amaliyotda qo'llash.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat)

Mavzu. Do'st do'stga oyna ekan. Quddus Muhammadiy. (1 soat).

She'rdan do'stlar bir-birini har bir ishda qo'llab-quvvatlashi. Do'stlik sharofati bilan maqsadiga yetishi haqida. Ongli va ifodali o'qish mashqlari.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

A1

rivoyat, hikoya, ertak, latifalar, maqol, topishmoq, tez aytish va she'riy matnlarni, ixcham audio va video materiallarini tinglab tushuna oladi;

ularni tushunib ongli, to'g'ri, ifodali (bo'g'inlamay sidirg'a) o'qiy oladi; matnlarning mazmunini to'liq yoki qisqartirib qayta aytib bera oladi;

o'rganilgan mavzular doirasida bayon va bolalar yozuvchilari, ularning asarlari nomini yoza oladi;

o'qish uchun kitoblar (badiiy asar namunalari)ni mustaqil tanlay oladi.

A1+

darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og'zaki bayon qila oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o'rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va o'qituvchi yordamida ularga baho bera oladi;

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi; matndagi so'z va so'z birikmalarining ma'nolarini hamda gaplarni tushuna oladi.

A1+

asar qahramonlariga munosabat bildiradi.

SINFDAN TASHQARI O'QISH

(17 soat, A1+: 17 soat)

Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalar ustida ishlash ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashining eng muhim omili hisoblanadi.

Sinfdan tashqari o'qish ikki haftada bir marta o'tkaziladi va o'qish uchun ajratilgan 17 soatdan foydalaniladi. Badiiy-adabiy asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsa, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan muallifning kitoblari hamda muqovasi, titul varag'i, kirish so'z, mundariyasi va suratlariga qarab asarning taqvimiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mavzularni o'rganish uchun – 154 soat (A1+:68 soat)

Nazorat ishlarini o'rganish – 16 soat

Jami – 170 soat (A1+: 238 soat)

4-SINF

O'QISH VA NUTQ O'STIRISH

(170 soat, A1+: 238 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish; kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olish.

A1+

axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) ibrat olish va o'z faoliyatida qo'llash.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

turli yoʻnalishdagi (ertak, sarguzasht, hikoya va sanʼatga doir) kitoblarni muntazam oʻqish va oʻrganish;

yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarga rioya qilish;

oʻzining xato va kamchiliklarini toʻgʻri tushunish, oʻzini nazorat qilish va xatolarini tuzatishga harakat qilish;

oʻqib-oʻrganib borish orqali bilimini oshirib borish.

A1+

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni eʼzozlash va ularga amal qilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

badiiy adabiyotda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik gʻoyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi oʻziga xosliklarni anglash;

yovuzlik va xunuklikdan nafratlana bilish;

yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

A1+

badiiy adabiyotda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik gʻoyalaridan taʼsirlanish, ulardagi goʻzallik va ezgulikdan oʻrnak olishga intilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

jamiyatda boʻlayotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.

A1+

badiiy asarlarda xilma-xil shakl va koʻrinishlarda namoyon boʻladigan qahramon va personajlarning insoniylik, adolatlilik, halollik hamda boshqa xolis va jiddiy mulohaza yurita olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

bir kunlik xarajatlarni hisoblashni bilish.

A1+

kundalik faoliyatida turli sarf-xarajatlarni hisoblay olish va ulardan oqilona foydalanish.

I boʻlim. ISTIQLOLIM – ISTIQBOLIM.

(6 soat, A1+: 2 soat)

1-mavzu. Mangulikka tatigulik kun. Safar Barnoyev (1 soat).

1991-yil 31-avgust Vatanimizning milliy istiqloлга erishgan kuni mangulikka tatigulik ekanligining ahamiyati. El-yurt obodligi. Mamlakatimizning qisqa muddatda rivojlangan davlatlar qatoriga kirib olishi. Vatanning ostonadan boshlanishi va muqaddasligi. Asar mazmuniga doir savol va topshiriqlar.

2-mavzu. Iqboli buyuksan sheʼri. Abdulla Oripov (1 soat).

Sheʼrda insonning ota-onasi oldidagi farzandlik burchining vatan oldidagi

burchi bilan uyg'unligi. Yosh avlodning har jihatdan kamol topishi. She'r mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

3-mavzu. Qodir boboning orzusi. *To'lg'in Hayit* (1 soat).

Qodir bobo va nabirasining suhbat. Mamlakatimizdagi avtomobillar. Har qanday kasbning ulug'ligi. Ozod va obod Vatan qadri. Ongli va ifodali o'qish.

4-mavzu. Istiqlool bolalari. *Dilshod Rajab* (1 soat).

Isiqlool bolalari – quvnoq o'g'il-qizlarning jo'shib kuylanishi. A'lo o'qish – Vatanning kelajagi, ishonchi va quvonchi ekanligi. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Sinf dan tashqari o'qish (1 soat).

***Mavzu. Qo'lni qo'lga beraylik. Miraziz A'zam* (1 soat)**

Mustaqillikning ulug'ligi. Uni birinchi sentabrda nishonlashimiz. Mustaqillik buyuk davlat qurishga sababchi bo'lishi. Ongli, ravon va ifodali o'qish.

Takrorlash (1 soat).

II bo'lim. O'ZBEKISTON – VATANIM MANIM

(9 soat, A1+: 4 soat)

5-mavzu. Serquyosh o'lka she'ri. *Zafar Diyor* (1 soat).

She'rda O'zbekistonning “bog'u bo'ston”, “serquyosh” sifatlari bilan ulug'lanishi. Yurtimizni “serquyosh o'lka” deb nomlanishi. She'r mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

6-7-mavzular. Xarita. *Normurod Norqobil* (2 soat).

Hikoyada vatanga bo'lgan muhabbatning kichik qahramonlar chizgan shahar va qishloqlar misolida ifodalanishi. Bolalarning tortishuvi. Ko'hna yodgorliklar. O'zbekistonning chegaradosh davlatlari. Hikoya mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

8-mavzu. Sinf dan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

***Mavzu. Vatan haqida qo'shiq. Aziz Abdurazzoq* (1 soat).**

Biz ko'z ochib ko'rgan yurt, kindik qonimiz to'kilgan ona zaminning muqaddasligi, ona kabi aziz va mukarramligi, uning qadriga yetish, avaylab-asrash va kelajak avlodlarga yetkazish. Har bir insonning eng aziz insoniy burchi ekanligi xususida tushuncha berish. Ongli va ifodali o'qish.

***Mavzu. O'zbekistonim. Muhammad Yusuf* (1 soat).**

She'rda o'zbek xalqi, bolaligi o'tgan yer ekanligi. Uning oliy unvoni o'zbek farzandligi haqida. Ongli va ifodali o'qish. She'r mazmuniga doir maqollar.

9-mavzu. Mardlik va aql yorug'ligi. *Miraziz A'zam* (1 soat).

Ilmning ulug'lanishi. Mardlikning inson hayotidagi o'rni. She'r mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

10-mavzu. Kichik vatan. *Ashurali Jo'raev* (1 soat).

Vatanni sevis, uni ardoqlash. Yangi hovlida boboning g'amginligi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

11-mavzu. Gul'unchalarmiz. Muhiddin Omon (1 soat).

She'rda vatan timsoli va vatanparvarlik. Kimning zurriyoti ekanligi. She'r mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

Takrorlash (1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Vatanimiz gerbi tug'ro haqida ertak. Erkin Malikov (1 soat).

Gerbimiz haqida. Humoning baxt qushi ekanligi. Osmonda baxt qushi charx urib uchishi. Shu qush kimning boshiga qo'nsa, o'sha odam podshoh bo'lishi. Qush bir kambag'al, to'g'riso'z, saxiy va odil yigitning boshiga qo'nishi.

III bo'lim. SAHOVATLI FASL

(7 soat, A1+: 2 soat)

12-mavzu. Kuz. Shukur Sa'dulla (1 soat).

Kuz tabiatining go'zalligi va o'zgaruvchanligi. Mavzuga oid savollar. Ongli va ifodali o'qish.

13-14-mavzular. Qovun sayli. Shukur Sa'dulla (2 soat).

Kuzdagi ishlar. Kuzdagi pishiqchilik va yurt obodligi. Polizdagi voqea. Qovun saylining nishonlanishi. Qovun navlari. Mavzuga oid savollar. Ongli va ifodali o'qish.

15-mavzu. Dehqon. Sulaymon Rahmon (1 soat).

Dehqonchilik va yurt obodligi. Dehqonchilik kasbini naqqoshlik kasbi bilan solishtirilishi. Ular orasidagi o'xshashlik. Dehqonchilikning ulug'lanishi. Ongli va ifodali o'qish.

16-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Kuz. D. Shomalikov (2 soat).

Tabiatda kuzning ko'rinishi. Hosil yig'ilmasdan havo o'zgarsa, bobodehqonning holati. Bobodehqonning xirmondan ko'ngli to'lishi. To'kin-sochinchilik uchun yurtimizning tinch, farovon hayot ekanligi. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Yurt madhi. Dilshod Rajab (1 soat).

She'rda viloyatlarga qisqacha ta'rif berilishi. Ularning urf-odatlari, yurtimizdagi o'rni. Ongli va ifodali o'qish. She'r mazmuniga doir maqollar.

Takrorlash (1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

IV bo'lim. MA'NAVIYAT – QALB QUYOSHI

(12 soat, A1+: 4 soat)

17-mavzu. Salomlashish odobi. Husayn Voiz Koshifiy (1 soat).

Salomlashish odobi insoniylik fazilatlarining eng ulugʻi ekanligi. Salomlashishning qonun-qoidalari. Sheʼr mazmuniga doir maqol va tez aytishlar. Ongli va ifodali oʻqish.

18-mavzu. Odamdan nima qoladi? Yusuf Xoj Xojib (1 soat).

Shoirning dono va bilimli kishilar toʻgʻrisidagi fikri. Bilimsiz kishilarni hayvonga oʻxshatilishi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

19-mavzu. Eng ulugʻ fazilat. Ertak (1 soat).

Ota va oʻgʻil oʻrtasidagi munosabat. Insoniylik fazilatlarini. Mehnat qilishga daʼvat. Kenja oʻgʻilning ishi otaga maʼqul kelishi. Asar mazmuniga doir savol va topshiriqlar. Ongli va ifodali oʻqish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari oʻqish (1 soat).

Mavzu. Donolar hikmatlari (1 soat).

Hikmatlarda ulugʻ allomalarimizning ilm, odob-axloq haqidagi fikrlarining yoritilishi. Ongli va ifodali oʻqish. Hikmatlar mazmuniga doir maqollar.

20-mavzu. Har kim ekanini oʻrar. M.Abdurashidxonov (1 soat).

Oʻgʻilning otaga boʻlgan munosabati. Cholning ularga qarata aytgan hikmatli soʻzi. Bu dunyo qaytar dunyo ekanligini uqtirishi. Asar mazmuniga doir savol-topshiriqlar. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

21-mavzu. Chaqimchiga “mukofot”. Ertak (1 soat).

Vafo va sadoqat, xiyonat va chaqimchilik kabi insoniy munosabatlar toʻgʻrisida maʼlumot. Xiyonat qilishning gunoh ekanligi. Chaqimchilik yomon odat ekanligi. Savol-topshiriqlar. Ertak mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

22-mavzu. Omonatga xiyonat. Ertak (1 soat).

Omonat, xiyonat, adolat, rostgoʻylik, toʻgʻrilik xususida. Safar chogʻida doʻstiga omonat topshirish. Xiyonat qilishning gunoh ekanligi. Ertak mazmuniga doir maqollar, hikmatli soʻzlar. Ongli va ifodali oʻqish.

23-24-mavzular. Ikki saxiy. Ertak. Murod Xidir (2 soat).

Odamlarining tortishuvi. Saxiylik va taʼmagirlik. Ikkinchi saxiyning ishlari maʼqullanmasligi. Saxiylikning ulugʻ fazilat ekanligi. Ertak mazmuniga doir maqollar, hikmatli soʻzlar. Ongli va ifodali oʻqish.

A1+

Mavzu. Ochofat. Anvar Obidjon (1 soat).

Ayrim bolalardagi yeb toʻymaslik, ochofatlik boshqalarda salbiy taassurot qoldirishini yengil yumor vositasida koʻrsatish. Ongli va ifodali oʻqish.

Mavzu. Ustoz uzri. Xudoyberdi Toʻxtaboyev (1 soat).

Hikoyada birinchi oʻqituvchi orqali birovning koʻngliga ozor bermaslik. Ozor yetkazganda kechirim soʻrash zarurligi. Hikoyada axloqiy qoidalarining koʻrsatilishi. Ongli va ifodali oʻqish.

25-mavzu. Sinfdan tashqari oʻqish (1 soat).

26-mavzu. Qoʻzichoq. Rauf Tolib (1 soat).

Qo'ylar tomonidan qo'zichoqni maqtashlari. Taltayish, o'zboshimchalik, manmanlik yomon odat ekanligi. Masal mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

Takrorlash (1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

V bo'lim. XALQ OG'ZAKI IJODI **(29 soat, A1+: 12 soat)**

27-mavzu. Boychechak (1 soat).

Boychechak misolida insonning tabiatga munosabati. Qo'shiqlarda insonning quvonch va tashvishlari, orzu-armonlarining kuylanishi. Bahorning elchisi ekanligi. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Xiyonat. Rivoyat (1 soat).

Vatanga xiyonat qilish og'ir gunoh ekanligi Dalvarzin qal'a misolida ko'rsatib o'tilgan. Shu yo'l bilan xiyonat qilmaslikka, vatanni asrab-avaylashga o'rgatishga da'vat etish. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Aql va boylik. Ertak (1 soat).

Noqonuniy yo'llar bilan boylik orttirish hamda aql, idrok va fahm-farosat bilan turmush kechirishning oqibatlari haqida so'z yuritish. Ongli va ifodali o'qish.

28-mavzu. Oftob chiqdi olamga. Qo'shiq (1 soat).

Qo'shiqda quvnoq va o'yinqaroq bolalarning o'ziga xos xislatlari. Ongli va ifodali o'qish.

29-mavzu. Xo'p hayda (1 soat).

She'rda o'tmishdagi insonlarning tabiatga munosabati va mashaqqatli hayoti. Qo'shiqning kuylanishi payti. Xirmon egasi otni erkalashi. She'r mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

30-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

31-32-mavzular. Ilm afzal. Ertak (2 soat).

Ota va qizning suhbat. Otasiga bergan maslahati. Chol va o'g'illarining suhbat. Aka-ukalarning xulosaga kelishi. Ilmning har narsadan afzalligi. Ertak mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Tuyalar. She'r (1 soat).

Qadim xalq she'riyatida turli hayvonlarning, jumladan, tuyalarning inson og'irini yengil qilish eng qulay transport vositasi ekanligi to'g'risida so'z yuritish.

Mavzu. Otalar so'zi. "G'uncha" jurnali (1 soat).

Matnda tejamkorlik, to'g'rilik, intizomlilik, to'g'rilik, odoblilik xususida. Har bir axloqiy xislatlarni ochib berilishi. Ongli va ifodali o'qish.

33-mavzular. Davlat. Ertak (1 soat).

Dehqonning turmush kechirishi. Dehqonchilik mehnati tufayli yaratiladigan noz-ne'matlar. Davlatning dehqonning uyidan ketishni xohlamasligi. Mehnatga bo'lgan muhabbat. Ertak mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

34-35-mavzular. Ko‘zacha bilan tulki. Ertak (2 soat).

Tulkining inidan chiqmay o‘tirishi. Tulkining hiylasi. Bir-biriga bo‘lgan murojaati. Mug‘ombirlik, aldoqchilik kabi yomon illatlar ekanligi. Matn mazmuniga doir maqollar, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o‘qish.

36-mavzu. Ochko‘z boy. Ertak (1 soat).

Ochko‘z boyning qilmishi. Ochko‘z boy va xotinining jazolanishi. Yaxshilikka yaxshilik, yomonlikka yomonlik qaytishi. Ertak mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o‘qish.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

Mavzu. Shirin. Yoqutxon Rahimova (1 soat).

Hikoyada Shirin ismli qizning tartibli, saranjom-sarishtalik xususida. Onasi kelguncha uy ishlarini bajarib, xursand qilishi. Ongli va ifodali o‘qish. Hikoya mazmuniga doir maqollar.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya elementlari (*tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish*):

A1

ertak va she’riy matnlarni tinglab tushuna oladi;
ularni ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez va bir daqiqada 30-35 ta so‘zni o‘qiy oladi;
o‘qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so‘zlarni topa oladi;
ularning mazmunini to‘liq yoki qisqartirib va darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og‘zaki bayon qila oladi;
maktab kutubxonasidan foydalana oladi;
kichik hajmdagi 5 ta she’rni yoddan aytib bera oladi.

A1+

asar qahramonlari haqida kichik ijodiy matn yoza oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va o‘qituvchi yordamida ularga baho bera oladi;
asar mazmunidan ta’sirlana oladi;
o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan asarlardagi voqea-hodisalarni qayta hikoya qila oladi.

37-mavzu. Hiylagarning jazosi. Ertak (1 soat).

Soddadil va hiylagar tillalarni taqsimlashi. Hiylagarning qozi tomonidan fosh qilinishi. To‘g‘rilik, soddadillik bilan makr-hiyla, mug‘ombirlik, xiyonatkorlik o‘rtasidagi azaliy ziddiyat. Halollik, to‘g‘rilikning yuksak ma’naviy fazilatlar ekanligi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o‘qish.

Takrorlash (1 soat).

38-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

39-40-mavzular. Hunarsiz kishi o'limga yaqin. Ertak (2 soat).

O'tinchi qizning podshohga sharti. Bu shartni podshoh va sovchilar qanday tushunishi. Hunarning afzalligi. Kasb-hunarga mehr-muhabbat uyg'onishi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Ziyrak bola. Ertak (1 soat).

Ertakda hayotdagi oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan qing'irliklarni fahm-farosat, ziyraklik bilan hal qilish mumkinligini tasvirlash. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Ikki xasis. Muhammad Avfiy (1 soat).

Ikki shahardagi xasislik bilan nom qozongan boylarning mol-mulki oxir-oqibat o'zlariga ham buyurmasligi tasvir etilishi. Ongli va ifodali o'qish.

41-42-43-mavzular. Ziyrak uch yigit. Ertak (3 soat).

Tuyaning belgilari. Zindonband etilishi. Sharob, kabob va hokim haqidagi taxminlar. Voqealar o'rtasidagi bog'liqliklar. Ertak mazmuniga doir maqollar, tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

44-45-mavzular. Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak. Ertak (2 soat).

Anvar Obidjon. Hayvonlarning shifo izlab kelishi. Quyon va to'nqizning qochib ketishi. Ochko'zlik, nafsga berilish yomon oqibatlariga olib kelishi. Matn mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Sher va Chumoli. Masal (1 soat).

Rivoyatda sherning manmanligi va chumolining mehnatkashligi kamtarga kamol, manmanga zavol degan xalq maqoli misolida ko'rsatilishi. Ongli va ifodali o'qish.

46-mavzu. Baqa bilan taqa. Aziz Abdurazzoq (1 soat).

Baqaning havasi. Baqaning qaysarligi. O'ziga noloqiq ishga qo'l urishi. Ertak mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

47-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

48-49-mavzular. Laqma it. Shukur Sa'dulla (2 soat).

O'yinqaroqlik, ishyoqmaslikning inson boshiga katta tashvish keltirishi. Itning Moshxon, Echki va Olaqashqardan yordam so'rashi. It yozni o'tkazishi. O'ziga uy qurmasligi. Itning qilmishi. Ertak mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Tadbirkor vazir. Ertak (2 soat)

Podshohning chiroyli otining o'g'irlanishi. Uni topishda vazirning tadbirkorlik ko'rsatishi. Ongli va ifodali o'qish.

50-mavzu. Maqollar (1 soat).

Maqollarning ma'nosi. Turmush tajribalaridan kelib chiqqan holda vatanga bo'lgan muhabbat. Ilmning qadri. Do'stlikni qadrlash. Hunar orqali xor bo'lmaslik. Mehnatsevarlik. Oz so'z – soz so'zlash ekanligi. Ongli va ifodali o'qish va yod olish.

51-mavzu. Topishmoqlar (1 soat).

Topishmoqlarning umumiy o'xshashlik tomonlari. Topishmoqlarda tabiat hodisalari va narsalarning belgisi bildirishi. Ongli va ifodali o'qish.

Takrorlash (1 soat).

VI bo'lim. KUMUSH QISH

(6 soat, A1+: 2 soat)

52-mavzu. Qish to'zg'itar momiq par. Qudrat Hikmat (1 soat).

Qish manzarasi. Qorning yog'ishi. Tomlarning qor bilan qoplanishi. "Mo'rkon, serbar, fayz, surunkasi" so'zlarining ma'nolari. Ongli va ifodali o'qish.

53-mavzu. Rangin qorlar. Olloyor (1 soat).

Qadimda qorlarning rangi. Bahorning yashil rangni tanlashi. Yil fasllarining almashinib turishi. Tabiatning buyuk bo'yoqchi timsolida gavdalanishi. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Bizning qish. Dilshod Rajab (1 soat).

O'lkamizdagi qish faslining insonlarga zavq tarovat bag'ishlashi. Ko'ngillarni quvontirishi bilan boshqa fasllarda ajralib turishining zavq-shavq bilan kuylanishi. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

54-mavzu. Qish. Tursunboy Adashboyev (1 soat).

Qish manzarasi hamda yilning shu faslida turli jonivorlar va hayvonlarning hayoti. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

55-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

56-mavzu. Qor odamning sovg'asi. Oqiljon Husanov (1 soat).

Komil va Alisherning dalaga borishi. Qor odamning sovg'asi. Qishki o'yinlarning nomlari. Matn mazmuniga doir tez aytishlar. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Yangi yilda. D.Rasul qizi. (1 soat).

Yangi yildagi orzu-rejalar archa bayrami arafasida dillarga shukuh, ko'ngillarga quvonch bag'ishlashi. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Qorbobo qoyil qoldi. Muhabbat Xamidova (1 soat).

4-sinf o'quvchilarining yangi yil bayrami arafasida, o'qish yili davomida fanlardan o'zlashtirishi Qorboboga bo'lgan munosabati misolida ko'rsatilishi. Ongli va ifodali o'qish.

VII bo'lim. VATANIMIZ O'TMISHIDAN

(10 soat, A1+: 6 soat)

57-58-mavzular. Kitobga ixlos. *Mirkarim Osim* (2 soat).

Kutubxonaga o't ketishi. Yong'indagi mardlik. Ibn Sino Buxoroni tashlab ketishga majburligi. Sitorabonuning o'g'liga tayinlagan gaplari. Ilm olishning mashaqqatli yo'li, o'tmishdagi xalq hayotining nochorligi, vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat. Ongli va ifodali o'qish.

59-mavzu. Pahlavon va shoir. *Hamidjon Hamidov* (1 soat).

Pahlavon Mahmudning yosh bahodir bilan kurashga tushishni xohlamasligi. Pahlavon Mahmudning yosh bahodirga yengilish sababi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

60-61-mavzular. Alisherning yoshligi. *Oybek* (2 soat).

Alisher bilan Xusaynning yoshlikdagi hayoti. Alisher, Husayn va do'stlari bilan suhbat. Ularning qiziqishlari. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

62-mavzu. Shum bola. *G'afur G'ulom* (1 soat).

Domla bolani ovqatlantirishi. Domla va bolaning suhbat. Yetim bolaga munosabati. O'tmishdagi xalq hayotining nochorligi to'g'risida. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

***Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish* (1 soat).**

***Mavzu. Rivoyat* (1 soat).**

Temurning Samarqanddagi Darxon qishlog'iga kelishi. Bu qishloqda Darxon ismli kampir Temurga o'z tilagini aytishi. Qishloqqa ariq qazib berishini so'rashi. Ongli va ifodali o'qish.

63-mavzu. Shahzodaning bolaligi. *Erkin Samandar* (1 soat).

Malika va Kuzbor Malikning suhbat. Ustozidan iltimosi. Chavandozlik sirlari. Shahzoda Jamoliddinni chavandozlik, qilichbozlikdan iborat harbiy ishlarga o'rgatishdan ko'zlangan maqsadi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

64-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Takrorlash (1 soat).

A1+

***Mavzu. Yolg'onning umri qisqa. I.Zoyir* (2 soat).**

Yolg'onchilikning oxiri voy bo'lishi. Yolg'onchi kishilarning el-yurt oldida yuzining shuvut bo'lishining ko'rsatilishi. Ongli va ifodali o'qish.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*):

A1

she'r, rivoyat, qissadan parcha, maqol, topishmoqlar, ertak hamda ixcham audiomatn va videotasvirlarni tinglab tushuna oladi;

ularni tushunib, ongli ifodali (bo'g'inlamay sidirg'a) o'qiy oladi va ularning mazmunini qisqartirib, qayta aytib bera oladi;

o'rganilgan mavzular doirasida bayon va bolalar yozuvchilari, ularning asarlari nomini yoza oladi;

o'qish uchun kitoblar (badiiy asar namunalari)ni mustaqil tanlay oladi.

A1+

matnlarni tushunib, mazmunini to'liq bayon etib bera oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o'rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va ularga baho bera oladi;

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi;

xalq og'zaki ijodi namunalari va boshqa asarlarni bir-biridan farqlay oladi.

A1+

matndagi so'z birikmalarining ma'nolarini izohlay oladi;

asar qahramonlariga munosabat bildiradi.

VIII bo'lim. NIMA YAXSHIYU, NIMA YOMON

(24 soat, A1+: 8 soat)

65-66-mavzular. Odobli bo'lish osonmi. Anvar Obidjon (2 soat).

Onasining sichqonchaga nasihati. Shum baroq, Echktivoy Sichqonchani qarshi olishlari. Sichqonchani salomiga Toshbaqa va To'rtko'zning javobi. Echkining Sichqonchaga salomlashish to'g'risidagi maslahati. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

67-mavzu. Qodir bilan Sobir. Hakim Nazir (1 soat).

Qodir bilan o'rtoqlarining suhbat. Sobirning o'qishga kechikishi. Rostgo'ylik, kamtarlik, kamsuqumlikning maqtanchoqlik, manmanlik, zo'ravonlik, qo'rqqoqlikka ziddi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

68-69-mavzular. Xatosini tushungan bola. Xudoyberdi To'xtaboyev (2 soat).

Qosimjonning gazetaga she'r yozmasligi. O'qituvchining tanbehi. Qosimjonning manmanligi. Ahllik, birdamlik, do'stlik va rostgo'ylik bilan manmanlik, maqtanchoqlik va takabburlik o'rtasidagi azaliy ziddiyat. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Ota o'giti. Anvar Obidjon (1 soat).

Ona tilini asrash. Har bir millat farzandining muqaddas burchi ekanligining otalar o'giti sifatida kuylanishi. She'r mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

70-mavzu. Nurxon bilan Burxon. Miraziz A'zam (1 soat).

Burxon Nurxonning ustidan kulishi. Burxonning uyalishi. Bolalar hayotida tez-tez uchrab turadigan manmanlik, boshqalarni masxaralash odatlari. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

71-72-mavzular. Qo'rqqoq. Sunnatulla Anorboyev (2 soat).

Bahromning yo'lga o'tlanishi. Qo'zichoqning qutqarilishi. Qo'rqqoqlikning asosiy sababi. Mardlik, jasorat va insoniylikning kishi shaxsini ulug'lashi. Matn mazmuniga doir maqollar, hikmatli so'zlar. Ongli va ifodali o'qish.

73-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Xo'rak. Dilduza Xoldor qizi (1 soat).

She'rda hayotdagi hamma narsa inson ko'nglidagidek bo'lavermasligining baqa bilan laylak misolida ko'rsatilishi. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Sarupo. Erkin Malik (1 soat).

Odamlar o'rtasidagi mehr-oqibat boshga og'ir kulfatlar tushganda, ayniqsa, sezilishi. Uy yonib ketgan Mirzaaxmadga qo'ni-qo'shnilarining beg'araz yordami ko'rsatilishi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

Takrorlash (1 soat).

74-mavzu. Yaxshi bo'ldi. Nosir Fozilov (1 soat).

Husanning dadasi o'g'li haqida Iso boboga gapirib berishi. Iso bobo Safarni maqtashi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

75-mavzu. Sharq hikoyasi. Abdulla Oripov (1 soat).

Ota eshakka minib, o'g'li piyoda borishi va o'g'li otga minib, ota piyoda yurishi haqida qishloqdagilarning gap-so'zlari. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

76-mavzu. Saxiy. Muhammad Avfiy (1 soat).

Hotamtoyning mo'ysafid bilan suhbat. Mo'ysafidning sahiyligi. Xayr-sahovat, bag'rikenglikning insonni ulug'lashi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

77-mavzu. Chumchuq bilan chumoli. Aziz Abdurazzoq (1 soat).

Chumchuqning iltimosi. Chumolining javobi. Ularning fikrlari. Maqtanchoqlik va tekinxo'rlik boshga kulfat keltirishi. Matn mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Yurtim qancha boy bo'lsa. Anvar Obidjon (1 soat).

Ajdodlarga munosib farzand bo'lishini istasa, yurti boy qilish. Vatan obodligi va ellar farovonligiga erishish mumkinligining kuylanishi.

78-mavzu. Yolg'onchining izza bo'lishi. Rivoyat (1 soat).

Yolg'onchilikning rostgo'ylik va to'g'rilikka ziddligi to'g'risida tushuncha berish. O'z xatti-harakatini baholash, o'zini o'zi nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish.

Nazorat ishi (1 soat).

79-mavzu. Qush tili. Mirtemir (1 soat).

Qushlarning tabiatda va inson hayotida tutgan oʻrni. Qush turlari. Matn mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. Ongli va ifodali oʻqish.

80-mavzu. Qushlar – bizning doʻstimiz mavzusida matn tuzish (1 soat).

81-mavzu. Sinfdan tashqari oʻqish (1 soat).

A1+

Mavzu. Yomgʻirdan soʻng. Sulton Joʻra (1 soat).

Bahor yomgʻirdan soʻng kamalakning chiqishidan hayratlangan bolalar quvonchining ifodalanishi. Ongli, tez va ifodali oʻqish.

Mavzu. Opa-singil daryolar. Goʻzalbegim (1 soat).

Hikoyada Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolarining tabiati va koʻrinishi. Bu daryolar Orol dengiziga quyilishi. Vatanimizdagi choʻlu biyobonlarning gullab yashnashida ularning oʻrni haqida. Ongli va ifodali oʻqish.

82-mavzu. Yomgʻir. Farhod Musajon (1 soat).

Erkinjonning maktabga bormasligining sababi. Erkinjonning kasali. Yalqovlik va mugʻombirlikning yomon odat sifatida kishini izza qilishi. Toʻgʻrilik va rostgoʻylik – goʻzal fazilat. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

83-mavzu. Ikki irmoq. Habib Poʻlatov (1 soat).

Kichik irmoqning yoʻli sermashaqqatliligi. Kichik irmoqqa doʻstlarining yordami. Katta irmoqning manmanligi. Hayotda uzoqni koʻra bilmaslik, manmanlik, balandparvozlik, boshqalarni nazar-pisand qilmaslik va hovliqishning oxiri voy ekanligi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

Takrorlash (1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

IX boʻlim. HAYVONOT OLAMIDA

(12 soat, A1+: 6 soat)

84-mavzu. Moʻʻjiza. Rahim Bekniyoz (1 soat).

Quyoning toʻrga ilinishi. Keksa ovchining yoshligidagi voqealar. Ona tabiat goʻzalliklaridan zavqlanishi, hayvonot olamiga mehr-muhabbati. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari oʻqish (1 soat).

Mavzu. Doʻmboqvoy. Rauf Tolib (1 soat)

Ayiqchalarning onasi bilan suhbat. Ayiqchalar onasiga qilgan ishlari haqida maqtanishi. Doʻmboqvoyning uxlashi. Ongli va ifodali oʻqish.

85-mavzu. Xatarli uchrashuv. Pirmqul Qodirov (1 soat).

Bola boʻrilardan qoʻrqmasligi. Akasining hikmatli gapi. Aql va iroda tarbiyasining insonni ulugʻlashi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

86-mavzu. Ola buzoq. Gʻafur Gʻulom (1 soat).

Ola buzoqning koʻrinishi. Ongli va ifodali oʻqish.

87-mavzu. Tushovli toy. Nosir Fozilov (1 soat).

Otlarning inson hayotida tutgan o'рни. Saman toyning tunda kishnashi. Ko'kqashqaning yordami. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

88-mavzu. Jo'ja. Anvar Obidjon (1 soat).

Jo'janing xislatlari. Qushlar va parrandalarning inson hayotida tutgan o'рни. Matn mazmuniga doir topishmoqlar. Ongli va ifodali o'qish.

89-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Kaklik. Yo 'ldosh Shamshirov (1 soat).

Ikkita qushning – kaklik va xo'rozining sayrash (jangining) bola tomonidan kuzatilishi va hikoya qilinishi to'g'risida. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Nega do'st bo'lisholmas? Sobit G'ofurov (1 soat).

Qaldirg'ochning ariq bo'yiga borishi. Ilon bilan suhbat. Tipratikan va ilonning do'st bo'la olmasligining sababi. Ongli va ifodali o'qish.

90-91-mavzular. Ayiqni yenggan cho'pon. Pirimqul Qodirov (2 soat).

Akrom dadasi bilan to'g'a chiqishi. Suyun otaning gaplari. Cho'ponlar ayiqni yo'qotishi. Yovvoyi hayvonlar. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

92-93-mavzular. Ko'kyol. Nosir Fozilov (2 soat).

Ovchilarning bo'rilarning ketiga tushishi. Bo'rilarning yaxshiyliqi. Ovchilarning hiylasi. Ko'kyolning qo'lga tushishi. It va otlarga qo'yiladigan nomlar. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Qalb. To'lg'in Xayit (1 soat).

Hikoya Amir Temur yoshligi xususida. Ustozi bilan Temurbek suhbat jarayonida yoshlikdan qalbining buyukligining ma'lum bo'lishi. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Takrorlash (1 soat).

X bo'lim. ZUMRAD BAHOR

(15 soat, A1+: 6 soat)

94-mavzu. Bahor. Qudrat Hikmat (1 soat).

Bahor faslining uyg'onishi. Fasllar kelinchagi bo'lgan bahor tabiati. Ongli va ifodali o'qish.

95-mavzu. Bahor ta'rifida. Yusuf Xos Hojib (1 soat).

Bahor – yasharish, yangilanish fasli. Qushlar hayoti. Janubdan qushlarning uchib kelishi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

96-mavzu. Jala darakchisi. Habib Rahmat (1 soat).

Bahor faslidagi tabiat hodisalari va o'zgarishlari. Momaqalldiroq gumburlashi jala darakchisi ekanligi. Ongli va ifodali o'qish.

97-mavzu. Erka cholning o'rigi. Xudoyberdi To'xtaboyev (1 soat).

Bahor faslidagi yangilanishlar bolalar nigohida aks etishi. Hikoya mazmuni “Yaxshidan bog‘ qoladi” maqoli bilan uyg‘unlashtirilishi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Bahor nafasi. Ashurali Jo‘rayev (1 soat).

Ushbu publitsistik matnda bahor nafasining ko‘ngillarga orom bag‘ishlashi. Cheksiz zavq-shavq uyg‘otishi. Yashillikka burkangan o‘lkamizning o‘ziga xos kuylanish tarovati. Ongli va ifodali o‘qish.

Mavzu. May dasturxoni. Go‘zalbegim (1 soat).

She‘rda Ona tabiat tuhfası bo‘lgan meva va sabzavotlarni May ismli ari dasturxon yozib, mehmonga chaqirishi. Ahillik bilan xursandchilik bilan o‘tkazish. Ongli va ifodali o‘qish.

98-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

99-mavzu. Navro‘z – bahor bayrami. Muzayyana Alaviya (1 soat).

Bahordagi o‘zgarishlar. Navro‘zgacha va Navro‘z kunlari bajariladigan ishlar. Navro‘z – qadimiy bayramligi. Ongli va ifodali o‘qish.

100-mavzu. Bayram urf-odatları (1 soat).

Navro‘z bayramiga bog‘liq urf-odatlarga amal qilinishi. Milliy udumlar va qadriyatların e‘zozlanishi. Ongli va ifodali o‘qish.

101-mavzu. Yaxshidan bog‘ qoladi. Rivoyat (1 soat).

Mir Alisher va Sulton Husayn o‘rtasidagi suhbat. Alisherning ko‘chatlari. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo‘lish kerakligi. Milliy qadriyatlarni bilishligi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o‘qish.

102-mavzu. So‘zlovchi yomg‘ir. Abdurahmon Akbar (1 soat).

Yomg‘irga onasining maslahatlari. Tabiat hodisalari va ularning tabiatdagi ahamiyati. Ongli va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Laylak. Quddus Muhammadiy (1 soat).

She‘rda Laylakning tashqi ko‘rinishi. Yashash tarzi haqida. Ongli va ifodali o‘qish. She‘r mazmuniga doir topishmoqlar, tez aytishlar.

Mavzu. Bahor tabiati. Kavsar Turdiyeva (1 soat).

Tabitning jonlanishi. Kurtakların uyg‘onishi. Anhorların toshishi. Novdalarning nozi. Qushların qaytishi. Ongli va ifodali o‘qish.

103-104-mavzular. Danak ichidagi daraxt. Aziz Abdurazzoq (2 soat).

Ra‘nolarning hovlisi bog‘ga qiyoslanishi. Ra‘noning danak ichidagi daraxt bilan suhbatı. Danak ichidagi daraxtning ko‘karishi. Ona tabiat tuhfası. Dov-daraxtlar hayoti. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o‘qish.

105-mavzu. Bahor. Dilshod Rajab (1 soat).

Bahor tabiatining o‘zgaruvchanligi. Ongli va ifodali o‘qish.

Nazorat ishi (1 soat).

Takrorlash (1 soat).

106-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Ko‘klam tomoshalari. Habib Rahmat (1 soat).

Momoqaldiroqning gumburlab yomg'ir yog'ishi-yu qo'ziqorinlarning askar yanglig' yerni yorib chiqishi kishida ajib tuyg'ular uyg'otishining kuylanishi. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Qo'sh qaldirg'och. Safar Barnoyev (1 soat).

She'rda qaldirg'ochlar qo'sh bo'lib uchishi, ikkinchisi do'st-yoronlarini chaqirishi haqida. Ongli va ifodali o'qish mashqlari. Qo'shimcha savol va topshiriqlar.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

A1

ixcham matn asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna oladi;

ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat, masal, xalq qo'shiqlari, hikoya, she'rlarni o'qib tushunadi va mazmunini qayta so'zlab bera oladi;

yozma va bosma harflarni, ular ifodalaydigan tovushlarni to'g'ri talaffuz eta oladi;

maktab kutubxonasidan foydalana oladi.

A1+

asar qahramonlari, tabiat tasviri haqida kichik ijodiy matn yoza oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o'rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va ularga baho bera oladi;

matndagi so'z ma'nolarini izohlay oladi.

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

matndagi so'z birikmalarining ma'nolarini izohlay oladi.

XI bo'lim. YASHASIN TINCHLIK – BOR BO'LSIN DO'STLIK **(6 soat, A1+: 2 soat)**

107-mavzu. Tinchlik qushi haqida men o'qigan she'r. Shukur Sa'dulla (1 soat).

Tinchlik qushi – kabutarining urushni yengishi. Vatanga muhabbat tuyg'ulari. Ongli va ifodali o'qish.

108-mavzu. Shoir. Hakim Nazir (1 soat).

Shoir o'rtog'inikiga borishi. Shoiraning fazilatlari. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

109-mavzu. Do'stlik. Xudoyberdi To'xtaboyev (1 soat).

Abduqodir va Vovaning do'stlashishi. Xalqlar do'stligi – ulug' fazilat ekanligi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

110-mavzu. Mangu olov. Ravshan Isoqov (1 soat).

Xotira va qadrlash kuni qadriyatlari. Ajdodlar yodining o'chmasligi. Ongli va ifodali o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Tinchlik. Safar Barnoyev (1 soat).

She'rdagi yer yuzida urushni ko'zlayotgan yovuzlarni yo'qolishi. Tinchlik bo'lishi. Bolalar doimo tinchlik tarafdori ekanligi. Qo'shimcha savol va topshiriqlar. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Takrorlash(1 soat).

XII bo'lim. AJDODLARIMIZ – FAXRIMIZ **(10 soat, A1+: 4 soat)**

111-mavzu. To'maris. Hamdam Sodiqov (1 soat).

Elchining hikoyasi. Forslarning massagetlar yurtiga hujumi. To'maris – buyuk vatanparvar. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

112-mavzu. Najmiddin Kubro. Rivoyat (1 soat).

Bosqinchilarning Xorazmga yurishi. Dushmanlarning shayx Najmiddin Kubroga yozgan maktubi. Ertakdagi Najmiddin Kubroga xos hislatlar. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

113-mavzu. Sulton Mahmud va Beruniy. Rivoyat (1 soat).

Abu Rayxon Beruniyning bilimdonligining sinalishi. Beruniyning o'z taqdirini bashorat qilishi. Sulton Mahmudga Beruniyning donishmandlarcha bergan fikri. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

114-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Munosib avlodlar. Raim Farhodiy (1 soat).

Hayotimizning farovonligi. Yoshlarni ulug' maqsadlar bilan vatanga munosib farzandlar bo'lish yo'lidagi xatti-harakatlarning o'tmish avlodlardan meros ekanligining kuylanishi. Ongli va ifodali o'qish.

Mavzu. Anzur Piyoz. Olmos (1 soat).

Sadriddin Ayniy bilan G'.G'ulomning o'zaro do'stligining barcha avlodlarga namuna ekanligining hikoya qilinishi. Ongli va ifodali o'qish.

115-mavzu. Tanbeh. Xondamir (1 soat).

Alisher Navoiyning Mirak naqqoshga qo'llagan chorasi. Alisher Navoiy – yuksak ma'naviyat egasi ekanligi. Halollik va mehnatsevarlik sifatlariga ega bo'lishi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

116-mavzu. Navoiy bobomlar. Tursunboy Adashboyev (1 soat).

Navoiy – she'riyat sultoni. Alisher Navoiyning xislatlari. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

117-mavzu. Hidi, tili, mazasidan. Rivoyat (1 soat).

Boburshohning Hindistondagi ishlari. Boburshohning ko'ngli buzilishi. Vatanparvarlik, ona zaminning muqaddasligi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

118-mavzu. Rivoyat. *Naim Karimov* (1 soat).

Usmon Nosir – qatagʻon qurboni. Usmon Nosir otasining ruhi bilan suhbat. Otasining maslahati. Ongli va ifodali oʻqish.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Sinf dan tashqari oʻqish (1 soat).

Mavzu. Alisher Navoiy haqida matn yozish (1 soat).

Takrorlash (1 soat).

**XIII boʻlim. JAHON BOLALAR ADABIYOTI
(13 soat, A1+: 4 soat)**

119-120-mavzular. Bolalar gurungi. *H.K.Anderson* (2 soat).

Bolalar oʻrtasidagi munozara. Bolalar suhbatidan xulosa chiqarishlari. Kambagʻal bolaning orzu-umidlari. Odamlardagi yaxshi va yomon odatlar. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

121-mavzu. Bir xurmacha shavla. *Aka-uka Grimlar* (1 soat).

Kampirning sovgʻasi. Sehrli soʻzlarning unutilishi. Muomala odobi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

122-mavzu. Sinf dan tashqari oʻqish (1 soat).

A1+

***Mavzu. Toʻrt tilak. K.Ushinskiy* (1 soat).**

Bolalardagi orzu-armonlarning cheksizligining bola tomonidan fasllarga boʻlgan munosabat tarzida keltirilishi. Ongli va ifodali oʻqish.

***Mavzu. Yuvin doʻmbogʻim. Korney Chukovskiy* (1 soat)**

Sheʻrda bolaning iflos yurishi, undan barcha narsalar qochishi. Tozalik anjomlari uni majburlab tozalab qoʻyishi. Ongli va ifodali oʻqish.

123-124-mavzular. Rustam. *Faxri Erdinch* (2 soat).

Rustamning yollanib ishlashi. Otasi haqidagi gaplari. Rustam ishlab topgan pullarini sarflashi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

125-mavzu. Gulliverning sayohatlari. *Jonatan Svift* (1 soat).

Gulliverning kichik odamlar yurtiga tushishi va unda boʻlib oʻtgan sarguzashtlari. Odamchalarning Gulliverga boʻlgan munosabati. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

Nazorat ishi (1 soat).

126-mavzu. Jimjiloq. *Chingiz Aytmatov* (1 soat).

Jimjiloqning qutilishi. Boʻrining jazolanishi. Ochkoʻzlik va manmanlik illati. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali oʻqish.

A1+

Mavzu. Sinf dan tashqari oʻqish (1 soat).

***Mavzu. Yoz qayerga berkinadi. Boris Snegurenko* (1 soat)**

Qadimda Yoz hamisha yer yuzida boʻlishi. Bundan qishning qattiq xafaligi, taʻqib qilishi. Daraxt kurtaklari uni bagʻriga olib yashirishi va kurtaklari birin-ketin boʻrtib gullashi haqida. Ongli va ifodali oʻqish.

127-mavzu. Bolalar hayotidan lavhalar (1 soat).

O'quvchilar o'z hayotlari davomida bo'lgan qiziqarli va unutilmas voqea-hodisalarni eslashi. Og'zaki nutqning faolligini oshirish.

Takrorlash (1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

128-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

XIV bo'lim. YOZ – O'TADI SOZ

(11 soat, A1+: 6 soat)

129-mavzu. Yoz. Shukur Sa'dulla (1 soat).

Bolalar yozni sevishlari. Yoz tabiati. Unda pishadigan mevalar. Bo'sh vaqtlardan unumli foydalanish kerakligi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Yoz qo'shig'i. Olqor Damin (1 soat).

Yoz kelishi bilan bolalar oromgohlarga borishi. Maza qilib cho'milishlari va chiniqishlari haqida. She'r mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

130-mavzu. Non qayerdan keladi? Qambar O'taev (1 soat).

Nonni yetishtirishda kishilarning mehnati. Buvining hikoyasi orqali nonni va nonning ushog'ini to'kmaslik. Nonni qadrlash va uni asrab-avaylash. Ongli va ifodali o'qish.

131-mavzu. "Non rizq-ro'zimiz" amaliy mashg'uloti (1 soat).

Bu mashg'ulotda o'quvchilar nonning turlari, u haqida ma'lumotlarni kengaytirish uchun turli topshiriqlar asosida mustahkamlashi.

132-133-mavzular. Oydin kecha. Murod Xidir (2 soat).

Ikki do'stning sayohati. Ozod va Nosir tog' yo'lida turli jonivorlarga duch kelishi. Jonivorlarning xislatlari. Ozod va Nosirning xislatlari. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

134-mavzu. Bobomning sovg'asi. G'ayratiy (1 soat).

Obid do'sti Murod bilan sarguzashti. Bobosining nabirasiga sovg'asi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Buvimning uloqchalari. Sobit G'ofurov (1 soat).

Yozgi ta'til davomida bolalarning echki va uning uloqchalari bilan birgalikda o'tkazgan quvonchli kunlari. Ongli va ifodali o'qish.

135-mavzu. Nihollar nolasi. Xudoyberdi To'xtaboyev (1 soat).

Nihollarning nolasi. Ko'chat ekib, bog' qilishi. Matn mazmuniga doir maqollar. Ongli va ifodali o'qish.

136-mavzu. Suv bilan suhbat. Zafar Diyor (1 soat).

Suv – olamni yashnatishi. Ongli va ifodali o'qish. Qo'shimcha savol va topshiriqlar.

Nazorat ishi (1 soat).

137-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

Takrorlash (1 soat)

A1+

Mavzu. O‘n ikki aka-uka va o‘tinchi. Ertak (1 soat).

Mavzu. Sayohat qil sayohat. Shuhrat (1 soat).

Yoz kelganligi, dala-qirlarda buloq suvi xuddi oynadagidek musaffo ekanligi. Mevalar g‘arq pishganligi. Shu o‘lkaning yodgorlik shaharlariga sayohat qilishi to‘g‘risida.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya elementlari (*tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish*):

A1

ertak va she‘riy matnlarni tinglab tushuna oladi;
ularni ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez va bir daqiqada 30-35 ta so‘zni o‘qiy oladi;
o‘qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so‘zlarni topa oladi;

ularning mazmunini to‘liq yoki qisqartirib va darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab, fikrini og‘zaki bayon qila oladi;

maktab kutubxonasidan foydalana oladi;

kichik hajmdagi 5 ta she‘rni yoddan aytib bera oladi.

A1+

tabiat haqida kichik ijodiy matn yoza oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

matndagi so‘z va gaplarning ma‘nolarini tushuna oladi;

asar mazmunidan ta‘sirlana oladi;

xalq og‘zaki ijodi namunalarini (ertak, topishmoq, maqol, masal, tez aytishni) farqlay oladi;

o‘rganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi;

asar qahramonlariga munosabat bildiradi;

o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi, asar qahramonlariga munosabat bildiradi.

SINFDAN TASHQARI O‘QISH

(17 soat, A1+: 17 soat).

Sinfdan tashqari o‘qish o‘quv dasturi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish talab etiladi. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini

tarbiyalashning muhim omilidir.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari ikki haftada bir marta o'tkaziladi va o'qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi. Badiiy-adabiy asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsa, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan muallifning kitoblari, muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundariyasi va rasmlariga qarab asarning taqvimiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bolalarga ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish o'qish darslarining tub mohiyatini tashkil etadi.

Mavzularni o'rganish uchun – 137 soat (A1+: 68 soat)

Nazorat ishlari uchun – 18 soat

Takrorlash – 15 soat

Jami – 170 soat (A1+: 238 soat)

4-sinf bitiruvchi o'quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

mavjud axborot manbalaridan eshittirishlarni tinglab tushunadi va gapirib bera oladi;

o'z yoshiga mos kitoblarni, gazeta va jurnallarni tanlay oladi va kutubxonadan foydalana oladi;

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar (oddiy tabriknomalarni yoza oladi) bilan ishlay oladi.

A1+

axborot manbalardan (turli badiiy adabiyotlardan) oqilona foydalana oladi va ulardan xulosa chiqara oladi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

o'quv fanlarini o'rgana oladi va bir-biridan farqlay oladi;

o'z xatosini tushunib, tuzatishga harakat qiladi;

turli yo'nalishdagi (ertak, sarguzasht, hikoya va san'atga doir) kitoblarni muntazam o'qib-o'rganib boradi va bilimini oshiradi;

yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay oladi va yaxshi fazilatlarni o'zida aks ettirishga harakat qiladi.

A1+

o'zini nazorat qilishni biladi;

og'zaki va yozma matnlar mazmuniga to'g'ri baho bera oladi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

o'zining o'quvchilik burch va vazifalarini biladi va unga rioya qiladi;

sinfdan va oilada o'z o'rniga ega bo'ladi;

odobli bo'lishga harakat qiladi;

davlat ramzlarini biladi;
o'zidan kattalarni hurmat qiladi va kichiklarga izzatda bo'ladi;
badiiy asarlarda aks etgan qahramonlarning halol, vijdonli, jonkuyarligiga qarab xolis va jiddiy mulohaza yurita oladi;
maktabda va maktabdan tashqari tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etadi.

A1+

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga munosabat bildiradi.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

asarlarda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglay oladi, ulardan ta'sirlanib, go'zallik va ezgulikdan o'rnak olishga intiladi, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana oladi;

do'stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo'la oladi;

orasta kiyinadi;

yurish turishda kattalardan o'rnak oladi va kichiklarga o'rnak bo'la oladi;

o'z uyi, maktabi, turar mahallasini qadrlaydi va milliy bayramlarni biladi;

odob-axloq qoidalariga rioya qiladi.

A1+

ma'naviy va madaniy tadbirlarning mohiyatini tushuna oladi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

kun tartibiga rioya qiladi;

o'quv qurollarini saramjon saqlay oladi;

oilada nechta odam borligini biladi;

maktabga kelib ketadigan vaqtni biladi;

kundalik rejalarini tuza oladi;

mamlakatimizdagi bayram kunlarini biladi;

bir kunlik xarajatlarni hisoblay oladi.

A1+

isrof va tejankorlikning ma'nosini tushunadi va kundalik hayotda unga amal qiladi.

4-sinf bitiruvchi o'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

A1

Adabiy-nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*).

ixcham matn asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna oladi;

ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat, masal, xalq qo'shiqlari, hikoya, she'rlarni o'qib tushunadi va mazmunini qayta so'zlab bera oladi;

yozma va bosma harflarni, ular ifodalaydigan tovushlarni to'g'ri talaffuz eta oladi;

matnni gap ohangiga rioya qilgan holda aniq, ravon o'qiy oladi;

bir daqiqada 50-55 so'zni o'qiy oladi;

monologik va dialogik nutqda o'z fikrini aniq ifodalay oladi;

o'rganilgan mavzular doirasida 5-6 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi;

maktab kutubxonasidan foydalana oladi;

kichik hajmdagi 8-10 ta she'rni yoddan aytib bera oladi.

A1+

bir daqiqada 55-60 so'zni o'qiy oladi;

asar qahramonlari, tabiat tasviri haqida 7-8 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi;

kichik hajmdagi 10-12 ta she'rni yoddan aytib bera oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

matndagi so'z va gaplarning ma'nolarini tushuna oladi;

asar mazmunidan ta'sirlana oladi;

xalq og'zaki ijodi namunalarini (ertak, topishmoq, maqol, masal, tez aytishni) farqlay oladi;

o'rganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi;

asar qahramonlariga munosabat bildiradi;

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi, asar qahramonlariga munosabat bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 390-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida" gi PF-3431.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirli va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010- yil 1- iyuldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to'g'risida" gi 6/2/4/1-sonli qo'shma hay'at majlisi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012- yil 10- dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1875-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013- yil 8- maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 124-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 140-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-son qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2015 yil 28 iyundagi "Umumta'lim fanlarning o'qitilishidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan Boshlang'ich ta'lim yo'nflishi bo'yicha konsepsitasi" №4-sonli hay'at qarori.
11. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Sharq" nashriyot-matbaa konserni. 1999 yil, 7-maxsus son.
12. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi Ona tili, O'qish, Matematika, Atrofimizdagi olam, Tabiatshunoslik (1-4 sinflar). "Yangiyo'l Poligraph service". T.2010.

**Umumiy oʻrta taʼlimning Adabiyot fani oʻquvchilarda
kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan oʻquv dasturlarini
ishlab chiqish boʻyicha ijodiy guruhi**

T/r	Ismi va familiyasi	Ish joyi va lavozimi
1	Toʻxliiev Boqijon	Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti professori, fil.fan.dok.
2	Karimov Bahodir Nurmetovich	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti professori, fil.fan.dok.
3	Usmanova Komila Rahmonovna	Respublika taʼlim markazi bosh metodisti
4	Ahmedov Hoshimjon	Toshkent Davlat Texnika universiteti qoshidagi AL ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi
5	Ergasheva Aykumush Xushvaqtovna	Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 22- umumiy oʻrta taʼlim maktabining ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi
6	Turdieva Gulnoza Sayfullayevna	OʻzMU qoshidagi Zangiota ALning ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi
7	Nurmuxammadov Jamoliddin Shermuhammad oʻgʻli	Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va sanʼat ALning ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi
8	Gʻaffarova Talʼat	Qarshi DU “Maktabgacha va boshlangʻich taʼlim metodikasi” kafedrası professori
9	Yusupova Mohinur Ataboyevna	Respublika taʼlim markazi bosh metodisti
	Karimova Fotima Botirovna	Chilonzor tumani 281-maktab boshlangʻich sinf oʻqituvchisi
Ekspert guruhi		
1	Toshmirzaeva Sharofat Mirboboyevna	XTV tasarrufidagi Filologiya yoʻnalishidagi ixtisoslashgan davlat umumtaʼlim maktabining ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi
2	Abdusalomova Raʼno	OʻzDJTU qoshidagi 2-son ALning ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi
3	Muslimova Shahnoza Yerkinovna	Mirobod tumani 328-maktab boshlangʻich sinf oʻqituvchisi

3-§. MATEMATIKA FANI

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida Matematika fanini o'rganish bosqichlari

Ta'lim bosqichi	Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumiy o'rta ta'lim	Umumta'lim maktablarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari	A1	Matematika fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi
	Matematika fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari	A1+	Matematika fanini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi

Matematika o'quv fanining maqsad va vazifalari

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida matematika fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

O'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida matematika fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

O'quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko'nikmalar egallanishini ta'minlash;

inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish;

o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish;

fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Matematika o'quv fani bo'yicha umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari

1. Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya

A1

berilgan sonlarni va eng sodda kasrlarni o'qiydi, yozadi, taqqoslay oladi, tartibga solib, turli ko'rinishlarda tasvirlay oladi;

sodda sonli ifodaning qiymatini og'zaki va yozma hisoblay oladi;

sodda amaliy, matnli va mantiqiy masalalarni yecha oladi;

tekislik va fazodagi sodda geometrik figuralarni tasavvur qiladi, taniydi va tasvirlay oladi;

ob'ektlarni xossalari bo'yicha tartiblaydi va sodda kombinatsiyalar tuza oladi;

sodda amaliy holatlarda tayyor jadvallarga ma'lumotlar kirita oladi, eng sodda diagrammalar shaklida tasvirlay oladi.

A1+

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi;

bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

sodda amaliy vaziyatlarda kombinatorik va mantiqiy masalalarni yecha oladi;

elektron axborot manbalaridan turli ko'rinishdagi sodda matematik ma'lumotlarni izlab topadi, foydalana oladi.

2. Kognitiv kompetensiya (*shaxsning mustaqil ijodiy fikrlashi*)

A1

ma'lum matematik faktlar va sodda mantiqiy qonunlar asosida xulosa keltirib chiqara oladi, rost va yolg'on tasdiqlarni farqlay oladi;

zarur hollarda sodda hisoblash vositalarini qo'llay oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o'z faoliyatini to'g'rilay oladi;

matematikani o'rganish jarayonida o'zida ijobiy hissiyotlarni shakllantira oladi;

mustaqil ravishda o'z bilimlarini mustahkamlay oladi.

A1+

o'qituvchi bilan hamkorlikda o'quv va amaliy holatlarda maqsadni ifodalay oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda nostandart va qiziqarli masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o'z faoliyatini to'g'rilab oladi.

MATEMATIKA FANIDAN
O'QUV DASTURI
(1-4-SINFLAR)
UQTIRISH XATI

Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzdagi tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va tafakkurini kengaytiradi. Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limning Matematika fani o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi.

Boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

o'quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko'nikmalar egallanishini ta'minlash;

inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish;

o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish;

fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Amaliy-tajriba va sinov mashqlarida matematika darslarda kundalik faoliyatda shaxsiy, oilaviy va iqtisodiy vaziyatlarga, jumladan, tejamkorlikka, mehnatni yengillashtirishga va unumdorligini oshirishga, savdo-sotiq bilan bog'liq bo'lgan masalalar yechilishi lozim.

Ushbu o'quv dasturida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalar kiritilgan.

Shuningdek, me'yoriy hujjatlarni yuritishda tayanch va fanga oid kompetensiyalar quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi:

TK - tayanch kompetensiyalar

1. TK1 - kommunikativ kompetensiya
2. TK2 - axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3 - o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4 - ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5 - milliy va umummadaniy kompetensiya
6. TK6 - matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

FK - fanga oid kompetensiyalar

1. FK1 - matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya
2. FK2- kognetiv kompetensiya

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

matematikaga oid atamalarning ma'nosini tushunib, to'g'ri o'qiy olish;
so'z va gaplarni bog'lagan holda o'z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish;
fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
matematik matn ma'nosini qayta so'zlab bera olish;
matematik qoidalarni yoddan ayta olish.

matematikaga oid audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna olish, tegishli munosabat bildirish.

A1+

matematikaga oid audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna olish, mazmunini aytib bera olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

tavsiya etilgan media manbalardan axborotni izlab topa olish, zarur bo'lsa uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish;

diagrammalar, jadvallar, chizmalar ko'rinishida berilgan statistik ma'lumotlarga asoslanib, turli obyekt va hodisalarni taqqoslay olish.

uchta sonning o'rta arifmetigini topa olish.

axborotlarni statistik ma'lumotlar ko'rinishlarning bir turidan boshqa ko'rinishga o'tkaza olish.

A1+

media manbalardan axborotni izlab topa olish, zarur bo'lsa uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

o'quv masalasini (maqsadini) topa olish va ifodalay olish, qismlarga ajratish;
masala yechimiga yaqinlashish darajasini baholay olish va zarur hollarda o'z faoliyatini to'g'rilay olish;

sodda kundalik vaziyatlarda mavjud bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish;

o'qishga va yangi bilimlarni egallashga qiziqtirish;
yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa olish, ularni tuzatish hamda olingan natijalarni boshqalar foydalanishi uchun oson ko'rinishda taqdim etish;

A1+

masala yechish orqali real dunyodagi vaziyatlarga nisbatan o'zining ijobiy estetik-emotsional munosabatini shakllantirish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariga rioya qilish va guruhda ishlash;

muammo va tushunmovchiliklar ro'y bergan paytlarda o'zini tutishi to'g'risida to'g'ri qaror qabul qilish.

A1+

matematik qobiliyatini har bir insonning kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal qilish uchun ishlatish.

Milliy va umuminsoniy kompetensiya:

A1

zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimizning matematikaga qo'shgan hissalarini tasvirlab berish;

milliy bayramlarimizga oid sana va vaqtlarni bilish, ularni kundalik hayotda qo'llash;

jamoat joylaridagi odob-axloq qoidalari va an'analarni o'zlashtirish.

A1+

elementar hodisalarni matematik tilda ifodalash usullaridan foydalanish va bu usullar samarali ekanligini tushunish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuzish;

murakkab bo'lmagan hisoblashlarda hisoblash vositalardan va tayyor kompyuter dasturlardan foydalanish.

A1+

kundalik hayotda sodda iqtisodiy va amaliy masalalarni yechish.

Mazkur dasturda fanni chuqurlashtirilib o'qitiladigan 2-3-4-sinflar uchun mavzularga ajratilgan soatlar alohida ko'rsatilgan.

1-SINF

(165 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

matematikaga oid atamalarni to'g'ri talaffuz etish;

o'z fikrini aniq ifodalay olish;
matematikaga oid turli axborotlarni tinglab, ko'rib tushunish;
sodda matematik matn ma'nosini so'zlab bera olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

darslik va boshqa manbalardan foydalana olish;
ustunli, chiziqli va doiraviy diagrammalar, jadvallar, chizmalar ko'rinishida
berilgan statistik ma'lumotlarni o'qiy olish, tushunish va foydalana olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini (maqsadini) topa olish, ifodalay
olish, qismlarga ajrata olish;

o'qituvchi bilan birgalikda o'quv faoliyati natijasini tahlil qilish, yo'l
qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa olish va ularni tuzata olish;

masala yechish orqali ijtimoiy hayotdagi vaziyatlarga nisbatan o'zining ijobiy
munosabatini bildiradi olish;

o'qishga va yangi bilimlarni egallashga qiziqish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

boshqalar fikrini tinglab, tushuna olish va o'z fikrini himoya qila olish;
atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariga rioya qila
olish va guruhda ishlay olish;

guruhda ishlash paytida turli maxsus rollarni ijro eta olish;

muammo va tushunmovchiliklar ro'y bergan paytlarda o'zini tuta bilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

hodisalarni matematik tilda ifodalash usullaridan foydalana olish va bu usullar
samarali ekanligini tushuna olish;

milliy bayramlarimizga oid sana va vaqtlarni bilish, ularni kundalik hayotda
qo'llay olish;

zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimizning matematikaga qo'sh
gan hissalarini tushuna olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor
bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza olish;
murakkab bo'lmagan hisoblashlarda hisoblash vositalardan foydalana olish.

1-bo'lim. NARSALARNING TO'PLAMLARI.

***1 DAN 10 GACHA BO'LGAN SONLAR. 10 ICHIDA QO'SH ISH VA
AYIRISH AMALLARI.***

(45 soat)

1-2-mavzular. Narsalar va ularning xossalari. O'xshashlik va farqlanish (2
soat).

3-4-mavzular. Narsalarni o'lchamlari bo'yicha taqqoslash (2 soat).

5-6-mavzular. Narsalarning o'zaro joylashuvi (2 soat).

7-8-mavzular. Narsalarni xossalari bo'yicha to'plamlarga ajratish (2 soat).

9-10-mavzular. To'plamlarni tashkil qilgan narsalar soni bo'yicha taqqoslash (2 soat).

11-12-mavzular. 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarning atalishi (2 soat).

13-14-mavzular. Narsalar sanog'i va ketma-ketligi (2 soat).

15-16-mavzular. Katta, kichik, teng: (shuncha birlikka) katta, kichik tushunchalari (2 soat).

17-21-mavzular. 1 dan 5 gacha bo'lgan sonlarni raqamlash (5 soat).

22-23-mavzular. $=$, $+$, $-$ belgilaridan foydalanib natijalarni yozish (2 soat).

24-28-mavzular. 6 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni raqamlash (5 soat).

29-30-mavzular. 0 soni va raqami. 10 soni (2 soat).

31-mavzu. 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarni taqqoslash (1 soat).

32-33-mavzular. Vaqt tasavvurlari. Juft va toq sonlar (2 soat).

34-35-mavzular: Nuqta. To'g'ri chiziq kesmasi. Siniq chiziq va egri chiziq (2 soat).

36-37-mavzular. Qo'sh ish va ayirish amallarining ma'nosi (2 soat).

38-40-mavzular. Nol ishtirokida qo'sh ish va ayirish. Qo'sh ish va ayirishni bajarishning amaliy usullari (3 soat).

41-43-mavzular. Qo'sh ish va ayirish amallari komponentlarining nomlanishi (3 soat).

44-45-mavzular. Qo'sh ish bilan ayirish orasidagi munosabat. Qo'shishning o'rin almashtirish xossasi (2 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

narsalarning xossalari (masalan, narsalarning rangi, o'lchami, shakli, vazifasi) bo'yicha taqqoslay oladi va tartibga sola oladi;

berilgan obyektlarning berilgan xossaga qarab to'plamga tegishli yoki tegishli emasligini aniqlay oladi;

obyektlar to'plamidan berilgan xossaga ega bo'lgan bitta yoki bir nechtasini ajrata oladi;

berilgan narsalarni xossasiga ko'ra bir yoki bir nechta to'plamlarga ajrata oladi;

narsalar juftliklarini tuzib, to'plamlarni soni bo'yicha taqqoslay oladi va natijani "ko'proq", "kamroq", "qancha bo'lsa shuncha", "soni bir xil", "bir nechta ko'p", "bir nechta kam" so'zlari bilan ifodalay oladi.

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

0 dan 10 gacha bo'lgan nomanfiy butun sonlarni o'qiy oladi, yoza oladi, to'g'ri va teskari tartibda sanay oladi;

0 dan 10 gacha bo'lgan nomanfiy butun sonlarni O'qiy oladi, yoza oladi, taqqoslay oladi, tartibga sola oladi, modellarda ko'rsatib bera oladi;

0 dan 10 gacha nomanfiy butun sonlar ketma-ketligini tarkib topish qonuniyatini aniqlay oladi va berilgan yoki tanlangan qonuniyat asosida (sonni bir nechta birlikka oshirish-kamaytirish) ketma-ketlikni tuza oladi;

10 ichida qo'sh ish, ayirish amallarini og'zaki hamda yozma bajara oladi;

qo'sh ish va ayirish amallarining tarkibiy qismlarini aniqlay oladi va nomlay oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

o'rganilgan matematik tushunchalar va algoritmlarni O'quv jarayoni hamda kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi;

o'z fikrini ifodalay oladi, boshqalar fikrini tinglab, tushuna oladi.

2-bo'lim. 11 DAN 100 GACHA BO'LGAN SONLAR. GEOMETRIK SHAKLLAR (35 soat)

46-50-mavzular. 11 dan 20 gacha bo'lgan sonlarning atalishi. 100 gacha bo'lgan sonlarni taqqoslash (**5 soat**).

51-53-mavzular. 11 dan 20 gacha bo'lgan sonlarning o'nlik tarkibi (**3 soat**).

54-57-mavzular. Sonlarni o'nlikdan o'tib qo'sh ish va ayirish (**4 soat**).

58-60-mavzular. Hisoblashlarda qo'sh ish va ayirish jadvallaridan foydalanish (**3 soat**).

61-62-mavzular. Sonlarni qo'sh ish va ayirish yordamida taqqoslash (**2 soat**).

63-64-mavzular. Sonni bir nechta birlikka oshirish va kamaytirish (**2 soat**).

65-67-mavzular. Burchak turlari. Ko'pburchaklar (**3 soat**).

68-80-mavzular. 21 dan 100 gacha sonlarni o'qish va yozish. Ularning o'nlik tarkibi. O'nliklar bilan sanash (**13 soat**).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

0 dan 100 gacha bo'lgan nomanfiy butun sonlarni o'qiy oladi, yoza oladi, to'g'ri va teskari tartibda sanay oladi;

0 dan 100 gacha bo'lgan nomanfiy butun sonlarni taqqoslay oladi, tartibga sola oladi, modellarda ko'rsatib bera oladi;

0 dan 100 gacha nomanfiy butun sonlar ketma-ketligini tarkib topish qonuniyatini aniqlay oladi va berilgan yoki tanlangan qonuniyat asosida (sonni bir nechta birlikka oshirish-kamaytirish) ketma-ketlikni tuza oladi;

natijasi 100 ichida bo'lgan nomanfiy butun sonlar ustida qo'sh ish va ayirish amallarini og'zaki bajara oladi;

sonlarni qo'shish va ayirish jadvalaridan, arifmetik amallarning algoritmlaridan foydalangan holda 100 ichida nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallarni yozma bajara oladi;

burchaklarning asosiy turlarini (masalan, to'g'ri, o'tkir, o'tmas burchaklar) tasavvur qila oladi, solishtira oladi va tasvirlay oladi;

ko'pburchaklarni (masalan, uchburchak, to'rtburchak) tasavvur qila oladi, solishtira oladi va tasvirlay oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

o'z fikrini ifodalay oladi, boshqalar fikrini tinglab, tushuna oladi;

amaliy vaziyatlarda o'rganilgan matematik tushunchalar va algoritmlarni qo'llay oladi.

3-bo'lim. GEOMETRIK SHAKLLAR. MATNLI MASALALAR. **(25 soat)**

81-83-mavzular. Uzunlik va uning birligi: santimetr. Chizg'ich bilan tanishamiz **(3 soat)**.

84-87-mavzular. Kesmaning uzunligi va ikki nuqta orasidagi masofani 1 santimetr aniqlikda o'lchash va taqqoslash **(4 soat)**.

88-90-mavzular. Berilgan uzunlikdagi kesma yasash **(3 soat)**.

91-92-mavzular. To'rtburchak turlari **(2 soat)**.

93-96-mavzular. Masalalar yechishni o'rganamiz. Masalaning sharti va savoli. Sodda va tarkibli masalalar **(4 soat)**.

97-99-mavzular. Qo'shish va ayirish amallarining ma'nosiga oid matnli masalalar **(3 soat)**.

100-102-mavzular. "...taga oshirish", "...taga kamaytirish" tushunchalarga oid masalalar **(3 soat)**.

103-105-mavzular. Massa o'lchov birligi - kilogramm. Sig'im o'lchov birligi - litr **(3 soat)**.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

0 dan 100 gacha bo'lgan sonlarni o'qiy oladi, yoza oladi, to'g'ri va teskari tartibda sanay oladi;

0 dan 100 gacha bo'lgan sonlarni taqqoslay oladi, tartibga sola oladi, modellarda ko'rsatib bera oladi;

0 dan 100 gacha sonlar ketma-ketligini tarkib topish qonuniyatini aniqlay oladi va berilgan yoki tanlangan qonuniyat asosida (sonni bir nechta birlikka oshirish-kamaytirish) ketma-ketlikni tuza oladi;

natijasi 100 ichida bo'lgan nomanfiy butun sonlar ustida qo'sh ish va ayirish amallarini og'zaki bajara oladi;

sonlarni qo'sh ish va ayirish jadvallaridan, arifmetik amallarning algoritmlaridan foydalangan holda 100 ichida ikki xonali nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallarni yozma bajara oladi;

yassi (nuqta, kesma, burchak, to'g'ri to'rtburchak va kvadrat) figuralarni tasavvur qila oladi, taniy oladi va nomlay oladi;

real obyektlarni geometrik figuralar modellari bilan bog'lay oladi;

arifmetik amalda qatnashgan noma'lum tarkibiy qismini aniqlay oladi (masalan, $17 + \square = 29$; $21 - \square = 15$);

masaladagi vaziyatga oid ifodani, jumladan, noma'lumlarni o'z ichiga olgan ifodani aniqlay oladi va tuza oladi;

100 ichida sonlar ketma-ketligining tarkib topish qonuniyatini aniqlay oladi va berilgan yoki tanlangan qonuniyat asosida (sonni bir nechta birlikka oshirish-kamaytirish, sonni bir necha martaga oshirish-kamaytirish) ketma-ketlikni tuza oladi;

nomli kattaliklar (massa, sig'im)ni o'qiy oladi va yoza oladi.

miqdorlarga (massa, sig'im) oid kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni arifmetik usulda yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

o'rganilgan matematik tushunchalar va algoritmlarni o'quv va kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda o'quv va amaliy masaladagi maqsadni ifodalay oladi, o'z fikrini ifodalay oladi, boshqalar fikrini tinglab, tushuna oladi.

4-bo'lim. GEOMETRIK SHAKLLAR. MANTIQUIY TUSHUNCHALAR (20 soat)

106-109-mavzular. Narsaning oynadagi aksi. Simmetriya. Simmetrik figuralar (nuqtalar, kesmalar, ko'pburchaklar). Bir yoki bir nechta simmetriya o'qiga ega figuralarga misollar (**4 soat**).

110-112-mavzular. Narsaning shakli. Tushunchalar: bir xil shaklda, turli shaklda (**3 soat**).

113-118-mavzular. Sodda yassi va fazoviy shakllar (**6 soat**).

119-120-mavzular. Uzunlik birliklari – detsimetr, metr. Ular orasidagi munosabat (**2 soat**).

121-123-mavzular. Xossalriga asosan narsalar to'plamini bir nechta to'plamlarga ajratish. Mantiqiy turdagi sodda masalalar yechish (**3 soat**).

124-125-mavzular. Namuna bo'yicha ketma-ketlikni davom ettirish (**2 soat**).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

O'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

yassi (nuqta, siniq chiziq, egri chiziq, kesma, burchak, aylana, doira, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak va kvadrat,) va fazoviy (kub, shar) shakllarni tasavvur qila oladi, taniy oladi va nomlay oladi;

real obyektlarni geometrik figuralar modellari bilan bog'lay oladi;

nomli kattaliklar (uzunlik, masofa)ni o'qiy oladi va yoza oladi;

nomli kattaliklar (uzunlik, masofa) va ular orasidagi munosabatlardan (metr-detsimetr, detsimetr-santimetr, metr-santimetr) foydalanib, kattaliklarni o'qiy oladi va yoza oladi;

miqdorlarga (uzunlik, masofa) oid kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni arifmetik usulda (2 qadamli) yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

masalalar yechishda mantiqan to'g'ri fikr yurita oladi, mantiqiy noto'g'ri natijalarni aniqlay oladi, misol va qarshi misol tuza oladi;

o'quv masalasini qismlarga ajrata oladi.

5-bo'lim. SONLI IFODALAR. JADVALLAR. GEOMETRIK SHAKLLAR (33 soat)

126-128-mavzular. Sonli ifodalar (2 amalli) (3 soat).

129-131-mavzular. Tarkibli masalalar (3 soat).

132-134-mavzular. Qismlardan butunni, butundan bo'laklarni hosil qilish (3 soat).

135-136-mavzular. Jadval. Sodda jadvallarni o'qish (2 soat).

137-138-mavzular. Berilgan ma'lumotlar asosida jadval to'ldirish (2 soat).

139-146-mavzular. 100 dan bir va ikki xonali sonni ayirish. Uchinchi qo'shiluvchini topish (8 soat).

147-148-mavzular. Namuna bo'yicha ketma-ketlikni davom ettirish (2 soat).

149-151-mavzular. Mantiqiy tushunchalar: "barchasi", "ayrimlari", "...dan tashqari barchasi", "har qanday", "ixtiyoriy", ".....lardan biri", "barchasidan biri" va ularning ma'nolari (3 soat).

152-154-mavzular. Berilgan uzunlikdagi kesmani yasash. Uzunlik va masofalarni o'lchash va chamalash (3 soat).

155-156-mavzular. Turli shakllar yasash. Bo'laklardan shakllar hosil qilish (2 soat).

157-158-mavzular. Qiziqarli masalalar yechish (2 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

2 arifmetik amalli (qavssiz) sonli ifodaning qiymatini hisoblay oladi;

o'lchamlari ma'lum bo'lgan yassi geometrik figuralarni (kesma, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat) chizg'ichdan foydalanib yasay oladi, ularni qog'oz, sim, plastilin va h.k. lar yordamida modellastira oladi;

real obyektlarni geometrik figuralar modellari bilan bog'lay oladi;

geometrik obyektlar o'lchamlarini, masofalarni chamalay oladi;

murakkab bo'lmagan jadvallar ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni o'qiy oladi;

murakkab bo'lmagan tayyor jadvallarni to'ldira oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni sodda o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'rganilayotgan matematik holatlarni tahlil qila oladi va shu asosida mulohazalar ketma-ketligini tuza oladi.

O'tilganlarni bir tizimga solish va umumlashtirish (7 soat)

Mavzularni O'rganish uchun - 158 soat

Takrorlash uchun - 7 soat

Jami - 165 soat

2-SINF

(170 soat, A1+: 204 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

matematikaga oid atamalarning ma'nosini tushunib to'g'ri o'qiy olish;

so'z va gaplarni bog'lagan holda o'z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish;

fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;

matematik matn ma'nosini qayta so'zlab bera olish;

matematik qoidalarni ifodali ayta olish.

matematikaga oid audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna olish va tegishli munosabat bildira olish.

A1+

matematikaga oid audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna olish va mazmunini tushuntira olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

tavsiya etilgan manbalardan axborotni izlab topa olish, zarur bo'lsa uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish;

diagrammalar, jadvallar, chizmalar ko'rinishida berilgan statistik ma'lumotlarga asoslanib turli obyekt va hodisalarni taqqoslay olish;

statistik ma'lumotlarning ko'rinishlarning bir turdan boshqa ko'rinishga o'tkaza olish.

A1+

manbalardan axborotni izlab topa olish, uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini (maqsadini) topa olish, ifodalay olish va qismlarga ajrata olish;

o'quv faoliyat natijasini tahlil qila olish, yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa olish, ularni tuzata olish;

o'qituvchi bilan birgalikda olingan natijalarni boshqalar foydalanishi uchun oson ko'rinishda taqdim eta olish;

kundalik vaziyatlarda mavjud bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish;

o'qish va yangi bilimlarni egallashga qiziqqa olish.

A1+

masala yechish orqali real dunyodagi vaziyatlarga nisbatan o'zining ijobiy estetik-emotsional munosabatini shakllantira olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariga rioya qila olish va guruhda ishlay olish;

muammo va tushunmovchiliklar ro'y bergan paytlarda o'zini tutishi to'g'risida to'g'ri qaror qabul qila olish.

A1+

matematika har bir insonning kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal qilish vositasi ekanligini tushunish

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1

jamoat joylaridagi odob-axloq qoidalari va an'analarni o'zlashtirish.

sodda kundalik hodisalarni matematik tilda ifodalash usullaridan foydalana olish.

A1+

sodda real hodisalarni matematik tilda ifodalash usullarining samarali ekanligini tushuna olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza olish;

murakkab bo'lmagan hisoblashlarda hisoblash vositalardan va tayyor kompyuter dasturlaridan foydalana olish;

o'rganilgan matematik usullardan kundalik vaziyatlarda mehnatni yengillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, qulay shart-sharoitga olib kelish maqsadida foydalana olish.

A1+

o'rganilgan matematik usullardan kundalik vaziyatlarda mehnatni yengillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, qulay shart-sharoitga olib kelish maqsadida samarali foydalana olish.

1-sinfda o'tilgan materialni takrorlash va umumlashtirish

(10 soat, A1+: 12 soat)

1-2-mavzular. Yig'indi va qoldiqni topishga doir sodda misollar **(2 soat)**.

3-5-mavzular. Qiymati bir xil bo'lgan misollar **(2 soat)**.

6-7-mavzular. Qo'shish va ayirishni tekshirish **(2 soat)**.

8-10-mavzular. To'g'ri burchak. To'g'ri va to'g'rimas burchaklar. Ko'pburchak perimetri **(3 soat)**.

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish **(A1+: 2 soat)**.

Nazorat ishi (1 soat).

1-bo'lim. SONLAR VA HISOBLASHLAR. 100 ICHIDA O'NLIKDAN O'TIB QO'SHISH VA AYIRISH (35 soat, A1+: 42 soat)

11-12-mavzular. Sonlar o'qi va uning modellari. **(2 soat)**

13-15-mavzular: 100 ichida sonlarni xonadan o'tib qo'shish usullari **(3 soat)**.

16-18-mavzular. Sodda va tarkibli masalalarni yechish **(3 soat)**.

19-22-mavzular. Ikki xonali sonlarning o'nli tarkibi. Sonlarni qo'shishning ustun usuli **(4 soat)**.

23-24-mavzular. Namuna bo'yicha ketma-ketlikni davom ettirish **(2 soat)**.

25-27-mavzular. Kundalik hayotda uchraydigan koordinatalar sistemasining modellari **(3 soat)**.

28-29-mavzular. 100 ichida sonlarni xonadan o'tib ayirishning yozma usuli **(2 soat)**.

30-32-mavzular. Sonlarni ayirishning ustuncha usuli **(3 soat)**.

33-34-mavzular. Ayirmani topishga doir tarkibli masalalar **(2 soat)**.

35-37-mavzular. Vaqt birliklari: soat, minut. Vaqt, masofa va tezlikni topishga (hisoblashga) oid sodda masalalar **(3 soat)**.

38-mavzu. Oddiy shakllarni murakkab shaklga aylantirish va aksincha **(1 soat)**.

39-42-mavzular. Kvadrat (to'g'ri to'rtburchak), to'g'ri to'rtburchakning qarama-qarshi tomonlarining xossalari **(4 soat)**.

43-44-mavzular. Qo'shish va ayirish amallarining tarkibiy qismlari va natijalari orasidagi o'zaro bog'lanish. Noma'lum tarkibiy qismni topish. Axborotni saqlash **(2 soat)**.

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish **(A1+: 2 soat)**.

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (**A1+: 1 soat**).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (**A1+: 2 soat**).

Nostandart va qiziqarli masalani yechish (**A1+: 1 soat**).

Reja tuzish mashqlari (**A1+: 1 soat**).

Nazorat ishi (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

natijasi 100 ichida bo'lgan bir va ikki xonali sonlar ustida qo'shish va ayirish amallarini og'zaki bajara oladi;

sonlarni qo'shish va ayirish jadvallaridan, arifmetik amallarning algoritmlaridan foydalangan holda 100 ichida ikkita ikki xonali sonlar ustida arifmetik amallarni yozma bajara oladi;

arifmetik amalda qatnashgan noma'lum tarkibiy qismini aniqlay oladi (masalan, $17 + \square = 29$, $17 + x = 29$; $21 \square 6 = 15$);

100 ichida sonlar ketma-ketligining tarkib topish qonuniyatini aniqlay oladi va berilgan yoki tanlangan qonuniyat asosida (sonni bir nechta birlikka oshirish-kamaytirish, sonni bir necha marta oshirish-kamaytirish) ketma-ketlikni tuza oladi;

kundalik hayotda uchraydigan koordinatalar sistemalarini real obyektlar (masalan teatrdagi tomoshabin, samolyotdagi yo'lovchi, shaxmat figurasi) joylashuvini aniqlashda qo'llay oladi;

ko'pburchak perimetrini hisoblay oladi;

vaqt birliklari orasidagi bog'lanishlarni qo'llab, kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni arifmetik usulda yecha oladi.

A1+

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi;

bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

sodda amaliy vaziyatlarda kombinatorik va mantiqiy masalalarni yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetentsiyasi):

A1

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

masalalar yechishda mantiqan to'g'ri fikr yurita oladi, mantiqiy noto'g'ri natijalarni aniqlay oladi, misol va qarshi misol tuza oladi;

olingan bilimlar asosida matematik ma'lumotlardan xulosa keltirib chiqara oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

2-bo'lim. SONLI IFODALAR. TENGLAMALAR. GEOMETRIK SHAKLLAR VA KATTALIKLAR (12 soat, A1+: 14 soat)

45-46-mavzular. 2, 3 amalli sonli ifodalar (qavsli va qavssiz). Algoritm tuzishga doir sodda masalalar (**2 soat**).

47-48-mavzular. Bir nechta teng (bir xil) qo'sh iluvchilar yig'indisi. Sonni bir necha teng qo'sh iluvchilar yig'indisi shaklida ifodalash (**2 soat**).

49-50-mavzular. Sodda va tarkibli masalalarni yechish (**2 soat**).

51-52-mavzular. Harfli ifodalar. Geometrik shakllarni belgilash (**2 soat**).

53-55-mavzular. Tenglama. Tenglamalarni tanlash usuli bilan yechish (**3 soat**).

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish (**A1+: 1 soat**).

Nostandart va qiziqarli masala yechish (**A1+: 1 soat**).

Nazorat ishi (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

nomli kattaliklar (massa, vaqt, masofa, uzunlik, yuza, tezlik) va ular orasidagi munosabatlardan (kilogramm-gramm, soat-minut, minut-sekund, kilometr-metr, metr-detsimetr, detsimetr-santimetr, metr-santimetr, santimetr-millimetr) foydalanib, kattaliklarni o'qiy va yoza oladi;

nomli kattaliklar (uzunlik, yuz, hajm, massa, vaqt, masofa, tezlik) ning o'lchov birliklarini biladi va ularning biridan ikkinchisiga O'ta oladi.

A1+

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

o'z fikrini ifodalay oladi, boshqalar fikrini tinglab, tushuna oladi;

rost va yolg'on tasdiqlarni farqlay oladi, sodda mantiqiy qonunlar asosida xulosa keltirib chiqara oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv va kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza oladi, fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish ko'nikmalarini kundalik hayotida qo'llay oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

3-bo'lim. KO'PAYTIRISH VA BO'LISH. GEOMETRIK SHAKLLAR VA KATTALIKLAR (23 soat, A1+: 28 soat)

56-57-mavzular. Ko'paytirish. Ko'paytirishning ma'nosi. Ko'paytirish amali komponentalarining nomlanishi **(2soat)**.

58-60-mavzular. 0, 1 va 10 ishtirokida ko'paytirish va bo'lish **(3soat)**.

61-62-mavzular. Har bir amal komponentlari va natijalari orasida o'zaro bog'lanishlar. 10 ishtirokida ko'paytirish va bo'lish **(2 soat)**.

63-64-mavzular. Qavsli va qavssiz ifodalar. Qavsli va qavssiz ifodalarda amallarni bajarish tartibi **(2 soat)**.

65-mavzu. Teng qismlarga bo'lish. To'plamning qismi **(1 soat)**.

66-67-mavzular. Bo'lish. Bo'lish amalining ma'nosi. **(2 soat)**.

68-69-mavzular. Ko'paytirish va bo'lish amallari orasidagi munosabat **(2 soat)**

70-71-mavzular. Ko'paytirish va bo'lish amali bilan yechiladigan masalalar **(2 soat)**.

72-mavzu. Masalalarni jadval usulida yechish **(1 soat)**.

73-74-mavzular. Noma'lum ko'paytiruvchini, noma'lum bo'linuvchini topish **(2 soat)**.

75-76-mavzular. Millimetr **(2 soat)**.

Axborotlarni grafik va jadval ko'rinishida ifodalash.

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish **(A1+: 1 soat)**.

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish **(A1+: 1 soat)**.

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish **(A1+: 1 soat)**.

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish **(A1+: 1 soat)**.

Reja tuzish mashqlari **(A1+: 1 soat)**.

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

juft va toq sonlarni; sodda hollarda sonning bo'luvchilarini va karralilarini aniqlay oladi;

santimetr-millimetr munosabatidan foydalanib, kattaliklarni o'qiy oladi va yoza oladi;

miqdorlar (uzunlik, yo'l) orasidagi bog'lanishlarni qo'llab, kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni arifmetik usulda yecha oladi;

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlar, o'qqa nisbatan simmetriyaga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalarni yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

arifmetik amallarni bajarish va kattaliklar bilan ishlashda o'qituvchi hamkorligida ijodiy fikrini ifodalay oladi;

boshqalar fikrini tinglab, tushuna oladi, matematik faktlar va sodda mantiqiy qonunlar asosida xulosa keltirib chiqara oladi;

kundalik holatlarda o'rganilgan matematik tushunchalar va algoritmlarni qo'llay oladi;

olingan bilimlar asosida matematik ma'lumotlardan xulosa keltirib chiqara oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

4-bo'lim. JADVAL ICHIDA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH **(25 soat, A1+: 30soat)**

77-79-mavzular. 2 sonini bir xonali songa ko'paytirish. 2 ga bo'lish va bo'linmada 2 chiqadigan songa bo'lish. Ko'paytirish va bo'lishga oid sodda masalalarni yechish **(3 soat)**.

80-86-mavzular. 3 (4, 5, 6, 7, 8, 9) sonini bir xonali songa ko'paytirish **(7 soat)**.

87-88-mavzular. Tarkibli masalalar **(2 soat)**.

89-92-mavzular. 3, 4, 5, 6 sonlariga bo'lish **(4 soat)**.

93-95-mavzular. 7, 8, 9 sonlariga bo'lish **(3 soat)**.

96-97-mavzular. 100 ishtirokida ko'paytirish va bo'lish **(2 soat)**.

98-99-mavzular. Bir xonali sonlarni ko'paytirish jadvali va bo'lishning shunga mos hollari. Axborotni jadval ko'rinishida ifodalash **(2 soat)**.

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish **(A1+: 1 soat)**.

Elektron axborot manbalaridan turli ko‘rinishdagi sodda matematik ma‘lumotlarni izlab topish mashqlari (**A1+: 1soat**).

Bo‘yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (**A1+: 1 soat**).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (**A1+: 1 soat**).

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish (**A1+: 1 soat**).

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

10, 100 sonlari ishtirokida ko‘paytirish va bo‘lish amallarini bajara oladi;
bir xonali nomanfiy butun sonlar ustida ko‘paytirish va ikki xonali sonni bir xonali songa bo‘lish amallarini og‘zaki bajara oladi;

3 ta elementdan tashkil topgan to‘plamda juftliklar sonini topa oladi;

A1+

bo‘yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalarni yecha oladi.

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarini yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

olingan bilimlar va sodda mantiqiy qonunlar asosida xulosa keltirib chiqara oladi;

o‘rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o‘quv va kundalik vaziyatlarda qo‘llay oladi;

matematik ma‘lumotlardan xulosa keltirib chiqara oladi, aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza oladi.

A1+

o‘rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo‘llay oladi.

5-bo‘lim. ULUSHLAR. GEOMETRIK SHAKLLAR VA KATTALIKLAR (25 soat, A1+: 30 soat)

100-101-mavzular. Sonning ulushi. Sonning ulushini so‘zlar yoki sonlar yordamida tasvirlash (**2 soat**).

102-104-mavzular. Berilgan shartlarga asosan (arifmetik amallar soni va turi, kattaliklar orasidagi bog‘lanish) masala tuzish va yechish. Axborot bilan ishlash (3 soat).

105-107-mavzular. Muammoli (shartida ma’lumotlar to‘liqmas yoki ortiqcha bo‘lgan) masalalar (3 soat).

108-109-mavzular. Geometrik shakllar: kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak, doira va ular bilan bog‘liq kattaliklar (2 soat).

110-111-mavzular. Shakllarni taqqoslash va bo‘yash. Bo‘laklari bo‘yicha shaklni yasash va bo‘laklarga ajratish (2 soat).

112-116-mavzular. Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, bo‘linma va qoldiqni chizmada ifodalash (5 soat).

117-119-mavzular. To‘g‘ri to‘rtburchak va kvadratning yuzi. Yuz birliklari: kvadrat santimetr. Belgilanishi – kv.sm (sm^2) (3 soat).

120-122-mavzular. Katakli qog‘ozda chizilgan shakllar yuzlari (3 soat).

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish (A1+: 1 soat).

Elektron axborot manbalaridan turli ko‘rinishdagi sodda matematik ma’lumotlarni izlab topish mashqlari (A1+: 1soat).

Bo‘yashlar, qoplashlar, qirgishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (A1+: 1 soat).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (A1+: 1 soat).

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish (A1+: 1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o‘rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

murakkab bo‘lmagan kasr son sonning ulushi, to‘plamning qismi ekanligini tushuna oladi, so‘zlar yoki sonlar yordamida tasvirlay oladi;

atrof–borliqdagi sodda obyektlarni geometrik figuralar modellari bilan bog‘lay oladi, asosiy kattaliklarini o‘lchay oladi;

bo‘linuvchi, bo‘luvchi, bo‘linma va qoldiqni chizmada ifodalay oladi;

to‘g‘ri to‘rtburchak (kvadrat)ning yuzini hisoblay oladi;

yassi geometrik figuralar yuzlarini kvadratlar bilan qoplash yo‘li bilan baholay oladi;

miqdorlar (narx-navo, massa, vaqt, uzunlik, yo‘l, yuz) orasidagi bog‘lanishlarni qo‘llay oladi.

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarni yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar va algoritmlarni kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi;

olingan bilimlar asosida matematik ma'lumotlardan xulosa keltirib chiqara oladi, aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

6-bo'lim. UCH XONALI SONLARNI RAQAMLASH. MINGLIK. (30 soat, A1+: 36soat)

123-124-mavzular. Uch xonali sonlarni raqamlash (2 soat).

125-126-mavzular. Yuzlik, o'nlik va birliklardan sonlarni hosil qilish (2 soat).

127-128-mavzular. Uch xonali sonni xona birliklari yig'indisi ko'rinishida tasvirlash (2 soat).

129-130-mavzular. Uch xonali sonlarni taqqoslash (2 soat).

131-132-mavzular. Ming ichida og'zaki va yozma raqamlash (2 soat).

133-134-mavzular. Minglik, yuzlik, o'nlik va birliklar orasidagi munosabat (2 soat).

135-140-mavzular. 1000 soni. 1000 ichida qo'shish va ayirishning hisoblash usullari (6 soat).

141-143-mavzular. Doira va aylana. Aylana markazi, radiusi, diametri. Sirkul .(3 soat).

144-145-mavzular. Ikkita aylananing tekislikda o'zaro joylashuvi (2 soat).

146-147-mavzular. Tarkibli masalalar (2soat).

148-149-mavzular. Sonning qismini va qismiga ko'ra sonni topish. Qismlarni taqqoslash. Geometrik shakllarni qismlarga bo'lishga doir masalalar (2 soat).

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga oid qiziqarli, nostandart masalalar yechish (A1+: 2 soat).

Elektron axborot manbalaridan turli ko'rinishdagi sodda matematik mahlumotlarni izlab topish mashqlari (A1+: 1 soat).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (A1+: 2 soat).

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish (A1+: 1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).
Xatolar ustida ishlash (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

yassi (aylana, doira) figuralarni tasavvur qila oladi, nomlay oladi;

ikki aylana ikki nuqtada kesishishini, umumiy markaz yoki radius ega ekanligini, bir aylana ikkinchisining ichida joylashganligini, kesishmasligini tasavvur qila oladi, taniy oladi va tasvirlay oladi;

noldan 1000 gacha bo'lgan nomanfiy butun sonlarni o'qiy oladi, yoza oladi, taqqoslay oladi, tartibga soladi, modellarda tasvirlay oladi;

sonlarni qo'sh ish jadvalidan, arifmetik amallarning algoritmlaridan foydalangan holda 1000 ichida nomanfiy butun sonlar ustida qo'sh ish va ayirish amallarini og'zaki va yozma bajara oladi.

A1+

1000 ichida sonlarni og'zaki va yozma raqamlash va uch xonali sonni xona birliklari yig'indisi ko'rinishida tasvirlay oladi.

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarini yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni sodda o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni sodda kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi;

olingan bilimlar asosida matematik mahlumotlardan xulosa keltirib chiqara oladi, aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza oladi, fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish ko'nikmalarini kundalik hayotida qo'llay oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

Takrorlash. Materialni tizimga solish va umumlashtirish.

(9 soat, A1+: 11 soat)

Nazorat ishi (1 soat)

Mavzularni o'rganish uchun- 149 soat (A1+: 181 soat)

Nazorat ishlari uchun- 8 soat (A1+: 8 soat)
Xatolar ustida ishlash uchun- 4 soat (A1+: 4 soat)
Takrorlash uchun- 9 soat (A1+: 11 soat)
Jami- 170 soat (A1+: 204 soat)

3-SINF
(170 soat, A1+: 238 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:
Kommunikativ kompetensiya:

A1

o'rganilgan atamalarining ma'nosini tushunib, to'g'ri o'qiy olish;
so'z va gaplarni bog'lagan holda o'z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish;
sodda fikrlarni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
matematikaga oid audiomatnni tinglab, videotasvirlarni ko'rib tushunish, tegishli munosabat bildiray olish;
matematik matn ma'nosini qayta so'zlab bera olish, matematik qoidalarni yoddan ifodali ayta olish.

A1+

Mavzuga oid ma'lumotlarni muvaffaqiyatli qilishda o'zaro muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qila olish, matematik masalani hamkorlikda yechishda jamoada samarali ishlay olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

tavsiya etilgan media manbalardan axborotni izlab topa olish, zarur bo'lsa uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish;
axborotlarni statistik ma'lumotlarning ko'rinishlarning bir turidan (ustunli, chiziqli va doiraviy diagrammalar, jadvallar, chizmalar) boshqa ko'rinishga o'tkaza olish;
uchta sonning o'rta arifmetigini topish.

A1+

mustaqil ravishda turli media manbalardan axborotni izlab topa olish, dastlabki tahlil qila olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

o'rganilgan mavzu doirasida o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini (maqsadini) topa olish va ifodalay olish;
o'rganilgan mavzu doirasida o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini qismlarga ajrata olish;
o'qituvchi bilan birgalikda masala yechimiga yaqinlashish darajasini baholay olish va zarur hollarda o'z faoliyatini to'g'irlay olish;
o'qituvchi bilan birgalikda o'quv faoliyat natijasini tahlil qila olish;

o'qituvchi bilan birgalikda yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa olish, ularni tuzata olish;

o'rganilgan mavzu doirasida xususiy misollar va kuzatishlar tahlili asosida obyektlar umumiy hossalarni aniqlay olish;

mavjud bilim va ko'nikmalarni kundalik vaziyatga qo'llay olish;

ijtimoiy hayotdagi vaziyatlarga nisbatan o'zining ijobiy estetik-emotsional munosabatini shakllantira olish;

o'qishga va yangi bilimlarni egallashga qiziqqa olish.

A1+

o'zini o'zi ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantira olish, matematikani mustaqil o'qib-o'rgana olish, o'z xatti-harakatini baholay olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

boshqalar fikrini tinglab, tushuna olish, agar bu fikrni noto'g'ri deb hisoblasa, o'z fikrini himoya qila olish;

atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariga rioya qila olish va guruhda ishlay olish;

muammo va tushunmovchiliklar ro'y bergan paytlarda o'zini tutishi to'g'risida to'g'ri qaror qabul qila olish;

jamoada turli rollarni ijro eta olish.

A1+

jamoada ishlash jarayonida guruh a'zolarining fikrlarini jamlay olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1

kundalik hayotda o'rganilgan matematik usullarni tanlay olish;

zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz haqida ma'lumot bera olish.

A1+

milliy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylashda matematikaning o'rnini tushunish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza oladi;

kundalik faoliyatida turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy oladi;

murakkab bo'lmagan hisoblashlarda, o'rganilgan tenglamani yechishda, o'rganilgan turdagi yassi va fazoviy geometrik figuralarni tasvirlashda hisoblash va axborot-texnologiyalar vositalardan foydalana oladi.

A1+

sodda savdo-sotiq munosabatlarda, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llay oladi;

matematikaga oid yangi bilimlarni izlashda axborot-kommunikatsiya vositalari, internet saytlaridan foydalana oladi.

2-sinfda o‘tilgan materialni takrorlash va umumlashtirish (10 soat, A1+: 14 soat)

1-5-mavzular. Ikki xonali sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish va ayirish. Qavsli ifodalar. Qo‘shishning guruhlash qonuni. Sonidan yig‘indini ayirish. Sonidan ayirmani ayirish (**5 soat**).

6-10-mavzular. 0 va 1 sonlari ishtirokida ko‘paytirish. 0 ni songa, sonni 1 ga va sonni o‘zini o‘ziga bo‘lish. Ko‘paytuvchilarning o‘rinlarini almashtirish xossasi. Ko‘paytirish va bo‘lish jadvallari. Sonning qismini, qismi bo‘yicha sonning o‘zini topish (**5 soat**).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (**A1+: 2 soat**).

Bo‘yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (**A1+: 2 soat**).

1-bo‘lim. JADVALDAN TASHQARI KO‘PAYTIRISH VA BO‘LISH

(35 soat, A1+: 49 soat)

11-13-mavzular. Uch va to‘rt xonali sonlarni raqamlash. To‘rt xonali sonni xona birliklari yig‘indisi ko‘rinishida tasvirlash (**3 soat**).

14-15-mavzular. To‘rt xonali sonlarni taqqoslash (**2 soat**).

16-17-mavzular. Matematika tarixidan lavhalar: sonlar va raqamlar qanday paydo bo‘lgan? (**2 soat**).

18-19-mavzular. Natijasi 1000 ichida bo‘lgan bir, ikki va uch xonali sonlar ustida qo‘shish va ayirishni og‘zaki bajarish (**2 soat**).

20-21-mavzular. 1000 ichida arifmetik amallarni bajarish usullari (**2 soat**).

22-23-mavzular. Tarkibli masalalar (**2 soat**).

Nazorat ishi (1 soat).

24-25-mavzular. Sodda hollarda sonning bo‘luvchilarini va karralilarini aniqlash (**2 soat**).

26-27-mavzular. To‘g‘ri chiziq tushunchasi. To‘g‘ri chiziqni belgilash. Chizg‘ich yordamida bitta nuqtadan, ikkita nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq chizish (**2 soat**).

28-30-mavzular. Kesma, nur, to‘g‘ri chiziq (**3 soat**).

31-32-mavzular. Katakli daftarda o‘qqa nisbatan simmetrik figuralarni yasash (**2 soat**).

33-34-mavzular. Kesmani teng bo‘laklarga bo‘lish (**2 soat**).

35-36-mavzular. Doirani teng bo‘laklarga bo‘lish (**2 soat**).

37-38-mavzular. Qavsli ifodalarda amallarni bajarish tartibi (**2 soat**).

39-41-mavzular. Qoldiqli bo‘lish. Bo‘linishga arifmetik va matnli masalalar (**3 soat**).

42-mavzu. Rebuslar. Boshqotirmalar (**1 soat**).

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish (**A1+: 4 soat**).

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (**A1+: 2 soat**).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (**A1+: 4 soat**).

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish (**A1+: 2 soat**).

Reja tuzish mashqlari (**A1+: 2 soat**).

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat) .

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

sonlarni qo'shish va ko'paytirish jadvalaridan, arifmetik amallarning algoritmlaridan foydalangan holda 1000 ichida nomanfiy butun sonlar ustida qo'shish va ayirish amallarini og'zaki va yozma bajara oladi;

sodda hollarda sonning bo'luvchilari va kararlilarini hamda sonning tarkibini aniqlay oladi;

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarini yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv hamda kundalik amaliy vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o'z faoliyatini to'g'rilab oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

**2-bo'lim. 10 000 ICHIDA RAQAMLASH. SONLI IFODALAR.
TENGLAMALAR.
(35 soat, A1+: 49 soat)**

43-45-mavzular. Nollar bilan tugaydigan sonlarni bir xonali songa og'zaki ko'paytirish va bo'lish usullari (**3 soat**).

46-48-mavzular. Pozitsion va nopozitsion sanoq sistemalari. Rim raqamlari (3 soat).

49-51-mavzular. Ogʻzaki koʻpaytirish va boʻlish usullari. Yechimlarni kalkulyator yordamida tekshirish (3 soat).

52-53-mavzular. Uch xonali sonni bir xonali va ikki xonali songa yozma koʻpaytirish usullari (2 soat).

54-55-mavzular. Uch xonali sonni bir xonali songa yozma boʻlish usullari (2 soat).

56-57-mavzular. Toʻrt xonali sonni bir xonali songa yozma boʻlish usullari (2 soat).

58-60-mavzular. Koʻpaytirishni boʻlish bilan, boʻlishni koʻpaytirish bilan tekshirish. Qoldiqli boʻlishni tekshirish (3 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

61-62-mavzular. Ikki oʻzgaruvchili ifodalarning qiymatini berilgan sonlar orqali topish (2 soat).

63-64- mavzular. Ifodaning qiymatini topish (2 soat).

65-67- mavzular. Tenglamalarni yechish (3 soat).

68-69-mavzular. Tengsizlik. Katta emas va kichik emas ($\leq$ va $\geq$) belgilari (2 soat).

70-72-mavzular. Bir nechta yechimli va yechimga ega boʻlmagan masalalar. Masalalar yechish (3 soat).

73-74-mavzular. Vaqt oʻlchovi birliklari: soat, minut, soniya, Ular orasidagi munosabatlar: $1 \text{ soat} = 60 \text{ daq}$, $1 \text{ daq} = 60 \text{ s}$, $1 \text{ sutka} = 24 \text{ soat}$, $1 \text{ asr} = 100 \text{ yil}$, $1 \text{ yil} = 12 \text{ oy}$ (2 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

oʻrganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

rim raqamlarini oʻqiy oladi, yoza oladi, taniydi va foydalana oladi;

2-3 arifmetik amalli (qavsli, qavssiz) sonli ifodaning qiymatini hisoblay oladi;

$a + b$, $a - b$, $a \cdot b$, $a : b$ koʻrinishdagi ikki oʻzgaruvchili ifodalarning qiymatini berilgan sonlar orqali topa oladi;

$x \cdot 4 = 140$, $x : 9 = 53$, $595 : x = 7$ koʻrinishdagi tenglamalarni tanlash usuli bilan, berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi oʻzaro munosabat asosida yecha oladi;

miqdorlar (narx-navo, massa, vaqt, uzunlik, yuz) orasidagi bogʻlanishlarni qoʻllab, kundalik hayot bilan bogʻliq boʻlgan masalalarni arifmetik usulda yecha oladi;

burchaklarning asosiy turlarini (to'g'ri, o'tkir, o'tmas burchaklar) tasavvur qila oladi, solishtiradi va tasvirlay oladi.

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarini yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa oladi, ularni tuzata oladi;

matematik mulohazalarni og'zaki va yozma tarzda ifodalay oladi;

masalalar yechishda mantiqan to'g'ri fikr yurita oladi, mantiqiy noto'g'ri natijalarni aniqlay oladi, misol va qarshi misol tuza oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv va kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o'z faoliyatini to'g'rilab oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

3-bo'lim. SODDA (MAXRAJI 2, 3, 4, 5, 6, 8, 10, 12)

BO'LGAN KASRLAR. KATTALIKLAR.

(35 soat, A1+: 49 soat)

75-77-mavzular. Kasr. Maxraji 2, 4, 8 bo'lgan kasrlar tushunchasi. Maxraji 2, 4, 8 bo'lgan teng kasrlar. Matnli masalalar **(3 soat)**.

78-80-mavzular. Maxraji 3, 6, 12 bo'lgan kasr tushunchasi. Maxraji 2, 4, 8 bo'lgan teng kasrlar. Matnli masalalar **(3 soat)**.

81-83-mavzular. Maxraji 2, 4, 8 bo'lgan kasrlar tengligi. Maxraji 2, 4, 8 bo'lgan teng kasrlar. Matnli masalalar **(3 soat)**.

84-86-mavzular. Maxraji 3, 4, 5, 6, 8, 12 bo'lgan kasrlarni yarim ulush bilan taqqoslash **(2 soat)**.

87-89-mavzular. Surati bir xil sodda kasrlarni taqqoslash va tartiblash **(3 soat)**.

90-92-mavzular. Bir xil maxrajli sodda kasrlarni taqqoslash va tartiblash **(3 soat)**.

93-95-mavzular. Bir xil maxrajli sodda kasrlarni qo'shish va ayirish **(3 soat)**.

96-98-mavzular. Maxrajli karrali bo'lgan sodda kasrlarni bir xil maxrajga keltirish **(3 soat)**.

99-101-mavzular. Maxrajleri karrali bo'lgan sodda kasrlarni qo'shish va ayirish (3 soat).

102-103-mavzular. Aralash son tushunchasi. Miqdorlarni aralash son ko'rinishda ifodalash (3 soat).

104-107-mavzular. Ikki qadamli masalalar (4 soat).

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish. (A1+: 3 soat).

Elektron axborot manbalaridan turli ko'rinishdagi sodda matematik ma'lumotlarni izlab topish mashqlari (A1+: 3 soat).

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (A1+: 2 soat).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (A1+: 3 soat).

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish (A1+: 3 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

murakkab bo'lmagan (maxraji 2, 3, 4, 5, 6, 8, 10, 12 va 100 ga teng bo'lgan) kasr son sonning ulushi, to'planning qismi yoki sonlar o'qidagi nuqta ekanligini tushuna oladi hamda kasr sonni so'zlar, sonlar yoki modellar yordamida tasvirlay oladi; ular ustida qo'shish va ayirish amallarini bajara oladi;

o'nli kasrlarni $1,2\text{ m} = 12\text{ dm}$, $2,5\text{ sm} = 25\text{ mm}$ ko'rinishda ifodalay oladi;

miqdorlar (narx-navo, massa, vaqt, uzunlik, yo'l, yuz, tezlik) orasidagi bog'lanishlarni qo'llab, kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni arifmetik usulda (2-3 qadamli, jumladan, sodda proporsiyalar yordamida) yecha oladi.

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarni yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi;

o'rganilgan matematik holatlarni tahlil qila oladi va shu asosida mulohazalar ketma-ketligini tuza oladi va uni baholay oladi;

dunyo va boshqa fanlardagi bog'lanishlarni matematik tilda ifodalash usullaridan foydalana oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o'z faoliyatini to'g'rilab oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

4-bo'lim. O'NLI KASR. MAXRAJI 10 VA 100 BO'LGAN SODDA O'NLI KASRLAR (15 soat, A1+: 21 soat)

108-110-mavzular. O'nli kasr. Maxraji 10 bo'lgan o'nli kasr tushunchasi. Matnli masalalar (3 soat).

111-113-mavzular. Maxraji 100 bo'lgan o'nli kasr tushunchasi. Matnli masalalar (3 soat).

114-116-mavzular. Maxraji 10 bo'lgan o'nli kasrlarni taqqoslash va tartiblash (3 soat).

117-118-mavzular. Maxraji 10 va 100 bo'lgan o'nli kasrlarni qo'shish va ayirish (2 soat).

119-120-mavzular. Masalalarni arifmetik usulda yechish (2 soat).

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish (A1+: 1 soat).

Elektron axborot manbalaridan turli ko'rinishdagi sodda matematik ma'lumotlarni izlab topish mashqlari (A1+: 1 soat).

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (A1+: 1 soat).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (A1+: 1 soat).

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish (A1+: 2 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

sodda (maxraji 10 va 100 bo'lgan kasr son ko'rinishda ifodalanadigan) o'nli kasr songa o'tkaza oladi, bunday o'nlik kasrlarni so'zlar, kasrlar yoki modellar

yordamida tasvirlay oladi, ular ustida qo'sh ish, ayirish arifmetik amallarni bajara oladi;

sodda (maxraji 10 va 100 bo'lgan kasr son ko'rinishda ifodalanadigan) o'nli kasrlar qatnashgan 2 arifmetik amalli (qavslil va qavssiz) sonli ifodaning qiymatini hisoblay oladi;

miqdorlar (narx-navo, massa, uzunlik) orasidagi bog'lanishlarni qo'llab, kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni arifmetik usulda (2-3 qadamli) yecha oladi;

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarni yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o'z faoliyatini to'g'rilay oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

5-bo'lim. IFODALAR. KATTALIKLAR. O'LCHASHLAR.

(30 soat, A1+: 42 soat)

121-124 -mavzular. Harfiy ifodalarga misol va masalalar yechish **(4 soat).**

125-127-mavzular. Tenglamaga olib kelinadigan masalalarni yechish **(3 soat).**

128-129- mavzular. Rost va yolg'on mulohazalarga misollar **(2 soat).**

130-131-mavzular. Parallel va perpendikulyar to'g'ri chiziqlar **(2 soat).**

132-133-mavzular. Uzunlik va masofa o'lchov birliklari va ular orasidagi munosabatlar **(2 soat).**

134-135-mavzular. Yuz o'lchov birliklari va ular orasidagi munosabatlar **(2 soat).**

136-138-mavzular. Vaqt o'lchov birliklari va ular orasidagi munosabatlar. Kalendar **(3 soat).**

139-140-mavzular. Burchak turlari. Yoyliq burchak **(2 soat).**

141-143-mavzular. Burchak gradusi. 30, 45, 60, 90 gradusli burchaklarni transportir yordamida o'lchash. Soat millari **(3 soat).**

144-146-mavzular. Shakllarni burish. Burchak simmetriyasi (3 soat).

147-148-mavzular. Massa o'lchov birliklari va ular orasidagi munosabatlar (2 soat).

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish (A1+: 3 soat).

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (A1+: 3 soat).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (A1+: 3 soat).

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish (A1+: 3 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

Takrorlash (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

A1

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

arifmetik amalda qatnashgan noma'lum tarkibiy qismini aniqlay oladi;

sodda vaziyatga oid harfiy ifodani, jumladan, noma'lumlarni o'z ichiga olgan ifodani aniqlay oladi va tuza oladi;

miqdorlar (narx-navo, massa, vaqt, uzunlik, yo'l, yuz, tezlik) orasidagi bog'lanishlarni qo'llab, kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni arifmetik usulda (2-3 qadamli) yecha oladi;

nomli kattaliklar (massa, vaqt, uzunlik, yuza, tezlik) va ular orasidagi munosabatlardan (kilogramm-gramm, soat-minut, minut-soniya, kilometr-metr, metr-detsimetr, detsimetr-santimetr, metr-santimetr, santimetr-millimetr) foydalanib, kattaliklarni o'qiy oladi va yoza oladi;

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarini yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

mantiqiy bog'lovchilar va kvantorlar yordamida mulohazalarni tuza oladi va ularning rost-yolg'onligini asoslab bera oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o'z faoliyatini to'g'rilab oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

Takrorlash. Materialni tizimga solish va umumlashtirish

(9 soat, A1+: 14 soat)

Nazorat ishi (1 soat)

Mavzularni o'rganish uchun - 148 soat (A1+: 216 soat)

Nazorat ishlari uchun - 8 soat (A1+: 8 soat)

Xatolar ustida ishlash uchun - 5 soat (A1+: 5 soat)

Takrorlash uchun - 9 soat (A1+: 9 soat)

Jami - 170 soat (A1+: 238 soat)

4-SINF

(170 soat, A1+: 238 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

o'rganilgan atamalarning ma'nosini tushunib, to'g'ri o'qiy olish;
so'z va gaplarni bog'lagan holda o'z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish;
fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;

matematikaga oid audio matnni tinglab, videotasvirlarni ko'rib tushunish, tegishli munosabat bildirib olish;

matematik matn ma'nosini qayta so'zlab bera olish, matematik qoidalarni yoddan ifodali ayta olish.

A1+

Mavzuga oid ma'lumotlarni muhokama qilishda o'zaro muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qila olish, matematik masalani hamkorlikda yechishda jamoada samarali ishlay olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

tavsiya etilgan media manbalardan axborotni izlab topa olish, zarur bo'lsa uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish;

ustunli, chiziqli va doiraviy diagrammalar, jadvallar, chizmalar ko'rinishida berilgan statistik ma'lumotlarga asoslanib, turli obyekt va hodisalarni taqqoslay olish;

axborotlarni statistik ma'lumotlarning ko'rinishlarning bir turidan (ustunli, chiziqli va doiraviy diagrammalar, jadvallar, chizmalar) boshqa ko'rinishga o'tkaza olish;

uchta sonning o'rta arifmetigini topish.

A1+

mustaqil ravishda turli media manbalardan axborotni izlab topa olish, dastlabki tahlil qila olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini (maqsadini) topa olish va ifodalay olish;

o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini qismlarga ajrata olish;

o'qituvchi bilan birgalikda masala yechimiga yaqinlashish darajasini baholay olish va zarur hollarda o'z faoliyatini to'g'irlay qila olish;

o'qituvchi bilan birgalikda o'quv faoliyat natijasini tahlil qila olish;

o'qituvchi bilan birgalikda yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa olish, ularni tuzata olish;

xususi misollar va kuzatishlar tahlili asosida obyektlar umumiy hossalarni aniqlay olish;

mavjud bilim va ko'nikmalarni kundalik vaziyatga qo'llay olish;

ijtimoiy hayotdagi vaziyatlarga nisbatan o'zining ijobiy estetik-emotsional munosabatini shakllantira olish;

o'qishga va yangi bilimlarni egallashga qiziqтира olish.

A1+

o'zini o'zi ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantira olish, kamolotga intila olish, matematikani mustaqil o'qib-o'rgana olish, o'z xatti-harakatini baholay olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

boshqalar fikrini tinglab, tushuna olish, agar bu fikrni noto'g'ri deb hisoblasa, o'z fikrini himoya qila olish;

atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariga rioya qila olish va guruhda ishlay olish;

muammo va tushunmovchiliklar ro'y bergan paytlarda o'zining tutishi to'g'risida to'g'ri qaror qabul qila olish;

guruhda ishlash paytida turli maxsus rollarni ijro eta olish.

A1+

umumiy masalani yechish uchun guruh faoliyati boshqara olish va guruh a'zolarining fikrlarini jamlab, umumiy fikrni bayon qila olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1

kundalik hayotda matematik usullar samarali ekanligini tushuna olish;

zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz haqida ma'lumot bera olish.

A1+

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylashda matematikaning o'rnini beqiyos ekanligini tushuna olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza oladi;
kundalik faoliyatida turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy oladi;
murakkab bo'lmagan hisoblashlarda, o'rganilgan tenglamani yechishda, o'rganilgan turdagi yassi va fazoviy geometrik figuralarni tasvirlashda hisoblash vositalardan va tayyor kompyuter dasturlardan foydalana oladi.

A1+

sodda savdo-sotiq munosabatlarda, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llay oladi;
matematikaga oid yangi bilimlarni izlashda axborot-kommunikatsiya vositalari, internet saytlaridan foydalana oladi.

3-sinfda o'tilgan materiallarni takrorlash va umumlashtirish (5 soat, A1+: 7 soat)

1-2-mavzular. 1000 ichida raqamlashga oid misol va masalalar **(2 soat)**.

3-5-mavzular. Bir xonali songa ko'paytirish yoki bo'lishni o'z ichiga olgan tarkibli masalalar. Tengsizliklarni tanlash usuli bilan yechish. Ikki usulda yechiladigan masalalar **(3 soat)**.

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish **(A1+: 1 soat)**.

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish **(A1+: 1soat)**.

1-bo'lim. 1 DAN 1 000 000 GACHA BO'LGAN SONLAR. RAQAMLASH. KATTALIKLAR (20 soat, A1+: 28 soat)

6-8-mavzular. Birlar, minglar sinfi. Birlar va minglar sinfida I, II, III xonalar **(3 soat)**.

9-11-mavzular. Million ichida arifmetik amallar. Ko'p xonali sonlarni taqqoslash **(3 soat)**.

12-13-mavzular. Sonlarni yozishda raqamning o'rin qiymati. Pozitsion va nopozitsion sanoq sistemalari. Rim raqamlari **(2 soat)**.

14-16-mavzular. Sonni uning xona qo'sh iluvchilarining yig'indisi ko'rinishida ifodalash **(3 soat)**.

17-20- mavzular. Sodda fazoviy shakllar **(4 soat)**.

21- mavzu. Ma'lumotlarni grafik ko'rinishida tasvirlash **(1 soat)**.

22-23-mavzular. Qirqma shakllar: buklanadigan ko'pburchaklar. Bir xil qismlardan tuzilgan har xil shakllar (**2 soat**).

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish (**A1+: 2 soat**).

Elektron axborot manbalaridan turli ko'rinishdagi sodda matematik ma'lumotlarni izlab topish mashqlari (**A1+: 2 soat**).

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (**A1+: 2 soat**).

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish (**A1+: 2 soat**).

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

0 dan 1000 000 gacha bo'lgan nomanfiy butun sonlarni o'qiy oladi, yoza oladi, taqqoslay oladi, tartibga soladi, modellarda tasvirlay oladi;

sonlarni qo'shish va ko'paytirish jadvallaridan, arifmetik amallarning algoritmlaridan foydalangan holda 1 000 000 ichida nomanfiy butun sonlar ustida qo'shish va ayirish amallarini og'zaki va yozma bajara oladi;

fazoviy (parallelepiped, kub, shar) figuralarni tasavvur qila oladi, taniydi va nomlay oladi;

real obyektlarni geometrik figuralar modellari bilan bog'lay oladi;

fazoviy figuralarni ularning tekislikdagi ko'rinishlari bilan bog'lay oladi.

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarni yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o'z faoliyatini to'g'rilab oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

**2-bo'lim. TENGLAMALAR. KATTALIKLAR.
GEOMETRIK SHAKLLAR
(20 soat, A1+: 28 soat)**

24-mavzu. Qo'sh ishning o'rin almashtirish va guruhlash xossasi (1 soat).

25-mavzu. Natijani tekshirish usullari (1 soat).

26-27-mavzular. Tenglamalarni yechish (2 soat).

28-29- mavzular. Tengsizliklar (2 soat).

30-mavzu. Miqdorlarni qo'sh ish va ayirish (1 soat).

31-32-mavzular. O'rta arifmetikni topishga doir masalalar yechish (2 soat).

33-mavzu. Massa birliklari: gramm, kilogramm, tonna (1 soat).

34-36-mavzular. Ikkilik sanoq sistemasi. Axborot o'lchov birligi (bit, bayt, kilobayt) (3 soat).

37-mavzu. Geometrik mazmundagi amaliy masalalar (1 soat).

38-39-mavzular. Mantiq elementlari (2 soat).

40-41-mavzular. Blok-sxema ko'rinishda berilgan masalalar (2 soat).

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish (A1+: 2 soat).

Elektron axborot manbalaridan turli ko'rinishdagi sodda matematik ma'lumotlarni izlab topish mashqlari (A1+: 2soat).

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (A1+: 2 soat).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (A1+: 2 soat).

Reja tuzish mashqlari (A1+: 2 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

sonlarni qo'sh ish va ko'paytirish jadvallaridan, arifmetik amallarning algoritmlaridan foydalangan holda 1 000 000 ichida nomanfiy butun sonlar ustida qo'sh ish va ayirish amallarini og'zaki va yozma bajara oladi;

$6 \cdot x = 426 + 120$, $x : 18 = 270 - 50$, $360 : x = 630 : 7$ ko'rinishidagi tenglamalarni yecha oladi;

arifmetik amalda qatnashgan noma'lum tarkibiy qismini aniqlay oladi; o'rganilgan turlardagi tengsizliklarni yecha oladi;

murakkab bo'lmagan ko'rinishlarda berilgan ma'lumotlarni o'qiy oladi; atrof-
borliqdagi sodda obyektlarni geometrik figuralar modellari bilan bog'lay oladi,
ayrim elementlarini o'lchay oladi va chamalay oladi;

ikki-uch sonning o'rta arifmetigini topa oladi.

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha
oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va
matnli masalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarni yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv
vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni kundalik
vaziyatlarda qo'llay oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda o'quv va amaliy holatlarda maqsadni ifodalay
oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq
vaziyatlarda qo'llay oladi.

3-bo'lim. MILLION ICHIDA SONLARNI KO'PAYTIRISH VA BO'LISH (35 soat, A1+: 49 soat)

42-43-mavzular. Bo'lish va ko'paytirish amali bilan yechiladigan masalalar
(2 soat).

44-45-mavzular. Ko'paytuvchilar va ko'paytma; bo'linuvchi, bo'luvchi va
bo'linma orasidagi o'zaro bog'lanishlar (2 soat).

46-50-mavzular. Tenglamalarni yechish. Tenglamalarga olib kelinadigan
masalalar yechish (5 soat).

51-52-mavzular. Ko'paytirishning o'rin almashtirish, guruhlash va taqsimot
xossalari. Ularni hisoblarda qo'llash (2 soat)

53-55-mavzular. Bir xil ko'paytuvchilarni sonning darajasi ko'rinishda
ifodalash (3 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

56-59-mavzular. 10; 100; 1000 ga ko'paytirish va bo'lish. Masshtab (4 soat).

60-62-mavzular. Kattaliklar orasidagi bog'lanishlarga oid masalalar.
Formulalar (3 soat).

63-65-mavzular. Shkalalar (3 soat).

66-67-mavzular. Sonli ifodalarning qiymatini hisoblash (2 soat).

68-69-mavzular. Miqdorlarni (kattaliklarni) bir va ikki xonali songa ko'paytirish va bo'lish (2 soat).

70-72-mavzular. Amaliy masalalar yechish. O'rtacha tezlikni topishga doir masalalar (3 soat).

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish (A1+: 2 soat).

Elektron axborot manbalaridan turli ko'rinishdagi sodda matematik ma'lumotlarni izlab topish mashqlari (A1+: 2soat).

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (A1+: 2 soat).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (A1+: 3 soat).

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish (A1+: 3 soat).

Reja tuzish mashqlari (A1+: 2 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

$6 \cdot x = 426 + 120$, $x : 18 = 270 - 50$, $360 : x = 630 : 7$ ko'rinishidagi tenglamalarni komponentlar va amallar natijalari orasidagi bog'lanishlar asosida yecha oladi;

bir-biriga nisbatan hamohang hamda qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatga doir 2-4 amalli masalalar, proporsional bo'lishga doir masalalar, (munosabat usullari, algebraik usullari, birlikka to'g'ri keltirish usuli, birlikka teskari keltirish usuli) orqali to'rtinchi proporsionalni topishga doir masalalar, ikki ayirma bo'yicha noma'lum sonni topishga doir masalalar, sonning ulushini va ulushi bo'yicha sonni topishga, vaqt, tezlik, tekis harakatda bosib o'tilgan yo'l;

narx, miqdor, baho kabi kattaliklar orasidagi bog'lanishlarga oid masalalarni yecha oladi.

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalaroni yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi;

masalalar yechishda mantiqan to'g'ri fikr yurita oladi, mantiqiy noto'g'ri natijalarni aniqlay oladi, misol va qarshi misol tuza oladi;

o'rganilayotgan matematik holatlarni tahlil qila oladi va shu asosida mulohazalar ketma-ketligini tuza oladi va uni baholay oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

4-bo'lim. KASRLAR (30 soat, A1+: 42 soat)

73-75-mavzular. Maxraji 2, 3, 4, 5, 6, 8, 10, 12 yoki 100 bo'lgan kasrlar. Kasrlarni hosil qilish. Sonli nurda birlik kesma (**5 soat**).

76-78-mavzular. Sonning kasrini (bo'lagini) topish. Sonni kasrdan topish. Kasrlarni taqqoslash (**3 soat**).

79-81-mavzular. Bir xil maxrajli kasrlarni qo'shish va ayirish (**3 soat**).

82-84-mavzular. O'nli kasrni to'g'ri kasr ko'rinishda ifodalash (**3 soat**).

85-87-mavzular. O'nli kasrlarni qo'shish va ayirish (**3 soat**).

88-89-mavzular. O'nli kasrlarni 10 ga, 100 ga ko'paytirish (**2 soat**).

90-92-mavzular. O'nli kasrlarni butun songa ko'paytirish (**3 soat**).

93-95-mavzular. O'nli kasrlarni 10 ga, 100 ga bo'lish. O'nli kasrlarni natural songa bo'lish (**3 soat**).

96-98-mavzular. Tarmoqlanuvchi algoritmlar (**1 soat**).

99-100 -mavzular. To'plamlar kesishmasi. Venn diagrammasi (**2 soat**).

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish (**A1+: 3 soat**).

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (**A1+: 2 soat**).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (**A1+: 3 soat**).

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish (**A1+: 2 soat**).

Reja tuzish mashqlari (**A1+: 2 soat**).

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

sodda (maxraji 10 va 100 bo'lgan kasr son ko'rinishda ifodalanadigan) o'nli kasr songa o'tkaza oladi, bunday o'nlik kasrlarni so'zlar, kasrlar yoki modellar yordamida tasvirlay oladi; ular ustida qo'shish, ayirish arifmetik amallarni bajara oladi;

sodda (maxraji 10 va 100 bo'lgan kasr son ko'rinishda ifodalanadigan) o'nli kasrlar qatnashgan 2 arifmetik amalli (qavsli va qavssiz) sonli ifodaning qiymatini hisoblay oladi;

miqdorlar (narx-navo, massa, uzunlik) orasidagi bog'lanishlarni qo'llab, kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni arifmetik usulda (2-3 qadamli) yecha oladi;

berilgan ikkita to'plamlar uchun birinchi element birinchi to'plamga, ikkinchi element ikkinchi to'plamga tegishli bo'lgan juftliklarni aniqlay oladi va sonini topa oladi;

3-5 ta elementdan tashkil topgan to'plamda juftliklar sonini topa oladi;

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarini yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda o'quv va amaliy holatlarda maqsadni ifodalay oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

5-bo'lim. KOORDINATA TO'RINI TUZISH. FAZOVIIY SHAKLLAR **(20 soat, A1+: 28 soat)**

101-103-mavzular. Koordinata burchagi. Grafikli ma'lumotlar **(3 soat)**.

104-106-mavzular. Nuqta koordinatasi **(3 soat)**.

107-109-mavzular. Ko'pyoq. To'g'ri burchakli parallelepiped **(3 soat)**.

110-112-mavzular. Fazoviy shakllar. Kub va uning elementlari **(3 soat)**.

113-114-mavzular. Tasvirlarda ko'ringan va yashiringan elementlarni aniqlash. Chizmada parallelepiped (kub)ning elementlarni bo'yash **(2 soat)**.

115-118-mavzular. Figuralarning yuzini topishga oid masalalar **(4 soat)**.

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish **(A1+: 2 soat)**.

Elektron axborot manbalaridan turli ko'rinishdagi sodda matematik ma'lumotlarni izlab topish mashqlari **(A1+: 1 soat)**.

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish (**A1+: 1 soat**).

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish (**A1+: 1 soat**).

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish (**A1+: 2 soat**).

Reja tuzish mashqlari (**A1+: 1 soat**).

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

kundalik hayotda uchraydigan koordinatalar sistemalarini real obyektlar (masalan, teatrdagi tomoshabin, samolyotdagi yo'lovchi, shaxmat figurasi) joylashuvini aniqlashda qo'llay oladi;

A (2;3) ko'rinishdagi belgilarni o'qiy oladi va yoza oladi;

fazoviy figuralarni (parallelepiped (kub) va uning elementlari (uchlari, qirralari, yoqlari)) tasavvur qila oladi, taniy oladi va nomlay oladi;

real obyektlarni geometrik figuralar modellari bilan bog'lay oladi;

eng sodda holatlarda simmetriya hossalari bilan foydalanib, geometrik figuralarni sharhlay oladi va bir-biri bilan solishtira oladi;

fazoviy figuralarni ularning tekislikdagi ko'rinishlari bilan bog'lay oladi;

masalani tahlil qila oladi, kattaliklar orasidagi munosabatlarni o'rnatadi, masala sharti va savoli orasidagi bog'liqlikni topa oladi, masalani yechish uchun amallar sonini va bajarish tartibini aniqlay oladi, zarur bo'lgan amallarni tanlay oladi va tanlash sababini tushuntira oladi;

masala yechishda modellashtirishni qo'llay oladi.

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarni yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda masalani yechish uchun tuzilgan reja asosida ishlay oladi.

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

**6-bo'lim. MA'LUMOTLARNI GRAFIK, DIAGRAMMA,
JADVALLAR KO'RINISHDA IFODALASH
(30 soat, A1+: 42 soat)**

119-121- mavzular. Grafik ko'rinishdagi obyektlar ustida ishlash.

Sodda grafiklar, diagrammalar, jadvallar **(3 soat)**.

122-124-mavzular. Ma'lumotlarni ifodalash **(3 soat)**.

125-127-mavzular. Axborotlarni jadval ko'rinishda tasvirlash. Grafik ko'rinishdagi axborotlar bilan ishlash **(3 soat)**.

128-130-mavzular. Yuzi 1 kv.m (m^2), 1 kv. dm (dm^2), 1 kv.sm (sm^2), 1 kv. mm (mm^2) ga teng bo'lgan shakllarni yasash. Axborotlarni kodlash va dekodlash **(3 soat)**.

131-132-mavzular. Simmetrik shakllar. Simmetriya o'qlarini topish **(2 soat)**.

133-134-mavzular. Ko'pyoq modellari va ularning elementlari **(2 soat)**.

135-137-mavzular. Sonli tenglik va tengsizliklarga oid masalalar yechish **(3 soat)**.

138-140-mavzular. Reja tuzish. Ish tartibini muhokama qilish. Algoritm tuzish bosqichlari **(3 soat)**.

141-142-mavzular. Shaklni berilgan qismlarga bo'lish **(2 soat)**.

143-146-mavzular Qiziqarli masalalar **(4 soat)**.

Arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalar yechish **(A1+: 4 soat)**.

Bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalar yechish **(A1+: 2 soat)**.

Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar yechish **(A1+: 3 soat)**.

Nostandart va qiziqarli masalalar yechish **(A1+: 3 soat)**.

Nazorat ishi (1 soat).

Xatolar ustida ishlash (1 soat).

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi;

murakkab bo'lmagan jadvallar, ustunli, chiziqli va doiraviy diagrammalar ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni o'qiy oladi;

murakkab bo'lmagan tayyor jadvallarni to'ldira oladi, ustunli diagrammalarni tuza oladi;

qiymatiga ko'ra sodda grafik, murakkab bo'lmagan diagramma, jadvallar tuza oladi;

atrof-borliqdagi sodda obyektlarni geometrik figuralar modellari bilan bog'lay oladi, ayrim elementlarini o'lchay oladi va chamalay oladi;

kundalik hayotimiz bilan bog'liq bo'lgan o'quv-amaliy va o'quv-o'rganuvchi masalalarni arifmetik usulda (2-3 amalli) yecha oladi;

masalani tahlil qila oladi, kattaliklar orasidagi munosabatlarni o'rnatadi, masala sharti va savoli orasidagi bog'liqlikni topa oladi, masalani yechish uchun amallar sonini va bajarish tartibini aniqlay oladi, zarur bo'lgan amallarni tanlay oladi va tanlash sababini tushuntira oladi;

masala yechilish yo'lining to'g'riligini va javobning masala savoliga mosligini baholay oladi.

A1+

bo'yashlar, qoplash, qirqishlarga doir sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalarni yecha oladi;

sodda amaliy holatlarda kombinator masalalarini yecha oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlar hosil qila oladi;

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi.

A1+

o'rganilayotgan matematik holatlarni tahlil qila oladi va shu asosida mulohazalar ketma-ketligini tuza oladi va uni baholay oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda nostandart va qiziqarli masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi.

Natural sonlar va kattaliklar haqidagi bilimlarni umumlashtirish va bir tizimga solish (9 soat, A1+: 13 soat)

Yakuniy nazorat ishi (1 soat).

Mavzularni o'rganish uchun - 146 soat (A1+: 210 soat).

Nazorat ishlari uchun - 8 soat (A1+: 8 soat).

Xatolar ustida ishlash uchun - 7 soat (A1+: 7 soat).

Takrorlash uchun - 9 soat (A1+: 13 soat)

Jami - 170 soat (A1+: 238soat).

Boshlang'ich (4-sinf) sinf bitiruvchilarida shakllangan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

matematikaga oid atamalarning ma'nosini tushunib, to'g'ri o'qiy oladi;
so'z va gaplarni bog'lagan holda o'z fikrini aniq va ravshan ifodalay oladi;
fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay oladi;

matematikaga oid audiomatnni tinglab, videotasvirlarni ko'rib tushunadi,
tegishli munosabat bildiradi;

matematik matn ma'nosini qayta so'zlab bera oladi, matematik qoidalarni
yoddan ifodali ayta oladi.

A1+

Mavzuga oid ma'lumotlarni muhokama qilishda o'zaro muloqotga kirisha
oladi, muloqotda muomala madaniyatiga amal qila oladi, matematik masalani
hamkorlikda yechishda jamoada samarali ishlay oladi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

tavsiya etilgan media manbalardan axborotni izlab topa oladi, zarur bo'lsa uni
boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza oladi;

ustunli, chiziqli va doiraviy diagrammalar, jadvallar, chizmalar ko'rinishida
berilgan statistik ma'lumotlarga asoslanib, turli obyekt va hodisalarni taqqoslay
oladi;

axborotlarni statistik ma'lumotlarning ko'rinishlarning bir turidan (ustunli,
chiziqli va doiraviy diagrammalar, jadvallar, chizmalar) boshqa ko'rinishga
o'tkaza oladi;

uchta sonning o'rta arifmetigini topadi.

A1+

mustaqil ravishda turli media manbaalardan axborotni izlab topa oladi,
dastlabki tahlil qila oladi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini (maqsadini) topa oladi va
ifodalay oladi;

o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini qismlarga ajrata oladi;

o'qituvchi bilan birgalikda masala yechimiga yaqinlashish darajasini baholay
oladi va zarur hollarda o'z faoliyatini to'g'rilay oladi;

o'qituvchi bilan birgalikda o'quv faoliyat natijasini tahlil qila oladi;

o'qituvchi bilan birgalikda yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa oladi,
ularni tuzata oladi;

xususiy misollar va kuzatishlar tahlili asosida obyektlar umumiy xossalarini
aniqlay oladi;

mavjud bilim va ko'nikmalarni kundalik vaziyatga qo'llay oladi;

ijtimoiy hayotdagi vaziyatlarga nisbatan o'zining ijobiy estetik-emotsional
munosabatini shakllantira oladi;

o'qishga va yangi bilimlarni egallashga qiziqadi.

A1+

o'zini o'zi ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantira oladi, kamolotga intila oladi, matematikani mustaqil o'qib-o'rgana oladi, o'z xatti-harakatini baholay oladi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

boshqalar fikrini tinglab, tushuna oladi, agar bu fikrni noto'g'ri deb hisoblasa, o'z fikrini himoya qila oladi;

atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariga rioya qila oladi va guruhda ishlay oladi;

muammo va tushunmovchiliklar ro'y bergan paytlarda o'zini tutish to'g'risida to'g'ri qaror qabul qila oladi;

guruhda ishlash paytida turli maxsus rollarni ijro eta oladi.

A1+

umumiy masalani yechish uchun guruh faoliyatini boshqara oladi va guruh a'zolarining fikrlarini jamlab, umumiy fikrni bayon qila oladi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1

kundalik hayotda matematik usullar samarali ekanligini tushuna oladi;

zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz haqida ma'lumot bera oladi.

A1+

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylashda matematikaning o'rni beqiyos ekanligini tushuna oladi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza oladi;

kundalik faoliyatida turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy oladi;

murakkab bo'lmagan hisoblashlarda, o'rganilgan tenglamani yechishda, o'rganilgan turdagi yassi va fazoviy geometrik figuralarni tasvirlashda hisoblash vositalardan va tayyor kompyuter dasturlardan foydalana oladi.

A1+

sodda savdo-sotiq munosabatlarda, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llay oladi;

matematikaga oid yangi bilimlarni izlashda axborot-kommunikatsiya vositalari, internet saytlaridan foydalana oladi.

Boshlang'ich (4-sinf) sinf bitiruvchilarida shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:

Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

o'rganilgan matematik tushunchalarni va qoidalarni tushuntirib bera oladi, tegishli misollar keltira oladi;

berilgan sonlarni va eng sodda kasrlarni o'qiydi, yozadi, taqqoslay oladi, tartibga solib, turli ko'rinishlarda tasvirlay oladi;

sodda sonli ifodaning qiymatini og'zaki va yozma hisoblay oladi;

sodda amaliy, matnli va mantiqiy masalalarni yecha oladi;

tekislik va fazodagi sodda geometrik figuralarni tasavvur qiladi, taniydi va tasvirlay oladi;

obyektlarni xossalari bo'yicha tartiblaydi va sodda kombinatsiyalar tuza oladi;

sodda amaliy holatlarda tayyor jadvallarga ma'lumotlar kirita oladi, eng sodda diagrammalar shaklida tasvirlay oladi.

A1+

arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi;

bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

sodda amaliy vaziyatlarda kombinatorik va mantiqiy masalalarni yecha oladi;

elektron axborot manbalaridan turli ko'rinishdagi sodda matematik ma'lumotlarni izlab topadi, foydalana oladi.

Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasi):

A1

ma'lum matematik faktlar va sodda mantiqiy qonunlar asosida xulosa keltirib chiqara oladi, rost va yolg'on tasdiqlarni farqlay oladi;

zarur hollarda sodda hisoblash vositalarini qo'llay oladi;

o'qituvchi bilan hamkorlikda masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o'z faoliyatini to'g'rilay oladi;

matematikani O'rganish jarayonida O'zida ijobiy hissiyotlarni shakllantira oladi;

mustaqil ravishda o'z bilimlarini mustahkamlay oladi.

o'qituvchi bilan hamkorlikda o'quv va amaliy holatlarda maqsadni ifodalay oladi;

A1+

o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni murakkabroq vaziyatlarda qo'llay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 29 avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi "Umumiy O'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 390-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi to'g'risida" gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 1 iyuldagi "Umumiy o'rta, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to'g'risida" gi 6/2/4/1-sonli qo'shma hay'at majlisi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PP-1875-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy O'rta ta'lim va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy O'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli qarori.
10. Internet saytlari: n.s'ortal.ru/shkola/chemistry, tana.ucoz.ru/load/uroki_matematika, eduscan.allbest.ru/ edagogics, eduscan.net/standart/020200_edagogika.websib.ru/node/29825
11. "Aniq va tabiiy fanlarni O'qitishning zamonaviy metodologiyasi: muammo va yechimlar" mavzusidagi aniq va tabiiy fanlar o'qituvchilari respublika Forumi tavsiyalari, "Ma'rifat" gazetasi 2016 yil 16 dekabrgi 99-soni).
12. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997. 110-136 b.
13. Karimov I. A. "Barkamol avlod orzusi" Toshkent-98 yil [72-74bet.]
14. Karimov I. A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" Toshkent-"O'zbekiston"-2000yil 3-bob
15. Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе/ В.А. Болотов В.В. Сериков//Педагогика.-2003. -№10. - 8-14.
16. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учебное пособие для студентов педвузов и системы

повыш.квалиф. педкадров (Э.С. Полат и др.) М.:Издательский центр Академия”. 2000 год

17. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. Учебное пособие. М., Народное образование, 1998 год.

18. Бокарева Г. Педагогическая, подготовка преподавателей/ Г. Бокарева, Мойсеенко /Высшее образование в России- 2004. - №7. - 154-155.

19. Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе/ В.А. Болотов, В.В. Сериков// Педагогика. - 2003. -№10. - 8-14.

20. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2015 yil 28 iyundagi “Umumta’lim fanlarning o‘qitilishidagi uzviylik va uzliksizlikni ta’minlash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan Boshlang‘ich ta’lim yo‘nflishi bo‘yicha konsepsitasi” №4-sonli hay’at qarori.

21. Keunho Lee. Competency-based curriculum and curriculum autonomy in the Republic of Korea./UNESCO International Bureau of Education. Geneva-2014

22. Mathematics curriculum, Theacher Proffessionalism, and Supporting Policies in Korea and United States/ U.S. National Commision on mathematics. Instruction. Board of International Scientific Organizations. National Academies Press-2015.

23. Jinho Kim. Mathematics Education in Korea: Curricular and Teaching and Learning Practices. World Scientific-2013.

24 Mathematics syllabuses. Cirriculum planning and development division, Singapore Ministry of education. 2015

25. Character and Citizenship Syllabuses. Framework for 21st Century competencies and Student outcomes. Student development cirriculum division, Singapore Ministry of education. 2016 .

26. The National School Cirriculum, Cirriculum and Assesment Guide. CDC-HKEAA Committee. Hong Kong. <http://www.emb.gov.hk/cr>

27. Ginsburg A., Leinwand S., and Decker K., “Informing Grades 1-6 Standards Development: What Can Be Learned from High-Performing Hong Kong, Korea, and Singapore?” American Institutes for Research, 2009.

28. California Common Core State Standards. Mathematics. Electronic Edition. Adopted by the California State Board of Education August 2010 and modified January 2013. ISBN 978-0-8011-1748-8.

29. Щипанова С.А. К вопросу о формировании компетентностей у учащихся общеобразовательной школы в процессе обучения математике // Проблемы и методика преподавания естественнонаучных и математических дисциплин: материалы третьей Всероссийской научно-практической конференции – Екатеринбург, 2007. – С. 239–241.

30. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты // Интернет-журнал «Эйдос». 23 апреля 2002г.

[<http://www.eidos.ru/journal/2002/0423.htm>]

**Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining matematika fani
o'quv dasturlarini tuzuvchi ijodiy guruh**

t/r	FISH	Ish joyi va lavozimi
1	Davletov Davronbek Egamberganovich	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Matematika o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, f.-m.f.n, guruh rahbari
2	Ismailov Shuxrat Noraliyevich	Toshkent Arxitektura va qurilish instituti qoshidagi akademik litsey direktori, fiz.-mat.f.n., dots.
3	Pardayeva Mehriniso Doniyarovna	Respublika ta'lim markazi direktor o'rinbosari
4	O'rinboyeva Lolaxon O'ktamovna	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Matematika o'qitish metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi
5	Burxonov Sattor Asimovich	Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 200-sonli umumta'lim maktabi matematika o'qituvchisi, fiz-mat.f.n.
6	Ten Lyudmila Nikolaevna	Respublika ta'lim markazi Tabiiy va aniq fanlar bo'limi bosh metodisti
7	Xaydarov Bahodir Kayumovich	Toshkent shahar XTXQTMOI katta o'qituvchisi
8	Shoraximov Muratxan Shomaqsudovich	Axborot-metodik ta'minlash xizmati yetakchi metodisti

Ekspert guruhi

1	Aslonova Nilufar Ubaydullayevna	Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 160-sonli umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
2	Omonov Abduqodir Qaxorovich	Toshkent shahar tibbiyot akademiyasi qoshidagi akademik litsey o'qituvchisi, fiz-mat.f.n., dotsent
3	Shaniyazova Mavjuda Murzayevna	Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 300-sonli umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

Tabiiyot va geografiya (Amaliy geografiya) fani
Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida tabiiyot va geografiya, oʻrta maxsus,
kasb-hunar taʼlimi muassasalarida amaliy geografiya oʻquv fanini oʻrganish
bosqichlari

Taʼlim bosqichi	Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumiy oʻrta taʼlim	Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich 4-sinf bitiruvchilari	A1	Tabiiyot fanini oʻrganishning boshlangʻich darajasi
	Tabiiyot fani chuqur oʻrganiladigan ixtisoslashtirilgan umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 4-sinf bitiruvchilari	A1+	Tabiiyot fanini oʻrganishning kuchaytirilgan boshlangʻich darajasi

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida
tabiiyot, geografiya va amaliy geografiya fanini oʻqitishning maqsad va
vazifalari

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimida tabiiyot va geografiya oʻquv fanini oʻqitishning asosiy maqsadi:

oʻquvchilarda tayanch hamda tabiiyot va geografiya oʻquv faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat;

jamiyat va tabiatning oʻzaro bogʻliqligi, geografik obʼektlar, jarayon va hodisalar, Yer yuzining tabiiy manzarasi, tabiatdan oqilona foydalanish, Yer yuzidagi global ekologik muammolar haqida fikr-mulohaza yuritishga oʻrgatish, tabiatni qadrlash va muhofaza qilish, olgan nazariy bilimlarini amalda qoʻllash mahoratini shakllantirish;

oʻquvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirib borib, geografik bilimlarni hayotga tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimida tabiiyot va geografiya fanini oʻqitishning asosiy vazifalari:

oʻquvchilarda atrofimizdagi olamga, oʻz Vataniga muhabbat hissini uygʻotish, tabiatni asrash va muhofaza qilish, nazariy bilimlarini amalda qoʻllash malakalarini shakllantirish, tabiatni kuzatish, tahlil qilish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish hamda ijtimoiy hayot va taʼlim olishni davom ettirishlari uchun zarur boʻlgan bilimlarni egallashi, hozirgi zamon talablari, taʼlim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan tafakkur va bilimlarni egallashi, shu bilan birga ulardan kundalik hayotlarida foydalana olishga oʻrgatishdan iborat.

Tabiiyot va geografiya fanidan umumiy oʻrta va amaliy geografiya fani
boʻyicha oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari bitiruvchilariga
qoʻyiladigan malaka talablari

Tabiiyot va geografiya o'quv fani bo'yicha ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasi hamda ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari:

1. Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:

A1

Quyosh tizimidagi sayyoralarning nomlarini ayta oladi;
Yer yuzidagi tabiiy jarayon va hodisalarni kuzatadi va ayta oladi;
kun va kun, yil fasllari almashinishini kuzatadi va aytib bera oladi;
kundalik hayotda ob-havoning o'zgarishini mahalliy belgilarga qarab aniqlay oladi, termometr yordamida havo haroratini o'lchay oladi;
ufq tomonlarini kompas va mahalliy belgilarga qarab aniqlay oladi;
O'zbekiston Respublikasi va uning viloyatlari tabiati haqida biladi va ayta oladi.

A1+

Yer yuzi tabiatining vaqt davomida o'zgarishi va rivojlanishi haqida biladi va ayta oladi.

2. Geografik ob'ektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi:

A1

O'zi yashaydigan joy (mahalla, qishloq, tuman, shahar) nomlarini biladi, u yerdagi geografik ob'ektlarning (tog', tekislik, suv havzalari va boshqalarning) nomlanishini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri qo'llay oladi;

O'zbekistondagi viloyat va shaharlarning nomlarini ayta oladi va to'g'ri yoza oladi.

A1+

Joy nomlarining o'ziga xos mazmun va tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ayta oladi.

3. Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi:

A1

Globus, dunyoning yarim sharlari xaritasi, O'zbekiston tabiiy va siyosiy xaritalaridan geografik ob'ektlarning joylashgan o'rnini ko'rsata oladi;

O'zbekistonning tabiiy xaritasidan o'zi yashaydigan hududni, mamlakatimizdagi eng baland tog'lar, tekisliklar, daryolar va boshqa geografik ob'ektlarni ko'rsata oladi.

A1+

Globus va geografik xaritalarning masshtablari yordamida geografik ob'ektlarning o'lchamlarini hisoblab chiqara oladi.

4. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi:

A1

O'zi yashaydigan joy tabiati, O'zbekistondagi tabiat boyliklari, diqqatga sazovor tabiat ob'ektlari, ularni muhofaza qilish haqida aytib bera oladi;

tevarak atrofdagi tabiiy muhitni (suv, havo, tuproqni) asrab, ulardan tejamkorlik bilan foydalana oladi.

A1+

Mamlakatimizning cho‘l, vodi-y-voha, adir, tog‘, yaylov mintaqalarida tabiatni muhofaza qilish haqida biladi va aytib bera oladi.

TABIIYOT FANI O‘QUV DASTURI
(1-4-SINF)
UQTIRISH XATI

Tabiiyot va geografiya fanini hozirgi zamon talablari asosida o‘qitishda insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi, ularning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o‘rni, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog‘lashga olib keladigan geografiyaning tadqiqot yutuqlarini ko‘rsatish.

Tabiiyot va geografiya ta’limida o‘rganiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarni o‘quvchilarga tushunarli holda umumiy o‘rta ta’lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e’tiborni o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini va o‘quvchilarning bilim olish va o‘quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o‘zlashtirish imkoniyatiga e’tibor qaratishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’limda tabiiyot va geografiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi - o‘quvchilarda tayanch hamda tabiiyot va geografiya o‘quv faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish;

geografik obyektlar, jarayon va hodisalar, Yer yuzining tabiiy manzarasi, aholisi va uning xo‘jaligi, jamiyat va tabiatning o‘zaro bog‘liqligi, tabiatdan oqilona foydalanish, Yer yuzidagi global muammolar haqida fikr-mulohaza yuritishga o‘rgatish, tabiatni qadrlash va muhofaza qilish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo‘llash mahoratini shakllantirish;

o‘quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirib borib, geografik bilimlarni hayotga tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’limda tabiiyot va geografiya fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

o‘quvchilarda atrofimizdagi olamga, o‘z Vataniga muhabbat hissini uyg‘otish, tabiatni asrash va muhofaza qilish, nazariy bilimlarini amalda qo‘llash malakalarini shakllantirish, tabiatni kuzatish, tahlil qilish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish hamda ijtimoiy hayot va ta’lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallashi, hozirgi zamon talablari, ta’lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan tafakkur va bilimlarni egallashi, shu bilan birga ulardan kundalik hayotlarida foydalana olishga o‘rgatishdan iborat.

Tabiiyot va geografiya o‘quv fanini o‘rganishda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘rganilgan matematika, fizika, botanika, kimyo, iqtisodiy bilim asoslari fanlaridan olingan bilimlar umumlashtirilib, geografiyani o‘rganishning birinchi davri 1- va 2-sinflarda Yer, Quyosh, ob-havo, fasllar, Yer yuzasining tuzilishi, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardagi kishilar hayoti, mehnati haqida, 3-4 sinflarda tabiat, tabiat hodisalari, mamlakatimiz geografiyasi haqida boshlang‘ich ma’lumotlar beriladi. Geografiyani o‘rganishning ikkinchi davri – umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5-9-sinflari bo‘lib, geografiya kurslarida

o'rganilgan o'quv materiallarining akademik litsey va kasb-hunar kollejlari geografiya ta'limida takrorlanmasligi e'tiborga olingan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Tabiiyot va geografiya fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar shakllantirilib boriladi.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda bayon eta olish, darslik, o'quv atlas ma'lumotlardan samarali foydalana olish, guruhlar bilan ishlaganda muomala madaniyatiga amal qilish.

A1+

manbalardan foydalanib, mavzu bo'yicha yozma matn tuza olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

kompyuter, televizor va boshqa manbalardan mavzuga doir zarur ma'lumotlarni izlab topish, ulardan samarali foydalana olish va mediamadaniyatga rioya qilish.

A1+

media vositalardan foydalanib, mavzuga doir didaktik topshiriqlarni bajara oish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

fan to'garagida, uyda rasmlar kitoblari, jurnallardan foydalanib, mustaqil ishlay olish, sportning yoshiga mos turi bilan shug'ullana olish, o'zini tuta olish, o'zining xatosini tushuna olish.

A1+

manbalardan foydalanib, tabiat hodisalariga doir referat tayyorlay olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

farzandlik va o'quvchilik burchini biladi, unga rioya qilish, maktabda, sinfdagi jihozlar, o'quv qurollarini asrab-avaylash.

A1+

tabiiy hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his qilish, sinfda, maktabda, oilada, mahallada o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1

o‘zi yashaydigan joyning maftunkor tabiati, tarixiy obidalarini, dam olish maskanlarini asrab avaylash va ularning qadriga yetish.

A1+

o‘zi yashaydigan joyning maftunkor tabiati, tarixiy obidalariga doir albomlar tayyorlay olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

xarita, globus bilan ishlashda hisoblashning qulay usullarini qo‘llay olish, aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda kundalik faoliyatda zarur bo‘lgan dastlabki rejalarni tuza olish, uyda, maktabda suvni isrof qilmaslik va uni tejab ishlatishga amal qilish.

A1+

uyda, maktabda suvni isrof qilmaslik va uni tejab ishlatishga doir amaliy topshiriqlarni bajara olish.

Tabiiyot va geografiya fanini mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi.

Geografik obyektlar, joy nomlarini to‘g‘ri qo‘llay olish kompetensiyasi.

Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi.

Ushbu fanga oid umumiy kompetensiyalar o‘quv dasturlarining 1-4-sinflarida yil oxirida keltirildi. O‘quv dasturida nazorat ishlari ham berildi. Mazkur nazorat ishlari mavzular kesimida joylashtirilgan.

Me‘yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi:

I. TK-tayanch kompetensiyalar

1. TK1-kommunikativ kompetensiya;
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;
3. TK3-o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
5. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya;
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK1-tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi;
2. FK2- geografik obyektlar, joy nomlarini to‘g‘ri qo‘llay olish kompetensiyasi;

3. FK3-globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi;
4. FK4-tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi.

1-SINF

ATROFIMIZDAGI OLAM

(33 soat haftasiga 1 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

mavzuga oid ma'lumotlarni gapirib berish, tabiat va uning hodisalarini aytib bera olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

turli manbalarning ma'lumotlaridan foydalana olish, o'ziga zarur ma'lumotlarni o'zlashtira olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

kun tartibiga amal qilish, sportning yoshiga mos turi bilan shug'ullanish, maktabda, ko'chada, jamoat transportida yurish qoidalariga roya qilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

sinfda, maktabda, oilada, mahallada o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etishi, o'zaro munosabatlarida muomala madaniyatga ega bo'lishi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

o'zi yashaydigan joy tabiatini bilish; uyi, maktabi, turar joyini qadrlash, milliy bayramlarni bilish va tadbirlarda ishtirok etish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

kun tartibiga amal qilgan holda kundalik ish rejasini tuza olish, maishiy texnika jihozlaridan foydalana olish, ehtiyotkorlik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

1-BOB. ATROFIMIZDAGI OLAM

(5 soat)

1-mavzu. Kirish. Men va atrofimizdagi olam. (1 soat)

Atrofimizdagi olam va uning xilma-xilligi haqida tushuncha berish.
Tevarak-atrof bilan tanishish.

2-mavzu: Bizning maktab. (1 soat)

Maktab binosi va hovlisi, sinfxonalari, kutubxona, oshxona, sport zali va boshqalar haqida ma'lumot berish.

3-mavzu: Bizning sinf. (1 soat)

Sinf xonasi. Partada o'tirish qoidasi. Xonani toza va tartibli saqlash, o'z vaqtida shamollatish.

4-mavzu: Bizning mahalla. (1 soat)

Men yashaydigan manzil. Mahallamiz manzarasi: ko'chalari, uylari, do'kon, bog'cha, maktab, aloqa bo'limi.

5-mavzu: Ko'chada yurish qoidalari. (1 soat)

Uydan maktabgacha yo'l. Ko'chada yurish qoidalari. Piyodalar uchun yo'lak, chorraha, yo'lning o'tish joyi, svetofor. Jamoat transportida yurish qoidasi.

2-BOB. ATROFIMIZDAGI TABIAT

(15 soat)

6-mavzu: Quyosh. Oy. (1 soat)

Quyosh. Oy. Quyosh yorug'ligi va issiqligining atrofimizdagi tabiat va inson uchun ahamiyati.

7- mavzu: Yil fasllari. (1 soat)

Yil fasllari: kuz, qish, bahor, yoz. Yil fasllarining o'ziga xosligi. Ob-havo. Ob-havoning yil fasllarida o'zgarishi.

8-mavzu: Kuzda o'simliklar hayoti. (1 soat)

Kuzda o'simliklar hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar. O'simlik mevalarining pishishi, barglarining sarg'ayishi va to'kilishi.

9-mavzu: Kishilarning kuzdagi mehnati. (1 soat)

Kuz faslida kishilarning mehnati. Dala va bog'larda hosillarning yig'ib-terib olinishi.

10-mavzu: O'simliklar dunyosi. (1 soat)

O'simliklar dunyosi haqida tushuncha. Madaniy va yovvoyi o'simliklar. O'lkamizda o'sadigan o'simliklar, ularning turli fasllarda o'zgarishi.

11-mavzu: O'simlik qismlari va ularning o'sishi. (1 soat)

O'simliklarning asosiy qismlari. O'simliklar tanasi, ildizi, shoxi, guli, mevasi. O'simliklarning o'sishi.

12-mavzu. O'simliklarning turli-tumanligi. (1 soat)

O'simliklarning tashqi tuzilishiga qarab o't o'simliklar, butalar, daraxtlarni ko'rinishidan ajrata olish. Xona o'simliklari.

13-mavzu: Dalalarda yetishtiriladigan ekinlar. (1 soat)

Dalalarimizda yetishtiriladigan ekinlar, ekin turlari, mevalar. Sabzavot va mevalarning vitaminlarga boyligi.

14-mavzu: Xona o'simliklari. (1 soat)

Xona o'simliklarining o'sish sharoiti. Xona o'simliklariga qarashning eng oddiy qoidalari. Xonada o'stiriladigan gullar.

15-mavzu: Hayvonot olami. Uy hayvonlari. (1 soat)

Uy hayvonlari: qoramol, qo'y, echki, ot, it, mushuk. Ularning insonlar uchun ahamiyati. Uy hayvonlarini parvarish qilishning oddiy qoidalari va xavfsizlikka rioya qilish.

16-mavzu: Parrandalar. (1 soat)

Parrandalar: tovuq, kurka, g'oz, o'rdak. Ularning insonlar uchun ahamiyati, parrandalarga g'amxo'r bo'lish, ularni parvarishlash, ehtiyotkorlik va xavfsizlikka rioya qilish.

17-mavzu: Yovvoyi hayvonlar. (1 soat)

Yovvoyi hayvonlar: bo'ri, tulki, ayiq, yo'lbars, sher, ilon, baliq, baqa va boshqalar. Hayvonlarning turli fasllardagi hayoti.

18-mavzu: Qushlar. (1 soat)

Qushlar: qaldirg'och, chumchuq, mayna, qarg'a, bulbul, sa'va, kabutar, musicha, qushlarni qishda ovqatlantirishning ahamiyati.

19-mavzu: Hasharotlar. (1 soat)

Hasharotlar: kapalak, ninachi, pashsha, chivin, chigirtka, xonqizi, ari, asalari, o'rgimchak. Foydali hasharotlar, hasharotlarning keltiradigan zarari.

20-mavzu: Qish fasli. (1 soat)

Qish faslining manzarasi. Havo haroratining pasayishi, qor yog'ishi.

21-mavzu: Suv havzalarining muzlashi. Nazorat ishi. (1 soat)

Suvning muzlash hodisasi. Muzlagan suv havzalari ustida yurishning xavfliligi.

3-BOB. BIZNING O'LKA

(11 soat)

22-mavzu: Bizning o'lka – O'zbekiston. (1 soat)

Bizning o'lka – O'zbekiston. O'lkamiz tabiati: tog'lar, qir-adirlar, tekisliklar, daryolar, ko'llar, ariqlar.

23-mavzu: Suv. (1 soat)

Suvning tirik mavjudot uchun ahamiyati. Suvdan oqilona foydalanish va suvni tejash, suv havzalarini ifloslantirmaslik.

24-mavzu: Salom bahor. (1 soat)

Bahorda tabiat manzarasi. O'lkamizda bahorning o'ziga xos xususiyatlari. Kishilarning bahordagi mehnati. Dalalarga ekinlarning eqilishi.

25-mavzu: Bahorgi tengkunlik - Navro'z bayrami. (1 soat)

Kun va tun. Tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar. Navro'z, uning o'lkamizda umumxalq bayrami ekanligi.

26-mavzu: Men yashaydigan qishloq (shahar) tabiati. (1 soat)

O'zi yashaydigan joy tabiati, tog'lar, qir-adirlar, tekisliklar, daryolar, ko'llar, ariqlar, ichimlik suvlari, suvdan oqilona foydalanish, muhofaza qilish.

27-mavzu: Bizning bog'. (1 soat)

Bog'dagi daraxtlarni parvarish qilish. Ularning gullashi va meva tugishi.

28-mavzu: Biz va tabiat. (1 soat)

Tabiat qo'yniga, maktab bog'iga, maktab yaqinidagi istirohat bog'iga va h.k. sayohat qilish.

29-mavzu: Tabiatni asrash. (1 soat)

Suvni, o'simlik va hayvonlarni, tuproqlarni muhofaza qilish.

30-mavzu: Salom yoz. (1 soat)

Yozda tabiat manzarasi. Yoz faslida tabiatda bo'ladigan hodisa va jarayonlar, ularni kuzatish va tushuntirib berish.

31-mavzu: Yozda kishilar mehnati. (1 soat)

Yozda tabiatda bo'ladigan hodisa va jarayonlar. Kishilarning yozdagi mehnatlari.

32-mavzu: Yozgi ta'tilda tabiat qo'ynida dam olish. Nazorat ishi. (1 soat)

Yozda ta'tilni maroqli o'tkazish. O'zi yashaydigan joy tabiatini muhofaza qilish haqida og'zaki hikoyalar tuzish, o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish, hayot xavfsizligi qoidalariga amal qilish.

33- mavzu: Takrorlash. (1 soat)

Mavzularni o'rganish uchun- 32 soat

Takrorlash uchun – 1soat

**O'quvchilarda shakllangan fanga oid umumiy kompetensiyalar
elementlari:**

Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:

Quyosh va Oyning atrofimizdagi tabiat va inson uchun ahamiyatini tushunadi. Tun va kun, yil fasllari almashinishi kuzatadi;

o'lkamizda, o'zi yashaydigan joyda kuz faslida dala va bog'larda hosillarning yig'ib-terib olinishi, kishilar mehnatini, dala va bog'larda, xonada o'sadigan o'simliklarning fasllarda o'zgarishini, hayvonot olami, uy hayvonlari va parrandalarning fasllarga moslashishini, yashashini kuzatadi va ayta oladi;

o'zi yashaydigan joy tabiati, tog'lar, qir-adirlar, tekisliklar, daryolar, ko'llar, ariqlar, ichimlik suvlari, suvdan oqilona foydalanishga oid ma'lumotlarni tushunadi va aytib bera oladi.

Geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi:

o'zi yashaydigan mamlakat, viloyat, shahar, qishloq, mahallasi nomini va maktabi joylashgan ko'chalarning nomlanishini to'g'ri aytib bera oladi.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi:

maktab, sinfxonalari, kutubxona, maktab bog'i, mahallasi, ko'chasini toza saqlashda olib boriladigan ishlarda o'z hissasini qo'sha oladi; o'zi yashaydigan joy, tuproq, suv manbalaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish borasida olib boriladigan tadbirlarda ishtirok etadi.

2-SINF
ATROFIMIZDAGI OLAM
(34 soat, haftasiga 1 soat, A1+: haftasiga 2 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

mavzuni ravon gapirib berish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish.

A1+

tabiat hodisalariga oid tayanch so'z va atamalarni nomlanishini ma'nosini aytib bera olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: :

A1

televizor, radio va boshqa manbalardan tabiat va undagi hodisalarga oid zarur ma'lumotlardan foydalana olish, o'ziga zarur ma'lumotlarni o'zlashtira olish.

A1+

tabiat va undagi hodisalarga doir kichik albomlar tayyorlash.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

kun tartibiga amal qilish, sportning yoshiga mos turi bilan shug'ullanish; fan to'garaklariga qatnashish, kitoblar, jurnallar yordamida mustaqil o'rganish orqali bilimini oshirib borish.

A1+

o'zining o'quvchilik burchi va vazifalarini bilish, unga rioya qilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

o'zining fuqarolik burch va vazifalarini bilish, unga rioya qilish, maktabda, ko'chada, uyda o'zidan katta va kichiklarga yordam berish.

A1+

tabiatni muhofaza qilishga oid tadbirlarda ishtirok etish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1

o'z o'lkasi, uyi, mahallasi, maktabi, yashash joyini qadrlash; do'stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo'lish.

A1+

orasta kiyinish, sog'lom turmush tarziga amal qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

maishiy texnika jihozlaridan foydalana olish, tejamkorlikka, ehtiyotkorlik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

A1+

maktabda, uyda suv, elektr manbalaridan foydalanishda tejamkor bo'lish.

1-BOB. ATROFIMIZDAGI OLAMNI O'RGANAMIZ

(2 soat, A1+: 4 soat)

1-mavzu: Atrofimizdagi olam. (1 soat, A1+: 2 soat)

Atrofimizdagi olamni o'rganish va uni kuzatish. Tabiatdagi jism va moddalar. Moddalarning uch holati: qattiq, suyuq, gaz.

2-mavzu: Ob-havo, uning belgilari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Havoning ochiq yoki bulutligi, yog'inlar. Termometr. Termometr yordamida havo haroratini o'lchash. Ob-havoni kundalik kuzatish.

2-BOB. ONA ZAMINIMIZ – YER

(7 soat, A1+: 14 soat)

3-mavzu: Yer – sayyora. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yer. Yer sayyorasining tuzilishi. Globus. Globus - Yer sharining kichraytirilgan shakli.

4-mavzu: Yerning harakatlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yerning Quyosh atrofida aylanishi. Oy - Yerning tabiiy yo'ldoshi. Oyni Yerni atrofida aylanishi.

5-mavzu: Vaqt o'lchov birliklari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Vaqt o'lchov birliklari: yil, oy, hafta, sutka, soat, minut, sekund.

6-mavzu: Yer yuzasining tuzilishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yer yuzidagi tog', tekislik va suvliklar.

7-mavzu: O'lkamizdagi tog' va tekisliklar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Tog' va tekisliklarning o'ziga xos tabiati.

8-mavzu: Daryo, ko'l, kanal va ariq suvlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Daryo, ko'l, kanal va ariq suvlari. Suv bor joyda hayot bor.

9-mavzu: Suv havzalarini muhofaza qilish. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Suvdan oqilona foydalanish, tejash va asrash. Suv havzalarini muhofaza qilish.

3-BOB. O'LKAMIZDA KUZ

(9 soat, A1+: 18 soat)

10-mavzu: Yil fasllari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yil fasllari. Fasllarning almashishi. Turli fasllarda quyoshning ko'rinma holatlari.

11-mavzu: Kuz – hosil yig'iladigan fasl.

Paxta – Vatanimiz boyligi. Paxta yig'im-terimi. Kuz noz-ne'matlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

12-mavzu: O'zbekiston bog'lari va dalalarida yetishtiriladigan meva-sabzavotlar. (1 soat, A1+: 2 soat)

O'zbekiston bog'larida, dalalarida yetishtiriladigan meva-sabzavotlar. Hosilni yig'ishtirib olish.

13-mavzu: O'simliklarning qishga tayyorlanishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

O'simliklarda qish fasli yaqinlashishi bilan sodir bo'ladigan o'zgarishlar. Xazonrezgilik.

14-mavzu: Barglardan gerbariy tayyorlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

To'kilgan barglarni yoqib yubormaslik. Uning zararli tomonlari. Atrof-muhitni ifloslantirmaslik.

15-mavzu: Kuzda hayvonlar va hasharotlar hayoti. (1 soat, A1+: 2 soat)

Kuzda hayvonlar va hasharotlar hayotidagi o'zgarishlar. Foydali va zararli hasharotlar. Chumolilarning hayoti.

16-mavzu: O'lkamizda uchraydigan qushlar. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

O'lkamizda uchraydigan qushlar va ularning tabiiy sharoitga moslashuvchanligi. Hasharotxo'r, donxo'r, yirtqich (go'shtxo'r), hammaxo'r qushlar. Qushlarning boshqa o'lkalarga uchib ketishi va boshqa o'lkalardan uchib kelishi.

17-mavzu: Ijtimoiy foydali mehnat. (1 soat, A1+: 2 soat)

Maktab hovlisi va sinfxonasini ozoda tutish. Maktab yer uchastkasidagi ekin va daraxtlarni parvarish qilishda ishtirok etish.

18-mavzu: Kasblar olami. (1 soat, A1+: 2 soat)

Ishlab chiqarish jarayoni haqida umumiy tushuncha, misollar (masalan, bug'doy donidan tayyor nongacha amalga oshiriladigan jarayonlar).

**4-BOB. QISH
(3 soat, A1+: 6 soat)**

19-mavzu: Kumush qish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Qishdagi ob-havo. Qish manzarasi.

20-mavzu: Kishilarning qishdagi mehnati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Issiq xonalarda ko'chat tayyorlash, meva yetishtirish. Dalalarni bahorgi ekish mavsumiga tayyorlash.

21-mavzu: Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarning qishdagi hayoti (1 soat, A1+: 2 soat)

Biz va hayvonot olami. Fermalarda chorva mollarini parvarish qilish. Yovvoyi hayvonlarning qishdagi hayoti. O'lkamizda qishlaydigan qushlar.

**5-BOB. O'LKAMIZDA BAHOR
(12 soat, A1+: 24 soat)**

22-mavzu: O'lkamizda bahor (1 soat, A1+: 2 soat)

Bahor fasli. Navro'z – yangi kun. Sumalak – Navro'z taomi. Navro'z sayllari.

23-mavzu: Bahorda o'simliklar hayoti. (1 soat, A1+: 2 soat)

Erta bahorda ochiladigan gullar. Daraxtlarning kurtaklashi va gullashi.

24-mavzu: O'simliklarni ko'paytirish. (1 soat, A1+: 2 soat)

O'simliklarning urug'dan, ildiz mevasi (piyozi)dan, novdasidan ko'payishi.

25-mavzu: Bahorda kishilar mehnati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bahorda kishilarning o'ziga xos mehnatlari. Dalalarda ekin maydonlarini tayyorlash va urug'larni ekish.

26-mavzu: Ko'chatlarni o'tqazish va ularni parvarish qilish.

Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bog'larda mevali daraxt ko'chatlarini, gullarni o'tqazish va ularni parvarish qilish.

27-mavzu: Bahorda hasharotlar hayoti. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bahorda hasharotlarning uyg'onishi va hayot kechirishi.

28-mavzu: O'lkamiz qushlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bahorda o'lkamizga qushlarning qaytib kelishi. Qushlarning ahamiyati, ularni muhofaza qilish.

29-mavzu: Uy hayvonlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Uy hayvonlari va ularning ahamiyati.

30-mavzu: Yovvoyi hayvonlar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yovvoyi hayvonlar va ularning tabiatdagi o'rni.

31-mavzu: Tabiat va inson. (1 soat, A1+: 2 soat)

Insonning tabiatdan foydalanishi va unga ta'siri. Tabiatni muhofaza qilish.

32-mavzu: Shaharlar va qishloqlar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Shahar va qishloqlar, ular orasidagi farq. Bizning uyimiz, uy manzilini yozish qoidalari.

33-mavzu: O'lkamizda yoz. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yoz – o'tadi soz. Yozda tabiatga sayohat. Tabiat qo'ynida o'zini tutish qoidalari.

34-mavzu: O'quv yili davomida o'tilganlarni takrorlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Mavzularni o'rganish uchun- 33 soat (A1+: 66 soat)

Takrorlash uchun – 1 soat (A1+: 2 soat)

O'quvchilarda shakllangan fanga oid umumiy kompetensiyalar elementlari:

Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:

A1

tabiatda bo'ladigan jarayonlarni, haroratning tun va kunduzi farq qilishini kuzatadi va ayta oladi; tog' va tekisliklarning tabiati o'ziga xosligini, xazonrezgilik jarayonini kuzatadi va gerbariy tayyorlay oladi; o'lkamizda uchraydigan hayvonlar va hasharotlar hayoti, qushlarning kuzdagi hayotini kuzatadi; qish faslidagi ob-havo, kishilarning qishdagi mehnati, issiqxonalarda ko'chatlarni parvarishlash va

yetishtirish haqidagi ma'lumotlarni tushunadi va aytib bera oladi. Bahorgi mehnat, dalalarda ekin ekish ishlarini kuzatadi va tushunadi.

A1+

kuzgi xazonrezgilik davrida atrof-mufitni toza saqlashda, bahorda maktabga, mahallasiga, o'z hovlisiga ko'chat va gullarni ekish ishlarini bajarish.

Geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi:

A1

Yer yuzidagi va o'zi yashaydigan joy, undagi tog'lar, tekisliklar hamda suv havzalarini nomlarini to'g'ri qo'llay oladi.

A1+

o'zi yashaydigan joyning (shahar, qishloq) nomlarini ayta oladi va to'g'ri yoza oladi.

Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi:

A1

O'zbekistonning tabiiy va siyosiy ma'muriy xaritasidan o'zi yashaydigan vatanni, hududni aniqlab, ko'rsata oladi.

A1+

O'zbekistonning tabiiy va siyosiy ma'muriy xaritasidan o'z hududiga chegaradosh davlatlarni topib ko'rsata oladi.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi:

A1

o'zi yashaydigan joyda suv havzalari, o'simlik, hayvonat olamini muhofaza qilishga doir o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etadi, qushlarga g'amxo'rlik qiladi.

A1+

foydali hasharotlarni asrash va ko'paytirish, zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashish tadbirlarida ishtirok eta oladi.

3-SINF

TABIATSHUNOSLIK

(34 soat, haftasiga 1 soat, A1+: 68 soat, haftasiga 2 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

muloqotga kirishish uchun zarur bo'ladigan og'zaki nutqni o'zlashtirish, jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalariga oid tayanch so'z va atamalarning ma'nosini aytib bera olish.

A1+

mavzuga doir tayanch so'z va atamalarni xorijiy tilda ayta olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

mavzuga doir ma'lumotlarni kompyuter va boshqa manbalardan izlab topib, ulardan samarali foydalana olish.

A1+

manbalar asosida mavzuga doir kichik referatlar tayyorlash.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

manbalar asosida mavzuga doir kichik referatlar tayyorlash.

dunyoqarash va tafakkurini mustaqil ravishda o'stirib borish, atrofidagi tabiat manzaralarini estetik his etish, sportning yoshiga mos turi bilan shug'ullanish, o'zini tuta olish, to'g'riso'z bo'lish, o'zining xatosini tushunish.

A1+

maktabda tabiatni muhofaza qilishga doir tadbirlarda ishtirok etish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish; farzandlik va o'quvchilik burchini bilish, unga rioya qilish, sinfdagi jihozlar, o'quv qurollarini asrab-avaylash.

A1+

o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish, Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli bo'lib ulg'ayib borish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1

o'zi yashaydigan o'lkani tabiati, tarixiy obidalari haqida bilish; uyi, maktabi, turar joyini qadrlash; do'stlari, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo'lish.

A1+

o'zi yashaydigan joyning tabiiy boyliklari haqida kichik referatlar tayyorlay olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

tabiiy boyliklarni, suvni isrof qilmaslik va tejamkorlikning ma'nosini tushunish, unga amal qilish, jihozlardan foydalana olish, ehtiyotkorlik va xavfsizlik qoidalariga rioya etish.

A1+

o'z ehtiyoji uchun kerak bo'lgan narsalardan (suv, yoqilg'i boyliklari) tejab foydalanish; bir kunlik xarajatlarini hisoblashni bilish.

KIRISH

(1 soat, A1+: 1 soat)

1-mavzu: Tabiatshunoslik nimani o'rganadi? (1 soat, A1+: 1 soat)
Tabiatning tarkibiy qismlari. Jonli va jonsiz tabiat. Tabiat hodisalari.

1-BOB. TABIATDA SUV VA HAVO

(6 soat, A1+: 12 soat)

2-mavzu: Yer usti va yer osti suvlari. (1 soat, A1+: 2 soat)
Okean va dengizlar. Daryo va ko'llar. Muzliklar. Yer osti suvlari.

3-mavzu: Suv – hayot manbai. (1 soat, A1+: 2 soat)
Suvning ahamiyati. Suvning xususiyatlari. Suvning uch holati.

4-mavzu: Suvni muhofaza qilish va tejash. (1 soat, A1+: 2 soat)
Oqar suvlar. Toza va chuchuk suvlar. Suvlarning ifloslanishi. Ichimlik suvlari. Suvlarni tejash va muhofaza qilish.

5-mavzu: Tabiatda havo. (1 soat, A1+: 2 soat)
Havo nima? Havoning ahamiyati. Havo harorati.

6-mavzu: Ob-havo. (1 soat, A1+: 2 soat)
Ob-havo. Ob-havoning mahalliy belgilari. Shamolning paydo bo'lishi.

7-mavzu: Yog'inlar. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)
Yog'inlar, ularning turlari. Tabiatda suvning aylanishi.

2-BOB. YER OSTI BOYLIKLARI

(5 soat, A1+: 12 soat)

8-mavzu: Foydali qazilmalar qayerdan olinadi? (1 soat, A1+: 2 soat)
Foydali qazilma haqida tushuncha. Foydali qazilmalar qanday hosil bo'ladi? Ular qayerlardan qazib olinadi?

9-mavzu: Yoqilg'i sifatida foydalaniladigan qazilmalar. (1 soat (A1+: 3 soat))
Ko'mir, neft, tabiiy gaz, ulardan olinadigan mahsulotlar.

10-mavzu: Qora va rangli metallar. (1 soat, A1+: 2 soat)
Qora metallar. Temirtosh rudalari: magnitli, qo'ng'ir, qizil temirtosh. Ulardan temir eritib olish. Rangli metallar: oltin, mis, aluminiy. Ulardan yasalgan buyumlar.

11-mavzu: Qurilishda foydalaniladigan qazilma boyliklar. (1 soat, A1+: 2 soat)
Marmar. Granit. Ohaktosh. Qum va gil. Ularning ishlatilishi.

12-mavzu: Foydali qazilmalardan oqilona foydalanish. Nazorat ishi. (1 soat (A1+: 3 soat))
Foydali qazilmalarni nima uchun tejash kerak? Foydali qazilmalardan oqilona foydalanish va ularni tejash.

3-BOB. TUPROQ **(2 soat, A1+: 4 soat)**

13-mavzu: Tuproq, uning tuzilishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Tuproqning tarkibi va tuzilishi. Undagi jonzorlar. Tabiatdagi qattiq jismlarning parchalanishi, tuproqning hosil bo'lishi.

14-mavzu: Tuproqning unumdorligi va ahamiyati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Tuproq unumdorligi. Tuproqning inson uchun ahamiyati. Tuproq - Ona zamin. Uning inson uchun ahamiyati, tuproqni muhofaza qilish.

4-BOB. O'SIMLIK DUNYOSI **(8 soat, A1+: 14 soat)**

15-mavzu: Tabiiy o'simliklar. (1 soat, A1+: 2 soat)

O'tlar, butalar, daraxtlar. O'simliklarning nafas olishi va oziqlanishi, ularning rivojlanishi.

16-mavzu: Madaniy o'simliklar. (1 soat, A1+: 2 soat)

G'oz, bug'doy, sholi va makkajo'xori, ularni parvarish qilish va hosilini yig'ish. Foydali va zararli o'simliklar.

17-mavzu: Kartoshka. Sabzavotlar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Kartoshka. Sabzavotlar: piyoz, sabzi, karam va pomidor. Qulupnay. Ular parvarish qilish va hosilini yig'ish.

18-mavzu: Begona o'simliklar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Begona o'simliklar haqida tushuncha. Zarpechak, g'umay, machin, salomalaykum. Ekin maydonlari begona o'tlardan tozalash.

19-mavzu: Poliz ekinlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Poliz ekinlari: tarvuz, qovun, pomidor, bodring va qovoq, ularni parvarish qilish. Mevali daraxtlar. Mevali butalar. Tok.

20-mavzu: Manzarali o'simliklar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Manzarali o'simliklar. Manzarali daraxt va butalar, ularni ko'paytirish va parvarish qilish. Gullar, ularni ko'paytirish va parvarish qilish. Maktab gulzorida gullarni ekish va parvarish qilish.

21-mavzu: Dorivor o'simliklar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Dorivor o'simliklar haqida tushuncha. Yalpiz, jag'jag', isiriq, kashnich, maymunjon, na'matak. Ularning shifobaxshlik xususiyatlari.

22-mavzu: Tut daraxti. Ipak qurti. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Tut daraxti. Bargi va mevasi. Tutzorlar. Ipak qurti. Pilla. Ipak qurti kapalaklari.

5-BOB. HAYVONOT DUNYOSI **(5 soat, A1+: 10 soat)**

23-mavzu: Hayvonot olami va uning xilma-xilligi. Yovvoyi hayvonlar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yirtqich hayvonlar: sher, yo‘lbars, ayiq, bo‘ri, ularning hayoti. O‘txo‘r hayvonlar: fil, jirafa, ularning hayot kechirishi.

24-mavzu: Hasharotlar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Hasharotlar. Zararkunanda hasharotlar: kolorado qo‘ng‘izi, karam kapalagi, chigirtka. Mart qo‘ng‘izi, uning hayoti. Foydali hasharotlar: asalari, xonqizi qo‘ng‘izi, ipak qurti, chumoli, o‘rgimchak.

25-mavzu: Qushlar va uy parrandalari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Qushlarning tabiatdagi ahamiyati. Hasharotxo‘r qushlar: chittak, jibljibon, chug‘urchuq, sassiqpopishak, kakkuqush, so‘fito‘rg‘ay. Uy parrandalari: tovuq, o‘rdak, g‘oz, kurka, ularni parvarish qilish.

26-mavzu: Uy hayvonlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Uy hayvonlari nima uchun boqiladi? Qoramollar, qo‘ylar, otlar, ularni parvarish qilish.

27-mavzu: Suvda yashaydigan hayvonlar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Suvda yashaydigan hayvonlar: baliqlar, delfinlar, kitlar, baqa va qurbaqa. Ozuqa zanjiri.

6-BOB. TABIAT VA INSON SALOMATLIGI (3 soat, A1+: 6 soat)

28-mavzu: Odamning tuzilishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Odam tanasi. Teri, uning ahamiyati va gigiyenasi, mayda yaralarni davolash. Skelet, uning vazifalari. Gavdani tik tutish, to‘g‘ri o‘tirish, jismoniy mehnat va sportning inson salomatligi uchun ahamiyati. Yurak va uning vazifasi. Tanada qonning harakati.

29-mavzu: Odam miyasi. Ovqat qanday hazm qilinadi? (1 soat, A1+: 2 soat)

Bosh miya, orqa miya, nerv tolalari. Og‘iz, qizilo‘ngach, oshqozon, ichak, jigar, buyrak.

30-mavzu: Sog‘lom bo‘lay desangiz. (1 soat, A1+: 2 soat)

Qanday nafas olamiz? O‘pka va uning vazifasi. Chekishning salomatlikka ta’siri. Spirtli ichimliklarning va giyohvand moddalarning odam organizmiga ta’siri.

7-BOB. TABIATNI MUHOFAZA QILISH (3 soat, A1+: 7 soat)

31-mavzu: Tabiat va inson. (1 soat, A1+: 2 soat)

Insonning tabiatga ta’siri (ijobiy va salbiy), tabiatni muhofaza qilish tadbirlari.

32-mavzu: Tabiat muhofazasi. Nazorat ishi. (1 soat (A1+: 3 soat)

“O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi”. “Qizil kitob”ga kiritilgan o‘simliklar va hayvonlar, ularni asrash.

33-mavzu: Ekologik xavfsizlik. (1 soat, A1+: 2 soat)

Ekologik xavfsizlik, ifloslangan havo va suvdan himoyalash, oddiy filtrlar.

34-mavzu: Takrorlash. (1 soat, A1+:1 soat)

Mavzularni o'rganish uchun- (33 soat, A1+: 66 soat)

Takrorlash uchun – (1 soat, A1+: 2 soat)

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar:

Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:

A1

jonli va jonsiz tabiat, atrofimizdagi tabiatning tarkibiy qismlari va tabiat hodisalarini, suvning uch holatini va tabiatda aylanib yurishini kuzatadi va suvning tirik organizmlar va insonlar uchun ahamiyatini aytib bera oladi. Ob-havodagi o'zgarishlarni kuzata oladi, uni mahalliy belgilarga qarab aniqlay oladi; yog'in turlarini aytib bera oladi. Foydali qazilmalar qayerdan qazib olinishini, yoqilg'i sifatida foydalaniladigan qazilmalarni, temir va rangli metallar eritib olinishini, qurilishda foydalaniladigan qazilma boyliklarni, ularning ishlatilishini

hayotda kuzatadi va tushunadi. O'z o'lkasining tabiati va tarixiy yodgorliklari haqida aytib bera oladi.

A1+

maktabda, to'garakda jonli burchak tashkil etishda faol ishtirok eta oladi.

Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi:

A1

globus va xaritalardan tog'lar, tekisliklar, okeanlar, dengizlar, daryo va ko'llarni ko'rsata oladi.

A1+

O'zbekistondagi tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalar va qadimgi yodgorliklar joylashgan hududlarni xaritalardan ko'rsata oladi.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi:

A1

havoni ifloslantirish inson sog'ligi uchun zararli ekanligini anglaydi, foydali qazilmalarni tejab, isrof qilmasdan foydalanish kerakligini tushunadi, o'zi yashaydigan joyda tuproqni muhofaza qilish, uni o'g'itlab, minerallar bilan boyitish tadbirlarida ishtirok eta oladi.

A1+

insonning tabiatga ta'siri, tabiatni muhofaza qilish mavzularida o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok eta oladi.

4-SINF

TABIATSHUNOSLIK

(34 soat, haftasiga 1 soat, A1+: 68 soat haftasiga 2 soat)

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

mustaqil fikrini og‘zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, darslikdan foydalanib, mavzu bo‘yicha yozma matn tuza olish; darslik, o‘quv atlas ma’lumotlardan samarali foydalanish; muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda ijodiy tarzda ishlay olish.

A1+

atama va tayanch so‘zlarni xorijiy tilda aytish va yoza olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: :

A1

kompyuter, televizor va boshqa manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, ulardan samarali foydalana olish.

A1+

manbalar asosida mavzuga doir kichik referatlar tayyorlash.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

fan to‘garagida mustaqil o‘rganish orqali bilimni oshirib borish, sportning yoshiga mos turi bilan shug‘ullanish, o‘zini tuta olish, to‘g‘riso‘z bo‘lish, o‘zining xatosini tushunish, atrofidagi tabiat manzaralarini estetik his etish.

A1+

maktabda, fan to‘garaklarida tabiatni muhofaza qilishga doir tadbirlarda ishtirok etish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

farzandlik, o‘quvchilik burchini bilish, unga rioya qilish, sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrash.

A1+

o‘zidan kattalarga, o‘rtoqlariga va o‘zidan kichiklarga yordam berish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1

o‘zi yashaydigan joyning maftunkor tabiati, tarixiy obidalarini, dam olish maskanlarini asrash va qadriga yetish.

A1+

o‘zi yashaydigan joyning maftunkor tabiati, tarixiy obidalari haqida kichik referatlar tayyorlay olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

xarita, globus bilan ishlashda hisoblashning qulay usullarini qo'llay olish, aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda kundalik faoliyatda zarur bo'lgan dastlabki rejalarni tuza olish, suvni isrof qilmaslik va tejamkorlikning ma'nosini tushunish, unga amal qilish.

A1+

suvni isrof qilmaslik va tejamkorlikka doir masalalarni yecha olish.

1-mavzu: Kirish. O'lkamiz tabiati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Jonajon o'lkamiz tabiati. Yozgi kuzatishlar. O'simlik va hayvonlar hayotidagi yozgi o'zgarishlar.

1-BOB. YER – QUYOSH SISTEMASIDAGI SAYYORA (6 soat, A1+: 12 soat)

2-mavzu: Yulduzlar. Quyosh. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yulduzli osmon. Quyosh – eng yaqin yulduz. Quyosh – Yerdagi hayot manbai.

3-4-mavzu: Sayyoralar. (2 soat, A1+: 3 soat)

Quyosh sistemasi. Sayyoralar. Kichik sayyoralar: Merkuriy, Venera, Yer, Mars.

Katta sayyoralar: Yupiter, Saturn, Uran, Neptun.

5-mavzu: Quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari: kometalar, asteroidlar, meteorlar, meteoritlar. Kosmonavtikaning qisqacha tarixi, amaliy vazifalari.

6-mavzu: Oy – Yerning tabiiy yo'ldoshi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Oyning shakli va o'lchamlari. Oyning harorati. Oyning harakati. Hilol oy, yarim oy, to'lin oy. Oyning yorug' va qorong'i tomonlari.

7-mavzu: Yer shari. Globus. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yerning shakli, o'lchamlari. Globus – Yer sharining modeli. Shimoliy va janubiy qutblar, ekvator. Beruniy globusi.

8-mavzu: Kun va tun. Yil fasllari. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yer yuzining Quyosh nuri bilan yoritilishi hamda isitilishi. Uning Yerdagi hayot uchun ahamiyati. Kun va tunning almashinishi. Yil fasllarining almashinishi.

2-BOB. YER YUZASI TABIATINING XILMA-XILLIGI (15 soat, A1+: 30 soat)

9-mavzu: Ufq va uning tomonlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Ufq, uning asosiy tomonlari. Kompas. Mahalliy belgilarga qarab ufq tomonlarini aniqlash.

10-mavzu: Yer yuzasining asosiy shakllari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yer yuzasining asosiy shakllari: togʻ va tekisliklar. Materiklar va okeanlar.

11-mavzu: Yer osti boyliklari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Foydali qazilmalar, yonuvchi, rudali, noruda foydali qazilmalar. Respublikamizda qazib olinadigan asosiy foydali qazilmalar. Yer osti boyliklarini tejash.

12-mavzu: Xaritalar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yarimsharlar tabiiy xaritasi. Masshtab. Xaritalarning xilma-xilligi. Tabiiy xaritalardagi shartli belgilar.

13-mavzu: Oʻzbekiston Respublikasining tabiiy xaritasi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Oʻzbekistondagi asosiy togʻlar, tekisliklar, vodiylar va ularning tabiiy xaritadagi tasviri.

14-15-mavzu: Suv havzalari. (2 soat, A1+: 4 soat)

Suv havzalari. Daryolar, kanallar. Oʻzbekistondagi yirik daryolar va kanallar, ularning suvlaridan foydalanish.

Koʻllar, suv omborlari. Oʻzbekistondagi yirik koʻllar va suv omborlari. Oʻzbekistonda suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish.

16-mavzu: Oʻsimlik va hayvonot olami. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Oʻsimlik va hayvonot olamining evolyusiyasi, paleontologiya haqida dastlabki maʼlumotlar, oʻsimlik va hayvonlarni muhofaza qilish.

17-mavzu: Tabiat zonalari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Tabiat zonalari haqida dastlabki tushuncha, turli tabiat zonalaridagi oʻsimlik va hayvonot olami, aholining turmush tarzi.

18-mavzu: Choʻllar va vohalar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Choʻl va voha tushunchalari. Oʻzbekiston hududidagi choʻllar. Choʻllardagi oʻsimlik va hayvonot dunyosi. Respublikamiz choʻllarining oʻzlashtirilishi. Choʻl va vohalarda aholining turmushi.

19-mavzu: Oʻzbekiston adirlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Oʻlkamizdagi adirlar. Adirlardagi oʻsimlik va hayvonot dunyosi, tabiatidan foydalanish.

20-mavzu: Oʻlkamiz togʻlari tabiati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Oʻlkamiz togʻlari tabiati. Togʻlardagi oʻsimlik va hayvonot dunyosi. Togʻ tabiatini muhofaza qilish. Togʻlarda aholining yashashi va mehnat faoliyati.

21-mavzu: Oʻrmonlar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Oʻrmon tushunchasi. Oʻlkamizdagi oʻrmonlar. Oʻrmonlardagi oʻsimlik va hayvonot dunyosi. Oʻrmon tabiatini asrash.

22-mavzu: Oʻzbekistondagi tabiat boyliklari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Insonning tabiatga taʼsiri. Oʻzbekistondagi oʻziga xos tabiat boyliklari, diqqatga sazovor tabiat obyektlari, ularni muhofaza qilish. Alohida muhofaza etiladigan hududlar.

23-mavzu: Oʻzbekiston qoʻriqxonalari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Qo'riqxona haqida tushuncha. O'zbekiston qo'riqxonalari: Chotqol, Zomin, Nurota, Surxon, Hisor, Kitob, Zarafshon, Qizilqum davlat qo'riqxonalari va Quyi Amudaryo rezervati.

3-BOB. VATANIMIZ BO'YLAB SAYOHAT **(11 soat, A1+: 22 soat)**

24-mavzu: Vatanimiz xaritasi yonida. (1 soat, A1+: 2 soat)

O'zbekistonning ma'muriy xaritasi. Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning xaritadagi o'рни.

25-mavzu: Toshkent shahri va viloyati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Toshkent shahri va viloyatining egallagan maydoni, tabiati, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish.

26-mavzu: Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlari. Nazorat ishi.

(1 soat, A1+: 2soat)

Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlarining egallagan maydoni, tabiati, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish.

27-28-mavzu: Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlari. (2 soat, A1+: 4 soat)

Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarining egallagan maydoni, tabiati, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish.

29-mavzu: Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining egallagan maydoni, tabiati, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish.

30-mavzu: Buxoro va Navoiy viloyatlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Buxoro va Navoiy viloyatlarining egallagan maydoni, tabiati, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish.

31-mavzu: Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati (1 soat, A1+: 2 soat)

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining egallagan maydoni, tabiati, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish.

32-mavzu: O'zbekiston tabiatini muhofaza qilish. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 3 soat)

O'zbekiston tabiatini muhofaza qilish. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi.

33-mavzu: O'zbekistondagi tabiat yodgorliklari va tarixiy obidalar. (1 soat, A1+: 2 soat)

O'zbekistondagi tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalar va qadimgi yodgorliklar, ularni asrash.

34-mavzu: Takrorlash. (1 soat, A1+: 1 soat)

Mavzularni o'rganish uchun- (33 soat, A1+: 67 soat)

Takrorlash uchun – (1soat, A1+: 2 soat)

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:

Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:

A1

Osmon gumbazida yulduzlarning o'rnini o'zgarishini, Quyoshning "chiqishi" va "botishi"ni, Yer yuzidagi tabiiy jarayon va hodisalarga Quyoshning ta'sirini kuzatadi va tushunadi; ufq tomonlarni kompas va mahalliy belgilarga qarab aniqlay oladi; daryo, ko'l, kanal suvlarining yil fasllari davomida o'zgarishini kuzatadi; Respublikamizda qazib olinadigan asosiy foydali qazilmalar, tabiat zonalaridagi o'simlik va hayvonot olamiga doir ma'lumotlarni tushunadi va ayta oladi. O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish hamda tarixiy shaharlar va qadimiy obidalarni asrash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni kuzatadi va tushunadi.

A1+

suv omborlarini qurish va ulardan qanday maqsadda foydalanishni tushunadi va ayta oladi.

Geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi:

A1

Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlaridagi joy va geografik obyekt nomlarini to'g'ri qo'llay oladi.

A1+

o'zi yashaydigan hudud joy nomlarini (shahar, tuman, mahalla) to'g'ri ayta oladi.

Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi:

A1

Yer yuzasidagi materik va okeanlar, tog' va tekisliklarni, O'zbekiston Respublikasining tabiiy xaritasidan tog'lar, tekisliklar, suv havzalarini aniqlab, ko'rsata oladi. O'zbekistonning ma'muriy xaritasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning joylashgan o'rnini, tarixiy shaharlarini xaritadan aniqlab ko'rsata oladi.

A1+

xaritalardan foydalanib, o'zi yashaydigan hudud (shahar, viloyat)ga tavsif bera oladi.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi:.

A1

o'zi yashaydigan joyda suv havzalarini tozalash va suvni tejash tadbirlarida ishtirok eta oladi, ichimlik suvlarini ifloslantirish sog'lik uchun zararli ekanligini anglaydi. O'zi yashaydigan joyda o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilishda o'z hissasini qo'sha oladi.

A1+

maktabda o'z o'lkasining noyob tabiat obyektlarini muhofaza qilish va tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish mavzusida o'tkaziladigan tadbirlarida ishtirok eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi PF-3431.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirli va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 1 iyuldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to'g'risida" gi 6/2/4/1-sonli qo'shma hay'at majlisi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 140-sonli qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2015 yil 28 iyundagi "Umumta'lim fanlarning o'qitilishidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan Tabiiyot va geografiya fani yo'nalishi bo'yicha konsepsiyasi" 4- sonli hay'at qarori.
11. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.;1998.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T. "O'zbekiston";1999.
13. Федеральный государственный образовательный стандарт основного общего образования. Утвержденный приказом Министерства образования и науки Российской Федерации от 17 декабря 2010 г. № 1897.
14. Physical Education Model Content Standards for California Public Schools. Kindergarten Through Grade Twelve. Adopted by the California State Board of Education January 2005.
15. Об утверждении государственных общеобязательных стандартов образования соответствующих уровней образования. Постановление Правительства Республики Казахстан от 23 августа 2012 года № 1080. Материалы интернета.

16. Приказ Министерства образования и науки Российской Федерации (Министерства образования и науки России) от 17 мая 2012 г. N 413 г. Москва. «Об утверждении федерального государственного образовательного стандарта среднего (полного) общего образования».

Umumiy o'rta ta'limning Tabiiyot va geografiya, amaliy geografiya fanidan o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha ijodiy guruhi

T/r	Ismi va familiyasi	Ish joyi va lavozimi
1.	Alimqulov Nusrat Raxmonqulovich	Nizomiy nomidagi TDPU Geografiya o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, g.f.n., dotsent, guruh rahbari.
2.	Mirakmalov Mirali Turanboyevich	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Geologiya va geografiya fakulteti geografiya kafedrası dotsenti.
3.	Sharipov Shavkat Muxamajanovich	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Geologiya va geografiya fakulteti, geografiya kafedrası dotsenti.
4.	Musayev Jahongir Payozovich	O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi Axborot metodik ta'minlash xizmati o'quv adabiyotlarini yangi avlodini ishlab chiqish bo'limi boshlig'i, g.f.n., dotsent.
5.	Norboyev Abduraxmon G'aybullayevich	Qori Niyoziy nomli O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti ilmiy xodimi.
6.	Nazaraliyeva Esongul Yangiboyevna	Respublika Ta'lim markazi geografiya fani bosh metodisti
7.	Fedorko Viktor Nikolayevich	Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 233-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining geografiya fani o'qituvchisi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU "Geografiya" kafedrası mustaqil-izlanuvchisi.
8.	Avezov Muxriddin Maqsud o'g'li	Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 278-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining geografiya fani o'qituvchisi
9	Xo'jayeva Muxarram Idrisovna	Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi 142-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ekspert guruhi

1.	Safarova Nasiba Ironqulovna	Nizomiy nomidagi TDPU Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti.
2.	Xolmurodov Shakarbek Abdug'aniyevich	Nizomiy nomidagi TDPU Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi.
3.	Umarova Gavhar Abdullayevna	Toshkent Islom Universiteti qoshidagi akademik litseyning geografiya fani o'qituvchisi.